

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

O‘rayeva D., Otajonova M.,
Nurullayeva S.

Mif va badiiy ijod

200 000 – San’at va gumanitar fanlar sohasi, 230 000 Tillar ta’lim
sohasi hamda 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
bakalavrlari uchun
o‘quv qo‘llanma

FAN ZIYOSI nashriyoti

2024

KBK: 87.8(50'zb)

UO'S: 712.635.724.24

O'rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. O'quv qo'llanma. – Fan Ziyosi nashriyoti, 2024. – 208 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada mif inson dunyoqarashining ilk badiiy shakli, so'z san'atining boshlang'ich namunasi ekani, mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o'tish bosqichlari o'zbek folklori janrlari misolida asoslanib, mifning mumtoz va zamonaviy nasr va she'riyatdagi poetik talqin xususiyatlari, bunda shoir va yozuvchilarning badiiy mahorati yoritilgan.

“O'zbek mifologiyasi” bo'yicha yaratilgan ushbu o'quv qo'llanma filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavrlari uchun tavsiya qilinadi. Shu bilan birga, undan adabiyotshunoslik bilan shug'ullanuvchi tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilar, o'qituvchilar foydalanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

filologiya fanlari doktori, professor D.H. Quvvatova

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor S.R. Mirzayeva

filologiya fanlari doktori, professor D.Z. Rajabov

© **ISBN978-9910-746-35-2N**

© **FAN ZIYOSI-2024**

© **Muxammad To'ra xususiy korxonasi**

© **D.O'rayeva, M.Otajonova,
Nurullayeva S., 2024**

KIRISH

Bo'lajak filolog-mutaxassislariga mif, mifonim, mifik va mifologik obrazlar, mifologizm, mifologizatsiya kabi atamalar mohiyatini tushuntirish, mif va badiiy ijod bilan bog'liq tushunchalar haqida ma'lumotlar yetkazish, buni aniq bir davrda yaratilgan badiiy asarlar tahlillari orqali, o'sha davr adabiyotining taraqqiyot tamoyillaridan kelib chiqib o'rgatish zarur hisoblanadi.

Hozirda bakalavriat ta'lim bosqichining 1- va 2-kurs talabalari uchun o'qitilishi rejalashtirilgan "O'zbek mifologiyasi" fani tarkibi o'quv dasturida "Mifologik tafakkurdan badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayoni", "Mif, din va adabiyot", "Mif va mumtoz hamda zamonaviy adabiyot" kabi mavzular belgilanganki, ularni o'qitishda yozma adabiyotda, uning mumtoz va zamonaviy bosqichlarida yaratilgan badiiy matnlarni tahlil va talqin qilish kerak bo'ladi. Chunki bu bo'lajak adabiyotshunosning badiiy asarga yondashuv uslubini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fan asoslarini o'zlashtirish "Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti" ekanligi bilan belgilanadi.

Ushbu fanni o'qitishning maqsadi – xalq badiiy tafakkuri taraqqiyoti, folklor va adabiyotning paydo bo'lishi, rivojlanishida zamin vazifasini o'tagan mifologik tafakkur xususiyatlarini, uning badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayonlari o'ziga xos ravishda kechganligini talabalarga o'rgatishdan iborat.

"O'zbek mifologiyasi" fani ushbu jarayonlarni o'rganish asosida xalq badiiy tafakkuri rivoji bosqichlarini o'rganadi va tushuntiradi. Xalqimizning dunyo tamaddunidagi o'rnini uning boy mifologik qarashlari tizimi, obrazlari, syujet tiplari, yetakchi motivlarini ko'rsatish orqali namoyon etadi. Bugungi folklor janrlari genezisi va badiiyatida miflarning o'rni va xizmatini aniqlaydi. Zamonaviy san'at va adabiyotda mifologik syujet va obrazlarning yangi talqinlari paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishning vazifalarini "O'zbek mifologiyasi" fanining manbaalarini jamlash, ilmiy tadqiq etish va talabalarga yetkazish; o'zbek mifologiyasining obrazlar tizimini yaxlit holda ko'rsatish; o'zbek folklori ibtidosida turgan mifologik tasavvur va obrazlar, syujet tiplari va motivlardan shoir va yozuvchilarning foydalanib kelganini asoslash, mifologik bilimlar va badiiy kodlarning ramziy-timsoliy ma'nolarini talabalar ongiga singdirish, mifologik tafakkurning obrazli bilim ekanligini yetkazish; nasr va she'riyatda mifologik syujet, obraz va unsurlarning badiiy-estetik sathda namoyon bo'lish yo'llarini ko'rsatish kabilar tashkil qiladi. Shulardan kelib chiqib, mazkur o'quv qo'llanma,

avvalo, “O‘zbek mifologiyasi” fani bo‘yicha talabalarda o‘zbek mifologiyasini yozma adabiyot rivoji bilan bog‘liqlikda tadqiq etishning yetakchi tamoyil va usullari haqida atroflicha bilim hosil qilish ko‘zda tutildi. Shuningdek, talabalarining o‘zbek mifologiyasi va yozma adabiyot materiallarini turli nazariy qarash va metodlarga suyangan holda qiyosiy tadqiq etish va ularni baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga erishish maqsad qilindi.

Mazkur fan folklorshunoslik, adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti tarixi, estetika, milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, san’at sotsiologiyasi, psixologiya, falsafa, tilshunoslik fanlari bilan o‘zaro o‘rganadigan muammolarining umumiyligi bilan bog‘lanadi.

Havola etilayotgan ushbu o‘quv qo‘llanma bayon etilgan fikr va mulohazalarni filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavrlariga yetkazish maqsadida oliy ta’lim talabalari uchun tayyorlangan.

O‘quv qo‘llanma, asosan, ushbu fan bo‘yicha tahsil beradigan professor-o‘qituvchilar hamda bakalavr talabalar uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga, undan adabiyotshunoslik va folklorshunoslik bilan shug‘ullanuvchi tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilar, o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

O‘quv qo‘llanmaning “Mif va u bilan bog‘liq atamalar mohiyati”, “Mifologik tafakkurdan badiiy-estetik tafakkurga o‘tish jarayoni”, “Mif va folklor janrlari” qismlarni filologiya fanlari doktori, professor D.S. O‘rayeva, “Mif va uning yozma adabiyotda tutgan o‘rni” qismi filologiya fanlari nomzodi M.Otajonova, “Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metaforizatsiyasi” qismi S.Nurullayeva tomonidan yozildi.

MIF VA U BILAN BOG'LIQ ATAMALAR MOHIYATI

Reja:

1. "Mif" atamasining ma'nolari. Mif haqida umumiy tushuncha.
2. Mifologema nima?
3. Mifonim, mifologizm, mifologizatsiya tushunchalarining ma'no-mazmuni.
4. Mifologiya – miflar haqidagi fan.
5. Mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o'tish bosqichlari folklor janrlari misolida.

Mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Hali o'zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o'z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan.

Ma'lumki, qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g'oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz o'zini o'rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekan, butun borliqni borlig'icha qabul qilgan. Moddiy olamdagi voqelikni idrok etishda obrazlilik va poetik ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi bo'lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lishi, muayyan tabiiy hodisalarning ro'y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e'tiqodiy qarashlar asosida dastlabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib chiqqan. Mif – qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir.

Mifologik tasavvurlar olamning yaratilishi, o'simlik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo'lishini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida baholangan. M.I.Steblyn-Kamenskiyning ta'kidlashicha, "mif – bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin,

yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilingan. Albatta, mifni o'rganadigan tadqiqotchi undagi uydirmaga ishonmaydi. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida anglashilmaydi. Shu tariqa tadqiqotchining mif haqidagi o'z tasavvuri, ya'ni "mif – uydirmadir" degan qarashi yuzaga keladi. Yaratilgan va ommalashgan joyida mif aslida real voqelik ifodasi deb tushunilgan".¹

Miflar og`zaki hikoya qilishga, gapirib berishga, bayon etishga mo`ljallanganligi sababli og`zaki nasr namunalari qatoriga kiritiladi. Ularda muayyan bir qisqa syujet bayon etiladi, mo`jizaviy voqelik tafsili ustunlik qiladi. Xalq prozasining badiiy shakl tiplaridan biri bo`lgan miflar "asotirlar" nomi bilan ham yuritiladi. "Mif" so`zi aslida grekcha "mythos – so`z, rivoyat" so`zidan olingan.

O`tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi tasavvurlarini o`zida jamlagan, uning dunyoqarashini ifodalagan va avloddan-avlodga etkazishga mo`ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo`lib, asosan jonli og`zaki ijro orqali, ya'ni so`z vositasida hikoya qilib berilgan. Ya'ni mif – afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilgan.

Mifologik tasavvurlar ibtidoiy udum va marosimlarda ritual o`yinlar sifatida namoyish qilingan. Qadimgi tasavvurlar asosida yaratilgan osori atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi va amaliy san`ati asarlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Ma'lumki, jahon folklorshunosligida og`zaki nasriy asarlar mif, afsona, rivoyat, latifa va ertak janrlariga bo`lib tasniflanadi. L.M.Zemlyanovanning qayd qilishicha, amerikalik olimlar tabiiy hodisalar mohiyatini tushuntirish maqsadida aytilgan hikoyalarni mif, muayyan kishilar hayotida yoki aniq makonda ro'y bergan voqea-hodisalarning bayonidan iborat bo`lgan nasriy asarlarni afsona deb hisoblaydilar. Syujeti uydirma asosiga qurilgan hikoyalar esa ertak janriga kiritiladi.<sup>2</sup> Aytuvchi va tinglovchining hikoya qilinayoggan voqeaga munosabati og`zaki nasriy asarlarning janr mansubiyatini belgilashda muhim o`rin tutadi. Mif naqliy-ma'rifiy nasr janrlaridan biri hisoblanadi.

Mif tinglovchiga u yoki bu narsa-hodisa, mifologik qahramonlar, qadimgi diniy e'tiqodlar to'g'risida ma'lumot berish maqsadida aytiladi.

Turkiy folklorshunoslikda miflarning xalq og`zaki ijodi namunasi sifatida tasniflanishi masalasida turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, K.Imomov mif va og`zaki hikoya janrlarini epik turning naqliy asarlari sirasiga kiritgan bo'lsa,³ T.Mirzayev va O.Safarovlar mifni "folklorning

¹ Стеблин-Каменский М.И. Миф. – Л: Наука, 1976. – С.4-5.

² Землянова Л.М. Проблемы специфики жанров в современной фольклористики США // Специфика фольклорных жанров. – М.,1973. – С.276.

³ Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.7.

eng qadimiy janrlari”dan biri, deb hisoblaydilar.⁴ A.Baymiradov ham turkman folklorida mif janri mavjudligini qayd qilgan. S.Qasqabasov esa qozoq folklori og`zaki nasrining ertakdak boshqa janrlari sirasiga “qoldiq holda saqlanib qolgan mif janri”ni ham kiritgan.<sup>5</sup> Mifologiya xalq nasri tizimida tutgan o`rnini o`rgangan M.Jo`rayev esa mif, afsona, rivoyat va og`zaki hikoya janrlarini o`zbek folklorining ma`rifiy nasrga mansub janrlari tarzida tasniflagan.<sup>6</sup> Mifni folklor janri emas deb hisoblaydigan olimlar esa mif badiiy ijod namunasi emas, balki olam haqidagi qadimgi tasavvurlar yig`indisidir, degan nazariyaga asoslanadilar.

Mif – olam haqidagi qadimgi odamning ilk tasavvurlari bo`lsa-da, u nima bilandir ifodalangan, so`z vositasida bayon qilingan bo`lishi kerak. Ana shu tarzda so`z bilan bayon qilingan ifodalangan tasavvurlar, qadimgi odamning olam haqidagi inonch-e`tiqodlarini o`zida aks ettirgan, jamlagan, boshqalarga namoyish etilgan yoki hikoya qilib berilgan axborot mifdir. Mifologik tasavvurlar xalq udumlarida e`tiqodiy inonch tarzida, qadimgi san`at asarlaridagi ramziy chizgilarda ifodalangan tasviriy ko`rinishdan tashkari og`zaki hikoya, afsona yoki rivoyatga o`xshab jonli ijro orqali aytib ham berilgan. Zero, professor B.Sarimsoqov to`g`ri qayd qilganidek, variatlilik, og`zakilik, anonimlik kabi folklor asarlariga xos xususiyatlar mifda ham mavjud bo`ladi.<sup>7</sup> Demak, mif o`zbek xalq nasrining qadimiy janrlaridan biridir.

Miflar, avvalo, qadimiyligi bilan diqqatni tortadi. Eng qadimgi davr folklorida ibtidoiy tasavvurlar asosida yaratilgan miflar xalq og`zaki poetik ijodining ilk mahsulidir. Aniqrog`i, xalq epik ijodining ilk namunalari bo`lgan miflar ta`sirida keyinchalik afsona, ertak, qo`shiq, topishmoq, doston singari boshqa janrlar shakllangan.

Miflar folkloridagi dastlabki ijod namunalari bo`lgani uchun juda sodda shaklda, qisqa hajmda yaratilgan. Ularda ibtidoiy insonlarning borliq, olam jumboqlari, tabiat va koinot sirlarini bilishga intilishi, bu boradagi ilk tasavvurlari va xulosalari, xudolar, pahlavonlar, o`simliklar va hayvonlar olami, ayrim narsalarning paydo bo`lishi haqidagi qarashlari o`z ifodasini topgan. Miflarda olam va uning yaralishi, boshqarilishi haqidagi ilk tushunchalar xayoliy uydirma orqali bayon etilgan. Real voqea-hodisalarning qanday yuz berishini hali tushunib etmagan, ongi juda past bo`lgan ibtidoiy inson ularni tangri-ma`budlar haqidagi qarashlari, tasavvur-tushunchalari asosida talqin qilgan. Shu tariqa miflar og`zaki ijod mahsuliga aylangan. Ular tarkibidagi epik motivlar og`izdan-og`izga ko`chib, yangi-yangi miflar yuzaga kelishiga

⁴ Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.90.

⁵ Баймырадов А. Туркмен фольклор прозасынинг тарихы эволюциясы. – Ашхабад: Ўлым, 1982. – Б.33.

⁶ Каскабасов С. Казахская несказочная проза. – Алмата: Наука, 1990. – С.74-110.

⁷ Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.103.

zamin yaratgan. Bora-bora ular afsona, ertak, doston singari janrlar syujetidan ham o'rin olgan.

Mavzu doirasi, asosan, olamning, osmon jismlarining, odamning yaralishi, tabiat hodisalarining qanday yuz berishi, ularning tangrilar tomonidan boshqarilishi izohidan iborat bo'lgan miflarda turli ma'budlar obrazining keltirilishi, samo yoritgichlari hamda tabiatdagi stixiyali kuchlarning jonlantirilishi tufayli muayyan darajada badiiylik borligidan nishona beradi. Shu ma'noda ular xalq og'zaki poetik ijodi janrlaridan biri hisoblanishiga asos bo'ladi. Miflarda talqin va tasvir fantastika, xayoliy uydirma, badiiy to'qimaga asoslanadi. Lekin ularda badiiy to'qima ongsiz kechgan.

Miflar vaqt belgisi jihatidan hamisha olis o'tmishga borib taqaladi. Ularda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra faqat o'tmishga daxldordir. Mifda bayon qilinayotgan voqeaning nihoyatda qadimiy o'tmishda bo'lib o'tganligiga alohida urg'u beriladi. Miflar tuzilishining juda soddaligi, voqelikni oddiy bayon qilishi, odatda, syujetining konflikt asosiga qurilishi, mantiqan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni tasvirlashi, ezgulik g'alabasini tarannum etishi bilan xarakterlanadi. Makon belgisiga ko'ra esa jahondagi eng qadimgi insonlar yashagan manzillar bilan tutashadi. Maishiy-funkstional qamrovi ibtidoiy insonning olamni bilishga bo'lgan ijtimoiy-ruhiy ehtiyoji, intilishi bilan belgilanadi.

M.I.Steblin – Kamenskiy mif tabiatini izohlar ekan: “Mif – bu voqelik bo'lib, u qanchalik haqiqatga zid bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyda ayni haqiqat deb qabul qilindi”,– deydi. Haqiqatan ham, ibtidoiy inson mifdagi voqelikni inkor etib bo'lmas haqiqat sifatida qabul qilgan. Ularga nisbatan mana shu ishonch, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelishiga sabab bo'lgan.

Mif – insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichiga xos so'z san'atining boshlang'ich namunasi. U behad qadimiy so'z san'ati bo'lib, o'zida juda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan, tevarak-atrofdagi yuz berayotgan voqeliklar mohiyatini ilg'amagan davrlarda paydo bo'lgan. Ibtidoiy insonlar zamonidagi turish-turmush, dunyoqarash va e'tiqodiy tushunchalarni o'z mazmuniga singdirgan.

Miflar ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning ilk asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi edi. Barcha folklor janrlari singari miflarda ham so'z etakchi o'rinni egallaydi. Mifning ijodkori – xalq. Faqat unda ibtidoiy insonlarninggina bilimi, ruhiy kechinma va tushunchalari aks etadi. Ijod qilinish jarayoni g'ayrihuuriy holda kechgan. Anonim ijodkorning o'zi tushunmagan hodisani talqin etish, uni bilishga va tushunishga intilish istagi asosida g'ayriixtiyoriy tarzda ijod qilingan miflarda eng qadimgi folklor xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Miflar qat'iy kompozistiyaga ega emas. Shuningdek, ular professional ijrochilikka asoslanmaydi. Uni bilgan kishi o'zi istagan shaklda zarur o'rinda aytaveradi. Mana shuning uchun miflar keng ommalashmagan va ommaviy ijro etiluvchi janr emas.

Miflar axborot beruvchilik vazifasini bajaradi. Ular ko'pincha biror voqea-hodisaning kelib chiqishiga (masalan, quyoshning paydo bo'lishiga) kishilarni ishontirish maqsadida aytiladi. Shuning uchun uning bayon qilinishida aytuvchining pafosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Epik tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan qaraganda, folklordagi barcha janrlardan oldin, ayniqsa, afsonalardan oldingi stadial bosqich sifatida shakllanganligi ta'kidlanadi. Buni ularda faqat xalqimizning eng qadimgi mifologik tasavvurlari talqin etilgani, tarkibida inson personaj mutlaqo ishtirok etmagani, voqelik mifologik obrazlar orqali yoritilgani bemalol asoslaydi.

O'zbek miflari syujet tarkibini turkiy va boshqa xalqlar mifologiyasi bilan bog'liq ko'plab qadimiy motivlar tashkil etadi. Shunga ko'ra, ularning mazmun-mundariyasi rang-baranglik kasb etadi. Deyarli barcha miflarning syujeti bir yoki ikki epizoddan iborat bo'ladi. Syujet voqealari ko'pincha tugundan boshlanadi. Miflar, asosan, eng qadimgi davr folklorining ilk bosqichida yaratilgan. Shuning uchun ular qadimgi davr folklori tizimidan o'rin egallagan.

Jahon xalqlari folklorida miflar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, jahon antik adabiyotini o'rganishda mifologiya muhim vosita vazifasini o'taydi. Negaki, antik adabiyot mifologiya asosida yuzaga kelgan. Shuni e'tiborga olib, rus adibi M.Gorkiy "adabiyotning boshi – folklor", "mifologiya xalq badiiy faoliyatining alohida badiiy ustqurmasi" ekanini alohida ta'kidlaydi.

Mif yaxlit janr sifatida og'zaki ijodga mansub nasriy asarlar tizimida to'liq holda saqlanib qolmagan. Faqat epos, ertak, afsona, qo'shiq, topishmoq, marosim folklori, irim-sirimlar va turli ishonchlar bilan bog'liq aytimlar tarkibida ayrim mifologik syujet elementlari uchraydi, xolos. Ana shu mif qoldiqlarini, mifonim va mifologemalarni o'rganish uchun muhim zamin vazifasini o'taydi.

G'arb va Sharqning o'z mifologiyasi bo'lsa-da, ular bir-biridan keskin farq qilmaydi. Hatto grek mifologiyasi bilan Markaziy Osiyo xalqlarining islomga qadar bo'lgan miflari o'rtasida o'xshashliklar borligi aniqlangan.

Umuman, har ikki mintaqada folklori va adabiyoti uchun mushtarak hodisa bu mifologiya, asotirlar zaminida badiiy adabiyot namunalarining yaratilganligidir. Bir so'z bilan aytganda, miflar qadim adabiyotning shakllanishi uchun katta zamin bo'lgan.

Ko'p xudolilik talqini asosida yaratilgan yunon mifologiyasida Uran ilk xudo, Geya undan keyingisi sifatida tasvirlanadi. Ularning

birlashuvidan Kron, Okean, Reyler tugʻiladi. Kron bilan Peya birlashuvidan yana boshqa xudo avlodlari yuzaga keladi. Zevs ulardan biri boʻlib, katta boʻlgach, otasini taxtdan tushiradi va uning taxtini egallaydi. Olimp togʻida yashovchi xudolarning Xudosi boʻlib olgan Zevs oʻz hukmronligiga qarshi chiqqan xudolarni ayovsiz jazolaydi. Hokimiyatni qattiq qoʻllik bilan boshqaradi. Tabiatning Chaqmoq, Bulut kabi hodisalarini boshqargan osmon ilohi Zevs dunyoda tartib oʻrnatishga uringan. U titanlar oʻrniga Zevs saltanatini bunyod qilgan.

Yunon miflarida erda dastlab dahshatli mahluqlar: devlar, oyoqlari oʻrnida bahaybat ilonlar bilanglab turgan gigantlar, kattaligi togʻday yuz-qoʻlliklar, peshonasi oʻrtasida bittagina chaqchaygan koʻzi bor vahshiy kiklop (stiklop)lar, er va osmonning dahshatli bolalari – qudratli titanlar yashagani hikoya qilinadi. Yunonlar gigantlar va titanlar obrazida tabiatning yovuz kuchlarini gavdalantirganlar.

Antik adabiyotda miloddan ilgarigi XII asrda soʻqir ijodkor Gomer tomonidan yaratilgan «Iliada» va «Odisseya» dostonlarida mifik obrazlar silsilasi alohida oʻrin tutadi.

Folklorshunos B.Sarimsoqov oʻzbek mifologiyasi taraqqiyotini uch bosqichga – arxaik, mumtoz va oʻrta asrlarga xos miflarga boʻlinadi, deb hisoblaydi. Uning koʻrsatishicha, arxaik miflarda xaos bilan kosmos oʻrtasidagi kurash keng miqyosda aks etadi va koʻproq animistik, totemistik tasavvurlar bu kurashda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Shuningdek, ularda yana hech qanday diniy qarashlar unsuri uchramaydi. Mumtoz miflarda esa xaos bilan kosmos kurashining miqyosi biroz toraygan boʻladi. Politeistik diniy qarashlar (koʻp xudolilik tasavvuri) ustunlik qiladi. Zardushtiylik davri mifologiyasi bunga misol boʻladi. Oʻrta asrlar miflarining semantik asosini monoteistik diniy qarashlar tashkil etadi.

Turkiy xalqlar mifologik tizimining tarkibiy qismi boʻlgan oʻzbek mifologiyasining taraqqiyoti qadimgi ajdodlarimizning totemistik, animistik, dualistik va magik inonchlari; ibtidoiy odamlar turmushida ritual-ramziy ahamiyat kasb etgan marosimlar; Oʻrta Osiyoda yashagan qadimgi qavmlar dunyoqarashida alohida oʻrin tutgan otashparastlik aqidalari; oʻlkamizda shakllangan qadimgi dehqonchilik madaniyati anʼanalari bilan bogʻliq hosildorlik kultlari; islom dini taʼlimoti va u orqali Oʻrta Osiyoga kirib kelgan Sharq, xususan, arab folklori anʼanalari; moʻgʻul va buryat, chin va hind, eron va yunon mifologiyasining ijodiy taʼsiri bilan bevosita aloqadordir. Shunga koʻra, oʻzbek miflarining yuzaga kelishi va shakllanish jarayoni quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

I) Oʻrol-oltoy qabilalarining mifologik tasavvurlari. II. Qadimgi turkiy qavmlar mifologiyasi. III. Zardoʻshtiylik bilan bogʻliq mifologik tasavvurlar. IV. Arab-islom mifologiyasi anʼanalari.

O'zbek folklorida saqlanib qolgan arxaik miflarning asosiy qismi qadimgi turkiy mifologiyaning epik diffuziyasi natijasida etib kelgan. Qadimgi turkiy qabilalar og'zaki ijodiyotida olamni mifologik anglash asosida yaratilgan kosmogonik, totemistik, animistik, etiologik va etnogenetik miflar asosiy o'rinni egallagan.

O'zbek mifologiyasining tarixiy asoslari ajdodlarimiz o'tmishining eng quyi bosqichlariga mansub e'tiqodiy qarashlarga borib taqaladi. Mifologik inonchlarning ilk qatlami qadim zamonlarda yashagan bobolarimizning totemistik, animistik va dualistik tasavvurlari, magik inonchlar asosida kelib chiqqan e'tiqodlari, shuningdek, tabiatni asotiriy anglash va hosildorlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimgi kultlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Qadimgi miflarning asrlar davomidagi tadrijiy takomili natijasida ezgulik va yovuzlik kurashini aks ettiruvchi dualistik miflar, olamning yaratilishi va intihosi haqidagi xalq qarashlarini o'zida ifoda etgan kosmogonik miflar, osmon yoritqichlari to'g'risidagi astral miflar, vaqt hisobi amallarining paydo bo'lishi haqida bahs yurituvchi taqvimiy asotirlar, urug'-qabilalarning kelib chiqishini izohlashga bag'ishlangan etnogenetik miflar, g'ayrioddiy qahramonlarning sarguzashtlarini bayon etuvchi antropogenik miflar tizimi shakllangan.⁸

O'zbek mifologiyasining arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimiy e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiy o'zgarishlarning metaforik-ramziy talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qadim Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo'lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, tabiat va jamiyat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz hamda tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Umuman aytganda, qadimgi turkiy miflarni olamning yaratilishi va tuzilishi, samoviy halokat yoki olamning intihosi, tangri va ilohiy kuchlar haqidagi miflar turkumi tashkil etadi.

O'zbek mifologiyasining taraqqiyoti qadimgi ajdodlarimizning totemistik, animistik, dualistik, magik ishonchlari; ibtidoiy odamlar turmushida ritual-ramziy ahamiyat kasb etgan marosimlar; O'rta

⁸Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.22-48.

Osiyoda yashagan qadimgi qavmlar dunyoqarashida alohida o'rin tutgan otashparastlik aqidalari; qadimgi dehqonchilik madaniyati an'analari bilan bog'liq hosildorlik kultlari; islom dini ta'limoti va u orqali O'rta Osiyoga kirib kelgan Sharq, xususan, arab folklori an'analari; mo'g'ul, buryat, chin va hind, eron, yunon mifologiyasining ijodiy ta'siri bilan bevosita bog'liqdir.

Mumtoz miflar tarkibiga ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan dualistik miflar, kult miflari (suv, olov, osmon jismlari, o'simliklar, jonivorlar, hosildorlik kultlari bilan aloqador tasavvurlar asosida shakllangan), o'lib-qayta tiriluvchi qahramonlar (Siyovush bilan bog'liq) haqidagi miflar; samoviy (oy, quyosh, yulduzlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalar haqidagi) miflar; taqvimiy miflar, ya'ni yilboshi Navro'z bilan bog'liq udumlar, vaqt hisobi omillari haqidagi asotiriy ishonchlar; antropogenik miflar yoki odamzotning yaratilishi (Qayumars, Gavomard, Jamshid) to'g'risidagi miflar kiradi.

Hamma davrlarda miflarni o'rganishga qiziqish katta bo'lgan. Mif falsafa, din tarixi bilan ham bog'liq bo'lib, bu uning ko'p qirraliligi barobarida ko'p vazifaliligini namoyon etadi. Miflar turli fanlar kesimida o'rganilib kelinmoqda. Ammo **“mifologiya”** nomi bilan miflarni o'rganuvchi maxsus fan sohasi paydo bo'lgan va taraqqiy topib kelayotir. Bu fan ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishining natijasi sifatida vujudga kelgan.

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning qadimiy vositalaridan biri, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblanadi. Mifologiyaning asosini qadimgi odamning koinot, tabiat, inson, osmon jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi miflar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimgi e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati shakllangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy inonchlardangina iborat bo'lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Ogning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy shakllari mifologiya bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ibtidoiy dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimgi diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda tushunchalari, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so'z san'ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga qamrab olgan. U qadimgi odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o'zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning etakchi g'oyasi bo'lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois, mifologiya folklor, yozma adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun zamin vazifasini o'tagan.

Ezgulik kuchlarining xaos(zulmat)ni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o'zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so'z san'atining turli janrlariga singib ketgan. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'plab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar "Avesto", "Iliada", "Ramayana", "Shohnoma", "Kalevala", "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi buyuk badiiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o'rin tutgan.

Qadimgi mifologik tasavvurlar va asotiriy syujetlar badiiy tafakkurning shakllanishi hamda taraqqiyotida o'ziga xos sarchashma vazifasini o'taganligi uchun ham xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlarida mifologik negizga ega bo'lgan ko'plab asotiriy personajlar uchraydi. Mifologik tasavvurlar asosida kelib chiqqan bunday obrazlar xalq xayoloti va voqelikni fantastik talqin qilish an'anasining mevasidir. Mifik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelik mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chirganligi uchun ham uning shakli tajassumi hisoblanadi.

Mifologiya muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmuidir. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, arab mifologiyasi, o'zbek mifologiyasi kabi.

Mif va mifologiya haqidagi dastlabki ilmiy talqinlar jahon madaniyati tarixining antik davridayoq yuzaga kela boshlagan edi.⁹ Xususan, Pifagor ta'limotiga ko'ra, mif - tabiatni falsafiy-allegorik anglash ifodasidir. Miloddan avvalgi III asrda yashagan yunon faylasufi

⁹ Мелетинский Е.М. Мифология // Мифы народов мира. Т.1. – М., 1982. – 16-17.

Evgemer mifologik personajlarni o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarning ilohiylashtirilgan obrazi, deb hisoblagan. Platon esa mifni voqelikning falsafiy-ramziy talini, deb baholagan.

XI asrda yashagan buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida mif tushunchasi "sav" so'zi bilan ifodalangan. Bu so'z qadimgi turkiylar tilida "xabar", "maqol", "qissa", "hikoya", "so'z", "nutq" ma'nolarini anglatgan ("Devon", I, 122; III, 168).

XVII-XVIII asrlarda mifologik tasavvurlarni ilmiy talqin qilish an'anasi yuzaga keldi. Franstuz ma'rifatparvarlaridan biri, faylasuf B.Fontenel (1657-1757) miflarni qadimgi odam tafakkurining mahsuli sifatida baholadi va insoniyat taraqqiyotining "bolalik davri"ga xos bo'lgan miflarni tahlil qilishga tarixiy nuqtai nazardan yondashdi. Mifologiyani tadqiq etishda birinchi marta «qiyosiy metod»ni qo'llagan B.Fontenel antik miflarni qadimgi hind asotirlari bilan qiyoslab o'rganish asnosida jahonning turli xalqlari miflari orasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqladi.

Mif mohiyatini oydinlashtirishda XVIII asrda yashagan italiyalik olim J.Viko(1668-1744)ning miflarni "poetik nutq"ning arxaik shakli sifatida talqin qilishga asoslangan nazariyasi, shuningdek, uning "ibtidoiy ideologiya sinkretizmi", "mifning poetik tabiati", "mif – magik poeziya ekanligi" haqidagi ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning yozishicha, insoniyat o'z taraqqiyotining eng quyi qatlamida fikrni imo-ishoralar, belgi-ifodalar va ramzlar vositasida bayon qilgan. Bu "til" shakli o'z mohiyatiga ko'ra metaforik, ya'ni «poetik nutq» tabiatiga ega bo'lgan. Mifni talqin qilishning bu o'ziga xos nazariyasi keyinchalik mifshunos M.Myuller tomonidan ilgari surilgan "miflarni lingvistik talqin qilish konstepstiyasi"ga asos bo'ldi.

XIX asrda yashab, ijod qilgan nemis olimlari I.G.Gerder (1744-1803), A.B.Shlegel (1767-1845) va F.Shlegel (1772-1929) asarlarida mifologiya "qadimgi ajdodlar tomonidan yaratilgan poetik qadriyat", "diniy e'tiqodning ilk shakli", "qadimgi odamlarning borliqni ramz va timsollar vositasida anglashining natijasi" tarzida talqin qilingan. Nemis faylasufi I.G.Gerder miflarda ham muayyan darajadagi "badiiylik va milliy o'ziga xoslik" mavjudligini qayd qilgan bo'lsa, F.Shlegel "mif tili", ya'ni «ramz va timsollar nazariyasi»ni ilgari surgan. Uning "mifologiyani insoniyat ruhiyatining tub-tubidan, eng chuqur qatlamlaridan chiqarib olmoq kerak, ana shunda u har qanday san'at asaridan go'zalroq ekanligiga amin bo'lasiz. Chunki san'atning barcha turlarini o'zida mujassam etgan mif she'riyatning ilk sarchashmasidir",¹⁰ - degan so'zlari qadimgi miflarning sinkretik xarakteri va badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rnini baholashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

¹⁰Коккьяра Дж. История фольклористики в Европе. – М: Изд-во иностранной литературы, 1960. – С.212-213.

Mifni “har qanday san’atning ilk manbai” sifatida talqin qilish romantizm davrining yirik faylasufi F.Shelling (XIX asr) estetikasining ham asosini tashkil etgan. O’zining “San’at falsafasi” nomli asarida mifologiyani “estetik fenomen” sifatida tahlil qilgan F.Shelling ta’limoticha, mif – tabiat hodisalarini xayoliy uydirma, fantaziya va ramzlar vositasida “anglash” mahsulidir.

Vilgelm Grimm va Yakov Grimmning folkloristik tadqiqotlarida xalq og`zaki badiiy ijodiyotining qadimiy asoslari, ayniqsa, mifologiya masalalari muhim o`rin tutgan. 1835 yilda Ya.Grimmning “Nemis mifologiyasi” nomli asari bosilib chiqdi. “Edda” va “Nibelungi” eposlari tahliliga bag`ishlangan bu kitobda muallif o`rta asr solnomalari hamda avliyolarning manoqiblari, ko`hna tasavvur va e`tiqodlarning folklor asarlarida, xalq urf-odatlar va marosimlari, rasm-rusum va odatlarida saqlanib qolgan qoldiq holdagi ko`rinishlarini qiyosiy tahlil qilish orqali qadimgi german miflarining ildizlarini aniqlashga harakat qilgan. Ya.Grimm mifologik tasavvurlarning maqol, matal, qo`shiq, topishmoq, afsona kabi janrlarda saqlanib qolgan izlari qadimgi germanlarning tasavvurlari va e`tiqodiy qarashlari tizimi qanday bo`lganligini aniqlashda o`ziga xos kalit rolini o`taydi deb hisoblagan. U yoki bu mifologik tasavurning qadimiylik darajasini oshirib ko`rsatishga urinish, afsona, ertak, topishmoq tarkibidagi mifologizmlarni “qadimgi tasavvurlar qoldig`i” sifatida talqin qilishda folklor janrlarining shakllanish jarayoniga xos tarixiylik prinsipini hisobga olmaslik hamda qiyoslanayotgan hodisalarning zohiriy mutanosibligiga berilib ketish kabi kamchiliklaridan qat`iy nazar Ya.Grimmning bu asari folklorshunoslikda katta shuhrat qozondi.

Ya.Grimm tomonidan qo`llanilgan «qiyosiy mifshunoslik metodi» katta hajmdagi faktik materialni ilmiy tavsiflashga imkon berdi. Bu asar faktik materialga boyligi, metodologik asosining o`z davriga nisbatan yangiligi, mif talqiniga doir barcha ilmiy qarashlarni o`zida mujassamlashtirganligi va german miflarining tizimiy tahliliga bag`ishlanganligi tufayli uning muallifi Ya.Grimmning ilmiy konstepstiyasi folklorshunoslikda “mifologik maktab nazariyasi”ga asos soldi.

“Mifologik maktab” jahonning ko`pgina mamlakatlari folklorshunosligida keng ko`lamda rivojlandi. Bu borada, ayniqsa, Germaniya (A.Kun, V.Shvarst, V.Manxardt), Angliya (M.Myuller, J.Koks), Italiya (A.De.Gubernatis), Fransiya (M.Breal), Shveystariya (A.Pikte), Rossiya (A.N.Afanasev, F.I.Buslaev, O.F.Miller), Amerika (E.Chembers, G.Marrey, J.Xarrison, J.Ueston, F.Kornford)da olib borilgan ilmiy tadqiqotlar “mifologik maktab” nazariyasini takomillashtirishga katta hissa bo`lib qo`shildi.

“Mifologik maktab” xalq og`zaki badiiy ijodiyotining paydo bo`lishi va taraqqiyoti masalasini tadqiq etib, folklorning ilk zamini diniy-

e'tiqodiy xarakter kasb etgan mifologiya hamda tilning obrazlilik bilan alohida ajralib turgan qadimgi shakllaridadir, degan muhim nazariy xulosaga keldilar. Folklor asarlari tarkibidagi mifologik obraz, syujet va motivlarni tarixiy-qiyosiy o'rgangan mifologlar uzoq davom etgan tarixiy-folkloriy jarayon natijasida mifologik obrazlar ertak, afsona, topishmoq va boshqa folklor janrlariga transformastiyalashishini aniqladilar.

Mif, afsona, ertaklarni sistemali to'plash va tahlil qilish ishlari bevosita "mifologik maktab"ning shakllanishi bilan bog'liq holda boshlandi. Bu ilmiy maktab vakillari miflarni milliy qadriyatlar tizimi va an'anaviy madaniyatning ibtidosi sifatida talqin qildilar.

"Mifologik maktab"ning rivojlanishi natijasida XIX asrning o'rtalariga kelib folklorshunoslikda bir qator yangi nazariyalar yuzaga keldi. Jumladan, miflarni astronomik yoxud tabiiy hodisalarning allegoriyasi tarzida tasavvur qilishga asoslangan **"solyar-meteorologik nazariya"** yoki **"shamsiy-meteorologik nazariya"** (nemis olimlari – A.Kun, M.Myuller va rus olimlari – F.N.Buslaev, L.F.Voevodskiy, O.F.Miller), miflarni xalqning yovuz kuchlar va ruhlar olami to'g'risidagi tasavvurlari tizimi sifatida tushuntiruvchi **"quyi mifologiya"** yoki **"demonologik nazariya"** (nemis olimlari – V.Shvarst, V.Minxard), ruh haqidagi qarashlarni tabiatga tatbiq etish asosida yuzaga kelgan **"animistik nazariya"** (ingliz olimlari – E.Taylor, G.Spenser, E.Lang, nemis olimi – L.Frobenus, rus olimi – V.Klinger), miflarni tadqiq etishda adabiyotshunoslik va tilshunoslik metodlarini qo'llashga asoslangan **"tarixiy-filologik nazariya"** (nemis olimlari – G.Uzener, U.Vilamovist-Myollendorf, rus olimlari – F.F.Zelinskiy, E.G.Kagarov, S.A.Jebelev, N.I.Novosadskiy, I.I.Tolstoy) o'ziga xos tadqiq usullari bilan alohida ajralib turadi.

"Mifologik maktab" vakillarining ilmiy tadqiqotlari arxaik miflar haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitish, qadimgi turkiy, hind, eron, german, kelt, slavyan va boshqa xalqlar mifologiyasini keng ko'lamda o'rganish hamda xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plash va tadqiq etish bilan bog'liq ko'pgina nazariy muammolarning hal qilinishiga asos bo'ldi. Bevosita "mifologik maktab" konstepstiyalari asosida mifologiya, folklor va adabiyotni qiyosiy o'rganish yo'nalishi shakllandi. Shuning uchun ham bu maktab ilmiy konstepstiyalari qadimgi miflarni tadqiq etishda bugungi kunga qadar muhim nazariy asos vazifasini o'tab kelmoqda.

Folklorshunoslikdagi "mifologik maktab"ning tadqiqotlarida ayrim chalkashliklar ham mavjud bo'lgan. Xususan, folklori haddan ziyod arxaiklashtirishga urinish; xalq og'zaki badiiy ijodiyotining kelib chiqishida tarixiy voqelikning rolini e'tiborga olmaslik, folklor san'atining barcha turlariga mif asos bo'lgan, degan qarashni ilgari surish; tarixiy shaxslar obrazi talqinidan ham mifologik tasavvurlarning izlarini izlash kabi xatoliklar shular jumlasidandir.

“Mifologik maktab”ning metodologiyasi va, ayniqsa, uning “qiyosiy mifshunoslik”ka oid tadqiqotlarida aks etgan nazariy qarashlar, shuningdek, bu yoʻnalish vakillarining ilmiy izlanishlari natijasida toʻplangan keng koʻlamli faktik materiallar keyinchalik folklorshunoslikda “syujetlarning koʻchib yurishi” yoki “sayyor syujetlar nazariyasi” nomini olgan “migrastion maktab”ning shakllanishiga asos boʻldi.

Dunyo folklorshunosligidagi naturmifologik yoki naturalistik nazariya tarafdorlari mifni tabiat hodisalari haqidagi qadimgi tasavvurlar majmui deb tushunadilar. Ularning fikricha, qadimgi odamning tabiat haqidagi ibtidoiy eʼtiqodiy ishonchlari dastlabki mifologik tasavvurlar tizimining asosini tashkil etadi. Antropologik nazariya tarafdorlari E.Teylor, G.Spenser, E.Long va boshqalarning fikricha, miflar animistik ishonchlar zaminida shakllangan. J.Frezer esa mifologik tasavvurlarning asosini animistik tasavvurlar emas, magiya tashkil etadi, deb hisoblaydi. S.G.Xuk, D.Xarrison, G.Merri kabi olimlarning fikricha, qadimgi miflar ibtidoiy rituallar, yaʼni marosimlarning soʻz vositasida ifodalangan shaklidir. L.Levi-Bryul mifning qadimgi diniy eʼtiqodlar bilan mushtarakligini aniqlagan.

Simvolistik nazariya oqimi tarafdorlari (jumladan, oʻzbek folklorshunoslari ham) mif qadimgi odamlarning olam haqidagi ibtidoiy qarashlarini oʻzida mujassamlashtirgan ramziy kodlardan tashkil topganligini eʼtirof etadilar.

Z.Freyd, E.Fromm, K.G.Yung kabi olimlar miflarning paydo boʻlishini ibtidoiy odamning tabiatga boʻlgan ongsiz hissiy munosabatlari bilan bogʻlab oʻrganganlar. Ularning tahlil metodlari asosida oʻrganish usullarini oʻzbek folklorshunosligiga J.Eshonqul tush va mifni qiyosiy tadqiq etish orqali olib kirdi.

Oʻzbek folklorshunosligida miflarni tadqiq etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, mifologiyaning oʻzbek xalq dostonlari syujet qurilishi va obrazlar silsilasida tutgan oʻrni Gʻ.Akramov tomonidan tadqiq etildi. Uning “Oʻzbek xalq dostonlarida mifologiya” (1980) mavzuidagi yirik tadqiqoti mif va epos munosabati masalasini “Goʻroʻgʻli” turkumiga mansub dostonlardagi mifologik obrazlar tahlili misolida oʻrganishning ajoyib namunasi hisoblanadi. Ertak va dostonlarda mifologiyaning saqlanib qolishi dostonlarning qadimiyligi hamda xalq tasavvurida mifologik tushunchalarning yashovchanligi bilan belgilanishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan tadqiqotchi totemistik, animistik va manistik (ajdodlar homiyligi toʻgʻrisidagi) mifologiyaning oʻzbek folkloridagi talqinlarini keng koʻlamda oʻrgandi.

Oʻzbek adabiy tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy-folkloriy jarayonning muhim qonuniyatlaridan biri – janrlar diffuziyasi, yaʼni turli-tuman janrlarning bir-biriga singib ketishini tadqiq etgan

B.Sarimsoqov mifning epik janrlar tizimidagi o'rnini mif va ertak, mif va doston munosabati tahlili orqali ko'rsatib berdi. U o'zbek mifologiyasi arxaik, klassik hamda o'rta asrlarga xos miflarni o'z ichiga oladi, deb hisoblaydi.

Mifologik syujetlar va obrazlarning yozma adabiyotga ta'siri masalasi N.Mallayev, M.Saidov, O.Madayev, T.Xo'jayev, M.Rajabova, M.Narziqulovalarning tadqiqotlarida tahlilga tortilgan. M.Jo'rayevning tadqiqotlarida mif va mifologiya, «Avesto» mifologiyasi, qadimgi turkiy mifologiya, mifologiyaning yozma adabiyotga munosabati, o'zbek folkloridagi mifologik obrazlar, kosmogonik mifologiya, xalq taqvimining mifologik asoslari, mif va epos, shamol bilan bog'liq mifologik tasavvurlar va xalq qarashlari, astromifologiya, arxeomifologiya talqiniga doir fikrlar bayon etilgan.

M.Jo'rayev va Sh.Shomusarovning qiyosiy mifshunoslikka oid tadqiqotlarida arab mifologiyasi va asotirlari tizimining o'zbek folkloriga ta'siri masalalari tahlil qilingan. Mamlakatimizda yaratilgan muhtasham yozma obida - "Avesto"ning M.Ishoqov va Asqar Mahkam tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinishi hamda "Avesto" yaratilganligining 2700 yilligi Respublikamizda jahonshumul darajada keng nishonlanganligi bu qadimiy manbani har tomonlama chuqur tadqiq qilishga yo'l ochdi. Bu ko'hna yodgorlikni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida T.Mirzayev, M.Jo'rayev, M.Eshmurodovning "Avesto" mifologiyasi va uning o'zbek folkloridagi talqinlarini yoritishga qaratilgan izlanishlari alohida o'rin tutadi.

Bundan tashqari, T.Haydarov, J.Eshonqulov, O.Qayumovlarning o'zbek folklorining arxaik qatlamini tashkil etgan mifologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, mifologik obrazlarning genezisi va epik janrlardagi badiiy talqiniga bag'ishlangan nomzodlik dissertastiyalari himoya qilindi.

Folklorshunoslik fani tilshunoslik, jumladan, onomastika yo'nalishi bilan bog'liq bo'lib, unda qadimgi insonlarning ibtidoiy, mifologik tasavvur-tushunchalari, e'tiqodiy qarashlari asosida paydo bo'lgan mifik obrazlarning nomlari, mifik obrazlarni ifodalovchi tushuncha va atamalar **"mifonim"**, tangri va ma'budlar nomi **"teonimlar"** (Mira, Hurmuz kabi) demonologik personajlar **"demononimlar"** (shayton, pari, dev, jin kabi), afsonaviy qahramonlar **"mifoantroponimlar"** (Xizr, Jamshid (Yima), Kayumars, Odami Od kabi), mifga aloqador so'z asosida kelib chiqqan afsonaviy joy nomlari **"mifotoponimlar"** (Ko'hi Qof, Bog'i Eram singari), hayvon ko'rinishidagi mifologik jonzorlar **"mifozoonimlar"** (**ajdar kabi**), qush ko'rinishidagi mifologik jlnzorlar **"mifoornitonimlar"** (Semurg', Humo, Anqo, Jestirnoq, Samandar kabi), afsonaviy o'simliklar nomlari **"mifofitonimlar"** (mehrighiyo kabi) va hokazo terminlar ostida birlashtiriladi.

Yalmog'iz, ajdar, ajina va hokazo singari qator mifonimlar so'z – konsept – obraz paradigmasini hosil qiladi.

Mifonimlar til va ongda aks etuvchi tushunchalardir. Ular hissiyot va tafakkur faoliyatining mahsulidir. Mifonimlar barcha xalqlarning tilida mavjud bo'lib, har bir xalqning milliy, madaniy tushunchalari asosida kodlashtirilgan. Masalan, jin sharq xalqlari tilida uchraydigan so'z bo'lib, o'zbek tiliga o'zlashtirilgan. Dev ma'nosida qo'llaniladigan g'ul obrazi genetik jihatdan qadimgi arab asotirlariga aloqador mifologik personajlardan biridir¹¹. Keyinchalik o'zbek tiliga o'zlashib transformastiyaga uchragan. Anqo, Xizr mifonimlari ham arab xalqlaridan o'zbek folkloriga ko'chgan.

O'zini o'rab turgan tashqi olamni va unda yuz beruvchi hodisalar sababini bilishga qiziqqan ibtidoiy odam uni obrazli tasavvur qilgan. Natijada hissiy obrazlar sifatida mifologik obrazlar paydo bo'lgan. Agar mifonimlar “Geshtalt qonunlari” yoki “Geshtalt tamoyillari” bilan ko'rib chiqilsa, bir-biriga yaqinlik ham kuzatiladi. Birinchidan, ularning barchasi o'zga olam tushunchasi bilan bog'liq holda idrok etiladi (yaqinlik tamoyili). Ikkinchidan, bir-biriga monand belgilari orqali idrok qilinadi (o'xshashlik tamoyili).

Mifonimlarning nomi ko'pincha tilga olinmaydi, ularga nisbatan evfemizmlar qo'llaniladi. Xalq she'riyatida **mifologizastiya** yoki *tabiat hodisalarini poetik mifologemalar*, ya'ni *xayoliy-fantastik, mifologik obrazlar vositasida tasvirlash an'anasi ham mavjud*. Bunga jannat, do'zax, Eram Bog'i va hokazo singari epik makonlarni, ruh, arvoh, pari kabi obrazlarni misol qilish mumkin.

“Mifologema” so'zi yunoncha “so'z”, “nutq” tushunchalarini anglatadi. Yana u orqali “suhbat”, “maslahat, ko'rsatma”, “munozara mavzusi”, “muammo”, “fikr, reja”, “maqol, matal”, “xabar, mish-mish”, “hikoya”, “afsona, mif, ertak”, “masal, matal, fabula” ma'nolari ham anglatiladi. Bunda birgalikda yig'ilgan so'zlar matnni, ya'ni o'ziga xos xususiyatlari, syujet mavjudligi va kommunikativ yo'naltirilganligi **mifologemani** yuzaga keltiradi.¹²

“Mifologizm” biror-bir muallif tomonidan yaratilgan badiiy asarda qo'llanilgan mifologik obraz yoki mifologik motivning qayta ishlanishi yoki shunday an'anaviy obraz hamda motivlar asosida yangidan yaratilganlari bo'lib, u folklorizmdan faqat mifga asoslangani bilan farq qiladi. Masalan: ingliz adabiyotida elf, goblin, xobbit, dvarf, brauni, ajdarlar mifologizmi; o'zbek adabiyotida ajdar, semurg', yalmog'iz kampir, dev va hokazo.

¹¹ Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – Б. 130.

¹² Назарова Г.П. Инглиз ҳамда ўзбек адабиётида мифоним ва мифологизмлар: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2021. – 58 б.

Mifologik xotiralar ijtimoiy hayot voqeliklariga bog'lab talqin qilinishi natijasida ular yangi funksional vazifani olishi **mifologizatsiya** hodisasi deb ataladi.

Neomifologizm – XX asr san'atidagi badiiy tafakkurning eng xarakterli shakllaridan biridir. U mifologik mavzu, tasvir, talqin, motiv, obraz, ramzlar bilan alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Zamonaviylik bilan bog'liqlikda paydo bo'lgan yangi mif va afsonalarni anglatadi.

Yozma adabiyot folklor an'analari orqali qadimgi mifologiya bilan chambarchas bog'langan bo'lib, mifning xalq og'zaki ijodi asarlaridagi epik syujet, motiv va poetik detallar ko'rinishidagi talqinlari badiiy idrok etilgan voqelikni tasvirlashda samarali qo'llanilib kelingan. Badiiy adabiyotda qayd qilingan mifologik obraz va motivlar folklordan ijodiy bahramand bo'lishning o'ziga xos qirralaridan biri hisoblanadi. Shu bois biz badiiy matnda qo'llanilgan mifik syujet elementlari mifologizmlar deyiladi.

Xalqimizning mifologik tasavvurlari asosida yuzaga kelgan epik motivlar va obrazlar silsilasidan ijodiy foydalanish o'zbek mumtoz adabiyotida ham o'ziga xos badiiy an'ana bo'lib kelgan. Xususan, ulug' shoir Alisher Navoiy asarlarida genetik ildizlari o'zbek mifologiyasining qadimiy qatlamlariga borib taqaluvchi poetik timsollar va obrazlar silsilasining butun bir tizimi mavjud. Bu esa shoir asarlaridagi mifologizmlarning manbalari, tasnifi va badiiy vazifalarini qiyosiy-tarixiy jihatdan keng ko'lamda tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi. Bizningcha, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan mifologizmlar o'zining tarixiy asoslariga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi:

1. **Qadimgi turkiy qavmlarning mifologik qarashlari va e'tiqodiy ishonchlariga borib taqaluvchi mifologizmlar.** Shoir asarlarida keng qo'llangan *to'qqiz falak, yada toshi, hayot daraxti, jon qushi, hayot suvi* kabi poetik timsollarning asotiriy zamini bevosita qadimgi turkiy mifologiyadadir. Shuningdek, shoir she'riyatida an'anaviy tarzda qo'llanilgan *quyosh, oy, shamol, qyun, chaqin, yulduz* kabi poetik obrazlarning badiiy talqinida ham mifologik qarashlar bilan bog'liq turfa ma'nolar o'z ifodasini topgan.

2. **“Avesto” mifologiyasi va uning Alisher Navoiy asarlaridagi badiiy talqinlari.** O'lkamizda yaratilgan muhtasham madaniy qadriyatlardan biri “Avesto”da ajdodlarimizning ezgulik va yovuzlik kuchlari bilan bog'liq mifologik tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Shoir asarlarida *Axriman, Zakhok, dev, pari, Jamshid, Bivarasp, Qayumars, ajdar, Semurg, devbod* singari mifologik obrazlar uchraydi.

3. **Islomiy e'tiqodlar bilan bog'liq mifologik tasavvurlar va afsonalarning poetik ko'chimi natijasida yuzaga kelgan mifologizmlar.** Alisher Navoiy asarlarida uchrovchi *Ko'hi Qof, Bog'i*

Eram, anqo, Azroil, do'zax, behisht, g'ul kabi poetik obraz va detallarni ana shu tipga kiritish mumkin.

4. **Xalqimizning o'rta asrlarda yaratilgan afsonalari va asotirlari ta'sirida yuzaga kelgan mifologizmlar.** Ma'lumki, o'zbek mifologiyasi taraqqiyotining o'ta asrlar davrida arxaik miflarning epik rivoji va folklor aloqalarining ijodiy ta'siri asosida o'ziga xos asotirlar tizimi shakllangan. *Avj ibn Unuq, qaqnus, samandar, xumoy* haqidagi mifologik qarashlar Alisher Navoiy asarlarida ham o'z poetik ifodasini topgan.

Mif mohiyatini o'zida aks ettirgan va mif syujetining asosiy mazmunini ifoda etgan **mifologemalar** folklor asarlarining badiiy strukturasida syujetni hosil qiluvchi epik obraz yoki an'anaviy motiv sifatida faol ishtirok etadi. Aytish kerakki, qadimgi mifologik tasavvurlar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining turli janrlariga diffuziyalana boshlagan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Mif» termini mohiyatini nima tashkil qiladi?
2. Mifning ilk so'z san'ati namunasi sifatidagi estetik mohiyati nimada?
3. Mifning paydo bo'lishi omillari nimada?
4. Mifda folklor badiiyatiga xos qanday xususiyatlar kuzatiladi?
5. Mifologiya nimani o'rganadi? U qaysi fanlar bilan bog'liq?
6. Onomastikada mif bilan bog'liq qanday terminlar shakllangan?
7. Miflar qanday tasniflanadi?

Tubandagi tayanch tushunchalarni izohlang: mif, asotir, mifologiya, Sharq mifologiyasi, o'zbek mifologiyasi, folklor, xalq og'zaki poetik ijodi, og'zaki ijod, so'z san'ati, afsona, ertak, topishmoq, qo'shiq, doston, animizm, totemizm, fetishizm, magiya, kult, totem, mifonim, mifologema, mifologizastiya, teonim, demononim, mifoantropomim, mifotopomim, mifozoonim, mifoornitonim, mifofitonim.

MIFOLOGIK TAFAKKURDAN BADIY-ESTETIK TAFAKKURGA

O'TISH JARAYONI

Reja:

1. Mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayoni.
2. Epos, ertak, xalq lirikasida miflarning badiiy-estetik sathda namoyon bo'lish holatlari, tadrijiy rivojlanish bosqichlari.

Zukko ajdodlarimizning voqelikka bo'lgan mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti davomida badiiy-estetik hodisaga aylanib, voqelikni so'z vositasida poetik ifodalash natijasida xilma-xil janrlardan tarkib

topgan folklor an'analari shakllangan. Shu jihatdan qaraganda, mifning insoniyat badiiy tafakkuri rivojida tutgan o'рни katta ekanligi anglashiladi.

Folklorda badiiy tafakkur rivojlanishining mahsuli bo'lgan turli badiiy-tasvir usul va vositalari xalq tafakkuri bilan birga o'sib, takomillashib, boyib bordi. Natijada obrazlilik ijtimoiy jihatdan **mif – marosim – folklor**, poetik jihatdan **mif – metafora – qiyoslash – o'xshatish – ramz – istiora – parallelizm** ko'rinishida o'sib bordi. Ayni paytda, badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar badiiy ijod prinstiplarida o'z aksini topar ekan, zarur holatda, ular bu prinstiplarning o'zgarishiga sabab ham bo'ldi.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida, aniqrog'i, inson ongining o'sishi va dunyoqarashining kengayishi, ma'naviyatining boyishi natijasida miflarga ishonch yo'qola bordi. Lekin miflar yo'qolib ketmadi. Qaytaga ular ijtimoiy ongning yangi shakllarini vujudga keltirish uchun asosiy manba vazifasini o'tadi. Hozirgi fan, din, san'at va adabiyotning poydevori mifologiya asosida qurilgandir. Qadimgi mifologik syujetlar, obrazlar, tushuncha va tasavvurlar, umuman, mif qoldiqlari ijtimoiy ongning turli shakllariga ko'chib, ulardan muhim o'rin egalladi. Ayniqsa, yaratilish tarzi, voqelikka munosabati hamda voqelikni ifodalash xarakteri jihatidan o'ziga xos badiiy asar ko'rinishida namoyon bo'luvchi miflar folklorda alohida diqqatni tortadi. Ular folklor tarkibidan mustahkam o'rin egallagandir.

Miflar, asosan, etiologik vazifa (izohlash vazifasini) bajaradi. Mif qadimgi odamning ishonch-e'tiqodlari, o'y-kechinmalari, diniy-axloqiy qarashlari va ilk ijodiy izlanishlarining so'z vositasida ifoda etilgan ko'rinishlaridan biridir. Miflar dastlab tabiatni poetik tadqiq etishning ilk namunasi sifatida maydonga keldi. Ularda insonning o'z atrofini o'rab olgan olamni ilohiy, mifologik idrok etishi namoyon etildi.

Insoniyat tamaddunidan beri inson o'zini tabiatning bir bo'lagi deb bilgani, ko'pincha unga sig'ingani (buning natijasida quyosh xudosi, oy ma'budi, dengiz xudosi obrazlarini yaratgani h.k.) ma'lum. Ammo keyingi davrlarda inson o'zini endi real tabiatning uzviy bir qismi, deb emas, balki uning egasi sifatida ham his qila boshladiki, oqibatda inson va tabiat o'rtasida keskinlashuv yuzaga keldi. Ekologik muvozanat buzilib, ekologik xavflar miqdori ortdi. Ekologik madaniyatga zavol eta boshladi.

Miflar ibtidoiy inson badiiy ijod faoliyatining va nutqining ilk shakli sifatida eng qadimiy davrlar kishilarining diniy, mifologik qarashlarini, boshlang'ich ilmiy bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini o'zida jamlab aks ettirgan. To'g'ri, ularning namunalari bizgacha to'liq etib kelmagan. Faqatgina ularning ayrim namunalari, izlariy-u qoldiqlari turli tasavvur va qarashlarda, O'rta Osiyo xalqlarining eng

qadimgi ba'zi tarixiy yodgorliklari, ilmiy va diniy asari, yodnomalar orqaligina bizgacha yetib kelgan.

Folklorning barcha janrlari qatori miflarning yuzaga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotidagi muhim omillardan biri insonlar hayotidagi tevarak-atrofni bilishga bo'lgan ijtimoiy-ruhiy ehtiyoj zaruriyatidir. Aytaylik, uzoq ajdodlarimizning tabiat kuchlari, turli kasalliklar oldidagi ojizliklari so'z magiyasiga sig'inish asosidagi janrlarning bunyodga kelishini ta'minlagan bo'lsa, yig'i magiyasiga ishonch motam qo'shiqlarining, kulgi magiyasiga ishonch esa askiya, latifa, lof singari kulgi uyg'otib, kishilar ruhiyatini ko'tarishga xizmat qiluvchi janrlarning kelib chiqishini va janrlar rang-barangligini ta'min etgan.

Folklor san'atning barcha turlari qatori o'z ibtidosini mifologik tafakkurdan boshlagan. Mif va mifologik tasavvurlar tizimi voqelikni anglashning eng qadimgi va ayni paytda dunyodagi barcha xalqlarning badiiy tafakkuri taraqqiyoti uchun umumiy shakllardan biridir. Voqelikni mifologik anglash va mif vositasida borliqni mantiqiy idrok etish hamda mif vositasida borliqni tushuntirish ibtidoiy davr ijtimoiy fikrining asosiy ko'rinishi bo'lgan.

Ajdodlarimiz olamning mavjud holati va barcha voqea-hodisalar sababini mif orqali izohlaganlar. Shuning uchun ham mif qadimgi odamlarning e'tiqodlari, tasavvur va turli-tuman qarashlarining ma'lum bir tizim holatiga keltirilgan shakli sifatida ijtimoiy fikr taraqqiyotidagi muhim bosqich deb qaraladi. Voqelikni ma'lum bir obrazlar vositasida badiiy talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, mifologik tasavvurlarning asosiy qismi badiiy-estetik mohiyat kasb etadigan detallarga aylanib ketgan. Miflar zahirida ko'pgina epik syujetlar va an'anaviy motivlar shakllangan. Mifik personajlar arsenali esa folklor asarlarining obrazlar tizimi uchun epik zamin, asos vazifasini bajardi.

Mifning folklor janrlari qatoridan o'rin olishiga uning yaxlit adabiy tizim tarzida namoyon bo'lishi; o'ziga xos xayoliy obrazlar tizimiga egaligi, maxsus vazifa bajarishi, ya'ni tinglovchiga nima haqdadir ma'lumot, axborot etkazish uchun aytilishi¹³ asos yaratgan. Mifning o'zbek folklori janrlar tizimi tarkibida o'z o'rnini bor. Mif boshqa xalqlar folklorida ham uchraydi. Lekin har bir xalqning o'z mifologiyasi bor.

Mif janri ko'plab qadimiy xalqlar folklorida uchrashi sababli umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun jahon terminologiyasida "mif" atamasi umumxalq doirasida keng qo'llanib kelinmoqda. Soddalik, qisqalik, ixchamlik, syujetlilik, tabiatni poetiklashtirish miflarga xos estetik printsiptir. Eng e'tiborli jihati keyinchalik uning ta'siri zahirida epik boshqa janrlar yuzaga kelganidir.

¹³ Пропп В.Я. Принципы классификации фольклорных жанров // Фольклор и действительность. – М.: Наука, 1976. – С.34-45.

Miflarning folklor janrlariga diffuziylanishi jarayoni haqida soʻz yuritganda, uning afsona janri takomilida tutgan oʻrni xususida toʻxtalib oʻtish kerak boʻladi. Chunki oʻzbek xalq afsonalarining epik turga kiradigan nasriy janr sifatida shakllanish tarixi bevosita qadimgi mif strukturasidagi funkstional-semantik oʻzgarishlar bilan bogʻliq. Maʼlumki, qadimgi odam tomonidan yaratilgan miflar hikoyaviy (mifik qarashlarning muayyan ijrochi tomonidan soʻz vositasida ifodalanishi), eʼtiqodiy (mifologik qarashlarning ibtidoiy marosimlarda magik inonch va ritual adadlar tarzida koʻrsatib berilishi) va tasviriy (mifologik tasavvurlarning ibtidoiy sanʼat asarlaridagi ramziy chizgilarda aks etishi) usulda ifoda etilgan. Ijtimoiy ong taraqqiyotining keyingi bosqichlarida olamni mifologik tasavvurlar vositasida anglash oʻrnini voqelikni badiiy-estetik kodlar orqali idrok etib, badiiy soʻz bilan tasvirlash anʼanasi egallagan.

Afsona yangicha nasriy ijod va olamni idrok etishning yangi usuli mahsulidir. Voqelikni izohlash, tushuntirish va talqin qilishning bu usuli maʼlum maʼnoda mifologik dunyoqarashning inkori sifatida yuzaga kelgan. Afsona mifning ayrim ananaviy syujet elementlarini oʻziga singdirib yuborgan.

Mif syujetlari yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga xos axloqiy qarashlar va badiiy-estetik anʼanalar asosida oʻzgarishga uchrab, afsona janrining badiiy shaklini qabul qilgan. Xususan, mifologik afsonalarning syujet tizimi asosan bayon usulida ommalashgan koʻhna mif talqinlaridan iboratdir. Mif olamni sodda anglash ifodasi sifatida inkor egilgach, uning mazmuni muayyan oʻzgarishlarga uchragan holda afsona janriga koʻchadi. Bu oʻzgarishlar voqelikka munosabat (dunyoni mifologik anglashdan badiiy idrok etishga oʻtish), mif funkstiyasining kengayishi (voqelikni tushuntirish, izohlash maqsadida yaratilgan va bayon qilingan hikoyalarda axloqiy-estetik qarashlarning aks eta boshlashi), mif mohiyatining yangilanishi, mifologik personajning badiiy obrazlarga aylanishi, mifologik matnlarning ritual marosimlar bilan aloqalarining uzila boshlashi va voqelik tasvirining ramziy talqinlarga asoslanishdan iborat edi.

Miflarni hikoyaviy usulda bayon qilish anʼanasining semantik rivoji sifatida shakllangan mifologik afsonalarda ajlodlarimizning samoviy, etiologik, totemistik, animistik qarashlari oʻz ifodasini topgan. Oʻzbek xalq mifologik afsonalari tabiat va jamiyat haqidagi maʼlumotlarni gʻayritabiiy xayoliy obrazlar va fantastik uydirmalar vositasida izohlash maqsadida yaratilgan folklor asarlaridir. Ixcham nasriy shaklda ommalashgan, bir syujetli bunday afsonalar asosan etiologik xarakterda boʻlib, xalqimizning osmon, zamin, samo yoritqichlari, tabiat hodisalari, nabotot va hayvonot olami, inson va hayotning paydo boʻlishi haqidagi qadimiy xalq qarashlari asosida yuzaga kelgan.

Qadimgi miflardagi asotiriy makon tuzilishi to'g'risidagi kosmogonik qarashlarning epik diffuziyasi o'zbek xalq ertaklarida keng tarqalgan an'anaviy uch yo'l motivi, uch boshli obrazlar va syujet elementlarining uch marta takrorlanishi kabi magik uchlik bilan bog'liq syujet elementlarining shakllanishi asos bo'lgan.

Shomonizmga bo'lgan davr mifologiyasida ikkilik universal miqdoriy timsol sifatida an'anaviylashgan. Qadimgi turkiy afsonalarda ham dastlab ikki olam – o'z va o'zga yurt haqida gap borgan. Bu mifologik tasavvur o'zbek xalq ertaklaridagi epik makon tasvirida ham o'z ifodasini topgan. An'anaviy uch yo'l motivining tahlili bir mifologik makon talqinida uch olam (Ko'k, Zamin, Yer osti) hech qachon bir-biriga qiyoslanmasligini ko'rsatadi. Chunki ertaklarda hamisha ikki yo'l – ikki olam qiyoslanadi. Dual tuzilish o'zbek xalq ertaklarida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, "Murqumomo" ertagida qahramonlarning oldidan ikki yo'l chiqadi: bir yo'lga "borsa kelar", ikkinchisiga "borsa kelmas" deb yozilgan ekan. Majid "borsa kelmas"ga, akasi Hamid esa "borsa kelar"ga jo'naydilar.

Olamni ikki qismdan iborat deb tushunish qadimgi turkiy mifologiyada shakllangan an'analardan biri bo'lib, marosim va udumlarda ham ikki olam haqidagi tasavvurlardan foydalanishgan. Folklorshunos V.Ya.Propp ikki olam haqidagi qadimgi dualistik tasavvurlarni mifning eposga o'tgan asosiy xususiyatlaridan biri deb hisoblaydi.¹⁴

O'zbek xalq ertaklaridagi epik makon yo'nalishining tasviri olam haqidagi qadimgi tasavvurlar mahsuli bo'lib, mifologik obrazlarning xayoliy-mifik makondagi harakat yo'nalishining badiiy ifodasi ikki olam haqidagi ibtidoiy qarashlar sintezi sifatida mifdan ertakka o'tib, epik syujet tarkibida turg'unlashib qolgan. Aslida, qahramonlar oldidan uch yo'l chiqsa-da, bu epik motivning badiiy talqinlarida uning arxik qatlami – qadimiy o'zagi saqlangan: katta akalar borgan epik yurt kenja ketgan "borsa kelmas"ga qarama-qarshi qo'yiladi. Ana shu dualistik talqin zaminida olamning ikki qismdan iboratligi haqidagi mifologik qarashlar o'z aksini topgan.

Mifologik tasavvurlarning tadrijiy taraqqiyoti natijasida olamning tuzilishi haqidagi qarashlar ham murakkablasha borgan: ya'ni ikki olam haqidagi tasavvurlarning rivoji tufayli olamning uch qismdan iboratligi to'g'risidagi inonchlar kelib chiqqan. Uch olamning tuzilishi haqidagi qadimiy tasavvurlarga ko'ra uch olam (Ko'k, Zamin, Yer osti) yonma-yon emas, balki bir-birining ustida joylashgan. Ko'k, Zamin va Yer osti olamlari haqidagi tasavvurlar ibtidoiy mifologiya mahsuli bo'lsa, uch olamga safar hamda epik yo'llar motivi – shomonizm an'anasi bilan bog'liq. Shomon toifalaridan har biri o'z homiylari, yo'li, mifologik

¹⁴ Пропп В.Я. Русский героический эпос. – Л., 1955. – С.34.

olamiga ega. Bu tasavvurlar esa jonning abadiyligi to'g'risidagi qarashlarga borib taqaladi.

Xalqimiz tasavvurida odam tana, jon va ruhdan iboratdir: odam o'lgach, lahadga qo'yilgan tana – Yer osti olamiga o'tsa, jon qushga aylanib, Ko'kka uchib ketadi, Yer yuzida qolgan ruh esa “arvoh kapalak” sifatida marhum yashagan joyda aylanib yurarmish. Jonning uchtaligi haqidagi tasavvurlar Sibir va Uzoq Sharqdagi ko'pgina xalqlarda ham uchraydi.

Jonning faoliyati bilan bog'liq uch yo'l haqidagi tasavvurlar ajdodlarimizning mifologik va animistik qarashlari zahirida shakllangan bo'lib, shomonning ramziy safari manzillari hamda ertaklardagi afsonaviy yurtlarga olib boradigan epik yo'llar motivining asosidir.

Olamning uchlikka asoslangan kosmogonik talqini qadimgi turkiylarning mifologik qarashlari asosini tashkil etgan. Arxaiik miflarda madaniy qahramonlarning sarguzashtlari uch olam bilan bog'liq bo'lib, Ko'k – Zamin – Yer osti asosiy mifologik makon areali bo'lgan.

Animistik qarashlar uch olam haqidagi tasavvurlar bilan uyg'unlashib, Ko'k, Zamin va Yer osti odamlari to'g'risidagi afsonalari yaratdi. Osmon jismlari, yulduzlar jonli deb tushunilgan.¹⁵ Chaqmoq, momaqaldiraq kabi tabiat hodisalarini Ko'k odamlari faoliyati bilan bog'laydilar. Xuddi shuningdek, Er osti ham bir necha qavat bo'lib (Ko'k 7 qavat bo'lgani singari), u erda ham odamlar istiqomat qilishadi, deb tushunilgan. Uch olamdagi bir xil turmush tarzi, bir xil geografik mavjudlik haqidagi tasavvurlar mifdan ertakka o'tgan qadimiy elementlardan biridir.

Olis o'tmishda yashagan ajdodlarimizning benihoya ulkan aqliy salohiyati va ijodiy iqtidori mahsuli o'laroq yuzaga kelgan mifologik tasavvurlar miflarning xalq og'zaki ijodi, qadimgi tasviriy san'at va marosimiy rituellarga ko'chishini «Avesto» mifologiyasining epik diffuziyasi misolida ham ko'rish mumkin. «Avesto» mifologik syujetlarining muayyan bir qismi o'zbek xalq dostonlari, ertak va afsonalarining an'anaviy motivlar tizimini shakllantiruvchi epik asos vazifasini o'tagan. Xususan, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi epik an'analarining rivojiga «Avesto» syujetlari, uning motiv va obrazlar tizimi salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Bu buyuk ma'naviy qadriyatimizning muayyan izlari o'zbek folklorida bugungi kunga qadar saqlanib kelayotganligi ham «Avesto»ning asosini tashkil etuvchi mifologik qatlam

¹⁵Xalqimizda osmonda har kimning “o'z” yulduzi bor deb irim qilinadi, yulduzning odam joni bilan aloqadorligi to'g'risidagi astromifologik qarashlar alohida o'rganilishi zarur bo'lgan masaladir (*Bu xususda qarang: Жўраев М. Юлдузлар билан боғлиқ халқ қарашлари ва самовий афсоналар // Улуғбек академияси ва олий мактаб. – Тошкент, 1994. – Б.53-54; Жўраев М. Юлдуз учини билан боғлиқ мифологик қарашлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – 2-сон. – Б.39-43.*

bevosita bizning o'lkamizda shakllangan qadimiy inonchlar tizimidan iborat bo'lganligidan dalolat beradi.

O'zbek folklorining an'anaviy mifologik personajlari silsilasidagi dev, pari, ajdar, Axriman, Jamshid, Xurmuz, Zahhok kabi obrazlar bevosita «Avesto»da aks etgan.

Zardo'shtiylik davrida yaratilgan mifologik tasavvurlarning aksariyati ajdodlarimiz badiiy tafakkurining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida epik janrlarning syujet tizimiga singib ketganligi bois «Avesto» mifologiyasining ayrim obraz va motivlari asosida yuzaga kelgan afsonalar hozirgi kunda ham xalqimiz orasida saqlanib qolgan.

Umuman aytganda, folklorda noestetik hodisalarni og'zaki ijod qonun-qoidalari, epik tamoyillar asosida estetik hodisaga aylantirish, ya'ni oddiy predmetni obraz darajasiga ko'tarish, uning predmetlik ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarini ishga solish tajribasining shakllanishiga xalqimizning mifopoetik tasavvurlari zamin yaratgan.

Ma'lumki, ajdodlarimiz Hayot daraxti to'g'risidagi qarashlarga ishonib, daraxtlarga e'tiqodiy munosabatda bo'lgan. Hatto ularni o'ziga totem ham deb bilgan. Aslida esa daraxtning poetik fikr ob'ektiga aylanishiga, avvalo, xalqimizning turmush tarzi bevosita dehqonchilik va bog'dorchilik bilan chambarchas bog'liqligiga sababdir.

Mifologik tasavvurlarga ko'ra, inson o'zini yo daraxtdan, yo biror hayvondan, yo tuproqdan yaralgan deb tavsiflaydi. Shu asosda o'zini ona-tabiati, ona-zamin farzandi deb ko'rsatadi. Qaysidir daraxt yoki jonivorni qondoshi, qarindoshi, ruhan yaqini tariqasida ulug'laydi va ardoqlaydi. O'limni esa o'zligiga qaytish, ruhiy va shakliy evrilish vositasi sifatida talqin etadi. Folklor asarlarida aynan shu qarashlar afsona va ertaklarda, qo'shiq va dostonlarda mifologik evrilish sifatida badiiy ifoda etilgani kuzatiladi.

Insonning ruhiy olamida kechadigan tushlar ham aslida noestetik hodisadir. Biroq uning yuz berishiga xos sirlik insonni hamisha o'ylatgan va buni bilishga undab kelgan. Tushni sirli olam hodisasi sifatida anglash xalq orasida unga nisbatan turli irimlarni va tabu-taqiqlarni keltirib chiqargan. Ularning bir qismi folklorning afsona, ertak, doston, naql, qo'shiq, maqol, topishmoq singari janrlarida ham o'z badiiy ifodasini topganligi kuzatiladi. Aytaylik, xalq orasida ko'rilgan tushni har qanday joyda, har qanday kishiga aytish taqiqlanadi. Chunki tushlar birinchi bor qanday ta'birlansa, shunday voqe bo'ladi degan xalqona ishonch hukmron. Bu esa, o'z navbatida, tushning tabu hodisasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Xalqning ishonch-e'tiqodiga ko'ra tushni iloji boricha ilmi, donishmand, qalbi pok, beg'araz, ko'pni ko'rgan va ko'pni bilgan tajribali kishiga yoki maxsus muabbir (ta'birchi)ga aytish kerakligi uqtiriladi. Ana shu xalqona ishonchning buzilishi oqibati "Rustamxon" dostonida badiiy ifoda etilganiga guvoh bo'lish mumkin. Unda Rustamxonning onasi Huroyim tush ko'rib,

tushidan ko'ngli buzilib uyg'onar ekan, bu haqda o'zi ishongan va suyangani do'sti, sodiq kanizagi Ximchaga aytishni ma'qul topadi. Shu epizod dostonida quyidagicha tasvirlangan: "Shu kecha Huroyim bir tush ko'rib, o'yonib, tushidan qo'rqib, – mening sendan do'st odamim yo'q, – deb Ximcha kaniziga tushini aytib turib edi, deydi:

Yotib edim, namoz vaqti tush ko'rdim,
Bu tushimda bir ajoyib ish ko'rdim.
Falak titrar tushimdan nolishima,
Rahm qilmas hech kim ko'zda yoshima,
Uch yuz oltmish jallod keldi qoshima.
Tushni ko'rib mening ko'nglim buzildi.
Bilmayman ne bo'ldi tushning tabgiri?

Bu so'zni eshitib, Ximchaoyim ko'ngli buzilib, bag'ri ezilib, bir so'z aytib turgan ekan:

Tushni aytding, opa, ko'nglim buzildi,
Oqtoshning shahridan rizqing uzildi,
Ko'rolmaysan, bildim, yolg'iz qo'zingdi,
Kelding chopson, opa, billa yig'laylik.

Shunday gaplar kirib sening tushingga:
Kun o'tmaydi jallod kelar qoshingga
Bu tushing xabari shunday bo'ladi:
Hayallamay, opa, jallod keladi,

Bu ishlarni bir dushmaning qiladi, – deydi kaniz Ximcha. Haqiqatan ham, doston syujetida ana shu voqealar asta-sekin yuz beradi. Xullas, Huroyimning boshiga tushajak ko'rgiliklar dostonida tush motivi vositasida oldindan tinglovchini ogoh etadi.

Umuman aytganda, xalq og'zaki ijodi janrlarida tush motividan foydalanib, qahramonning ruhiy holatini ochib berish, kayfiyatini, ichki kechinmalarini yoritish yoki epik asar voqealarini o'zaro bog'lab, shaklan va mazmunan yaxlit bir butunligini ta'minlash o'ziga xos an'ana tusini olganki, bu haqda J.Eshonqulov maxsus tadqiqot yuritib, tush motivlaridan ertak va dostonlar syujetida, qo'shiqlarda foydalanishning o'ziga xos tomonlarini, tushning folklor asarlaridagi semantik talqini, ramziy ma'no-mazmuni va badiiy-estetik vazifalarini ko'rsatib bergan.¹⁶

Tushga ishonch an'anasi asosida shakllangan tush motivi badiiy tafakkuri yuksak, e'tiqodi baland, boy ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik folklor an'analari o'ziga singdirib, mukammal badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Xalq ma'naviy taraqqiyotining hamda badiiy tafakkurining rivojlanishining ilk bosqichida hali murakkab fikrlashga, o'z

¹⁶ Эшонқул Ж. Эпик ижодда туш талқини // Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.54-105; Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Тошкент: Фан, 2011. – 304 б.

qarashlarini qat'iy shakllarda ifodalashga hali qodir bo'lmagan. Mana shuning uchun miflar juda oddiy va kichik shakllarda yuzaga kelgani ko'rinadi. Keyin esa ularning obrazlar miqdori ko'payishi, motivlari oshib borishi va badiiy takomillashuvi ertak, epos kabi katta va murakkab janrlarni paydo qildi. Shu tariqa janrlarning qaror topishi ham qonuniy hol kasb etib, bu jarayon ham ijtimoiy tarixiy omillar, ham folklorning ichki poetik taraqqiyot qonunlariga muvofiq kechdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mifologik tafakkur deganda nimani tushunasiz?
2. Badiiy-estetik yoki poetik tafakkur deganda-chi?
3. Mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayoni qanday tadrijiy bosqichlarda kechgan?
4. Noestetik hodisaning estetik hodisaga aylanishi qanday prinstiplar asosida yuz beradi?
5. Epos, ertak, xalq lirikasida miflarning badiiy-estetik sathda namoyon bo'lishini misollar orqali dalillay olasizmi?

Berilgan tayanch tushunchalarni izohlang: tafakkur, badiiy tafakkur, mifologik tafakkur, estetik tafakkur, epik tadrij.

MIF VA FOLKLOR JANRLARI

Reja:

1. Mif va afsona. Mifologik afsonalar.
2. Mif va epos munosabati. Dostonlarda mifologik tasavvurlar tizimi.
3. Mif va qo'shiq.
4. Mif va ertak. Ertaklarning mifologik qatlam bilan bog'liq ma'no ko'lam.
5. Mif va maqol-u topishmoq.

Mif va afsona. O'zbek mifologiyasidagi obrazlar tizimi, ayniqsa, yaratuvchi qahramonlar, dimiurglar, qahramon titanlar haqidagi tasavvurlar badiiy tafakkur taraqqiyoti davomida afsona, ertak va dostonlarning shakllanishi va taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Qadimgi miflar syujetining keyingi davrlardagi evolyutsiyasi esa quyidagicha kechgan: mifdan afsonaga va so'ngra ertak hamda qahramonlik eposigacha.

Afsona – o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimgi, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri. Hayotiy voqelikni xayoliy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asardir.

O'zbek mifologik afsonalari eng qadimgi davrlarda yaratilgan manbalarga ham kiritilgan. Jumladan, Beruniyning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida «Qayumars» afsonasi, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi Siyovush afsonasi keltirilgan.

Hozirgacha «Asotirlar va rivoyatlar (M.Murodov, M.Shayxova), «Ipak yo'li afsonalari» (M.Jo'rayev), «Bobolardan qolgan naqlar» (M.Jo'rayev, U.Sattorov), «Buxoro afsonalari» (M.Jo'rayev. R.Saidova) kabi to'plamlarida o'zbek miflarining, mifologik afsonalarining ayrim namunalari e'lon qilingan.

Afsona janrining shakllanishi va taraqqiyotida mif ilk semantik asos, o'zak vazifasini o'tagan. O'zbek xalq afsonalarining yuzaga kelishiga zamin bo'lgan manbalar hamda tadrijiy taraqqiyoti "hayotiy voqelik → mif → afsona" bosqichlaridan iboratdir.¹⁷ Afsona janrining genetik asoslari bevosita mif bilan bog'liq.

"Afsona janri qadimgi mifning bevosita takrori yoki nusxasi emas, balki yangicha epik ijod mahsulidir. Voqelikni izohlash, tushuntirish va talqin qilishning yangi usuli ma'lum ma'noda mifologik dunyoqarashning inkori sifatida yuzaga kelgan. Shunday ekan, mifologik syujetlar to'g'ridan-to'g'ri afsonaga aylanmagan, ya'ni afsona mifologik tasavvur usulini butunlay inkor etgani holda uning elementlarini o'ziga singdirib yuborgan".¹⁸

Afsona janri epik janr namunasi sifatidagi o'z vazifasini ham bevosita mifdan olgan, ya'ni bu janr bevosita mif bilan funkstiyadoshdir. Mif qadimgi odamning olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari yig'indisi bo'lganligi uchun uning asosiy funkstiyasi kishilarga muayyan axborotni etkazish, voqelikdagi u yoki bu hodisaning sababini izohlash, tushuntirishdan iborat bo'lgan. Ana shu funkstional xossa ham mif ijodkorligi tanazzulga yuz tutib, uning o'rnini badiiy va epik tafakkur an'anasi egallagach, butunicha afsona janrining zimmasiga ko'chib o'tgan. Afsonalar ham aytuvchi, ham tinglovchi tomonidan hayotda bo'lgan voqea bayoni, haqiqat deb qabul qilingani bois tinglovchiga u yoki bu fakt, ma'lumot haqidagi axborotni etkazish maqsadini ko'zda tutadi.

Mif va afsonaning quyidagi umumiy xususiyatlari mavjud:

1) mif bilan afsona tabiat va jamiyat hayoti bilan bog'liq muayyan tushunchalar mohiyatini izohlash maqsadida yaratilgan;

2) ularning har ikkalasi ham qadimgi odam ongida shakllangan fantastik talqinlar mahsuli bo'lib, bu ijtimoiy ong ifodasi mifda tabiat hodisalari, kultlar va ilohlar to'g'risidagi turli xil e'tiqodiy qarashlar, afsonada esa muayn axloqiy-etik qarashlarni asoslaydigan xayoliy uydirma shaklida namoyon bo'ladi;

¹⁷ Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари: Филол. фанлари докт. дисс. – Тошкент, 1996. – Б.53.

¹⁸ Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналарининг тарихий асослари. – Б.53.

3) mifdagi singari afsonalarda ham u yoki bu narsa-hodisaning muayyan holati haqida ma'lumot, ya'ni etiologik xulosa bayon etiladi;

4) o'rta asrlarda yaratilgan mifologik tasavvurlarning ommalashishi va tadrijiy rivoji shuni ko'rsatadiki, miflar faqat afsona shaklida, ya'ni estetik kod orqali jonli folklor ijrochiligida yashab kelgan. Shunday ekan, mif bilan afsonaning yana bir umumiy belgisi ularning hikoyaviy usulda ommalashish xususiyatiga egaligidir.

Mif va afsona badiiy tafakkur taraqqiyotining turli bosqichlariga mansub folklor janrlari bo'lganligi uchun ular bir-biridan farqlanuvchi belgilarga ham ega:

1) mif qadimgi ishonch-e'tiqodlar va tasavvurlar tizimiga mansub prafolklor hodisasi hisoblanadi. Afsona esa badiiy tafakkurning shakllanishi va evolyutsiyasi davomida mifning inkori sifatida yuzaga kelgan epik janrdir;

2) tarixiy asoslarga ko'ra mif bilan afsona ikki xil iktimoiy-iktisodiy formastiya, ya'ni ikki xil tafakkur tarzining mahsulidir. Mifni ibtidoiy jamoa tuzumi dunyoqarashi yuzaga keltirgan bo'lsa, afsonalarning janr sifatida shakllanish jarayoni ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi va quldorlik jamiyatining ilk davrida boshlangan;

3) muayyan tarixiy-folkloriy jarayon qonuniyatlari asosida mifning inkori sifatida afsona janri yuzaga kelganligi folklorshunoslikda isbotlangan bo'lsa, ammo afsonadan esa mif kelib chiqishi hodisasi kuzatilmagan.

4) Mif va afsonalar tasvirlanayotgan voqelik qachon ro'y berganligiga qarab, ya'ni epik matnning zamoniyl belgisiga ko'ra ham farqlanadi. Xalq nasrining ertakdan boshqa janrlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning epik belgilarini yoritishda vaqt kontinuumi mezoni asosida ish tutish maqsadga muvofiqdir. Chunki "miflarda olam yaratilgan ibtido davri haqida so'z yuritiladi, rivoyatlarda tasvirlanayotgan voqelik tarixiy (aniqrog'i, kvazitarixiy) xarakterga egaligi bilan farqlanadi, og'zaki hikoya – bilichkalarda esa hozirgi vaqtda yoki yaqin o'tgan zamonda ro'y bergan voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot beriladi".¹⁹ Jahon folklorshunosligi ma'lumotlariga qaraganda, dunyodagi ko'pgina xalqlar, ayniqsa, tadqiqot o'tkazilgan paytda taraqqiyotning quyi bosqichi xos turmush tarziga ega bo'lgan elatlar og'zaki nasridagi asarlarni asosan hikoya qilinayotgan materialning zamoniyl yo'nalishi va vaqt belgisiga ko'ra bimalol farqlay olar ekan. Masalan, Uzoq Sharqda istiqomat qiluvchi xalq va elatlar folklorini o'rgangan V.G.Bogorazning aniqlashiga qaraganda, chukchilar orasida xalq nasrining alohida janrlari nomini bildiruvchi maxsus atamalar bo'lmasa-da, ular tasvirlangan voqelikning zamoniyl qamroviga qarab hikoya qilinayotgan matnlarni bir-biridan farqlashgan. Shunga

¹⁹ Новик Е.С. К типологии жанров сказочной прозы Сибири и Дальнего Востока // Фольклорное наследие народов Сибири и Дальнего Востока. – Горно-Алтайск, 1986. – С.39.

ko'ra chukchi xalq nasrining ertakdan boshqa janrlari *"ibtido davri xabarlari"* (mif), *"nizolar davri xabarlari"* (rivoyat), *"haqiqiy xabarlar"* (og'zaki hikoya) kabilarga bo'lingan.²⁰

5. Mif va afsonalar personajlar tarkibiga ko'ra farqlanadi. Afsonalarda mifologik tasavvurlar asosida kelib chiqqan obrazlar ishtirok etishiga ko'ra personajlar tizimi muayyan mushtarakliklarga ega bo'lganday taassurot qoldiradi. Ammo xalq tafakkurining bu har ikki ko'rinishida ishtirok etuvchi obrazlar janr spetsifikatsiya nuqtai nazaridan farqlanadi. Xalq nasri janrlarining vaqt kontinuumiga ko'ra bir-biridan farqlanishi personajlar tarkibining ham muayyan zamoniy-xronologik qurilish kasb etishiga asos bo'lgan. Ya'ni folklor ijrochilari voqelik tasviri kechgan davrning zamoniy qamrovini belgilashda hikoya markazida turuvchi asosiy figura – qahramonni asos qilib olishgan. Masalan: madaniy qahramon (mif), urug'-qabila boshlig'i, ajdodboshi (rivoyat), ijrochiga zamondosh kishi (og'zaki hikoya).

6. Mif va afsonalar ishtirok etuvchi personajlar harakatlanadigan makonning topografik qamroviga ko'ra farqlanadi. Qahramon va u harakat qiladigan makon topografiyasining mutanosibligi jihatidan qaraganda, mif va afsonaning o'zaro farqi quyidagi holatda ko'rinadi: kosmos (mif), muayyan urug' yashaydigan hudud (rivoyat), konkret makon (bilichka).

7. Mif va afsonalar qadimgi rituallarga aloqadorligi jihatidan farq qiladi. Ma'lumki, miflar yaratilish davri va dastlabki funkstiyasiga ko'ra muayyan darajada ritual ahamiyat kasb etgan. Chunki mif ijodkorlari va ijrochilari tinglovchiga etkaziladigan faktlarda homiy ajdodlar, g'ayrioddiy qahramonlar, ruhlar va o'zga olam vakillari haqidagi tasavvur-tushunchalar mujassamlashgan. Boshqacha qilib aytganda, mif qadimgi odamning muayyan ramziy timsollar va asotiriy kodlar orqali etkaziladigan axborotlari tizimi hisoblangan. Shuning uchun ham miflar ko'pincha ibtidoiy marosimlar chog'ida og'zaki hikoya qilinib, ramziy harakatlar vositasida raqs yoki o'yin shaklida ko'rsatilib, namoyish etib berilgan. Qadimda hamma miflar ham keng ommaga etkazilishi ko'zda tutilmagan. Masalan, o'smirlarni bir yosh mansubiyatidan boshqasiga o'tkazadigan "yashirin jamiyat"lar, kohinlar, shomonlarning o'ziga xos mifologik qarashlari majmui bo'lganki, bu asotirlar ko'pchilik uchun sir tutilgan. Deylik, ma'lum jismoniy, ritual va ma'naviy sinovlardan o'tib, yigitlar safiga qo'shilmoqchi bo'lgan o'smirlarga marosim rasm-rusmlarini bajarishi jarayonida ana shunday miflar hikoya qilib berilgan. Sinovdan o'tuvchi shaxs bu miflar vositasida ajdodlar ruhining ramziy madadiga erishib, muayyan magik kuchga ega bo'lishiga ishongan. Shu ma'noda, mif qadimda asosan sakral matn sifatida ommalashgan deb taxmin qilish

²⁰ Богораз В.Г. Материалы по изучению чукотского языка и фольклора, собранные в Колымском округе. – СПб., 1900. – С.5.

mumkin. Bunday miflarning ijrochilari va tinglovchilari auditoriyasi ham cheklangan. Mif matnining magik-ritual xarakter kasb etganligi esa tinglovchilar doirasining tobora qisqarishiga olib kelgan: ayrim matnlar yoki uning muayyan qismlarini begona kishilar eshitishi mumkin emas, deb qaralgan.

Mifologik tasavvurlar evolyutsiyasi jarayonida ana shunday “tor doiraga mo’ljallangan” mifik syujetlar va motivlarning epik tafakkur tizimiga ko’chishi, ya’ni qayta badiiy idrok etilishi natijasida mifga xos sakrallik belgisi yo’qolib ketgan. Boshqacha qilib aytganda, afsona janrining yuzaga kelishi bosqichida miflarning desakralizatsiya jarayoni yuz bergan.

8. Mif va afsonalar syujet qurilishiga asos bo’lgan manba va voqelik talqiniga ko’ra bir-biridan farq qiladi. Qadimgi odamlar tasavvurlari va qarashlarining sistemaga solingan tizimi sifatida shakllangan mifologiya ibtidoiy e’tiqodlarning animizm, totemizm kabi ko’rinishlarini o’zida mujassamlashtirgan. Ya’ni mif zamirida qadimgi tasavvurlar va arxaik dinlar mohiyati aks etgan bo’ladi. Afsonalar syujeti esa ko’p holatda real hayotiy voqelik yoki voqelik haqidagi xayoliy uydirma asosida yaratiladi. Boshqacha qilib aytganda, miflar zamirida qadimgi animistik dunyoqarash yotsa, afsona va rivoyatlar atrofimizni o’rab olgan real voqelik talqiniga asoslanadi.

O’zbek xalq afsonalarining kelib chiqish tarixiy ildizlari miflarga borib taqalishi, ularning miflardan keyingi stadial bosqichda shakllangani aytiladi. Hatto o’zbek xalq afsonalarining alohida bir turi **mifologik afsona** deb ko’rsatiladi. Miflar bilan genetik aloqador bo’lgan mifologik afsonalarda, asosan, er va osmon, yaxshilik (ezgulik) va yomonlik (yovuzlik) xudolari, homiy kuchlar, pirlar, avliyolarning g’aroyib, sirli ishlari, insonlarga g’oyibdan ko’makka kelishi, mifologik pahlavonlar, er yuzida odamning paydo bo’lishi haqida hikoya qilinadi.

Mifologik afsonalar mifologik obrazlar ishtirokida, mifologik motivlar asosida yuzaga kelganligi bilan ajralib turadi. Ularda ko’pincha samoviy jismlar paydo bo’lishi haqidagi qarashlar talqini uchraydi.²¹

Afsonalarda ruhiy olamga, o’zga dunyoga, totem va kultlarga, tabu-taqiqlarga ishonch talqini ham alohida o’rin tutadi. Ayniqsa, insonning biror hayvon, qush, o’simlik yoki daraxt ko’rinishida evrilishi haqidagi tushunchalar afsonalarda ko’p kuzatiladi. Bu esa afsonalarning syujet tarkibi miflarga asoslanganidan, serqatlam va murakkabligidan, o’ziga xos g’oyaviy-badiiy taraqqiyotga erishganligidan dalolat beradi.

Miflar folklordagi ertak, qo’shiq, doston singari qator janrlar kabi afsonalarning yuzaga kelishida asosiy manba vazifasini o’taganki, shu genetik aloqadorlik ular tarkibidagi mifopoetik elementlardan bilinib turadi. Aytilgan janrlar tarkibida uchraydigan mifologik obraz va

²¹ Жураев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Т.: Фан, 1995.

motivlar buni dalillay oladi. Mifotoponimik afsonalarda ma'lum bir joyning kelib chiqishi biror-bir mifologik obraz bilan bog'lab talqin etiladi.

Afsonalar miflardan keyingi stadial bosqichda paydo bo'lganligi sababli ularda g'aroyiblik, sehr-jodu etakchi o'rin tutadi va ko'pincha u sehrli-fantastik ertaklardan farqli ravishda personajning xohishiga ko'ra emas, balki tashqi g'aroyib kuch bilan yuz beradi. Lekin ba'zi afsonalarda personajning sehr-jodu qudrati bilan yuz bergan g'aroyiblik haqida hikoya qilinadi. Masalan, avliyolar haqidagi afsonalarda ko'proq shu motiv uchraydi. Ba'zi afsonalarda fantastik xarakterga ega mifologik personajlar ishtirok etadi. Hayvonlar, o'simliklar jonlantiriladi. Hayvonlarning antropomorf obrazlari aks ettiriladi. Masalan, "Gavmard" afsonasidagi inson-buqa obrazi kelib chiqishi, tarixiy-mifologik ildizlari, badiiy talqini "Avesto"da orqali ham oydinlashadi.²²

Afsonalar hajman kichik va ixcham ko'rinishda bo'lishi, ifodada faqat xayoliy uydirma, fantastika, badiiy to'qimaga asoslanishi, biror voqelik haqida ma'lumot etkazishni ko'zlashi, ya'ni informativ vazifa bajarishi jihatidan miflarga o'xshasa-da, syujetida inson personaj uchrashiga ko'ra miflardan farqlanib turadi. Miflarda esa inson personaj hech qachon ishtirok etmaydi. Afsonalarda ayrim hayvon, qush va baliqlarning kelib chiqishi, ularning o'ziga xos muhim belgilari izohi ham keltiriladiki, shu jihatdan ham ular ba'zan miflar bilan qorishtirib yuboriladi. Bunday afsonalar keyinchalik etiologik ertaklarni keltirib chiqargan. Mana shu o'rinda afsonaning ertakka aylanishi anglashiladi.

Mif va epos. Doston (epos) ham o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. V.M. Jirmunskiy ta'rifi bilan aytganda, "Epos – xalqning qahramonlik idealizastiyasi ko'lamidagi jonli o'tmishidir". Uning o'tmishga daxldorligi miflar bilan bog'liqligini ham anglatadi. Dostonlarda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Aniqrog'i, ularda voqelik xalq idealidagi afsonaviy bahodir atrofiga birlashtiriladi. Bu qahramon favqulodda kuch-qudratga egaligi bilan ajralib turadi.

Romanik dostonlarning syujetida, asosan, qahramon g'oyibona oshiq bo'lgan go'zalni izlab safarga o'tlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarni, mashaqqatli sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g'ayri tabiiy kuchlar (dev yoki parilar) bilan to'qnashadi, barcha qiyinchiliklarni engib, o'z maqsadiga erishadi. Doston voqealari hashamatli saroylarda, shovqinli bozorlarda, sehrli bog'larda, tilsimli qo'rg'onlarda, vahimali g'orlarda, qo'rqinchli er va suv osti yo'llarida kechadi.

Dostonlarda epik ot obrazi talqini ham alohida ko'zga tashlanadi. Ularda epik ot obrazi mavjud epik an'analar doirasida talqin qilinganligini kuzatish mumkin. Jumladan, boshqa dostonlar singari

²² Жўраев М. "Гавмард" афсонасининг "Авесто"даги илдизлари". // Жўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари. Сўзбоши. – Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – Б.28-38.

“Avazxon” dostonida ham epik ot obrazlari alohida oʻrin tutadi. Dostonda Goʻroʻgʻlining oti Gʻirot, Hasanning oti Majnunkoʻk yoki Gʻirkoʻk obrazi alohida tasvirlangan.

“Malika ayyor” romanik dostonlarning mifologik turiga mansubdir. Chunki unda bosh qahramon Goʻroʻgʻli oʻz maqsadini amalga oshirishda juda koʻp mifologik personajlar bilan toʻqnashadi. Bunda u qoʻl ostidagi yigitlarining harbiy kuchiga emas, balki oʻz ilohiy kuchiga suyanib, gʻalabaga erishadi. Bir soʻz bilan aytganda, epik qahramon Goʻroʻgʻli bu dostonda qahramonlik, mardlik va jasurlik koʻrsatadi. “Goʻroʻgʻli” turkumidagi boshqa dostonlarda u katta sarkarda sifatida tasvirlansa, “Malika ayyor” da u bahodir jangchi qiyofasida koʻzga tashlanadi.

Xullas, dostonlarda ham inson personajning mifologik personajlar bilan jang qilishi motivi uchraydi. Aslida dostonlarga bu motiv afsona va ertaklardan koʻchib oʻtgan. Bundan shu anglashiladiki, dostonlarning motivlar strukturasi shakllanishida undan oldin yaratilgan epik asarlardagi anʼanaviy motivlar asos boʻlgan.

Oʻzbek xalq dostonlarida Xizr, dev, pari, ajdar, ilon, ot kabi mifologik tabiatga ega obrazlar koʻp uchraydi. **Xizr** – oʻzbek mifologiyasida odamlarga yaxshilik qiladigan, ezgu homiy sifatida ularning mushkullarni oson qilib, qut-baraka va moʻl hosil baxsh etadigan anʼanaviy asotiriy personajlardan biri. Xalqimizning mifologik tasavvurlariga koʻra, Xizr ajdodlar ruhining timsoli boʻlib, u qiyin ahvolda qolgan kishilarga madad beruvchi afsonaviy homiy, donishmand oqsoqol va obi hayot chashmasining suvidan ichganligi uchun doimiy barhayotlikka erishgan ezgu kuch hisoblanadi.

Koʻpgina dostonlarda qahramonga qirq **chiltan** ham homiylik qiladi. Qahramonning: “Gʻoyib eran pirim, qoʻllang qirq chiltan”, deyishi bunga misol boʻla oladi. Oʻrta Osiyo xalqlari orasida chiltanlar haqida maʼlum darajada bir-biriga qarama-qarshi ikki xil tasavvur borligi koʻrinadi. Birinchidan, xalq orasida chiltanlar qirq kishidan iborat boʻladi, degan qarash keng tarqalgan. Ular ruhiy kamolotga etishgan, eng insofli, adolatli kishilardan tanlanadi. Beqiyos bilimga, gʻayritabiiy qudratga, fidoyilikka ega bu kishilar koʻpincha oddiy, faqirona hayot kechiradilar. Baʼzilar ularni tunda bir joyga yigʻilishadi, deyishadi. Chiltanlarning vazifasi odamlarni yovuz ruhlardan himoyalash, lozim topilsa davolash, tarbiyat etish, deb anglanadi.

Dostonlarda epik qahramonlar, yaʼni asardagi bosh obrazlar homiy sifatida koʻpincha “**eranlar**” koʻmagiga tayanadilar.²³ Ularning yordamida yer yuzi, yer osti, koʻk uzra bimalol harakatlana oladilar. Shuningdek, eranlar hadya etgan pat, tosh, soch tolasi, jun va hokazo singari buyumlar vositasida turli koʻrinishlarga evrila biladilar. Xizr, chiltan, oppoq soqolli chol, Shohimardon pir, Hazrat Ali, Qambar,

²³ Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. — Тошкент, “Фан”. 2011.

qalandar, darvesh, nuroniy kampir singari personajlar “eranlar” qatoriga kiradi. Bunday ko’makchi homiylar mifologik yoki totemistik timsol sifatida ham gavdalanitiriladi.

Dostonlarda ko’pincha homiy ruhlarga “eran” deya murojaat qilinadi. Ular qahramonni doimo qo’llab turadi, u bilan hamisha hamqadam yuradi. Eranlar obrazining mifologik mohiyati va “Go’ro’g’li” turkumi dostonlaridagi epik talqinlari folklorshunos olim Sh.Turdimov tomonidan chuqur o’rganilgan.²⁴ “Er” va “eran” atamasi “Go’ro’g’li” dostonlarida umumlashma “muqaddas ruh”, homiy ma’nosida keladi. Masalan, dostonlarda “er” asosan Xizrga epitet sifatida qo’llaniladi. Xizr va boshqa qahramonga homiylik qiluvchi kuchlarga nisbatan esa “eran”, “g’oyib eran” atamalari ishlatiladi. Dostonning turkman versiyasida Go’ro’g’li haqida gap ketar ekan, “Er nafs bilan do’ragan o’g’lon” deyilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Demak, “eran” sof turkiy asosli so’zlar bo’lib, “homiy, muqaddas ruh” ma’nolarida qo’llanadi.

O’zbek xalq dostonlarida **parilarning** epik qahramonga yordamchi vazifasida kelishi bu mifologik obrazning poetik tabiatiga xos etakchi belgidir. Xususan, o’zbek xalq sehrli ertaklarida pari obrazi ko’pincha epik ko’makchi yoki qahramonga yordamchi vazifasida keladi. O’zbek xalq og’zaki ijodida pari obrazining genezisi va badiiyatini maxsus o’rgangan folklorshunos Olim Qayumov parining qahramonga epik ko’makchi sifatidagi vazifalarini mohiyatiga ko’ra ikki tipga bo’ladi:

1. O’z faoliyati bilan qahramonga bevosita yordam beruvchi epik ko’makchi. Odatda, bunday parilar qahramon epik maqsadiga erishuvda ko’maklashadi.

2. O’zining maslahatlari bilan qahramonga bilvosita yordam beruvchi epik ko’makchi.²⁵ Bunday ko’makchilar qahramonga maslahat beruvchi, yo’l ko’rsatuvchi sifatida ishtirok etadilar. Masalan, “Bulbuligo’yo” ertagidagi maymun parining bevosita yordami, ya’ni maslahatlari bilan kenja shahzoda bulbuligo’yo qush, Arzaki jodugarning oti va podshoning qizini olib keladi.

Parilarning qahramonga yordam berishi motivi qadimgi ajdodlarimizning pari haqidagi mifik qarashlariga bog’lanadi. Chunki ular parilarni hosildorlik g’oyasi bilan aloqador homiy kuch timsoli deb qaraganlar. Hosildorlik kulti va go’zallik haqidagi estetik qarashlar sintezi natijasida yuzaga kelgan pari obrazi qadimgi mifologiyada homiy ruhlardan biri sifatida ham talqin qilingan.

Epik an’anaga ko’ra, Go’ro’g’lining ikki xotini (Po’lkan varianti bo’yicha uchinchi xotini Gulnor pari ham bor) – Yunus va Misqol parilardir. Ular Ko’hi Qofda Eram bog’ida yashaydi, ularni juda katta

²⁴ Турдимов Ш. Қирқ чилтон пирлар бор // Мактабгача тарбия. – Тошкент, 1992. – №5-6; шу муаллиф. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент, “Фан”, 2011.

²⁵ Қайумов О. Ўзбек фольклорида пари образи: генезиси ва бадияти: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Т., 1999. – Б.21.

devlar qo'riqlaydi. Parilar Go'ro'g'liga ilgaridan «belgilangan» bo'lsa-da, ularni qo'lga kiritish uchun katta jismoniy kuch bilan bir qatorda aql, farosat, usta tadbirkorlik ham kerak edi. Go'ro'g'li buni qoyil qilib bajaradi. Dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroy va oilaviy hayot inson turmushining ideal ko'rinishi sifatida keng, hayotiy lavhalarda juda real tasvirlanadi.

Xalq asarlarida **devlar** obrazi ba'zan epik ko'makchi yoki qahramonga yordamchi vazifasida keladi. "Go'ro'g'li" dostoni voqeligiga devlar qahramonning yor uchun qilgan safari bilan bog'liq holda kirib keladi. Yunus pari Go'ro'g'lining kelishini avvaldan bilar edi. Shu sababli chegaraga etti yashar Samandar devni «... qorovul qip qo'yib edi, shu yoqdan odam kelsa eysan deb». Etti yashar Samandar dev (dostonda u Balo dev ham deyiladi) tasviri an'anaviy dev tasavvuridan farq qilmaydi. Go'ro'g'li devni o'ziga bo'ysundirib, uning yordamida manzilga etgach, dev o'zini tanishtirib, «Bizning otimizni etti yashar Samandar dev, deydi» va boshingga mushkul ish tushsa, chaqirasan, deb junidan tutantirib beradi. Dostonlardagi epik vaqt qancha o'tsada, Samandar devning yoshi o'zgarmaydi. Samandar dev nomining doimiy sifatlashi bo'lgan *etti yashar* uning yoshidan ko'ra kamoloti, kuch-qudratini ifodalovchi o'lcham, mezondir. Yunus parining qo'riqchi sifatida Samandardek etti jonli devni tanlashi bejiz emas. Turkumda Samandar devning asosiy ishtiroki Go'ro'g'lining «yor safari»da qahramonni Ko'hi Qofga olib borib kelishi va yurtga bostirib kelgan Rayhon arab boshliq dushman qo'shini bilan kurashda yordamlashishi bilan tugaydi. Turkumning boshqa dostonlarida devlar xizmatiga ehtiyoj tug'ilganda, barcha yumushlarni uch g'aroyib xislatli dev – Hasan Ko'lbar, Hasan Chopson, Hasan Yakdastalar bajaradi. Dostonlarda Hasanlarning uchta ekanligi aytilib, har biri nomma-nom sanalsa-da, ularning ikkitasi – Hasan Chopson va Hasan Ko'lbar faol ishtirok etib, Hasan Yakdasta ko'pincha sheriklarining soyasida qolib ketadi.

Demak, devlar dostonlarda aniq ismlar bilan keltirilishi kuzatiladi. Masalan, "Avazxon" dostonida Avaz, Shodmon va Asad mergan uchovi yo'lga tushib, devlar makoni bo'lgan Beldos qirga etib boradilar va u erda qirq devning boshlig'i Yaproqdevga uchrashadilar. Ular Avazning tog'alari edi. Yaproqdev Avazni, Shodmon va Asadni uchta olma qilib, otlarini ham uch to'rg'ayga aylantirib, qo'yniga soladi va osmonga uchib ketadi. O'n kecha-o'n kunduzdan keyin Yaproqdev ularni yigirma kunlik (aslida yigirma yillik) manzilga olib qo'yadi va yana o'z hollariga qaytaradi.

Xullas, chiltanlar, dev va parilar obrazi serqatlam tasavvurlar tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Folklorda bu obrazlarning badiiy talqinlari o'zga olam mavjudligiga ishonch va uning vakillariga ixlos

bilan bogʻliq mifologik qarashlar tizimiga tutash holda taraqqiy topib borganligi kuzatiladi.

Oʻzbek xalq dostonlari va ertaklarida **zoomorf homiy** sifatida eng koʻp talqin qilinadigan obraz – bu **otdir**.

“Goʻroʻgʻli” dostonlarida Gʻirkoʻk (Gʻirot) obrazi etakchi mavqeda turadi. **Hodi Zarif** Gʻirkoʻk obrazini suv va yulduz bilan bogʻliq talqin etiluvchi qadim mifologik ot obrazi anʼanalari hamda ajdodlarimizning ot naslchiligi tajribalari, malakalari zamirida shakllangan, deb baholaydi.²⁶

Arxaik epos bilan marosim strukturasi oʻzaro uygʻun kelgan, qashqadaryolik mashhur baxshi Qodir Rahimov repertuaridan mustahkam oʻrin olgan va sevib ijro etilgan “Goʻroʻgʻli” turkumiga kiruvchi “Jorxun maston” dostonida “shomon” – Goʻroʻgʻlining shajarasi, unga homiy ruhlarning koʻmagi, oʻzga yurtga safari, yovuz dushmanga qarshi jang qilishi, bu jangda Goʻroʻgʻlining oʻzga qiyofaga ega boʻlishi singari motivlar bevosita shomonlar marosimiga xos tadrijiy bosqichlarda birma-bir tasvirlangan. Jumladan, Goʻroʻgʻlining jang oldidan oʻzga qiyofaga kirishi dostonida shunday berilgan: “Goʻroʻgʻli Gʻirni loyga ovnatib choʻbir qildi. Qirq chilton bergan oq va qizil parlarni olib qizilini betiga oʻn sakkiz yashar yigit boʻldi”.²⁷

Doston Goʻroʻgʻlining nevarasi, yaʼni Avazxonning oʻgʻli Nurali nomi bilan bogʻlanadi. Unda Gʻani degan mullavachchaning tosh koʻrinishiga aylantirilishi, Jorxun mastonning mullavachcha qiyofasiga kirishi, u boshliq qirq mastonning gʻozlar qiyofasiga evrilishi, Nurali bilan shu gʻoz koʻrinishidagi mastonlarning jangi mifologik qarashlar asosida tsvirga olingan. Nurali gʻoz koʻrinishidagi mastonlarni tanimagani kabi goʻzal qizlar qiyofasiga evrilgan yozuvlarni ham sezmay, ular qoʻlidan tilsimlangan suvni ichib, es-hushidan ayriladi-yu, bandi boʻlib qoladi. Ammo Gʻirot bularni sezib, mastonlar qoʻlidan qochib qutiladi.

Nuralining boshiga tushgan falokatlar otasi Avazxonning tushida ayon boʻladi. Shundan soʻng Avazxon zudlik bilan Soqi sinchi hamkorligida Nuralini qutqarish uchun yoʻlga chiqadi. Avazxon Gʻirot koʻmagida Semurgʻ koʻrinishiga evrilgan yovuz maston Jorxunni magʻlub etadi. Soʻngra yaralangan Gʻirot bilan Soqini Chambilga joʻnatib, oʻzi yoʻlda davom etadi. U Gʻirot boʻlmagan hollarda doimiy hamrohi, sevimli Majnunkoʻk otini minib, dushman bilan qattiq jang qiladi. Ammo yolgʻizligi, jangda besh joyidan yaralanganligi, otining charchab qolganligi, bandilikda nola chekayotgan Nuraliga koʻzi tushib, ruhiyatini boshqarolmay qolishi tufayli u ham asir tushadn. Shundan soʻng ota-bolani qutqarish uchun Goʻroʻgʻli qirq yigiti bilan yetib keladi. U hiyla ishlatib, dushmanni yengadi. Bolalarini qutqarib, dushman

²⁶ Зарифов Х. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар / Пўлкан шоир. – Т.: Фан, 1976. – Б.65-89.

²⁷ Жорхун мастон. // Нурали. Дostonлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Т.: Ф. Ғулом нашриёти, 1989. – Б.105.

podshosi Gavharshohning go'zal qizi Gulsanobarni kelin qilgancha, orada do'stlik rishtalarini o'rnatib, ortga qaytadi.

Ko'rinayaptiki, doston syujeti voqealarning rivojlanishi bevosita shomonlik marosimi strukturasi bilan uyg'undir. Dostonda shu marosim bilan bog'liq motivlar uning badiiy-semantik strukturasi belgilovchi muhim omil sifatida ko'zga tashlanadi.

Mif va qo'shiq. Xalq qo'shiqlarida qadimgi ajdodlarimizning turmush tarziga oid maishiy tushunchalar hamda poetik tafakkur taraqqiyotining ilk qatlamlariga mansub mifologik, animistik, totemistik, fetishistik, shomonlik, magik qarashlarning ta'siri saqlanib qolgan an'anaviy arxaik obrazlar ham uchraydi.

A.Musaqulov: "Xalqning ko'p asrlik tarixi, maishiy turmushi, eng avvalo, mifologik tafakkur bilan bog'liq va bu siyrat ma'nolar xalq qo'shig'ining sirlarini hamda ahamiyatini to'la anglash uchun maxsus folkloristik-etnografik tadqiqotlar olib borish zaruriyatini tug'diradi", – deb izohlaydi. U yana xalq qo'shiqlarini «tarixiy asoslariga ko'ra qadim tasavvurlar, urf-odatlar bilan, ayniqsa, hosildorlik kultlari bilan uzviy bog'langan, kuy va raqs bilan birga paydo bo'lib, kuy bilan munosabatini barqaror saqlab qolgan she'riy san'at turi»²⁸ sanaydi.

Xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi va rivojida mifo-poetik tafakkur muhim ahamiyat kasb etgan. Mifologik mushohadaning badiiy ifodasi esa, an'anaviy xalq qo'shiqlaridagi u yoki bu ramziy obraz bag'rida bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Mifologik dunyoqarashga ko'ra, hatto turkiy xalqlar qo'shiqning o'zini ham jonli mifik mavjudot deb tasavvur qilganlar. Qo'shiqning magik qudratiga sig'inganlar. Shu boisdan qo'shiqlar mazmunan ijtimoiy turmushning barcha sohalarini qamrab olgan. Turmushda ro'y bergan har bir ijtimoiy hodisaga ular hozirjavobdir. Shu xususiyatiga ko'ra, ularni an'anaviy va zamonaviy qo'shiqlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Shuni aytish kerakki, xalq qo'shiqlarida ramziy obraz sifatida uchraydigan har bir atribut **“mif – marosim – folklor”**dan iborat murakkab taraqqiyot bosqichini bosib o'tib, ramzga aylangani anglashiladi. Bu jihatdan quyidagi qo'shiqda ham TERAQ va TOL obrazlari parallelligi bilan JUVON va QIZ obrazlarining parallelligi bevosita alohida e'tiborni tortadi.

Terak ekmay, tol eking,
Tolning soyasi yaxshi.
Juvon olmay qiz oling,
Qizning qilig'i yaxshi.²⁹

²⁸ Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадиияти: Филол. фан. докт....дисс. автореф. – Т., 1995. – Б.15.

²⁹ Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.54.

Qo'shiqda nega aynan INSON va DARAXT obrazlari parallel sifatida tanlangani qiziqtiradi. Bu savolga javob berish uchun hodisaga **mif – marosim – folklor** poetik taraqqiyoti nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi. Buning sababi shundaki, misol keltirilgan qo'shiqda daraxt va inson obrazining parallel keltirilishiga asos bo'lgan **birinchi omil** – bu qadimgi ajdodlarimizning mifologik tasavvur-tushunchalari zahirida shakllangan ibtidoiy totemistik qarashlar bo'lsa, **ikkinchi omil** – shu totemistik qarashlar negizida kelib chiqqan marosim va urf-odatlaridir. Zero, xalqimiz orasida terak va tol daraxtlari bilan bog'liq qator udumlarimiz mavjud. Jumladan, qadimgi insonning daraxtlarni o'zi bilan qondosh, ruhan yaqin deb o'ylashi, insonning ruhi tug'ilganicha ham, o'lganidan keyin ham daraxtda bo'ladi deya tushunishi daraxt va o'simliklar olami bilan bog'liq e'tiqodlarning shakllanishiga olib kelgan. Shu e'tiqodning izlari tug'ilish hamda o'lim yuz berishi munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlarda sezilarli darajada saqlanib qolgan. Binobarin, bola tug'ilganda uni qora tol, tut yoki boshqa mevali daraxtlardan tayyorlangan beshikda yotqizish yoki dunyoga kelgan o'g'il chaqaloq nomiga terak ekish va bola bilan teng o'sib-ulg'aygan shu terakni unga atab qurilgan imoratga ishlatish, shuningdek, inson vafot etganda uni qora toldan yasalgan yog'och tobutga solib, dafn qilish uchun ko'tarib ketish, tobut oldida daraxt tanasidan hassa tutib turish, mayit qabrga qo'yilib, ustidan tuproq tortilgach, hassakashlarning o'z hassalarini qabr boshiga yoki atrofiga suqib qaytishi odatlarida daraxt bilan bog'liq e'tiqod yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xalqimizning urf-odat va marosimlarida qo'llanib, e'tiqodiy qarashlarni o'ziga singdirgan bu kabi predmetlar folklor asarlarida ko'pincha ramziy ma'no-mazmunda talqin etilishi kuzatiladi. Shu orqali ularning inson hayoti bilan bog'liqligi haqida avlodlardan-avlodlarga o'ziga xos usulda xabar qoldirilgan.

O'zbek xalq qo'shiqlarida ramzlarning qo'llanilishini maxsus tadqiq qilgan folklorshunos Shomirza Turdimov tol obrazi – oshiq, er, erkak, hayot, taqdir, erkak muhabbati ramziy ma'nolarida kelishini ta'kidlaydi.³⁰ Darhaqiqat, tol – shoxlari har tomonga tarvaqaylab o'sgan sersoya daraxt. U o'sgan joyiga soya va ko'rk bag'ishlaydi. Soyasi tanlarga rohat, dillarga huzur baxsh etadi. Shu jihatdan, u jonboz oshiq yorni, jonkuyar erkak – oila boshlig'ini eslatadi. Shu o'xshashlik asosida parallelizm vujudga keltirilib, yuksak badiiyatga ega qo'shiq yaratilgan. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, qo'shiqdagi tol obrazi – oshiq, erkak obrazini ifodalash uchun qo'llangan. Inchunin, terak obrazi ham xalq asarlarida, asosan, erkak, oshiq yigit obrazlarini ifodalab kelishi kuzatiladi. Ammo xalq terakni ko'pincha “qo'rqqoq oshiq”

³⁰ Турдимов Ш. Бирнинг минг жилваси. – Тошкент. – Ёшлик. – 1987. – № 5. – Б.70-71.

timsolida epik talqin etadi. U haqdagi afsonalardan birida hikoya qilinishicha, bir yurtga dushman bostirib kelib, boylik va xotin-qizlarni o'lja sifatida qo'lga kirita boshlabdi. Jang shiddatli tus olibdi. Shunda bir qo'rqqoq yigit sevgan qizini dushman qo'lga olganini ko'rib tursa-da, o'z jonini aziz bilib, erto'laga kirib yashirinibdi. Qiz buni sezib, yigitni qarg'abdi. Qizning qarg'ishi bilan yigit terakka aylanib qolibdi. Terakning bargi shamol bo'lsa-bo'lmasa titrab, qaltirab turishi shundan deyiladi. Shu kabi epik talqinlar asosida hamda terakning faqat ko'kka qarab o'sishi, soyasiz bo'lishi tufayli xalq asarlarida u "maqtanchoqlik", "kekkeyganlik", "qo'rqqoqlik", "quruq savlatdorlik" kabi ramziy ma'nolarni tashib keladi.

Xullas, to'rtlikning dastlabki ikki misrasida tol va terak daraxtlariga xos xususiyatlar o'zaro qiyoslash asosida obrazlantirilib, shu orqali mantiqan inson obraziga parallel keltirilmoqda va keyingi misralardagi asosiy g'oyani – "oilada erning o'rni va roli" muammosini oydinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ya'ni terak baland, ko'rkam, purviqor bo'lsa-da, soya bermasligi; salgina shamolga dosh berolmay, yaproqlari doimiy shitirlab asabni buzishi sabab salbiy xususiyat kasb etsa, tol esa terakka nisbatan bo'yi past, beso'naqay bo'lishiga qaramay, ofatlarga birmuncha bardoshli, jazirama issiqlarda insonga soyabon bo'lganligi uchun ijobiy ma'noda qabul qilinadi. Ma'lumki, hayotda ham xususiyati va sajiyasi jihatidan xuddi shunday erlar uchrab turadi. Shuni inobatga olib, qo'shiqda ayollar turmush qurish uchun yor tanlaganda hushyor bo'lishlari zarurligi, yigitning terakdek tik qomatiga, savlatiga mahliyo bo'lib, adashib qolmasliklari g'oyasi badiiy usulda ta'kidlanmoqda. Ayni paytda qo'shiqda er-yigitlar ham umr yo'ldoshi tanlaganlarida juvonnini emas, pok va beg'ubor qizni tanlagani ma'qulligi uqtirilmoqda. Negaki, poklik – inson umrini obod etadi.

Ko'rinyaptiki, qo'shiqda oddiy hayot haqiqati – umr yo'lida o'ziga munosib yor tanlash lozimligi g'oyasi ifoda etilmoqda. Chunki oilaning mustahkam tayanchi shu bilan bog'liqdir. Ana shu katta falsafiy, hayotiy mazmunni bor-yo'g'i to'rt misradan iborat qo'shiqqa joylashtirishda parallelizm san'ati keng imkoniyat yaratganini inkor etib bo'lmaydi. Bundan parallelizmlar qo'shiqda fikrni badiiy va ixcham tarzda bayon etishning qulay vositasi ekanligi yanada ravshanlashadi.

Bulbul sahar sayraydir,

Modasidan ayrilib.

Qiz bolalar yig'laydir,

Suyganidan ayrilib.³¹

Bu qo'shiqda inson va bulbul obrazlarining parallel keltirilayotgani e'tiborni tortadi. unda bulbul – poetik an'anaga muvofiq oshiq yigit obrazida keltirilib, u orqali sevishtganlarning ruhiy holati

³¹ Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.22.

ifodalanayotganligi sezilib turibdi. Qo'shiqda qushning inson ramzida berilayotgani bejiz emas. Buning ham ilk asosi mifologik tushunchalarga borib taqaladi. Binobarin, xalq qo'shiqlarida qush obrazining paydo bo'lishiga qadimgi ajdodlarimizning ruh, jon haqidagi animistik tasavvur-tushunchalari, odam o'lgach, uning joni (ruhi) qushga aylanib uchib ketadi deb qarashi, shu orqali qushlarni o'ziga qondosh sanashi, ruhan yaqin hisoblashiga oid totemistik fikrlari, qolaversa, osmonda yashovchi afsonaviy jonzoqlar to'g'risidagi mifologik o'ylari tarixiy asos bo'lgan. Shular natijasida hatto qush kultiga sig'inish yuz bergan.

Qush kultiga sig'inish izlari qadimgi dafn marosimi bilan bog'liq urf-odatlarda yaqqol kuzatiladi. Binobarin, qadimda o'lgan odamning jasadi tog'larga yoki kimsasiz cho'llarga tashlab qo'yilib, maxsus boqilgan o'laksaxo'r yirtqich qushlarga em qilingan. Marhumlar hozirgidek erga, qabrga dafn qilinmagan. Jasadni qushlar eb, suyagini etidan tozalagach, suyaklarni o'likka xizmat ko'rsatish uchun belgilangan kishilar – nasasalar yig'ib olib, xum yoki qutiga o'xshash «ostadon», «ossuariy»larga solib dafn etishgan.³²

Qadimda marhumlar jasadini qushlarga em qilish yo'li bilan ruhni qushlarga ko'chirish, shu orqali uni o'liklar olamiga jo'natish ko'zda tutilgan. Ruhi qushga ko'chirilgan marhum zoomorf qiyofada qayta tiriladi-yu, abadiy hayotga erishadi deb tushunilgan. Marhumlar ruhini qush qiyofasida qayta tiriladi deb qarash qushlarga nisbatan xalqning e'tiqodiy munosabatda bo'lishiga olib kelgan. Hatto hozirgacha shu qarashlar asosida mozoristonga ziyoratga borganlar o'zlari bilan bug'doy, guruch, makkajo'xori, arpa kabi donli ekinlardan olib borib, uni qabr ustiga sepishi odati saqlanib kelayotir. Sochilgan donlarni qushlar terib eyishi savob hisoblanadi. Shuningdek, respublikamizning ko'p joylarida marhumlar xotirasiga bag'ishlab «mehmon oshi» damlanadi. Motam marosimi ishtirokchilari, odatda, bunday oshni irim qilib emaydilar, yo kam eydilar. Qolgan osh esa tomga chiqarib yoyilib, qushlarga ediriladi. Bu ritual taom Xorazmda «qoqin oshi» deb yuritiladi.³³

Ayrim qushlarning kelib chiqishi haqidagi afsonalarda ularning dastlab odam, inson bo'lganligi, keyin biror sabab bilan qushga aylanib qolganligi hikoya qilinadi. Jumladan, «Bulbul bilan To'rg'ay», «Ziyoratgoh» afsonalarida bulbulning bir zamonlar odam bo'lganligi, qo'shiqchilik, shoirlik qilganligi aytiladi. Xudoning qudrati bilan shu shoir bir kuni bulbulga aylanib qolibdi. Odamlar uni yuvib-tarab, kafanlab qabrga qo'yishibdi-da, xotirasiga maqbara ko'taribdilar. Shu

³² Бартольд В.В. К вопросу об оссуариях туркестанского края. Соченения. Т. IV. – М., 1966. – С.119-123, 154-174; Штенберг Л.Я. Эволюция религиозных верований. Первобытная религия. – Л., 1936. – С.337-477.

³³ Бобожонов Е. Мотам маросимларига оид этнографизмлар. – Тошкент. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1997. – № 4. – Б.58.

joy “Hazrati Xo’jam bulbul” ziyoratgohiga aylanibdi va sevib-sevilib etisha olmaganlar, ishq o’tida qovurilganlarning taskin topadigan maskaniga aylanibdi.³⁴

Ko’rinyaptiki, afsonada inson qush bilan o’rin almashinishi qushga nisbatan qadimgi mifologik qarashlar asosida tasvirlanmoqda. Ertaklarda esa qushlar obrazi ko’pincha homiy, yordamchi, xabar etkazuvchi, yo’l ko’rsatuvchi, baxt keltiruvchi, davlat hadya etuvchi, og’ir yumushni bajarishda ko’mak beruvchi epik vazifalarda talqin etiladi. Ayniqsa, ertaklarda qasddan o’ldirilgan qahramonning joni og’zidan qush bo’lib uchib chiqib, ko’kka parvoz etishi motivi keng tarqalgan bo’lib, uning kelib chiqishiga ham ruhning qush bo’lib uchib ketishi haqidagi ibtidoiy animistik qarashlar asos bulganiga shubha yo’q.

Xullas, mifologik qarashlar natijasida dastlab afsona, ertaklarda insonga parallel timsol sifatida epik talqin qilingan qush obrazi keyinchalik xalq lirik qo’shiqlarida uning turg’un ramziy jufti sifatida to’g’ridan-to’g’ri aks ettirila boshlagan. Bir so’z bilan aytganda, qush haqidagi mifologik tasavvurlar genezisi O’rta Osiyoda yashagan qadimgi dehqonlarning hosildorlik g’oyasi bilan bog’liq agrar kulti, qadimgi chorvadorlarning, ovchilarning chorvachilik, ovchilik kasblari homiylari, Ajdodlar kulti, Qush kulti, jonni qush ko’rinishida tasavvur qilishga asoslangan animistik tushunchalarga aloqador estetik qarashlar zaminida shakllangan va epik hamda lirik asarlarda qush badiiy-ramziy obrazining inson obraziga parallel tasvirlanishiga asos bo’lgan. Yuqoridagi to’rtlikda shu qarashlarga binoan, bulbul – oshiq yigit timsolida berilgan. Bulbul, odatda, chamanzorlarda, bog’larda, gulzorlarda kezib, yoqimli sayrab kishi diqqatini tortadigan qush bo’lganligi, xususan, u qizil gul shaydosiligi tufayli qo’shiqlarda “oshiq yigit” timsolini ifodalab keladi. Bulbulni shaydo qiluvchi qizil gul esa “ma’shuqa” ramzida beriladi.

Badiiy tafakkurning keyingi taraqqiyot bosqichlarida inson o’zining turli predmetlar, daraxt va o’simliklar, hayvonlardan kelib chiqmaganini, ular aynan o’xshash emasligini, balki ularga nisbatan, qiyosan boshqa olam ekanligini aniqlagach, badiiy ijodda ham qiyoslash yuzaga keldi. Endi inson o’zining u yoki bu harakat-holatini biror o’simlik yoki hayvon, biror narsa harakat-holati bilan o’zaro qiyoslab ifodalaydigan bo’ldi.

Keyinchalik badiiy obrazlilik taraqqiyotining qiyoslash paydo bo’lgunga qadar qaror topgan barcha xususiyatlari, muhim tomonlari, ma’lum belgilari shartli ko’chim (istiora) orqali ramzda to’planib, uning tarkibiga singdi, turg’unlashdi. Shuning uchun ramzlar olmos

³⁴ Асотирлар ва ривоятлар. 1-китоб. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар М.Муродов ва М.Шайхова. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – Б.31.

qirralaridek turli ma'no nozikliklari bilan tovlanib turadi. Ramzgacha o'sib etgan badiiy obrazlar murakkab mazmunni namoyon etadi.

Ot, tuya, ho'kiz kabi jonivorlar hamisha chorvador va dehqonning mehnat jarayonidagi yaqin ko'makchisi bo'lgan. Ular orqali qadimgi ajdodlarimiz olis manzilni yaqin, mashaqqatli ishni oson qilishgan. Shu bois bu jonivorlarni qadimgi kishilar totem va kult darajasiga ko'tarib ardoqlashgan. Ularga nisbatan alohida e'tibor bilan munosabatda bo'lishgan. Hatto doston, afsona, ertak, rivoyat kabi xalq asarlarida bu jonivorlar bilan bog'liq turli epik talqinlar paydo bo'lgan.

Aslida chorvachilik faoliyatining vujudga kelishiga ibtidoiy insonlarning u yoki bu jonivorga e'tiqod qo'yishi, uni o'ziga homiy va madadkor hisoblab, totem darajasida e'zozlashi, shu asosda yuzaga kelgan turli totemistik qarashlari muhim omil bo'lgan. Shu sababli bugungi kunda bolalar repertuaridagina hukmlagichlar istilohi zamirida alohida janr sifatida qaror topgan bunday qo'shiqlarda turli-tuman hayvonlar va qushlarga to'ppadan-to'g'ri buyruq ohangida murojaat qilinib, ularning o'zigagina xos ta'rifu tavsifi keltiriladi: «Qaldirg'och», «Laylak», «Quyuncham», «Xo'rozim», «Uloqcha», «Eshakkinamni so'ydilar», «Toychoq» singari bolalar qo'shiqlarida qadimiy totemistik e'tiqod izlari bo'rtib turibdi.

Qadimgi ajdodlarimizning totemistik, animistik, shomonlik, magiya, hosildorlik va olov, suv kultlariga ishonchi bilan bog'liq mifologik dunyoqarashi lirik qo'shiqlardagi an'anaviy ramziy obrazlarning genetik asosini tashkil qilgan. Lirik qo'shiqlarda intim-erotik kayfiyatlarni ifodalashda, asosan, poetik ramzlarning xizmatini alohida ta'kidlash joiz.

Qadimdan ajdodlarimizning suvni o'ziga yaqin ko'makdosh, homiy deb anglashi, uni ulug'lashi natijasida suv kulti bilan aloqador ko'pgina an'analar vujudga kelgan. Insoniyatning juda ko'p an'analari, marosim va bayramlari, hayotiy tushunchalari bevosita suv bilan bog'liqdir. Suvga e'tiqodning mifologik asoslari shu bilan belgilanadiki, insonlarning, umuman, tirik mavjudotning suvga bo'lgan hayotiy ehtiyoji uni muqaddaslashtirishga va ilohiylashtirishga olib kelgan. Odamlar uning hech qachon tugamasligini, abadiyligini xohlab, "obi hayot", "mangu hayot suvi" haqidagi mifologik talqinlarni yaratganlar. "Mangu hayot suvi" timsolida suvning va tabiatning, inson hayotining boqiyiligini orzu qilganlar. Ana shu sabab xalq og'zaki ijodiga xos asotir, afsona va ertaklarda suv mangu hayot vositasi sifatida talqin etiladi. Hatto suv dunyosi o'ziga xos sirli olam sifatida tasvirlanadi. Obihayot haqidagi afsonaviy qarashlar bevosita mangu barhayot payg'ambar – Xizr, Ilyos, yana afsonaviy Iskandar nomi bilan bog'lab talqin etiladi.

Qadimgi insonlar suvning belgilarini, harakatlarini bevosita kuzatib, uni jonli kuch sifatida timsollashtirishga harakat qilganlar. Qadimda suvni jonlantirish asosida suv ma'budlari, suv parilari, suv

devlari haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalar shakllangan. “Suv dunyosi”, “suv olami”, “suv osti mamlakati”, unga eltuvchi “suv yo’li” haqidagi epik talqinlar vujudga kelgan.

Ibtidoiy insonlar tasavvuriga ko’ra yaratilgan asotir va afsonalar, ertaklarda tasvirlanishicha, insonlar dunyosi kabi suv dunyosi ham mavjud. Uning o’z hukmdorlari va qonun-qoidalari bor. Ana shunday tasavvur-tushunchalar asosida suv va insonlar dunyosini o’zaro o’xshatish, tenglashtirishdan iborat metaforik ko’chimlar paydo bo’la borgan. Bunday obrazlantirish esa hozirgacha saqlanib kelayotganligi alohida e’tiborni tortadi.

Turli mifologik tushunchalar asosida insonlar o’rtasida suvga magik (sehrli) kuch sifatida qarab, unga munosabatda magik xarakterdagi ramziy harakatlarga e’tibor qaratish an’anasi yuzaga kela boshlagan.

Suv obrazlari o’z va ko’chma, ijobiy va salbiy ma’nolarda qo’llanishi kuzatiladi. Sababi shundaki, xalq azaldan suvga ikki xil munosabatda bo’lgan. Xalq nazdida oqib turuvchi, harakatlanuvchi suvlar “tirik suv” sifatida pok, halol bo’lib, ular iste’molga yaroqli hisoblanadi. Oqmaydigan, bir joyda turib qolgan, zax, ko’lmak, loyqa suvlar esa “o’lik suv” sifatida nopok, ya’ni iste’molga yaroqsiz deb qaraladi. Shundan kelib chiqib, xalq she’riyatida daryo, soy, chashma, buloq, ariq, jilg’a, quduq suvlari ijobiy ottenkada, dengiz, ko’l suvlari salbiy ottenkada talqin etilishi kuzatiladi. Aynan shu an’ana zamonaviy she’riyatda ham davom ettirilgani alohida e’tiborni tortadi.

Qadim zamonlardan buyon suv, yomg’ir katta boylikka qiyoslangan. Hayot manbai hisoblangan suvni ilohiy mo’jiza, deb qarashgan. Ayniqsa, yomg’irni “obi rahmat” deya ulug’lashgan.

Qadimgi insonlar suvni, avvalo, o’zga olamga borish yo’li, deb qarashgan. Suvni inson ruhini poklovchi va unga mangu hayot bag’ishlovchi magik vosita deb qarab, turli marosimlar bilan bog’liq udumlarni ado etib kelishgan. Qizig’i shundaki, chaqaloqni, kelinni, mayitni yuvintirishdan iborat bunday udumlar haligacha saqlanib kelayotir.

Suvga marosimiy munosabatlar – alohida e’tiborni tortadigan hodisa. Chunki unda xalqimizning suvga aloqador qadimgi mifologik qarashlari namoyon bo’ladi.

Shu kabi tasavvur-tushunchalar asosida xalq lirik va marosim qo’shiqlarida suv muhabbat tuyg’usi bilan bog’liq timsol sifatida kuzatiladi.

Xalq lirikasida olov poetik obrazi vositasida lirik qahramonning qalb kechinmalarini, sevgi oila, farzand bilan bog’liq istaklarini ifodalash ham mumkin. Buning tarixiy asosi ma’lum darajada olov kulti bilan bog’lanadi.

Olovning hayot manbai haqidagi tasavvurlar ifodasi xalq lirikasida kuchsiz bo'lsa-da, mavjud:

Kosa-kosa suv icharman,
Bu yuragim kuydi, deb.
Har zamon uydan chiqarman,
Yori jonim, keldi, deb.³⁵

Shu sabab xalq lirikasida kuchli his-tuyg'ular ko'pincha olov va uning atributlari, ramziy obrazlari yordamida ifodalanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarida kuyish holati uch xil ma'noda talqin etilishi kuzatiladi: a) ruhiy kuyish – dard-u g'amdan; b) haqiqiy kuyish – olovdan; s) oftob issig'ida kuyib qorayish.

Otam nodon, onam nodon,
Seni menga soya qilgan.
O'zi shunday o'ta kuysin,
O'rtamizda kafil turgan.³⁶

Bu qo'shiqda darddan ruhiy kuyib o'rtanish ma'nosi ifoda etilgan bo'lsa, quyidagi qo'shiqda oftobda kuyish tasviri ifoda etilgan:

Qarchig'ay qanotlandi,
Qarshidan xon otlandi.
Xon beti kuymasin deb,
Havolar bulutlandi.³⁷

Xalq qo'shiqlarida olov obrazining harakatda tasvirlanishi ko'zga tashlanadi. Qo'shiqlarda olov kulti reliktlarining badiiy ifodalari boshqa kullarga inonchlar bilan ham uyg'unlashib ketadi.

Olov o'zbek folkloridagi asosiy obrazlardan biri bo'lib, o'zida qadimgi insonlarning ruhlarga nisbatan ishonch-e'tiqodini, animistik tasavvur-tushunchalarini badiiy namoyon etadi. Olov kulti bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etuvchi olov obrazi xalq qo'shiqlarda alohida o'rin tutadi.

Qadimda olovni jonlantirish asosida olov ma'budlari, olov parilari haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalar shakllangan. Ibtidoiy insonlar tasavvuriga ko'ra yaratilgan asotir va afsonalar, ertaklarda tasvirlanishicha, insonlar dunyosi kabi olov dunyosi ham mavjud.

O'zbek xalq tabobatiga oid poetik aytimlar qadimiyligi, an'anaviyligi jihatidan ma'naviy qadriyatlarimiz tizimida alohida o'rin tutadi. Ular asrlar osha xalq repertuarida yashab kelayotganligi bilan e'tiborni tortadi.

Qadimgi ajdodlarimizning ibtidoiy-mifologik tasavvur-tushunchalari va turli diniy-e'tiqodiy qarashlari, davolash magiyasiga ishonchi zaminida shakllanib, o'ziga xos badiiy-tadrijiy takomilga erishgan gulafshon aytimlari xalq tabobatiga oiddir. Gulafshonxonlik

³⁵ Оқ олма, қизил олма, 57-бет.

³⁶ Оқ олма, қизил олма, 68-бет.

³⁷ Келиной кўшиқлари, 69-бет.

magik marosim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Unga aloqador poetik aytimlar esa gulafshon aytimlari deb yuritiladi. Ular o'ziga xos ijro tarzi va badiiy xususiyatlari bilan poetik tafakkurning betakror namunalari sifatida diqqatni tortadi. O'zbek folklorshunosligida badan toshmalarini davolash jarayonida ijro qilinadigan qo'shiqlar haqida fikr yuritgan M.Alaviya,³⁸ B.Sarimsoqov,³⁹ S.Mirzayevalarning⁴⁰ marosim va qo'shiq poetikasiga doir tadqiqotlarida bu haqda ayrim mulohazalar uchraydi.

Gulafshon aytimlari og`zaki badiiy ijodning o'ziga xos poetik shakli sifatida hozirgacha yashab kelmoqda. Uning o'z ijro vaqti va ijro tartibi bor. Unda qadimgi insonlarning ruhlarga ishonchi, mifologik tasavvurtushunchasi o'z badiiy ifodasini topgan. U xalqning so'z magiyasiga (sehr-jodu qudratiga) ishonchini poetik ifoda etishi jihatidan e'tiborni tortadi. Gulafshon bilan og`rish – inson tanasiga yomon ruhlarning joylashib olishi natijasi sifatida qaralgan. Shu ziyon-zahmatni quvish uchun maxsus aytimlar aytilib, ma'lum xatti-harakatlar bajarilgan. Gulafshonning turli nomlari ham keng tarqalgan. Ulardan biri La'li Badaxshon bo'lsa, ikkinchisi Nurafshondir. Bu haqda gulafshon aytimlarining o'zida shunday deyiladi:

Gulafshon aytishga keldik,
Gulafshon, Gulafshon.
Saning oting Gulafshon,
Maning otim Badaxshon.
Gulafshon, Gulafshon,
Asli o'zing Nurafshon.
Onangning oti Madina,
Otangning oti Hamduna.
San kelding tariq ekmoqqa,
Man keldim sani quritmoqqa.⁴¹

Odatda, gulafshonni davolash uchun bemor qiblaga qarab oyog`ini uzatib o'tiradi. Uning boshiga qizil mato yopiladi. So'ngra gulafshonxon bemorning boshini uch marta siqib-siqib qo'yadi va etti xildagi (bug`doy, arpa, tariq, loviya, mosh, gurunch, no'xat kabi) donlilardan oz-ozdan olib, ularni bir-biriga qo'shgancha, bemor boshidan sekin-sekin sochib turib quyidagi aytimni ijro qiladi:

O'laningni aytaman,
Ko'ch, ko'ch, ko'ch.
Etti xil don sochaman,
Badbaxt ko'ch.
Ollohimdan so'rayman,
Xudoyimdan so'rayman.

³⁸ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959; Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974.

³⁹ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986.

⁴⁰ Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун- дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. – Т.: Истиқлол, 2006.

⁴¹ 2012-yilda Buxoro viloyati Chorkana qishlog'ida yashovchi, 1949 yilda tug'ilgan M.Haydarovadan yozib olindi.

Gulafshonxon bemorning boshidan bug`doy sochar ekan:

Qizil eming berdim sening, – desa, arpa socha turib:

Sariq emingni berdim sening, – deydi.

Gulafshonxon har bir sochgan donining o`z nomini emas, balki shu donli ekinlarga nisbatan qadimgi insonlar tabu asosida qo`llab kelgan umumiy metaforik nomni tilga olib o`tadi. Jumladan, tariq sepayotganda “Ko`k emingni berdim sening”, loviya sepayotganda “Qora emingni berdim sening”, mosh sepayotganda “Yashil emingni berdim sening”, birinch sepayotganda “Oppoq emingni berdim sening”, no`xat sepayotganda “Pushti emingni berdim sening”, – deydi.

Umuman aytganda, badiiy tafakkur taraqqiyotining tadrijiy rivoji davomida yaratilgan ma`naviy qadriyatlarimiz tizimida xalq tabobatiga aloqador aytilmlar qatoriga kiruvchi gulafshon aytilmlari ham alohida o`rin tutadi. O`zida xalqimiz turmush tarzi, ruhiy dunyosi, g`oyaviy va estetik qarashlarini teran aks ettirgan gulafshon aytilmlari so`z magiyasiga (sehr-jodu qudratiga) ishonchni badiiy ifoda etishi jihatidan e`tiborni tortadi. Ularni o`rganish xalq poetik tafakkur tadriji haqidagi bilim va tasavvurlarimizning yanada kengayishiga olib keladi.

Mif va ertak. Ertaklar juda uzoq o`tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo`lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlari haqidagi orzu-o`ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Garchi ertaklar asotir (mif), afsona, rivoyat va naql kabi epik janrlarga hajmi va mantiqiga ko`ra o`xshasa-da, biroq voqelikni badiiy-estetik ifodalashi jihatidan ulardan farq qiladi. Asotir, afsona va rivoyat voqelikni faqat axborot berish maqsadi bilan bayon etsa, ertaklar voqelikni badiiy-estetik tahlil qiladi. Qolaversa, ertaklar tarbiyaviy o`git berishi bilan ham eslatilgan epik janrlarga o`xshamaydi. Xuddi shu tarbiyaviy vazifasi ertaklar tarkibidagi personajlarning, bosh qahramonning xatti-harakatiga, o`y-fikrlariga, gap-so`zlariga singdirib yuborilgandir.

Fantastik ertaklarda taxayyulot orqali inson hayotda o`zi orzu qilgan narsa-hodisalarni, ideallarni badiiy obrazlashtirib ifoda etganligi sababli ularda ko`z ko`rib, quloq eshitmagan narsa-hodisalar (uchar gilam, ochildasturxon, ur to`qmoq) harakatga keladi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda esa fantastika orqali hayvonlar insonlar harakatini bajaradi, insonlar kabi fikrlaydi va gapiradi.

Sehrli-fantastik va hayvonlar haqidagi ertaklarning tarkibida yotuvchi taxayyulot asosida qadimgi ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvur va tushunchalari, urf-odat va marosimlari, e`tiqodiy qarashlari izlari mavjud. Shu xususiyatiga ko`ra, garchi ular tinglovchilar nazarida xayoliy to`qimaday tuyulsa-da, aslida bekorchi mashg`ulot yoki yolg`on

hodisa emas, aksincha, g'oyat qiziqarli va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik san'at hodisasidir.

Sehrli-fantastik tipidagi ertaklar batamom xayoliy uydirma asosiga qurilganligi, ibtidoiy insonning animistik tasavvur-tushunchalarini ifodalab kelishi jihatidan boshqa turdagi ertaklardan keskin farq qiladi. Ularda voqelik favqulodda shiddatli sirli tusda, g'ayrioddiy muhitda, sehr-jodu ishtirokida, g'ayritabiiy personajlar hamkorligida yuz berishi bilan xarakterlanadi. Ularda voqea yuz berayotgan makon va zamon tilsimli, sirli bo'ladi. Jonsiz narsalar jonlantiriladi va ular insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadi. Tabiatdagi narsa-hodisalarni inson qiyofasida tasavvur qilish-antromorfizm⁴² deb yuritiladi.

Sehrli-fantastik ertaklarda evrilish fantastik motivi etakchidir. Shunga ko'ra qahramon sehr-jodu yordamida turli shakllarga kiradi, o'z qiyofasini o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi. Ertak qahramonining turli-tuman narsa-buyumlarga, hayvon va parrandalarga aylanishi metamorfoza⁴³ hodisasi sanaladi. Ularda qahramonlar sehrli-tilsimli predmetlar yordamida o'z istak-tilaklarini ro'yobga chiqaradiki, buning zamirida ibtidoiy insonlarning magik tasavvur-tushunchalari yotishidan darak beradi.

Sehrli-fantastik ertaklarda dev, pari, jodugar, alvasti, jin singari g'ayritabiiy personajlar-demonologik obrazlar ishtirok etadi. Ular sehr-jodu kuchiga ega, kerakli narsa-hodisalarni, jonivorlarni istagan paytda o'z sehr-u jodusi bilan bordan yo'q, yo'qdan bor qila biladi, ularni o'zi xohlagan qiyofaga sola oladi. Bunday xususiyat Xizr, Simurg, yalmog'iz kampir va ajdar (uch boshli, etti boshli) kabi mifologik-personajlarga ham xos. Biroq Xizr, Simurg personajlari hamisha homiy sifatida ijobiy mohiyatga ega. Yalmog'iz kampir esa goh homiy sifatida ijobiy fazilatlar sohibi, goh o'ta shafqatsiz, har qanday razillikdan qaytmaydigan, hatto odamxo'rlikdan huzurlanadigan salbiy personaj sifatida harakat qiladi. Bu personajlarning barchasi ibtidoiy ajdodlarimizning qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalarini o'zlarida badiiy modellashtirgan, ibtidoiy insonlarning nafaqat animistik, balki totemistik qarashlarini ham ifodalagan. Bu holni ertak qahramonlariga totem⁴⁴ tarzida e'zozlanuvchi ot, bo'ri, qo'chqor, kaptar va boshqa jonivorlarning yaqindan yordam berib, ular g'alabasini ta'minlashlari motivida ko'rish mumkin.

Sehrli-fantastik ertaklarda, albatta, bosh qahramon inson aql-zakovatiga qarshi turuvchi yovuz kuchlar bilan shiddatli va mardonavor kurashib, ular ustidan g'alaba qozonarkan, inson aql-zakovati-yu kuch-

⁴² Grekcha anthropos – inson, morphe – tur, shakl so'zlaridan olingan bo'lib: 1) odamga xos ruhiy xususiyatlarni narsalar, jonivorlar va tabiat hodisalariga ko'chirish, ularni insonlashtirish; 2) xudolarni odam obrazida tasavvur qilishdan iborat qadimgi qarashlarni anglatadi.

⁴³ Grekcha "metamorphoses" so'zidan olingan bo'lib, bir shakldan ikkinchisiga o'tish, qiyofani o'zgartirish ma'nosini anglatadi.

⁴⁴ Totem urug' jamoalari sig'inadigan hayvon, o'simlik va tabiatning jonsiz narsalari (tosh, daraxt va h.k.)

g`ayratining yengilmas qudratini namoyish etadi. Ularda bosh qahramon ertakning boshlanishidan to oxirigacha xayoliy uydirma qobig`ida berilganligi tufayli uning tug`ilishi ham, unib-o`lishi ham g`ayritabiiy holda tasvirlanadi.

Sehrli-fantastik ertaklarning syujeti sarguzasht voqealar tizimidan iborat. Voqealar rivojida tilsim⁴⁵ muhim o`rin tutadi. Uch, to`rt, besh, olti, to`qqiz, qirq singari sehrli raqamlar (uch yo`l, uch aka-uka, uch opa-singil, uch kecha-kunduz, yetti pahlavon, yetti pari, yetti kecha-kunduz, yetti bosh; qirq kecha-kunduz, qirq bahodir kabi an`anaviy ifodalar), ur to`qmoq, ochildasturxon, oynayi jahonnamo, hayot suvi, sehrli olma, uchar gilam, bulbuligo`yo, bir sermaganda qirq gaz cho`ziladigan qilich, sirli sandiq singari jodulangan sehrli predmetlar ertak syujetidagi motivlar yo`nalishini belgilovchi muhim badiiy unsurlar vazifasini o`taydi.

Sehrli-fantastik ertaklarning mazmun-mundarijasini tashkil etuvchi motivlar g`oyat ko`p va behad rang-barangdir. Ular orasida, ayniqsa, sayohat motivi, sarguzasht motivi, sinov motivi tush motivi, evrilish, befarzandlik, tasodifiy homiladorlik, keksalikda farzand ko`rish, g`ayrioddiy tug`ilish va ulg`ayish, etimlik, o`gaylik singari motivlar juda serjilo. Jumladan, sinov motivining o`zi ikki xil ko`rinishda: a) topishmoqli sinov tarzida; qahramon aql quvvatini sinash orqali inson aql-u zakovatini ulug`laydi; b) qo`l kuchi-musobaqa sinovi tarzida; qahramonning jismoniy kuch-qudratini sinab, inson jismoniy kamolotini sharaflashga xizmat qiladi.

Sayohat motivi esa uch xil ma`no kasb etadi: a) olamni bilish uchun kengliklarga intilgan qahramon (yigit yoki uch aka-ukalarning ota-onasidan rozilik olib, yayov yo`lga chiqishi; b) bosh qahramonning tasodifan biror chuqurlik yo quduqqa tushib ketishi, g`orga kirib qolishi; c) bosh qahramonning uchar gilam, uchar etik, oynayi jahon yoki sehrli uzuk vositasida yo`lga otlanishi. Sayohat motivi asosida qurilgan sehrli-fantastik ertaklarda uchar gilam, yog`och ot, uchar etik, supurgi va yo`l azoblarini engillashtiruvchi sehrli qalpoq, sirli taroq, sehrli qilich, igna, o`q-yoy, hushtak, gavron kabi tilsimli vositalar ishtirok etadi va ular syujetni ham, qahramonni ham harkatga solib turadi.

Sarguzasht motivi ham rang-barang ko`rinish kasb etgan holda sehrli-fantastik ertaklarning zavqovarligini ta`minlagan. Bular tubandagi motivlardir: a) uzoq va notanish yurtlarga o`z baxtini izlab yo`lga chiqqan botirning qahramonona sarguzashtlari: go`zal qayliqqa erishish niyatida sehrli narsalarni sirli va xatarli manzillardan olib kelishi, yo`lda ajdar yoki dev bilan to`qnashib, ular ustidan g`alaba

⁴⁵ "Tilsim" arabcha so`z bo`lib jodu quvvatiga egaligi bois turli-tuman qiziq va ajoyib shakllarda mavhum xayollarning namoyon bo`lishi yoki yerga ko`milgan xazina ustida ko`rinadigan qo`rqinchli jimjimalar. "Jodu" forscha so`z bo`lib, sehr, arvohni anglatadi. Narsa va hodisalardagi g`ayritabiiy favqulodda kuch yoki xususiyatlar.

qozonishi va h.k.; b) uch og`ayni botirlar kechirgan sarguzashtlar; c) etim bolalar sarguzashti; d) «mitti polvonlar» yoki «ulkan odamlar» faoliyatiga aloqador sarguzashtlar va h.k.

Sehrli-fantastik ertaklarning o`ziga xosligi ulardagi personajlarning alohida aniq nom bilan atalmasligida ham ko`rinadi. Zero, bu personajlarning aksariyati biror belgisiga ko`ra laqab bilan ataladi, laqab ularga ko`chma nom vazifasini o`taydi: Qilich botir, Kenja botir, No`xat polvon kabi. Bunda ibtidoiy jamiyatda asl nomni yovuz kuchlardan sir tutib himoya qilish e`tiqodi izlari saqlab qolingan. Ulardagi har bir personaj ertakning ham badiiy-estetik, ham kompozistion qurilmasida muhim o`rin tutadi. Chunonchi, Xizr obrazi ertak yakunida asosiy ziddiyatni bartaraf etishda xizmat qilsa, yalmog`iz kampir, ajdar, dev pari kabi personajlar asarda ziddiyatlarning kelib chiqishida, voqealarning shiddatkor rivojida, ertak g`oyasi ochilishida – yaxshilikning yomonlik, to`g`rilikning egrilik, yorug`likning zulmat, donolikning jaholat ustidan g`alabasining ta`minlanishida muhim rol o`ynaydi. Shuningdek, Xumo, Simurg` kabi timsollar ham voqealar rivoji sababchisi sifatida namoyon bo`ladi.

Xullas, sehrli-fantastik ertaklar o`ziga xos badiiy-kompozistion tizimga-xayoliy uydirmaga, syujet motivlariga, maxsus personajlarga, badiiy til vositalari va uslubiy jilolarga egaligi bilan ajralib turadi va xalq ertaklarining eng qadimiy namunalari sifatida nisbatan ko`pchilikni tashkil etadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo`lgan. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo`lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko`ra, ularning syujetida inson obrazi keyingi o`rinda turadi, ko`p hollarda voqelikka inson aralashmaydi.

Ibtidoiy inson sher, bo`ri, ilon kabi o`ziga zarar etkazuvchi yirtqich hamda ot, ho`kiz, buqa, echki, qo`chqor, xo`roz singari o`ziga naf keltiruvchi jonzotlarni goh o`zidan kuchli bo`lganidan, goh og`irini engil qilishga asqotganidan himoyachi sifatida anglab, ularni ulug`lovchi ertaklar yaratgan.

Bo`ri, tulki, sher, quyon, qo`zichoq, echki, qo`y, ho`kiz, xo`roz, it, kabi hayvonlar majoziy ertaklarning doimiy allegorik personajlari hisoblanadilar. Ularning har biri o`ziga xos fe`l-atvori bilan ertak tarkibidagi ma`lum estetik vazifani, g`oyaviy maqsadni ochishga xizmat qiladi. Chunonchi, sher – hayvonlar shohi, eng kuchli jonzot. U aksaran zolim va qonxo`r podsho timsolini ifodalasa, bo`ri – aqli kalta, nodon, laqma, zo`ravon saroy amaldorlari qiyofasida harakat qiladi. Tulki esa ayyor, firibgar, aldamchi, faqat o`z manfaatini ko`zlab yashovchilarning tipik qiyofasini ifodalovchi majoziy obraz bo`lsa, ilon – ichi qora, niyati buzuq, tilyog`lama va sovuqqon kishilar timsolida qo`llanadi. Qarg`a –

donishmand, tadbirkor; quyon – qoʻrqoq; xoʻroz va echki – dono; hoʻkiz – mehnatkash, chidamli; it – vafodor, qoʻriqchi; ot-eng vafoli hamdam, yoqimli va sadoqatli doʻst; eshak – farosatsiz kishilar sajiyasida obrazlantiriladi. Koʻpincha uy hayvonlari – ijobiy, yovvoyi va yirtqich hayvonlar salbiy sajiyalarda majozlashtiriladi.

Oʻzbek folklorshunosligida mifologik jang motivining mazmun-mohiyati, belgilari haqida taniqli folklorshunos Komiljon Imomovning alohida bir maqolasi eʼlon qilingan.⁴⁶ Maʼlumki, K.Imomov oʻzbek xalq ertaklarining janr xususiyatlari, tasnifi, satirik ertaklar tabiati, oʻzbek xalq nasri tizimida ertak janrining tutgan oʻrni va ertaklar poetikasi masalalarini izchil oʻrgandi.⁴⁷ Shu yoʻnalishda u mazkur masalaga alohida eʼtibor qaratgani kuzatiladi.

Bundan tashqari, mifologik jang motivi xususida oʻzbek xalq nasri janrlari tadqiqiga bagʻishlangan ayrim ishlarda ham baʼzi fikr-mulohazalar bildirib oʻtilganligi koʻzga tashlanadi.⁴⁸ Jumladan, folklorshunos olim M.Afzalovning 1964-yilda chop ettirilgan hamda oʻzbek ertakshunosligi tarixida muhim oʻringa ega boʻlgan «Oʻzbek xalq ertaklari haqida» nomli kitobida,⁴⁹ shuningdek, XX asrning 70-80-yillarida oʻzbek ertakshunoslari safini kengaytirgan olimlardan yana biri Gʻ.Jalolovning oʻzbek xalq ertaklari poetikasi va ertak janrining boshqa epik janrlar bilan munosabatiga doir ilmiy ishlarida,⁵⁰ oʻzbek xalq ertaklarining turkiy xalqlar ertakchilik aloqalari tizimidagi oʻrni masalasini maxsus oʻrgangan X.Egamov tadqiqotida⁵¹ ham bu masalaga eʼtibor qaratilganligini kuzatish mumkin. Sh.Shomusarovning arab-oʻzbek folklori aloqalari tadqiqiga bagʻishlangan ishida ham mifologik jang motivi xususida ayrim fikr-mulohazalar uchraydi.⁵² Biroq mifologik jang motivining talqini bu olimlarning ishlarida faqat ertak janri doirasidagina oʻrganilgan, xolos.⁵³ Holbuki, mifologik jang motivi asotirlardan afsonalarga, soʻngra ertak va dostonlarga koʻchgan.

Mifologik jang motivining ibtidosi dastlab asotirlarda, soʻngra mifologik afsonalarda, undan keyin esa ertaklarda va dostonlarda oʻz

⁴⁶ Имомов К. мифологик жанг ва унинг эпик талкини // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 1-китоб. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2006. – Б.23-26.

⁴⁷ Имомов К. Ўзбек халқ сатирик эртаклари. – Тошкент: Фан, 1974; yana oʻsha: Эртакларда тилсим // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. – 6-сон. – Б.46-49; yana oʻsha: Ўзбек халқ эртакларида уйдирма // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – №6; yana oʻsha: Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент: Фан, 1981; yana oʻsha: Ўзбек халқ эртакларининг тарихий асосларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – 1-сон. – Б.36-41; yana oʻsha: Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.

⁴⁸ Имомов К. Афсона жанри. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – 4-сон. – Б.68-72-б.; yana oʻsha: Афсона // Ўзбек фольклори очерклари. 2-том. – Т.: “Фан”, 1989. – Б.3-31-б.; yana oʻsha: Ўзбек халқ прозаси. – Т.: “Фан”, 1981.

⁴⁹ Афзалов М. Ўзбек халқ эртаклари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1964.

⁵⁰ Жалолов Ғ. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976; yana oʻsha: Ўзбек фольклорида жанрлараро муносабат. – Тошкент: Фан, 1979; yana oʻsha: Узбекский народный сказочный эпос. – Ташкент: Фан, 1980.

⁵¹ Эгамов Х. Совет Шарқи туркий халқлари эртакчилиқ анъаналари алоқалари тарихидан очерқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

⁵² Шомусаров Ш. Араб ва ўзбек фольклори тарихий-қиёсий таҳлили: Филол. фанлари докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – Б.42.

⁵³ Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: Издательство ЛГУ, 1946. – С.173-174.

ifodasini topgan. U muhim xarakterga ega bo'lib, mazmun e'tibori bilan narsa va hodisalarning o'ziga xos belgilari, xususan, yetakchi yoki raqib personajlarning magik qudrati, chopsa-chopilmas, qilich botmas, nayza o'tmas xususiyatini izohlashga qaratilgandir.

Epik jang motivi badiiy-shakliy tuzilishi, mazmuni va bosh qahramon faoliyatiga ko'ra ikki xil tipda tavsiflangan. Biri – ertaklarning qahramonlik tipiga tegishli bo'lib, bahodirning olib qochilgan yoki ajdahoga nazr etilgan malikalarni qutqarish maqsadi bilan yo'g'rilgan jang. Bu jangda bahodir faol harakati bilan ajralib turadi. Bu xil jang ko'lamli va mahobatli, ayni paytda, jonli va hayajonli kechadi, voqealar epik ko'lamda tasvirlanadi. Qahramon umumxalq manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi va elatni ajdaho xavfidan himoya qiladi. Masalan, bunga “Devbachcha” ertagi⁵⁴ misol bo'la oladi.

Xalq epik asarlarida mifologik jangning ikkinchi ko'rinishi bu – qahramonning dori axtarish istagi bilan yo'g'rilgan jang. Bu xil jang epizodlari sehrli-sarguzasht ertaklariga xos bo'lib, ajoyib va g'aroyib kechadi. Masalan, bunga “Zulxumor” ertagini misol keltirish mumkin.⁵⁵

Ba'zi mifologik jang ko'rinishlarida qahramonning jiddiy va faol harakati sezilmaydi, u o'z kuch-qudrati bilan emas, balki sehrli buyumlar yoki hiyla yo'li bilan raqibini mag'lub etadi. Bu motivda qahramon oddiy va hayotiy tasvirlanadi. Uning ajdahoga yoki devga qarshi jangi shaxsiy manfaatdan kelib chiqadi. Qahramon o'z haq-huquqini himoya qiladi. Bunga “O'tinchi chol bilan tulki” ertagini misol keltirish mumkin.⁵⁶

Xalq epik asarlarida, asosan, insonning dev yoki ajdaho bilan jang qilishi tasvirlanadi. Ma'lumki, dev obrazi O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida alohida o'rin tutadi. Bu obraz afsona, ertak, dostonlarda ko'p uchraydi. O'zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini J.Eshonqulov tomonidan ertak va dostonlar syujeti misolida alohida maxsus o'rganilgan.⁵⁷

O'zbek xalq og'zaki ijodida ajdaho obrazining kelib chiqish asoslari va badiiyati masalasiga D.Fayziyevaning “O'zbek folklorida ilon obrazi” mavzusidagi nomzodlik tadqiqotida e'tibor qaratilgan.⁵⁸

Ba'zi o'zbek xalq ertaklarida inson personajning dev yoki ajdahodan tashqari yana bir mifologik personaj – pari bilan jang qilishi ham tasvirlangan. Ma'lumki, “O'zbek folklorida pari obrazi” mavzusi bo'yicha Olim Qayumov nomzodlik tadqiqotini amalga oshirgan.⁵⁹

⁵⁴ Девбачча // Ўзбек халқ эртаклари. 3 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б.158-163.

⁵⁵ Зулхумор // Ўзбек халқ эртаклари. 3 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б.372-377.

⁵⁶ Ўтинчи чол ва тулки // Ўзбек халқ эртаклари. 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б. 89-91.

⁵⁷ Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б.8-23.

⁵⁸ Файзиева Д. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадийи): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

⁵⁹ Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.25.

Insonning pari bilan jang qilishi motivi “Mislabu” ertagida⁶⁰ tasvirlangan. Unda Mislabuni olib ketishga kelgan podsho parilar hukmdori Yunus pari bilan olishadi. Yunus pari undan engilib, osmon-u falakka chiqib ketadi.

Xalq ertaklarida inson personajning yalmogʻiz bilan mifologik jangi ham tasvirlanganini kuzatish mumkin. Bu motiv “Badalqorachi” ertagida uchraydi.⁶¹

Xullas, oʻzbek xalq ertaklarida mifologik jangning turli koʻrinishlari uchraydi. Bu jang tafsilotlari baʼzan yoyiq, baʼzan yigʻiq shaklda ifoda etiladi. Ular, odatda, inson personaj bilan ajdaho, dev, pari, yalmogʻiz kabi mifologik personajlar oʻrtasida boʻlib oʻtadi. Bunda qahramon baʼzan mifologik personaj bilan yaklama-yakka jangga chiqib, faol harakat qilsa, baʼzan oʻz aql-zakovati bilan mifologik personajni mot aylab, uning ustidan gʻalaba qozonadi.

Oʻzbek xalq sehrli ertaklarida Qilichbotir, Qilichqora nomlari koʻp uchraydi. Nomi qilich bilan tutash ertak qahramonlari joni qilichda saqlanishi tufayli shu nom bilan ataladi.

“Guliqahqah” ertagida⁶² Tilla kokil bola oynai jahonnomani olib kelish uchun Semurgʻ qushning polaponlarini ajdardan qutqarib qoladi. Bolalari sogʻ-salamat qolgan Semurgʻ esa buning evaziga Tilla kokil bolaga oynai jahonnomani olishda yordamlashadi.

Sehrli-fantastik ertaklarda suv oti, koʻk qoʻchqor – qizil devning oʻgʻli,⁶³ evrilish xususiyatiga ega boʻri⁶⁴ va sehrli baliq,⁶⁵ uchar ot⁶⁶, suv ichida yashaydigan qanotli oq ot⁶⁷, osmonda ucha oladigan, suvda suza oladigan, yerda chopra oladigan tulpor ot⁶⁸, yolini tutatganda etib keladigan oq ot⁶⁹, qanotli tozi⁷⁰ kabi qator gʻaroyib jonivorlar obrazi keltiriladi. Oʻzbek xalq ertaklari talqinicha, qahramon koʻpincha ana shunday zoomorf koʻmakchilar yordamida «gʻaroyib predmet»larni qoʻlga kiritadi.

Oʻzbek xalqining “Choʻloq boʻri” ertagida totemistik qarashlar izi kuzatiladi. Ertakda boʻrining inson kabi gapirishi va insonga aqlli maslahatlar berishi, yoʻl-yoʻriqlar koʻrsatishi hamda sirli tarzda paydo boʻlib, yana sirli tarzda koʻzdan gʻoyib boʻlishi uning “epik homiy” sifatidagi qiyofasini namoyon etadi.

⁶⁰ Мислабу // Ўзбек халқ эртаклари. 3 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б. 199-205.

⁶¹ Бадалқорачи // Ўзбек халқ эртаклари. 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б.309-314.

⁶² Гулиқахқах // Ўзбек халқ эртаклари. 3 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б.136-142.

⁶³ Гулиқахқах пари. Ўзбек халқ фантастикаси. VI-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1988. – Б.73-76.

⁶⁴ Гулиқахқах пари. Ўзбек халқ фантастикаси. VI-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1988. – Б.120-135.

⁶⁵ Бахти чопган бола. – Б. 175-176.

⁶⁶ Сеҳрли олма. – Б.169.

⁶⁷ Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. V-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б.19.

⁶⁸ Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. V-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б.32.

⁶⁹ Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. V-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б.71.

⁷⁰ Само тулпори. Ўзбек халқ фантастикаси. V-китоб. – Т.: Ёш гвардия, 1987. – Б.55.

Qush ko'rinishidagi ko'makchilar ham mavjud. Bunga Semurg', Anqo, laylak, g'oz kabilarni misol qilish mumkin. Xalq ertaklarida ko'pincha afsonaviy qushlar patini tutatish orqali g'ayrioddiy ko'makka erishish motivi turkiy xalqlar ertakchiligida keng tarqalgan.

Mifologik ko'makchilar: a) dev ko'makchi; b) pari ko'makchi ko'rinishida namoyon bo'ladi. O'zbek folklorining mifologiyaga bevosita daxldor personajlaridan bir guruhi epik qahramonning homiysi, g'ayritabiiy ko'makchisi va yordamchisi vazifasida kelishi bilan boshqa tipdagi mifik obrazlardan farqlanib turadi. Ana shunday homiy personajlar qatorida dev, pari va Xizr tura oladi.

Odatda, epik asarlarda g'ayrioddiy ko'makchilar, jonli mavjudotlar va sehrli predmetlarning o'zaro vazifadoshligi kuzatiladi. Xususan, sehrli ot qahramonni o'zga epik makonga olib borsa, «uchar gilam» ham xuddi shu vazifani bajaradi. Qahramonning yaqin ko'makchisi bo'lgan epik ot jang chog'ida raqiblarni tishlab, tepish orqali egasiga yordam bersa, «ur to'qmoq» ham dushmanni urib, hatto asir ham oladi.⁷¹

Ayrim sehrli predmetlar ertaklarda sehrli ot, Semurg' kabi zoomorf mifologik timsollar bilan o'zaro vazifadoshlik qiladi. Masalan, uchar gilam, uchar ot xuddi Semurg' kabi qahramonni epik makon – yer osti dunyosidan yer usti dunyosiga olib chiqadi yoki qahramonni ko'z ochib yumguncha uzoq manzilga yetkazib qo'yadi. Xullas, g'aroyib predmetlar sehrli kuchga ega mifologik personajlar, totem jonivorlar bilan morfologik vazifadosh hisoblanadi.

Predmet ko'rinishidagi ko'makchilar qadimgi insonlarning fetishistik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Ularning etakchi epik vazifasi ertak qahramoniga yordam berish, unga ko'maklashishdan iboratdir. Bu tip g'aroyib predmetlarning o'zi bevosita harakat qilmaydi (masalan, «uchar gilam» singari) yoki manistik mifologiya asosida kelib chiqqan homiy-personajlar (odam qiyofasiga kirgan oltin baliq, oq soqolli chol ko'rinishidagi Xizr kabi) singari antropomorf, ya'ni insoniy qiyofada namoyon bo'lmaydi. Fetish asosida shakllangan «g'aroyib predmet»lar aslida u yoki bu epik ko'makchini yordamga chaqirish vositasi hisoblanadi: ular ertak qahramonining faoliyati davomida zarurat tug'ilgan paytdagina yordamga keladi va buyurilganda aytilgan xizmatni ado etadi.

Mif va maqol hamda topishmoqlar o'zbek folklorining eng qadimiy janrlaridandir. Ularning shakllanishida qadimgi ajdodlarimizning tabiat va koinot bilan bog'liq mifologik qarashlari, serhosillik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan arxaik rituallar, qadimgi marosimlar, so'z magiyasi va tabu an'anasiga aloqador inonch-e'tiqodlar ham muhim rol o'ynaganini inkor qilib bo'lmaydi. Xususan, borliqni mifologik tasavvurlar asosida anglash, tushuntirish va idrok etish

⁷¹ Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: Издательство ЛГУ, 1946. – С.173.

o'rnini voqelikni badiiy ifodalar vositasida tasvirlashdan iborat arxaik folklor an'analari egallagach, mifologik kodlar badiiy-estetik mohiyat kasb etib, poetik obraz, timsol va detallarga aylanishi jarayoni topishmoqlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Maqollarda tabiat va koinot bilan bog'liq mifologik qarashlar, o'simlik va jonivorlar obrazi, shuningdek, astromifologik tasavvurlar to'g'ridan-to'g'ri bayon etilsa, topishmoqlarda bular bevosita metaforik nutq orqali ifoda etiladi.

Muayyan so'zlar vositasida insonga ta'sir o'tkazish maqsadi folklordagi juda ko'p janrlar (masalan, olqish, qarg'ish, badik, kinna, burey-burey va hokazolar) singari maqol va topishmoqlarda ham markaziy o'rin egallaydi. Jumladan, odamning yomonlikdan yaxshilik sari yuz burishi uchun maqol orqali unga ta'sir ko'rsatish yoxud kishiga falokat, musibat, kasallik, o'lim yo'llash uchun qarg'ish aytish, o'rni kelganda bu yomon hodisalarning nomini tabulashtirib, yashirin nutq bilan topishmoq shaklida ifoda etish, yoki insonning yomonliklardan uzoq bo'lishini tilab, olqish (yaxshi niyat) izhor qilish mumkinligi haqidagi tasavvurlar so'z magiyasiga ishonchning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Bundan maqol, topishmoq, olqish, qarg'ish singari folklorning qator qadimiy janrlari kelib chiqishida so'z magiyasiga, so'z kultiga ishonch poydevor bo'lgani anglashiladi.

Darhaqiqat, o'zbek xalq topishmoqlarining genezisiga nazar solinsa, ularning so'z kulti bilan bog'liq magik-mifologik qarashlar hamda qadimgi ramziy-ritual marosimlarda «yashirin nutq»da so'zlashish an'anasi bilan bog'liqlikda yuzaga kelgani ravshanlashadi. «Yashirin nutq»qa asoslangan ramziy muloqot usullari esa so'z tabusi bilan aloqador. Tabuning turli-tuman funkstional tiplari, ya'ni «taqiqlangan xatti-harakatlar» yoki «harakat tabusi», «odam yoki uning tana a'zolari bilan bog'liq tabu», «tabulashtirilgan predmetlar» va «so'z tabusi» biror narsa-hodisani o'z nomi bilan emas, balki tabuistik leksika vositasida ifodalash an'anasini yuzaga keltirgan.

So'z kulti va tabuistik leksikaning tadrijiy rivoji natijasida qadimgi kishilarning o'zaro nutqiy muloqoti jarayonida muayyan tushuncha va so'zlarni ochiq ishlatish bilan bog'liq taqiq qoidasiga asoslangan so'z tabusi topishmoqlarning kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki poetik modellarning yuzaga kelishini ta'minlagan. O'zbek xalq topishmoqlarining shakllanish jarayoni «so'z tabusi → yashirin nutq → metaforik nutq → topishmoq» bosqichlaridan iboratdir.

O'tmishda topishmoqlar serhosillik g'oyasi hamda o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi mifologik qarashlarni o'zida ifoda etgan qadimiy kultlar bilan aloqador marosimlarning muhim uzvlaridan hisoblangan. Ajdodlarimiz topishmoq aytish va uning javobini bilag'onlik bilan topish ov baroridan kelishi, hosil mo'l bo'lishi va yil barakali kelishini ta'minlaydi, deb tasavvur qilishgan. Shuning uchun aytilgan

topishmoqning javobi topilmagunicha, yangisi aytilishiga ruxsat etilmagan.

Z.Husainovanning yozishicha: «O'tmishda tabiat va tabiat hodisalarining o'zi bir jumboq bo'lganki, odamlar uning sirini bilmaganlar va yecha olmaganlar, ularga bu sirlar bir mo'jizaday bo'lib ko'ringan... Shaxs o'zini qurshab turgan tashqi ob'ektiv olamni taniy boshlagan bir paytda undagi narsa va hodisalarning qaysi yo'l bilan yaratilishini anglash, bilish istagida narsa va hodisalarni bir-biriga solishtirish, qiyoslash va ba'zan qarama-qarshi qo'yish bilan o'rgana boshlagan. Ular quyosh, oy, yulduzlar harakatining, chaqmoq chaqishi, ko'k guldurashi, bulut kelishi, shamol esishi, qor-yomg'ir yog'ishi kabilarning mohiyatini to'la anglab etmaganlar va animistik tushunchalarga asoslanib, ularning hammasida jon bor, deb tasavvur qilganlar.⁷² Bunday tushunchalarning ba'zi ko'rinishlari topishmoqlarda samoviy jismlarning, tabiat hodisalarining jonlantirib berilishi misolida yorqin kuzatiladi. Demak, topishmoqlar bir vaqtlar muayyan magik funkstiyalarni ado etgan zamonlaridan boshlab, aql-zakovat, ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgi vositasiga aylangan davrlarigacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Xalqimiz orasida olov va suvni, ayrim hayvon va qushlarni, inson hayoti uchun juda zarur hisoblangan narsa-hodisalarni muqaddaslashtirish ularga nisbatan tabu bilan munosabatda bo'lishni keltirib chiqarganki, ayni paytda bu tabu bilan ularning nomini sir saqlashga olib kelgan. Shuning ta'sirida xalq orasida olov, suv analoglari, ayrim turmush predmetlari, totem va kult darajasida ardoqlanuvchi jonivorlar haqida turli topishmoqlar kelib chiqqan.⁷³

T.M.Nikolayeva qayd etganidek, tabiat hodisalari, o'simliklar, hayvonlar haqidagi topishmoq va maqollar aslida inson fe'l-atvori, xulqi va uning muammolari haqidadir.⁷⁴

Topishmoqlarning yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyotida so'z magiyasi, so'z tabusi, metaforik nutq va marosimlar qanchalik muhim rol o'ynagan bo'lsa, mifologik tasavvurlar ham bu janr genezisida muayyan ahamiyat kasb etganligi tabiiydir.

Topishmoqlarda raqamlar jumboqlanayotgan narsani topishga ishora qiluvchi muhim vositalardan biridir. Jumladan, bir soni topishmoqlarda eng ko'p qo'llanadigan raqamlardan biri bo'lib, dunyodagi bitta, ya'ni yakkayu yagona, yolg'iz, tanho narsalarni ilg'ashga turtki beradi. Masalan, oy, quyosh, ota, ona haqida aytilgan topishmoqlarda, albatta, bir soni uchrashi tabiiy, chunki ular dunyoda bittadir.

⁷² Хусайнова З. Топишмоқлар // Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик, биринчи том. – Т.: Фан, 1988. – Б.100-101.

⁷³ Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Т.: Aloqachi", 2008. – 560 b.

⁷⁴ Николаева Т.М. Загадка и пословица: социальные функции и грамматика // Исследования в области балто славянской духовной культуры. Загадка как текст. – М.: Индрик, 1994. – С 152.

Bir parcha patir,
Olamga tatir.⁷⁵

Javobi “oy” boʻlgan ushbu topishmoqda soʻzlarning vertikal va gorizontal joylashuviga ahamiyat beraylik:

Bir / parcha/ patir,
Olamga / / tatir.

Topishmoq matnida “bir” sonining satr boshida keltirilgani shunchaki tasodif emas. U topishmoqdagi barcha soʻzlar bilan vertikal va gorizontal joylashuviga koʻra sintaktik va mantiqiy jihatdan toʻliq aloqaga kirisha oladi. Jumladan, bir parcha, bir patir, bir olam, bir (oʻzi) tatir koʻrinishida. Bunda bir raqami olamning bittaligiga, yakkayu yagonaligiga, unda bor narsalar bir-biri bilan bogʻliqligiga, oy ham uning bir parchasi boʻlib, tanho ekaniga, lekin oy bir parchagina boʻlsa-da, butun olamni yoritib turishiga, nuri barchaga tatishiga ishora qilmoqda.

Mazkur topishmoqdagi jumboq “bir parcha patir” metaforasidir. Shu uchala soʻz oyga shartli ishorani oʻzida ifodalab kelayotir. Undagi “bir” soʻzi, avvalo, borliqdagi bitta narsa-hodisalarni esga olishga undaydi. Masalan, Oy – bitta. U osmon yoritgichi. Quyosh ham bitta. U ham samo yoritgichlaridan biri.

Bu oʻrinda “parcha” soʻzi oyning osmon yoritgichlaridan biri ekanini, lekin u quyoshga nisbatan kichikroqligini anglatadi. Yana bu oʻrinda “parcha patir” birikmasi orqali patir nonning ikki qismdan – xamir va yogʻdan yetilishi kabi oy ham ikki parchadan – avval yarim oy (hilol)dan, keyin toʻliq dumaloq koʻrinishdagi toʻlin oy (badr)ga aylanishi anglashiladi. Xususan, toʻlin (badr) oy koʻrinishi jihatidan patirga oʻxshashi rost.

Oyning yarim koʻrinishi haqida yaratilgan topishmoqlar ham bor:

Yarimta patir,
Olamga tatir.

Yoki:

Yuqoriga yarimta non qoʻydim,
Azonda qarasam yoʻq.⁷⁶

Bu topishmoqlarda yarimta patir yoxud yarimta non oy obraziga ishora boʻlib, qoʻshimcha ravishda yana oyning makoni yuqori, yaʼni osmon ekani, tong otib, quyosh nurlari tarala boshlashi bilan u koʻzga qoʻrinmay qolishi haqida ham bildirib oʻtilmoqda.

“Patir”, “non” soʻzlari oyning obrazli ifodasiga aylangan. Ularning oy obraziga koʻchirilishi muayyan tarixiy-mifologik asoslar bilan bogʻlanadi. Uning asosi mif-marosim-folklor yoʻnalishida ochilib boradi.

⁷⁵ Топишмоқлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Нашрга тайёрловчи: Хусаинова З. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.8.

⁷⁶ Топишмоқлар. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Нашрга тайёрловчи: Хусаинова З. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.9. – Б.8.

Oyning paydo bo'lishi haqida bir qator mif (asotir)lar yaratilgani ma'lum. Ularda Oy va quyosh er-xotin, yulduzlar esa ularning bolalari deb qaralgan va talqin qilingan. Shu mifologik tasavvur-tushunchalar asosida yaratilgan topishmoqlar ham bor. Ularda shunday deyiladi:

Bir otasi, bir onasi,

Necha yuz ming bolasi. (Quyosh, oy, yulduzlar).⁷⁷

Yoki:

Onasi bitta,

Bolasi mingta. (Oy va yulduzlar)⁷⁸.

Xalqimiz orasida "Oydan bola so'rash" udumi ham shakllangan. Bu udum oy yangi chiqqanda amalga oshiriladi. Farzand kutayotgan kelinchaklar yosh bolalar vositasida oydan bola so'raydilar. Aniqrog'i, farzandtalab kelinchak yoki uning qaynonasi biror bolaga sovg'a-salomlar, yegulik yoki shirinliklar berib, oyga boqqancha, "Oymomojon, oymomo. Manga kulcha tashla, yangamga bacha tashla" deya olqish aytiradilar.

Umuman, oyga qarab olqish aytish udumi xalqimiz orasida keng tarqalgan. Keksalar yangi oy chiqqanda, uning tikka yoki botiqligiga qarab bashorat qiladilar, ya'ni "Tikka oyim tinch oy, yotiq oyim botiq oy" deydilar. Yoki: "Oyni ko'rdim – omonlik, hech ko'rsatma yomonlik" deb aytadilar.

Ko'rinadiki, insonlar hamisha oyga e'tiqod bilan munosabatda bo'lishgan. Oyni o'zlariga yaqin olib, unga qarata olqishlar aytib, homiylik qilishini kutishgan. Oy shu e'zozlanishi sababli hatto nondek e'zozli narsaga tenglashtirilmoqda. U patir nonga o'xshatilmoqda.

O'zbek mifologiyasida tuya arvoh, afsonaviy homiy-pir timsoli sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ham tabulashtirilgan leksik qatlamda «tuya» so'zi «momo» evfemizmi bilan almashtirilishi ma'lum ma'noda mifologik asosga ham egadir. Tuya izining shakli dumaloqligi bois, uni «kulcha»ga o'xshatishgan va tuya oyog'ining izi to'g'risidagi «*Momom ketib borayotir, kulchasi qolib borayotir*» topishmog'i yaratilgan. Javobi «sichqon» bo'lgan «*Bukri momom buk etdi, yugurib yukka etdi*», «*Baxir momo bukka ketdi, yugurib borib jukka etdi*».

Bundan tashqari, «qaychi», «tipratikan», «sichqon», «toshbaqa», «ari» kabi tabulashtirilgan tushunchalarni kishilarning ismi, ya'ni atoqli otlar bilan atash an'anasining topishmoqlardagi talqinlari ham kuzatiladi.

O'zbek xalq topishmoqlari orasida o'lim va unga aloqador hodisalar haqida yaratilgan jumboqlar mavjudligi uning tabu bilan aloqadorligini yana bir karra tasdiqlaydi. Qadimgi insonlar o'lim hodisasidan cho'chiganlari tufayli unga aloqador atributlarning nomini ochiq aytishdan qo'rqqanlar. Ibtidoiy insonlar animistik tasavvurlarga

⁷⁷ Topishmoqlar. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Нашрга тайёрловчи: Хусаинова З. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.9. – Б.10.

⁷⁸ O'sha manba, 9-bet.

asoslanib, o'limni jonli, eshituvchi va yuruvchi mifik mavjudot sifatida tasavvur qilganlar. Shuning uchun imkon qadar uni shartli yashirin nutq asosida ifodalashga harakat qilganlar. Bunday tushunchalarning ba'zi ko'rinishlari topishmoqlarda uchraydi. Bu xildagi topishmoqlar bu janrning marosimlar bilan genetik aloqadorligini va ma'lum ijtimoiy-maishiy, ritual-magik vazifalarda qo'llanganligini namoyon etadi. O'lim va uning atributlari haqidagi aksariyat topishmoqlarda o'lim hodisasi tirik mavjudot ko'rinishida jonlantirilgan holda keltiriladi:

Hammani zor qaqshatar,
Begunoh yer tishlatar.

O'lim hodisasining mohiyatini, dahshatini, asoratini yashirin badiiy tilda ifodalagan "Achchiqdan achchiq, zahardan ham achchiq, nima?" topishmog'ida sifatlash orqali xalqning o'lim hodisasiga oid hukmi, fikr-kechinmasi kuchli mantiqiy tadrijiy rivojda ko'rsatib berilgan.

O'lgan insonni dafn qilishga aloqador atributlardan sanaluvchi "tobut" va "kafan"ni jumboqlagan bir nechta topishmoq ma'lum. Ular hatto ayrim yig'i va yo'qlov matnlari tarkibida ham uchraydi. "Kafan" topishmoqlarda "Engi va yoqasi ko'ylak", Azroil "Bir bo'ri qo'yning qonini chiqarmay eb yotar", o'lim "Urmay-so'kmay yig'latadi" deb berilgani kuzatiladi.

Ko'pgina dunyo xalqlari kabi turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklarning mifologik dunyoqarashida otga kult sifatida qaralgan va u bilan bog'liq e'tiqodiy tushunchalar paydo bo'lgan. Binobarin, o'zbeklarning ot bilan bog'liq mifologik va diniy tasavvurlari ko'p jihatdan qadimgi Hindi Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari bilan o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Bu esa ular o'rtasida qadimdan yaqin munosabatlar bo'lganligini ko'rsatadi.⁷⁹

Ot bilan bog'liq mifologik qarashlar, e'tiqod va urf-odatlar xalqimizning afsona, ertak, doston, marosim qo'shiqlari qatorida maqol va topishmoqlarda ham ot obrazi orqali talqin etilgani kuzatiladi. Otning kult sifatida talqin topishiga, avvalo, xalqning maishiy turmushida ot go'shtidan ozuqa; terisidan kiyim-kechak, uy xo'jaligida xurjun, supra singari turli buyumlar; yolidan arqon, arg'amchi; o'zidan jangu-jadallarda (*Ot boshiga ish tushsa – suvliq bilan suv ichar, er boshiga ish tushsa – etik bilan suv kechar*⁸⁰) va uzoq masofani bosib o'tishda ulov (*Oti borning qanoti bor; Oti borning yirog'i yaqin*); qari va kasallaridan "jasadni u dunyoga uzatish (*Oti birning joni bir*) vositasi kabi turli maqsadlarda foydalanishi asos bo'lgan.⁸¹

⁷⁹ Мифы народов мира. Энциклопедия. – М., 1992. – С. 666.

⁸⁰ Бердиёров, Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 166.

⁸¹ Потапов Л.П. Конь в верованиях и эпосе народов Саяно-Алтая//Фольклор и этнография. – Л., 1977. – Б.164-174. Липец Г. С. Образы батыра и его коня в тюрко-монгольском эпосе. – М.: Наука, 1988. – С. 124.

O'zbeklarda otlarning kelib chiqishi samo bilan bog'lanadi va muqaddaslashtiriladi. Shuning uchun qadimda samo xudolari, xususan, Quyosh xudosiga atab oq ot qurbonlik qilingan.

Otni kultlashtirish natijasida uning narigi dunyoda ham egasiga xizmat qilishiga ishonilgan. Mana shu ishonch asosida otni o'lgan egasi bilan ko'mish an'anasi yoki mayitni ot ustiga yuklab, tog'u toshga, qiradirlarga haydab yuborish kabi odatlar kelib chiqqan. Biroq buning natijasida yaxshi, nasldor, jangchi otlarning kamayib ketishi xavfi yuzaga kelgach, bu odatlar transformastiyaga uchragan.

Bir otki, oyog'i yo'q,

Mingan kishining joni yo'q.

Variantlari: "Oyog'i yo'q cho'bin ot", "To'rt oyoqli cho'bin ot". Javobi "tobut" bo'lgan bu topishmoqlarda so'nggi yo'lga insonni kuzatish vositasi sanaluvchi "ulov" – "tobut" shartli ravishda otga o'xshatilmoqda. Biroq uning oyoqsizligiyu, cho'p-yog'ochdan iboratligiga alohida ishora qilinmoqda. Topishmoqda tobut obrazi yog'och ot ko'rinishida shartli o'xshashlik asosida badiiy talqin qilinishiga ibtidoiy insonlarning otni totem va narigi dunyoga olib boruvchi deb qarashlari asos bo'lgan.⁸²

Xalq maqollari orasida ham o'lim haqida yaratilganlari bor. Bunday maqollarni, odatda, aza marosimiga ko'ngil so'rab kelganlar marhumning yaqinlariga sabr-toqat tilash, o'limning hamma tirik jon boshida bor musibat ekanligini ta'kidlash, binobarin, taqdirga tan berish lozimligini uqtirish maqsadida aytadilar.

Odamlar narigi dunyoga, o'limdan so'nggi abadiy hayotga ishonganlari bois inson u dunyoda bu dunyodagi hayotining davomini yashaydi deb tushunadilar. Shuning uchun inson bu dunyoda qilgan xato va kamchiliklari, gunohlari uchun u dunyoda javob berishi muqarrar deb qaraydilar. Shu vajdan odamzod tirikligida imkon qadar mazmunli, boshqalarga o'rnak bo'larli darajada yashashi lozimligi o'lim mavzui bilan bog'liq maqollarda alohida uqtirilganligini kuzatish mumkin. Masalan: "O'lsang go'ring keng bo'lsin, Tiriklikda fe'ling" yoki: "Asl odam hech o'lmas" kabi maqollarda aynan shu e'tiqod ko'zga tashlanadi.

Ajdodlar kultiga ishonch asosida yaratilgan maqollar ham borki, ularda o'lganlar tiriklar homiysi sifatida tasavvur qilish g'oyasi asosida "O'likka o'q otma", "O'lik tirikning joniga oro kiradi" deyiladi.

M.Temirova o'zbek va qirg'iz xalq maqollarida o'q va yoyning fetishistik qarashlar orqali talqin etilganini asoslab, buning ildizini bu ikkala ko'chmanchi xalqning o'q va yoydan tirikchilik qilishning muhim

⁸² Дьяконова В.П. Отражение погребального обряда тувинцев в фольклоре. // Фольклор и этнография. Обряды и обрядовый фольклор. – Л.: Наука, 1974. – С.259-266.

vositasi sifatida foydalanganida ko'radi.⁸³ Darhaqiqat, o'q va yoyni O'rta Osiyodagi ko'chmanchi aholi fetish hisoblab, uni momaqaldirroqqa qiyoslashgan hamda erni yomg'irga to'yintiruvchi timsol sifatida tasavvur qilishgan. Bundan tashqari o'q avlodni davom ettirish ramzi ham bo'lgan. Masalan, mo'g'ul xalqida to'y marosimining asosiy atributi hisoblangan. Shu o'rinda "Alpomish" dostonida Barchinning to'y shartidan nega "Yoy tortish va o'q uzish" talabi o'rin olganligi ham ayonlashadi. Bu motivda o'q avlodni davom ettirish ramzini ifodalab kelgan.

O'zbek xalq maqollarining ayrimlarini magik marosim, urf-odat va ma'lum bir an'analar natijasida paydo bo'lgan, deyish mumkin. Chunki bu ularning mazmunidan, tarkibida uchraydigan ayrim mifologik obraz xarakteridan bilinib turadi. Masalan, "*Ayamajuz olti kun – olti oy qishdan qattiq kun*" yoki:

*"Aziz momo – olti kun,
Qaltirasa – qatti kun,
Sakransa – sakkiz kun,
To'qransa – to'qqiz kun,
O'qransa – o'n kun".*

Bu kabi maqollarda qadimgi turkiy xalqlarning kosmogonik qarashlari o'z aksini topgan. Folklorshunos B.Sarimsoqov bu xususda shunday yozgan: "Qish faslining to'qson deb ataladigan har bir kuni shu kampir (Ayozi momo) o'g'lonlarining biri bilan bog'langan emish. Agar qish yaxshi kelib, to'qson kunlari havo issiq bo'lsa, Aziz momoning qahri kelib, qishning oxirgi olti kuni, ya'ni Ayamajuz kunlari (bu muddat ahman-dahman, xezim-xirmon paytlarini o'z ichiga olib, 13-19 mart kunlariga to'g'ri keladi) qattiq sovuq bo'ladi va Ayozi momo to'qson o'g'liga qarab "*To'qson, to'qsoning ham mening bir kunimcha yo'qsan*", – deb aytar emish".⁸⁴

O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan qish har biri o'ttiz kundan bo'lgan uch oy, ya'ni to'qson kun sanalib, shu muddat "to'qson" deb atalgan, so'ngra qirovli kunlarning cho'zilishi inobatga olinib, ehtiyot yuzasidan unga yana o'n kun qo'shib, yuz kun "sad pok" deb yuritilgan. Hozirgi hisobga ko'ra, "to'qson" 13 dekabrda 13 martgacha bo'lgan muddatga to'g'ri keladi. Navro'zdan oldin bo'lgan olti kun intihosiga aloqador ayozli hafta hisoblangan va A'majuj, Aziz momo nomi bilan bog'lab talqin qilingan. Bu haqda turli afsonalar ham yaratilgan.

Xalq ko'p yillik kuzatishlarida Navro'z arafasidagi haftaning hamisha sovuq, hatto er muzlashgacha borib etishini inobatga olib, uni "Ayamajuz", "Ayyom", "Shisha kunlari" deb atab kelgan. Xalqning bu kunlarga oid e'tiqodi Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan

⁸³ Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2018.

⁸⁴ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 84-85.

qolgan yodgorliklar” asarida quyidagicha ta’riflangan: “Shu oy ichida “kampir kunlari” bo’lib, uning boshi yigirma oltinchi shubotdir. U ketma-ket etti kun bo’ladi. Yil kabisali bo’lsa, to’rt kuni shubotdan, uch kuni ozor oyidan bo’ladi: (yil) kabisali bo’lmasa, uch kuni shubotdan, to’rt kuni ozordan (bo’ladi)... Qadimgilar hikoyasiga ko’ra, bu kunlar “kampir kunlari” deb atalishining sababi shuki, ... od qavmi shu kunlarning qattiq sovuq shamoli, girdoblari va dahshatlari bilan halok bo’lgan. Ular jumlasidan bir kampir tirik qolib, halok bo’lganlarga marsiya aytib, yig’lagan. Shuning uchun bu kunlar “kampir kunlari” deb atalgan.... Bazilarning gumonicha, shu (kunlarning “kampir kunlari”) deb atalishiga sabab shuki, bir kampir (havoning) isiganini ko’rib, paxtali kiyimini echib tashlagan va shu kunlarning sovug`ida o’lgan. Bazi arablar fikricha, “kampir kunlari”ning bunday atalishiga (sabab), bu kunlar qishning “kampiri”, yani oxiridir”.

Ko’rinadiki, ajdodlarimiz qadimdan tabiat hodisalarini kuzatib borganlar, undagi o’zgarishlarga munosabat bildirganlar, muayyan kunlar haqida bashoratomuz fikrlarni ifoda etishgan. Demak, ularning astronomik bilimlari darajasi haqida ma’lum bir xulosalarni, xalq taqvimi mohiyatini shu kabi maqollar orqali anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maqol va topishmoqlar ma’no-mazmunini to’la anglash va idrok etish uchun tinglovchi, avvalo, ularni yaratgan xalqning tarixini, dunyoqarashini, urf-odatlarini, mifologik tushunchalarini, diniy aqidalarini, o’sha xalq yashayotgan yurtning jug`rofiy muhitini, hayvonlar va o’simliklar dunyosini, iqlim sharoitlarini puxta bilmog`i lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mif va afsona qaysi jihatlariga ko’ra o’xshaydi?
2. Mif va afsonani farqlash uchun nimalarga e’tibor qaratish lozim?
3. Mifologik afsonalarning asosiy belgilari nimalarda ko’rinadi?
4. Mif va epos bog`liqligini qanday asoslaysiz?
 1. Xalq qo’shiqlarining mifologik asoslari haqida nimalarni bilasiz?
 2. Xalq qo’shiqlariga mif ta’siri nimalarda ko’rinadi?
5. Suv, olov kultlariga ishonch o’zbek xalq qo’shiqlarida qay darajada yoritilgan?
6. O’zbek xalq qo’shiqlarida tog`, daraxt, hayvon, qush obrazlarining mifologik tushunchalar asosida obrazlantirilganini isbotlay olasizmi?
7. Ertaklar paydo bo’lishida mifning o’rni qanday?
8. Sehrli-fantastik ertaklarda uchraydigan an’anaviy mifologik motiv va obrazlarga misol keltira olasizmi?
9. Hayvonlar haqidagi ertaklarda totemizmga ishonch qoldiqlari mavjudligini asoslay olasizmi?

10. Topishmoqlar paydo bo'lishiga mifologik dunyoqarash qanday ta'sir ko'rsatgan?
11. O'zbek xalq topishmoqlarining shakllanishida magik qarashlar, «yashirin nutq»ning o'rne qanday?
12. Maqollarda uchraydigan mifologik nomlarga misol keltira olasizmi?

Tubandagi tayanch tushunchalarni izohlang: mifologik afsona, xayoliy uydirma, doston, romanik doston, qo'shiq, Xizr, metafora, ertak, tabu, fantastika, xayoliy uydirma, sehrli raqam, demonologik personaj, antropomorfizm, metamorfoza, mifologik jang, mifologik obraz, mifologik motiv, maqol, topishmoq, jumboq, tabu, yashirin nutq.

Mifologiya – ajdodlarimizning arxaik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan e'tiqodiy ishonchlar silsilasining so'z (hikoya qilib berish), xatti-harakat (marosim va magik rituallarda namoyish etish) va tasvirlash (moddiy madaniyat yodgorliklari, qoyatosh chizgilari, qadimgi amaliy san'at namunalari) vositasida ommalashib kelgan va jahon xalqlari poetik tafakkuri, shu jumladan, badiiy adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan o'ziga xos tarixiy-madaniy fenomen hisoblanadi. Voqelikni poetik idrok etish va obrazlar vositasida tasvirlash an'anasining o'zi ham aslida arxaik mifologiyaning inkori sifatida, ya'ni borliqni mifologik kodlar orqali talqin qilishga asoslangan qadimgi tasavvurlar majmuini o'z ichiga olgan arxaik ijod to'rlarining badiiy ifoda usuli bilan o'rin almashishi natijasida badiiy tafakkurning ilk kurtaklari shakllangan.

Jahon adabiyotida mif syujetlari, motiv va obrazlarining poetik transformatsiyasi zahiriga qurilgan asarlarni yaratish tamoyili XX asrning oxirgi choragida modern adabiyotining badiiy evolyusiyasi natijasida o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bunda yozuvchining o'zi mansub bo'lgan xalq folkloriga mansub mifologik qatlamga xos mifologemalar tizimini yaratishi, qahramon ruhiyatini badiiy tahlil qilishda diniy-mifologik qarashlarni poetik sintez qilish usulidan foydalanishi, xalq og'zaki badiiy ijodida saqlanib qolgan arxetiplardan foydalangan holda mifologik tasavvurlar kompleksini ijod qilishi, badiiy asar syujetining mif mohiyati yoki mazmuni asosiga qurilishi, boshqa xalqlar badiiy madaniyatiga mansub inoetnik mifologemalarni istifoda etish kabi tamoyillar yetakchilik qilmoqda.

Mifopoetika badiiy asar poetikasining tarkibiy qismi bo'lib, badiiy mifologizm, neomifologizm, mifologema, arxetip, mifologik syujetlar stilizatsiyasi, demifologizatsiya, remifologizatsiya kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Jahon adabiyotida ijodkorning asotiriy syujet, motiv va obrazlarni mifologema sifatida badiiy o'zlashtirishi, mifopoetik model asosiga qurilgan syujet-kompozitsion strukturani yaratishi hamda

an'anaviy arxetiplar transformatsiyasining turli-tuman rakurslarda ifoda qilinishi holatlari kuzatiladi.

Ijodkorlar tomonidan qadimgi mifologik tasavvur tizimiga mansub elementlardan foydalanishdagi muayyan mifologemalarni emas, balki muayyan badiiy asarda o'z ifodasini torgan mifologik modellar tizimining badiiy talqinini o'zida mujassamlashtirgan tushuncha hisoblanadi. Badiiy adabiyotda voqelikni aks ettirishning mifologik ishonchlarga asoslangan ifoda usuli, turli-tuman arxetip, simvol va semantik belgilardan iborat mifik ong modeli, mifologik syujet, motiv va obrazlarning badiiy reinkarnatsiyasi va boshqa mifologizmlar kompleksini yaxlit holda mifopoetika ob'ektini tashkil etadi.

O'zbek adabiyotida qadimgi ajdodlarimizning borliq olam haqidagi o'y-xayollari va tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan e'tiqodiy qarashlar tizimi turli-tuman mifologik kodlar va arxetiplar sifatida yashab kelmoqda. Muayyan badiiy niyatni amalga oshirishda mifologiyadan ijodiy foydalanish, ya'ni badiiy idrok etilgan voqelikni mifologik tasavvurlar asosida talqin qilish an'anasining o'ziga xos ko'rinishlari XX asr o'zbek adabiyotida bo'lgani kabi hozirgi o'zbek nasrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Mifologiya bilan bevosita aloqador bo'lgan "universal mifopoetik manbalar" – mif va mifologik afsona syujetlari, mifologik tasavvurlar, obrazlar, timsollardan ijodiy foydalanish hozirgi adabiy jarayonning o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi.

Mifning hozirgi o'zbek nasridagi badiiy ifodasida uch xil holat ko'zga tashlanadi: 1) an'anaviy mifologik obrazlar, motivlar va syujetlardan ijodiy foydalanish asnosida badiiy asarda mifga xos voqelikni idrok etish shaklini qo'llash; 2) qadimiy mif syujetiga ijodiy yondashuv asosida uni hozirgi zamon poetik tafakkurining sinkretik kontekstida qayta ishlash; 3) arxaik mifologiyaga xos mifopoetik tasavvurlar hamda modellashtirish konsersiyasi asosida "mualliflik miflari"ning yaratilishi, bunda mif strukturasiga xos asosiy belgilar saqlab qolingani holda asar syujetiga asos bo'lgan hayotiy voqelik va zamonaviy muammolar badiiy aks ettiriladi. Boshqacha qilib aytganda, ijodkor badiiy tafakkurida voqelikning mifologizatsiyalanishi jarayoni yuz beradi.

Voqelikni badiiy idrok etishda mifopoetik talqin usulidan foydalanish an'anasining o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos ko'rinishlari Nazar Eshonqul ("Sibizg'a volasi", "Qultoy" hikoyalari), Asad Dilmurod (Alanquva hikoyasi), Nodir Normatov ("Ko'ktoshlar" hikoyasi), Isajon Sulton ("Bog'i Eram" hikoyasi), Ulug'bek Hamdam ("Bir piyola suv" hikoyasi) kabi yozuvchilar ijodida o'ziga xos tarzda talqin qilingan. Bu adiblar badiiy mahorati tufayli mifologik makon bilan real voqelik tafsilotlari birlashib, insonning ko'z o'ngida kechayotgan voqea-hodisalar bilan uning ong osti hislari orqali yetib kelgan ko'hna asotiriy

talqinlar qatma-qat joylashuvi kuzatiladi. Bunda olamning samoviy tuzilishini kosmogonik mif asosida izohlash hamda jonning bir shakldan boshqa ko'inishga o'tishi to'g'risidagi animistik mifning poetik talqini badiiy matnning struktural-semantik asosini tashkil etgan.

O'zbek adabiyotida mifologik tasavvurlar yoki mif syujetlari, an'anaviy asotiriy motivlar asosida asar yaratish tajribasi mavjud bo'lsa-da, bevosita janriy mansubiyati "mif-hikoya" tarzida belgilangan asarning paydo bo'lishi mifologiya va badiiy tafakkur sinkretizmi o'zining yangilanish jarayonini boshdan kechirayotganligining yaqqol dalilidir.

Yozuvchi Nazar Eshonqul o'zining "Sibizg'a volasi" mif-hikoyasida ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi murosasiz kurashda yaxshilik kuchlarining g'alabasi haqidagi qadimiy mifning o'ziga xos badiiy ifodasini bayon etish orqali o'zbek hikoyachiligining janriy imkoniyatlarini bir qadar yangilashga erishgan.

Bugungi o'zbek nasridagi ijodiy izlanishlar natijasida o'ziga xos mifopoetik hodisa sifatida vujudga kelgan **mif-hikoya janri** mifologik va badiiy tafakkurning muayyan darajadagi sinkretik hosilasi hisoblanadi. Bunda olamni idrok etishning arxaik qatlamiga xos xususiyatlar, ya'ni borliqdagi narsa-hodisalarni mifologik kodlar vositasida ifodalash an'anasi bilan voqelikning badiiy talqin etish usulining o'zaro chatishib, birlashib ketganligi kuzatiladi.

Jahon adabiyotidagi **neomifologizm** quyidagi ikki xususiyati bilan alohida ajralib turadi: 1) badiiy asar matnida an'anaviy arxetiplar (mif, afsona, ertak va hk.) va dunyo xalqlari mifopoetik tafakkuri uchun mushtarak hisoblangan universal mifologemalarni qo'llash; 2) adiblarning arxaik va klassik mifologiya arsenalidagi syujetlar, obrazlar, timsoliy-metaforik atributlar, an'anaviy motivlar asosida o'z "mifosxemasi"ni yaratishi.

Binobarin, hozirgi zamon o'zbek nasrining badiiy rivojini o'zida mujassamlashtirgan yetakchi tamoyillardan biri neomifologizm bo'lib, adiblarning o'z poetik niyatini ifoda etishda qadimgi miflar syujetidan foydalanib, zamonaviy mavzularni yangicha talqin qilishlari ustuvor yunalishlardan biriga aylanib bormoqda.

O'zbek adabiyotida mifologiya bilan bevosita aloqador bo'lgan "universal mifopoetik manbalar" (mif va mifologik afsona syujetlari, mifologik tasavvurlar, obrazlar, timsollar)dan foydalanish usullari hozirgi adabiy jarayonda yangicha tamoyil kasb eta boshladi. Hozirgi o'zbek nasrining mifopoetik qiyofasini keng ko'lamda tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, unda milliy folklor an'analарimiz orqali yetib kelgan arxaik mifologiya, antik davr Sharq (arab, fors-tojik, hind, xitoy va h.k.) asotirlari kopmleksi, Yevropa xalqlari klassik miflari (yunon, rim mifologiyasi), zardushtiylik mifologiyasi, islomiy asotirlar va boshqa xil

turli-tuman mifopoetik an'analarning murakkab arxetipik komplekslari hamda badiiy-kontekstual konstruksiyalari mavjuddir.

Adabiy jarayonda olamni idrok etishning qadimgi arxaik qatlamiga xos xususiyatlar, ya'ni borliqdagi narsa-hodisalarni mifologik kodlar vositasida ifodalash an'anasi bilan voqelikning badiiy talqin etish usulining o'zaro chatishib ketishi badiiy adabiyotning janrlar tarkibida yangi janriy shakllarning yaratilishiga asos bo'ldi. Mifopoetik idrok bilan badiiy tafakkurning sintezi natijasida o'ziga xos ijodiy tajribalar **roman-mif, mif-hikoya** kabi sinkretik janrlarda o'z aksini topdi.

Mifologizmlardan foydalanish usulining yetakchi badiiy mezonga aylanishi natijasida o'zbek nasrida ham syujet strukturasining to'laligacha mif asosiga qurilishi yot mifik syujetlarning semantik transformatsiyasiga asoslangan mif-hikoya janri yuzaga keldi.

Mifopoetik talqinning hozirgi o'zbek nasridagi eng yangi va ayni paytda, o'ziga xos talqinlaridan biri **"mif ijodkorligi"** yoki **"muallif neomifologizmi"**dir. Heomifologizmning bu ko'rinishlari voqelikning olamni asotiriy anglash vositasida tavsirlash an'anasining arxaik mif syujetlari bilan bevosita aloqasi bo'lmasligi, mifopoetik talqinning nisbatan erkinligi, adibning "o'z mifologemalari"ni yaratishga intilishi tamoyilining ustuvorlik qilishi, badiiy ifodaning milliy xarakter kasb etishi, jahon adabiyotidagi mifologik nasr namunalari bilan uyg'unlik hamda yangicha shakliy izlanishlar bilan xarakterlanadi.

O'zbek romanlarining badiiy konteksti va syujet-kompozitsion qurilishida muhim semantik funktsiya bajaradigan mifologizmlar quyidagi tirlarga bo'lib tasniflandi: 1) xalqimizning qadimiy turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman ritual marosimlar, rasm-rusumlar, totemistik, animistik va magik qarashlar bilan bog'liq mifologik arxetiplar diffuziyasi; 2) mifologik obrazlarning poetik kontekstdagi badiiy talqini; 3) mifologik syujet va motivlarning badiiy asar matnidagi stilizatsiyasi; 4) asar syujet-kompozitsion qurilishida etnomadaniy kontekstni shakllantirish maqsadida qo'llanilgan inoetnik, ya'ni jahon xalqlari mifologiyasi elementlarining transformatsiyasi.

Ijodkorlar tomonidan an'anaviy miflarning yangicha asosda qayta transformatsiya qilinishi, mifologik syujet va mifik obraz (mifologema)larga yangicha nigoh tashlash asosida ularni yangicha badiiy idrok etish asosida qo'llanilgan mif elementlarining asar kontekstidagi talqinlari neomifologizmlar sifatida qabul qilingan. Hozirgi o'zbek nasrida borliq olamdagi moddiy mavjudlikning sababini tushunish va izohlashning dastlabki shakli hisoblangan mifologik reinkarnatsiyasi, ya'ni qayta jonlanishining o'ziga xos shakllaridan yana biri olamni anglash, idrok etish va tushunishning mifga xos modeli asosida neomifologik kontekst yaratish usuli hisoblanadi. Neomifologizmning bu ko'rinishlari hozirgi o'zbek nasrida, ayniqsa, Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman", Nazar Eshonqulning "Ajr"

hikoyalari hamda Isajon Sultonning “Onaizorim”, “Munojot”, “Hazrati Xizr izidan” kabi qissalarida uchraydi.

O‘zbek romanchiligidagi mifopoetik ifoda rang-barangligi diniy-e’tiqodiy qarashlarga asoslangan mifologizmlardan foydalanish (U.Hamdanning “Isyon va itoat”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor” romanlari); animistik va fetishistik tasavvurlarga asoslangan mifopoetik talqinlarning namoyon bo‘lishi (I.Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari); asar syujetining yunon mifologiyasida aks etgan miflarga asoslanganligi (X.Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” romani); badiiy kontekstning neomifologik talqin zamiriga qurilganligi (Sh.Bo‘tayevning “Shoh” romani); qadimgilarning totemistik inonchlari transformatsiyasi H.Dilmurodning “Fano dashtidagi qush” romani), mifologik epos syujetining stilizatsiyasi Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romani) ko‘rinadi.

Jahon adabiyotshunosligida mifologiyaning yozma nasrga ta’siri, mifologizm va neomifologik tasvir usulining adabiy konsepsiyaga aylanishini K.G.Yung⁸⁵, K.Xyubner⁸⁶, R.Bart⁸⁷ chuqur tadqiq etishgan.

Rus adabiyotshunosligida mifologiyaning XX asr adabiyoti badiiy tizimida tutgan o‘rni, mif va yozma nasr masalalari Y.Lotman, Y.Meletinskiy, V.Y.Xalizev, A.S.Kozlov, A.I.Juravleva, Ye.N.Kornilovalar tomonidan o‘rganilgan.⁸⁸ Keyingi yillarda V.N.Toporov, G.Levinton, T.G.Velisova, S.Y.Neklyudov kabi olimlarning yozma adabiyotdagi “mifologizm” va “neomifologizm”larning poetik funksiyalari tahliliga doir asarlari chor ettirildi.⁸⁹

Turkiy xalqlar adabiyotidagi mifologizmlar maxsus tadqiq etilgan bo‘lmasa-da, R.Mirzaaxmedovaning atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov ijodiy merosi tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida milliy epik an‘analarning yozuvchi asarlaridagi talqini, shu jumladan, qadimgi mif syujetlaridan ijodiy foydalanish masalasiga ham e’tibor qaratilgan.⁹⁰ D.N.Nizomiddinovning rus, o‘zbek va gruzin romanlarini mifopoetik

⁸⁵ Юнг К. Г. Душа и миф. Шесть архетипов. Пер. с англ. – Киев: Порт-Рояль-Совершенство, 1997.

⁸⁶ Хьюбнер К. Истина мифа. Пер. с нем. – М.: Республика, 1996.

⁸⁷ Барт Р. Мифология. – М.: Издательство им. Сабашниковых, 1996.

⁸⁸ Лотман Ю., Минц З., Мелетинский Е. Литература и миф // Мифы народов мира. Энциклопедия в 2 т. – М.: Олимп, 1997. – Т. 2. – С.62-67; Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976; яна ўша. От мифа к литературе. – М.: РГГУ, 2000; Хализев В.Е. Мифология XIX-XX веков и литература // Вестник МГУ. – М., 2002. – №3. – С.7-14; Козлов А.С. Мифологическая критика / Краткий словарь литературоведческих терминов зарубежного литературоведения. – СПб., 1996. – С.238-240; Журавлева А.И. Новое мифотворчество и литературоцентристская эпоха русской культуры // Вестник МГУ. – М., 2003. – № 6. – С.32- 38; Корнилова Е.Н. Мифологическое сознание и мифопоэтика западноевропейского романтизма. – М.: Наследие, 2001.

⁸⁹ Топоров В.Н. Неомифологизм в русской литературе XX в. – Trento: Vevzlin, 1990; яна ўша. Миф. Ритуал. Символ. Образ: исследования в области мифопоэтического. – М.: Прогресс-Культура, 1995; Вилисова Т.Г. Миф как метаязык литературы XX века (новая волна ремифологизации в немецкой литературе 70-80-х гг.) // Изменяющийся языковой мир. – Пермь: Изд-во Перм. гос. ун-та, 2001; Неклюдов С.Ю. Структура и функция мифа // Мифы и мифология в современной России. – М.: АИРО-XX, 2000. – С.17-38.

⁹⁰ Мирза-Ахмедова П.М. Национальная эпическая традиция в творчестве Чингиза Айтматова. – Тошкент: Фан, 1980.

jihatdan qiyosiy o'rganishga doir tadqiqotlari⁹¹ ham mifologizmlarni o'rganishda muhim ilmiy qimmatga ega.

Mustaqillik davri qozoq romanchiligining taraqqiyot tendensiyalarini o'rgangan adabiyotshunos olimi S.M.Altibayevaning tadqiqotlarida⁹² qozoq yozma badiiy nasrining mifopoetikasi, nasriy asarlarda neomifologizm, romanlarning mifopoetik xususiyatlari va badiiy asardagi mifo-folkloriy infrastruktura va motivlar tizimining poetik funksiyalari xususida yangi ilmiy qarashlarni nazariy asoslagan. Shuningdek, G.B.Shainovanning nomzodlik dissertatsiyasida qozoq yozuvchisi R.Seysenbayevning "So'nggi qor", "Shayton saltanati", "Murdalar barxanlar aro daydiydi" romanlaridagi mifologizmlar tahlilga tortilgan.⁹³

N.A.Sizdikbayev XX asrning ikkinchi yarmidagi badiiy adabiyotda, xususan, O'rta Osiyo mintaqasida ijod qilgan Ch.Aytmatov, M.Avezov, A.Muxtor, N.Eshonqul, R.Seysenbayev, U.Hamdani, A.Kekilbayevlarning ijodidagi tipologik o'xshashliklar va farqlar mujassamlashgan mifopoetik tizimlarni qiyosiy tirologik tadqiq etgan⁹⁴.

O'zbek adabiyotshunosligida yozma adabiyot matnida qo'llanilgan mifologik obrazlar va qadimgi mifik syujetlar adabiyotshunoslikda folklorizm sifatida baholanib kelingan, ammo "folklorizm" va "mifologizm" tushunchalari ayri-ayri hodisalarni ifodalovchi atamalar bo'lgani uchun badiiy asar tarkibidagi mifologemalar alohida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Qayd qilish joizki, mif va uning yozma adabiyotga ta'siri, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotidagi mifologik obrazlar va qadimiy asotir syujetlarining poetik ifodasi masalasi N.Mallayev, M.Saidov, G'.Akramov, M.Jo'rayev, T.Xo'jayev, M.Rajabova, T.Matyoqubova, M.Narziqulova tomonidan o'rganilgan.

Mifologiyaning XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni masalasi monografik jihatdan o'rganilmagan bo'lsa-da, muayyan mifologik syujetlar va an'anaviy mifik obrazlarning badiiy matnda qo'llanilishiga doir ayrim mulohazalar bildirilgan.⁹⁵

Folklorshunoslikdagi ruhiy-tahlil maktabi tarafdorlarining mif va tush ayni bir narsadir, degan nazariyasiga asoslangan J.Eshonqulov

⁹¹ Низамиддинов Д.Н. Мифологическая культура. – М.: Гелиос, 1993; shu muallif: Философско-мифологический роман XX века (на материале русской, узбекской и грузинской литературы): Автореф. дисс.... докт. филол. наук. – М., 1994.

⁹² Алтибаева С.М. Мифологизм как важный компонент современного художественного мышления // Фольклорные традиции и литературный процесс. – Алматы: Казак университету 2007. – С.97-104; шу муаллиф. Особенности мифопоэтики современного казахского романа // Вестник Международного казахско-турецкого университета им. Х.А.Яссауи. – Туркистан, 2007. – №2 (60). – С.31-38; shu muallif: Основные тенденции развития казахской прозы периода независимости: Автореф. дисс.... докт. филол. наук. – Алматы, 2010.

⁹³ Шаинова Г.Б. Мифологизм Р.Сейсенбаева: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Алматы, 2008.

⁹⁴ Сыздыкбаев Н.А. Художественный неомифологизм в литературе второй половины XX века. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2012. – С.148.

⁹⁵ Жўраев М. Мифларнинг ёзма адабиётга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 6-сон. – Б.41-45.

jahon adabiyotining F.Kafka, U.Folkner, T.Mann, Ch.Aytmatov singari yirik namoyandalari hamda Shukur Xolmirzayev, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad kabi o'zbek adiblarining asarlaridagi mifologik tasavvurlar talqinining ramziy mohiyat kasb etishini ochib bergan.⁹⁶

Ma'lumki, mif qadimgi odamlarning olam haqidagi eng qadimgi tasavvurlari yig'indisi bo'lib, xalq og'zaki ijodi, marosimiy qadriyatlar va san'atning kelib chiqishida muhim ahamiyat kasb etgan. Olamdagi moddiy voqelikni anglashning arxaik shakllaridan biri hisoblangan mifologiya keyinchalik xalq og'zaki badiiy ijodi orqali yozma adabiyotning yuzaga kelishi, rivojlanishi va badiiy evolyutsiyasida ham muhim rol o'ynagan. Jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida ko'rlab mifologik obrazlar va mif syujetlari badiiy qayta ishlangan. Yozuvchi badiiy niyatini amalga oshirishda mifologiyadan ijodiy foydalanish, ya'ni badiiy idrok etilgan voqelikni mifologik tasavvurlar asosida talqin qilish an'anasining o'ziga xos ko'rinishlari XX asr o'zbek adabiyotida, xususan, bugungi o'zbek adabiyoti namunalari ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

O'zbek adabiyotida mifologiya bilan bevosita aloqador bo'lgan "universal mifopoetik manbalar" (mif va mifologik afsona syujetlari, mifologik tasavvurlar, obrazlar, timsollar)dan foydalanish usullari hozirgi adabiy jarayonda yangicha tamoyil kasb eta boshladi. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalariining mifologik syujetlarni ijodiy qayta ishlash bilan bog'liq boy an'analari hamda mifopoetik mohiyat kasb etgan jahon adabiyotining eng ilg'or tajribalarini o'zida yaxlit holda mujassamlashtirgan adiblar faoliyatida "mif ijodkorligi", ya'ni badiiy idrok etilgan voqelikni mifik tafakkur mezonlari asosida ramziy-metaforik tasvirlashga moyillik kuchayayotganligi yaqqol seziladi. Hozirgi o'zbek nasri qadimgi miflar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lmay, balki folklor orqali bog'langandir. Ya'ni yozma "adabiyot folklor orqali mifologiyaga borib taqaladi"⁹⁷. Folklor asarlarining syujet-kompozitsion ko'rinishida saqlanib qolgan qadimgi mifologiya an'analari xalqimiz poetik tafakkorining shakllanishida qanchalik muhim rol o'ynagan bo'lsa, bugungi yozma nasrning badiiy takomiliga ham shunchalar jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi o'zbek nasrining mifopoetik qiyofasini keng ko'lamda tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, unda milliy folklor an'analimiz orqali yetib kelgan arxaik mifologiya, antik davr Sharq (arab, fors-tojik, hind, xitoy va x.k.) asotirlari kompleksi, Yevrora xalqlari klassik miflari (yunon, rim

⁹⁶ Эшонкул Ж. Миф ва роман // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1997. – №17 (3402). – Б.3; шу муаллиф. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999; шу муаллиф. Кафка ва биз // Ёшлик. – Тошкент, 2004. – 2-сон. – Б.8-10; шу муаллиф: Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006; шу муаллиф: Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019.

⁹⁷ Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976. – С.277.

mifologiyasi), zardushtiylik mifologiyasi, islomiy asotirlar va boshqa xil turli-tuman mifopoetik an'analarning murakkab arxetipik komplekslari hamda badiiy-kontekstual konstruksiyalari mavjuddir. Mifopoetik talqinning hozirgi o'zbek nasridagi eng yangi va ayni paytda, o'ziga xos talqinlaridan biri "mif ijodkorligi" yoki "muallif neomifologizmi"dir. Neomifologizmning bu ko'rinishlari voqelikning olamni asotiriy anglash vositasida tavsirlash an'anasining arxaik mif syujetlari bilan bevosita aloqasi bo'lmasligi, mifopoetik talqinning nisbatan erkinligi, adibning "o'z mifologemalari"ni yaratishga intilishi tamoyilining ustuvorlik qilishi, badiiy ifodaning milliy xarakter kasb etishi, jahon adabiyotidagi mifologik nasr namunalari bilan uyg'unlik hamda yangicha shakliy izlanishlar bilan xarakterlanadi.

Hozirgi o'zbek nasrida yaratilayotgan asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuvchining badiiy idrok etilgan voqelikni tasvirlash usulida olamni mifologik anglash asosiga ko'rilgan universal arxetipik modellar, obraz va motivlardan foydalanishga intilish hamda badiiy asarning mifologik podtekst asosiga qurilishi polifonizmni keltirib chiqaruvchi asosiy omilga aylanib borayotganligi kuzatiladi. Mifopoetik an'anadan foydalanish esa, o'z navbatida, asarda tasvirlanayotgan vodelik bayonida realistik talqin bilan ramziy-metaforik, mifologik-simvolistik ifodalarning uygun holda berilishiga hamda xronotor yo'nalishi va tasvirlangan badiiy olam zahiriga arxaik tafakkurga xos mifik qarashlar va tasavvurlarning singdirib yuborilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Nazar Eshonqul, Asad Dilmurod, Ulug'bek Hamdam, Shoyim Bo'tayev kabi adiblarning asarlarida mifologizmning o'ziga xos tarzda badiiy talqin qilinishi yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida folklor, shu jumladan, miflarning yozma adabiyotga ta'siri masalasini o'rganishga hissa qo'shgan N.Mallayev, B.Sarimsoqov, B.To'xliyev, N.Raxmonov, T.Mo'minov, I.Yormatov, A.Ergashev va boshqa olimlar badiiy asarda qo'llanilgan xalq og'zaki ijodi obrazlari, syujetlari va motivlarini asosan "folklorizm" sifatida talqin qilishgan.⁹⁸

Taniqli adabiyotshunos Y.M.Meletinskiy o'zining 2001-yilda chor etilgan "Ot mifa k literature" nomli kitobining "Mifologizm v romane XX veka (ot literatury k mifu)" nomli faslida mifologik tafakkurning o'ziga xos badiiy evrilishlari aks ettirilgan T.Manning "Sehrli tog", J.Joysning

⁹⁸ Маллаев Н. Алишер Навои ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974; Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 4-сон. – Б.37-45; Мўминов Ф. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – 2-сон. – Б.54-59; шу муаллиф. Типология фольклоризмов в советской узбекской литературе (60-е и начало 80-х годов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985; Б.Тўхлиев. Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутаду билиг" асари ва туркий фольклор: Филол. фанлари. докт.... дисс. – Тошкент, 1991. – Б.322; Н.Рахмонов. Ўрхун-Енисей ёзма ёдгорликлари ва туркий эпослар: Филол. фан докт.... дисс. – Тошкент, 1991. – Б.293; Эргашев А. Ривоят ва унинг бадий асар сюжет-композицион қурилишидаги поэтик ўрни: Филол. фанлари номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

“Uliss” asarlari tahlili asosida XX asr jahon romanchiligida mifologizatsiyaning quyidagi turlari mavjudligini tavsiflaydi: a) nasroniylikkacha boʻlgan davr arxaik mifologiyasiga apologetik yondashuv (masalan, D.G.Lorensning “Qanotli ilon” asari); b) inson tabiatining yovvoyilashuvini odam va olam haqidagi mifologik tasavvurlar kontekstida ifodalash (U.Goldingning “Rashshalar hukmdori” asari); v) T.Mann va J.Joysga xos mifni badiiy idrok etish usullarining sintezi (G.Broxning “Lunatiklar” asari); g) qadimgi yunon mifologiyasining J.Joys uslubidagi poetik stilizatsiyasi (J.Ardaykaning “Kentavr” asari).⁹⁹

Ushbu tasnif klassik realizmdan modernistik yoʻnalishgacha boʻlgan tadrijiy taraqqiyot bosqichini boshidan kechirgan XX asr jahon nasridagi mifologizm badiiy kontekstda aks ettirilayotgan muayyan olam konsepsiyasini ifodalashga xizmat qiladigan semantik vosita vazifasini bajarishini koʻrsatadi. Adabiyotshunoslikdagi bu nazariy konsepsiya Istiqlol davri oʻzbek nasridagi mifologizmlarning badiiy funksiyalarini aniqlashda muhim ilmiy qimmatga egadir. Chunki Kafka, Joys kabi yirik adiblarning asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilinishi adiblarga bugungi davr kishisi ruhiyatini badiiy tahlil qilishda mifologiya, xususan, qadimgi asotirlar hamda Oʻrta Osiyo mahalliy aholisining islomdan byryngi miflari, ayniksa, “Avesto” mifologiyasi hamda islomiy manbalar orqali kirib kelgan inonch-eʼtiqodlar mohiyatini ong osti hislari kesimida idrok etish orqali sintezlashtirishning yangi usullarini oʻzlashtirish imkonini berdi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida N.Mallayev, M.Rajabova ulugʻ shoir Alisher Navoiy asarlaridagi mifologik obraz va motivlar, miflarning shoir tomonidan ijodiy qayta ishlanishi tamoyillari, mifik tasavvurlar va xalq qarashlarining badiiy talqini haqida ilmiy fikrlarni bildirishgan.¹⁰⁰

T.Xoʻjayev, T.Matyobuqbovalarning nomzodlik dissertatsiyalarida Sakkokiy, Lutfiy, Xorazmiy, Ogahiy kabi mumtoz adabiyot namoyandalarining lirik asarlaridagi Xizr, pari, dev, ajdarho kabi mifik obrazlar genezisi va badiiy vazifalari xususida soʻz yuritilgan boʻlsa,¹⁰¹ A.Ergashev oʻzining XX asr oʻzbek romanlari badiiy strukturasida rivoyat janrining tutgan oʻrni masalasiga doir tadqiqotida Asqad Muxornig “Chinor” romanidagi chinor detalida “hayot daraxti” haqidagi qadimiy miflar oʻz ifodasini topganligini aniqlagan.¹⁰²

Folklorshunos olim M.Joʻrayevning “Miflarning yozma adabiyotga

⁹⁹ Мелетинский Е.М. Мифологизм в романе XX века (от литературы к мифу). – М.: Российский гуманитарный университет, 2001. – С.130-131, 140-141.

¹⁰⁰ Маллаев Н. Навоий ва космогоник асотирилар // Гулистон. – Тошкент, 1976. – 5-сон. – Б.14-15; shu muallif: Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.

¹⁰¹ Хўжаев Т. Мифик образ ва ёзма адабиёт // Адабий мерос. – Тошкент, 1991. – №2. – Б.63-68; shu muallif: XV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Матёкубова Т.Р. Огаҳий шеърятда анъанавий образлар талқини: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.

¹⁰² Эргашев А. Ривоят ва унинг бадий асар сюжет-композицион қурилишидаги поэтик ўрни: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

munosabati” nomli maqolasida Hamid Olimjon “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” dostonidagi g‘aroyib qush obrazining genetik ildizlari “Avesto” mifologiyasiga qiyosan o‘rganish asosida “adabiyot folklor orqali mifologiyaga borib taqaladi” degan ilmiy qarash tasdiqlangan.¹⁰³ G‘.Akramovning “Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir” nomi ostida “ O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida chop etilgan turkum maqolalarida mifologiyaning o‘zbek mumtoz adabiyoti shakllanishida tutgan o‘rni, mifologik obrazlar arsenalining badiiy kontekstga ko‘chishi qonuniyatlari, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy kabi shoirlar lirikasidagi mifologik syujet va obrazlarning badiiy ifodasi, ijodkorlarning miflarni badiiy talqin qilishdagi mahorati, XX asr adabiyoti, xususan, romanlardagi mifologizmlar poetikasi kabi masalalar yoritilgan.¹⁰⁴

Hozirgi o‘zbek nasridagi neomifologizmlar tabiatini o‘rganishga alohida maqola bag‘ishlagan adabiyotshunos M.Ko‘chqorova Xurshid Do‘stmuhammad va Ulug‘bek Hamdamning mifologizmlardan foydalanishdagi o‘ziga xos badiiy mahoratini tahlil qilish natijasida “neomifologizm va unga xos shartlilik tabiatini tadqiq etish hozirgi adabiy jarayon uchun nihoyatda dolzarb mavzu sanaladi, degan to‘g‘ri xulosaga kelgan.¹⁰⁵

Shuningdek, mifologik syujet, motiv va obrazlarning o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalasi M.Saidov, M.Narziqulova, G.T.Garirova tadqiqotlarida ham tahlilga tortilgan.¹⁰⁶

XX asr adabiyotida miflarni qo‘llash turlicha bo‘lgan. Bu vaqtda “mif” tushunchasiga turlicha ma’no beriladi: illyuziya, shartlilik, noreal voqelik.

Adabiyotshunoslikda mifopoetik yondashuv adabiy asarda qadimgi miflarning izlarini topish, unda qadim miflarga xos motivlar, arxetiplar qay tarzda transformatsiyalangan holda aks etganini ko‘rsatib berishni maqsad qiladi. Adabiyotshunoslikda nasriy asarlardagi mif elementlarini tahlil qilishda qo‘llanilayotgan “mifologik obraz (syujet, motiv)” va “arxetipik obraz (syujet, motiv)” tushunchalarining bir-biridan farqli jihatlariga egaligi masalasiga oydinlik kiritish lozim. Darhaqiqat, mif va arxetip masalasi – mifopoetika mohiyatini oydinlashtiruvchi asosiy nuqtalardan biri.

¹⁰³ Жўраев М. Мифларнинг ёзма адабиётга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – №6. – Б.41-45.

¹⁰⁴ Акромов Г. Миф ва ёзма адабиёт муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1998. – 2-сон. – Б.60-66; 4-сон. – Б.70-74; 5-сон. – Б.56-58; 6-сон. – Б.53-57.

¹⁰⁵ Кўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида неомифологизм муаммоси // Илмий хабарнома. – Андижон, 2013. – 1-сон. – Б.80-83.

¹⁰⁶ Саидов М. Туркий халқлар мифологиясининг ёзма адабиётга таъсири масаласига доир // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 1996. – 2-сон. – Б. 141-145; Нарзикулова М. “Сабъаи сайёр” достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талкини: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Гарипова Г.Т. Мифосюжеты в современной узбекской литературе // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2010. – № 8. – С.62.

Arxetip (yunoncha: arche – boshlang'ich, turos – namuna) – badiiy asar haqidagi muallif yaratgan boshlang'ich tasavvur, universal timsol. Ijodiy tafakkurga xos qolirlar, sxematik fikrlash tarzi va ibtidoiy motivlar.

Arxetip va miflarni o'rganishda bir qator istilohlarga duch kelamiz: mifologema (arxetipga yaqin ma'nodagi mifik tushuncha), arxetipik (yoki arxaik) model, arxetipik jihat, arxetipik formula, arxetipik motiv kabi.

Arxetip deganda, inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turgun “sxema”lar, konstruksiyalar, qoliplar tushunilib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko'rish mumkin. Arxetip konstruksiyalar va sxemalardan o'ziga xos “syujet va syujet holatlari” jamgarmasi hosil bo'ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko'chib yuradi¹⁰⁷. Arxetipni inson ruhiyatida yashab kelayotgan eng qadimgi davrlardan beri dunyoni qabul qilish, tushunish bilan bog'liq umumiy tasavvurlar, yagona modeldir deb ta'riflash mumkin. Arxetip haqida gar borganda, asosan, arxetip obrazlar nazarda tutib fikr yuritiladi. K.G.Yungning qarashicha¹⁰⁸, arxetipning o'zi hali obraz emas, balki obrazlar sxemasidir. Arxetip insoniyatning ong ostida azaldan mavjud bo'lgan dastlabki shakl, umumiy strukturadir. U insoniyat ruhiyatida doimiy yashaydigan uzviy qismdir. Arxetiplar faqat din, mifologiya va tushlardagi obrazlardagina o'zini ifoda etadi. Bu obrazlarni tahlilga tortish orqali arxetip haqida tushunchaga ega bo'lish mumkin. Demak, ramziy va metaforik timsollar arxetiplarning asosi bo'lib, mif ijod qilish jarayoni arxetiplarning obrazga o'sishini ta'minlaydi. Asosan bu obrazlar poetik ko'rinishda namoyon buladi.

Hozirgi o'zbek adabiyotidagi mifologizmlarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflashda uni “badiiy mifologizm” atamasi bilan nomlash to'g'riroq ko'rinadi. Chunki hozirgi davrda mifologizm, ya'ni qadimgi mifologik syujetlar, motivlar, obrazlar va mifik tasavvur elementlari, shuningdek, olamni mifologik anglash usulidan san'atning deyarli barcha turlarida, jumladan, tasviriy san'at, kino va sahna san'ati, zamonaviy xoreografiya va maydon tomoshalarida ham keng ko'lamda foydalanilmoqda. Bunday mifologik talqinlar qadimgi odamlarning olam haqidagi eng ko'hna inonch-e'tiqodlarini o'zida ifoda etgan arxaik mifning aynan o'zi emas, balki zamonaviy san'at bilan shugullanuvchi ijodkorlar fantaziyasi va xayolotida reinkarnatsiyalashgan – qayta jonlantirilib, bugungi davrning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini aks ettirish vositasiga aylangan ko'rinishlari bo'lib,

¹⁰⁷ Боров Ю. Эстетика. Теория литературы: Энциклопедический словарь терминов. – М.: Издательство Астрель, 2003. – С.45-47; Теоретико-литературные итоги XX века. Том 2. Художественный текст и контекст культуры. – М.: Наука, 2003. – С.284-319; Д.Курунов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.38.

¹⁰⁸ Аверенцев С.С. Архетипы / Мифы народов мира. Энциклопедия. Том 1. – М.: Советская энциклопедия, 1992. – С. 110.

ularning barchasi “mifologizm” atamasi ostida umumlashtiriladi.

Adabiyotshunoslikda **demifologizatsiya** (qadimgi miflar mohiyatini inkor qilish orqali o`zlikni anglashga intilish), **remifologizatsiya** (allaqachon unutilib ketgan mifologik tasavvurlar, syujet va obrazlarni qayta “tiriltirish”) va **mifologizatsiya** kabi tushunchalar badiiy mifologizmning usullari sifatida talqin qilinadi.

“**Badiiy mifologizm**” va “**adabiy mifologizm**” atamalarining ma’no-mohiyati ilk bor taniqli adabiyotshunos olim Y.M.Meletinskiyning “Mif poetikasi” nomli asarida keng ko’lamda izohlandi. Uning fikricha, adabiy mifologizmda mifologik prototiplarning turli “nikob”lar ostida abadiy qaytarilib turishi, adabiy va mifologik qahramonlar doimiy ravishda o’rin almashib turishi hamda hayotiy voqelik talqinining mifologizatsiyasi birinchi planga chiqadi. Undan farqli o’laroq, badiiy mifologizmning semantik ko’lami ma’lum darajada torroq bo’lib, nasriy asarlarda badiiy shartlilikni yuzaga chiqarish usuli sifatida namoyon bo’ladi. Badiiy mifologizmning matn strukturasi funksional-semantik vazifasi ham shu bilan belgilanadi.¹⁰⁹ Bolgar adibi Yordan Radichkovning roman-miflarini tadqiq etgan I.V.Uvarovning fikricha, “badiiy mifologizm keng ko’lamli tushuncha bo’lib, badiiy adabiyotda uchraydigan barcha miflarni, jumladan, muallif tomonidan folklardan o’zlashtirilgan yoki uning o’zi ijod qilgan mifologik syujetlar, motivlar va obrazlarni ham, badiiy asar matnini tahlil qilish asosida aniqlanishi mumkin bo’lgan olam mifologik manzarasi va mifologik tasavvurlarning ramziy-semiotik talqinlarini ham o’z ichiga oladi.”¹¹⁰

Tarixiy taraqqiyot natijasida mif va marosimlar transformatsiyasi qayta-qayta poetik mushohada qilinishi tufayli miflar og’zaki adabiyotga, og’zaki adabiyot, o’z navbatida, yozma adabiyotga mustahkam va serunum zamin buldi. Adabiyotshunoslikda folklarning yozma adabiyotga, yozma adabiyotning folklarga ta’siri, bir-birini boyitishi tadqiqotlarning muhim bir yo’nalishiga aylandi. Chuqurroq o’ylab qaralsa, hozirgi zamon kishilarining ongida eng qadimgi tasavvurlar rudimentlaridan tortib, eng zamonaviy dunyoqarash tushunchalarigacha u yoki bu darajada mavjud, deyish mumkin. Ular har birimizning idrokimizga yarasha uygunlashib, zamonaviy tafakkur mevalarini bermoqda.

Miflar va ularning poetik transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan mifologizmlar badiiy adabiyotda shunchaki syujetni shakllantiruvchi unsur yoki voqelik tasvirining etnomadaniy kontekstini yaratish vositasi emas, balki ijodkor tafakkuri, uning olam manzarasi va odam ruhiyatining barcha qatlamlarini idrok etishiga, provardida ezgulikning yovuzlik ustidan g’alaba qozonishiga bo’lgan ishonchning

¹⁰⁹ Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Издательская фирма Восточная литература РАН, 2000. – С.277.

¹¹⁰ Уваров И.В. Типы художественного мифологизма в прозе Йордана Радичкова: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2007. – С.9.

badiiy-estetik talqinini yaratishiga asos bo'ladigan manbalardan biridir.

O'zbek nasrida, jumladan, mumtoz nasriy asarlarda mifologik syujetlardan ijodiy qayta ishlash vositasida foydalanish an'anasining tarixi ancha uzoq bo'lib, uning ilk ko'rinishlari Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchraydi. Asosan "Qur'oni karim" oyatlarini turli rivoyatlar, naqlar va hikoyatlar orqali sharhlash maqsadida yaratilgan ushbu asarda muallif o'zi mansub bo'lgan xalq folklori namunalari – maqol, naql, rivoyat, afsona, qo'shiqlar qatorida miflardan ham samarali foydalangan. Yodgorlikda kosmogonik, kalendar, hayvonot va nabotot, inson faoliyati va kashfiyoti, etnografik kabi mif turlari uchraydi".¹¹¹

Darhaqiqat, Rabg'uziy o'z asarida dunyodagi ilk odamning yaratilishi haqidagi antropogenik mifni, turli jonivorlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi zoonimik miflarni, tabiat hodisalari (masalan, Ayamajuz kunlarining sabablari)ning mohiyatini izohlovchi kalendar miflarini keltirib o'tgan. Masalan, "Qissasi Rabg'uziy"da qarg'aning tusi nega qoraligi haqidagi mif shunday talqin qilingan: dunyoni suv bosib, butun olam to'foni ro'y berganida har bir jonzotdan bir juftidan olib kemaga joylagan Nuh nabiulloh poyonsiz ummon ichida quruq yer borligi yoki yo'qligini bilish uchun bir qarg'ani jo'natadi. Ammo qarg'a suv betida suzib yurgan o'limtiklarni ko'rgach, rayg'ambarning topshirig'ini unutib qo'yadi-da, qaytib bormaydi. Nafsiga qul bo'lgan qarg'ani Nuh rayg'ambar qarg'aydi va natijada u o'limtikxo'r qushga aylantiriladi.¹¹²

Ana shu tarzda o'zbek mumtoz nasrida mifologik syujetlar, motiv va obrazlardan ijodiy foydalanish o'ziga xos an'anaga aylandi. Bu an'ana XX asr o'zbek adabiyotida ham faol davom ettirilganligini Asqad Muxtorning "Chinor" romanidagi "chinor" mifologemasi, Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romanidagi olamning yaratilishi to'g'risidagi kosmogonik mif talqini, O'tkir Hoshimov asarlaridagi xalq qarashlarining badiiy ifodasi va boshqa ko'rlab misollarda tahlil qilish mumkin. Istiqlool davri adabiyotida esa an'anaviy mifologik syujet va motivlarni ijodiy qayta ishlashda o'ziga xos transformatsiya jarayoni yuz berdi: ya'ni yozuvchilar uz badiiy niyatini amalga oshirish uchun tasvirlanayotgan voqelik talqini yoki qahramon ruhiyatining badiiy tahlilini mifologik tasavvurlar prizmasidan o'tkazishning o'ziga xos namunalari yaratdilar.

Ijodkorlar afsona, rivoyatlardagi chuqur mazmunga ega bo'lgan mifologik obraz, motiv va ramzlarni asarlariga ijodiy ko'chirish orqali o'z asarining qiymatini oshirishga harakat qilishadi. Yozuvchi ma'lum qadriyatlarga ega xalq ichida voyaga yetgach, ushbu xalqqa xos qadriyatlar uning ong-shuuri qatlamlariga singib ketganidan va o'z

¹¹¹ Шукурова З. Рабгузий ва фольклор. – Тошкент: Tamaddun, 2015. – Б.199.

¹¹² Носируддин Бурхонуддин Рабгузий. Қиссаси Рабгузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б.45.

asarlarini yozish davomida anglanmagan tarzda ushbu qadriyat ildizlarini ifodalovchi qadim mif va arxetiplardan foydalanishi mumkin.

Isajon Sultonning “Bir tomosha tarixi” hikoyasida Zuhro yulduzi haqida mifologik afsona keltirilgan. Afsonada keltirilishicha, Sulaymon rayg‘ambarga shamol bo‘ysynib istagan yeriga olib uchar, hayvonlar va Tangrining ko‘zga ko‘rinmas maxluqlari hukmini so‘zsiz bajarishini ko‘rib kishilar orasida Sulaymon bu ishlarni sehr-u jodu yordamida amalga oshiryarti”, degan gaplar tarqaladi. Ammo odamlar haqiqat va sehr-u jodu orasidagi farqni bildirish uchun yer yuzigya Horut va Morut degan ikki farishta tushirilganidan bexabar edi. Inson avlodlari yer yuzida haddan ziyod buzg‘ynchilik qila boshlaganlaridan so‘ng, Olloh oldidagi farishtalar aytishadiki, sen ularning o‘rniga boshqa xalqni yoki bizni tushirganingda edi, bunday buzg‘ynchiliklar bo‘lmasdi, – deganda Olloh: “Senlar ham ular bilgan narsalarni bilganlaringda shunday buzg‘ynchilik qilardinglar”, – deydi. Shundan so‘ng oralaridan uchitasi yer yuziga tushishni istagan ekan. Uchovidan biri bu ishning oxiri yomon ekanligini bilib, yer yuziga tushmaydi. Buzg‘ynchilik qilmasliklariga qattiq ishongan farishtalar Zuhro ismli g‘oyat ajoyib va go‘zal bir ayolga duch kelib, uning zeboligidan eslarini yo‘qotib qo‘yadi. Ayolning go‘zalligidan mast bo‘lgan farishtalar Zuhroga ham o‘zlari bilgan bilimlarini o‘rgatishadi. Tangri taolo ularni bir chohga tashlaydi. Zuhro esa farishtalar sirlarini bilgani uchun osmonga ko‘tarilib, yulduzga aylangan ekan. Ular Bobildagi bir chohga hibs qilinadilar. Shundan buyon sehr o‘rganuvchilar Bobilga borar ekanlar. Hikoya komrozitsiyasida bu afsona muhim ahamiyatga ega, u asar mazmunining yoritilishida muhim badiiy vazifa bajargan.

Ushbu hikoyada keltirilgan Zuhro yulduzi haqidagi afsona syujeti G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasida ham keltirilgan. Unda yozuvchi bu afsonani sal boshqacharoq keltirib o‘tgan. Unga ko‘ra, Zuhro degan go‘zal qiz bo‘lib, uning ota-onasi erta vafot etadi. Qizning go‘zalligini eshitib podsho sovchi yuboradi. Qiz “o‘zimning sevganim bor, shunga tegaman”, deb sovchilarni qaytaradi. Podsho Zuhroning sevgan yigitini toptirib, dorga ostirib o‘ldirib yuboradi. Zuhro tun yarmida sevgilisi osilgan dor yoniga keladi. Bu dor yog‘ochi juda uzun edi, osmonga yetishiga bir yoki ikki qadam qolgan edi. Zuhro shu dor yog‘ochiga tirmashib osmonga chiqib ketadi. “Bir kunmas bir kun, yerda zo‘ravon podsholar yo‘qolsa qaytib tusharman”, debdi-yu, ko‘kka chiqib ketibdi. Shu-shu Zuxro tun yarmidan o‘tganda yorqin bo‘lib ko‘rinib turadigan Zuhro yulduziga aylanib qolgan ekan¹¹³. Ko‘rib o‘tganimizdek, ikkala afsona mavzusi bir xil, lekin undagi syujet bir oz farq qiladi. Birinchi Zuhro va farishtalar haqidagi syujet asos bo‘lgan og‘zaki hikoya afsona bo‘lsa, ikkinchi og‘zaki hikoya esa mifdir. Chunki birinchi og‘zaki

¹¹³ Фафур Ғулом. Шум бола. Танланган асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2016. – Б.237.

hikoyada xayoliy uydirma yetakchilik qiladi va syujet so'ngida sehragarlikni o'rganish uchun Bobilga borish lozimligi ta'kidlanadi. Ikkinchi og'zaki hikoyada esa samoviy jism – Zuhro yulduzining paydo bo'lishi izohlanadi. Demak, tabiat hodisasining paydo bo'lishini izohlaganligi uchun uni mif deyishimiz to'g'ridir. Mif samoviy jismni izohlashga qaratilganligi uchun kosmogonik mif sifatida tavsiflanishi maqsadga muvofiqdir. Bu afsonaning hikoya syujetiga singdirilishi orqali yozuvchi g'oyat muhim badiiy maqsadini ko'zda tutgan: tomoshabinlarga tomosha ko'rsatayotgan kishining fokusi ko'zboylog'ichlik ekanligini ochib bergan. Adib hikoyada mif, afsona va rivoyatlarni, asosan, nasriy asardagi muayyan ma'lumotni dalillash, isbotlash yoki kitobxonga shu xabarni yetkazish maqsadida qo'llagan.

Isajon Sulton "Bog'i Eram", "Manzil", "Tilsim lashkari", "Avliyo", "Qismat", "Orif", "Kichkina rushtirang maxluqcha", "Qo'riqchi", "Shamolli kecha", "Ozor" kabi hikoyalarining ishonarli, qiziqarli va haqqoniy chiqishini ta'minlash maqsadida mifologik motiv, mifologik syujet, mifologemalardan samarali foydalangan.

Isajon Sultonning "Qismat" hikoyasida xuddi shunday o'zbek xalqiga xos tarbiya, axloq normasi ifoda etilgan. Bu hikoyani adabiyotshunos Uzoq Juraqulov mistik adabiyot turiga kiritgan¹¹⁴. Hikoyaga quyidagi so'zlar erigraf qilib olingan: "Otaga tosh otsang, kun o'tib bir kun, farzanding senga tosh otmog'i mumkin". Hikoya milliy Sharqona tarbiya asosiga qurilgan bo'lib, syujetiga ko'ra uch bola ota-onasi vafot etib, buvisi qo'lida qoladi. Ularning hovlisiga yaqin joyda qamish bosgan bir kul bo'lib, unda bir baliqni o'gillarning eng kichigi ko'rib qolib, akalariga aytmasdan har kuni uni kelib tomosha qilardi. Buvining ko'zi kundan-kunga xiralashib borardi. Katta o'gilning tushiga bir chol kiradi. Chol: "Enang baliq go'shti yesa tuzaladi, ko'zlariga nur kiradi. Juma kuni ko'l bo'yiga borsang, otang baliq bo'lib keladi, senlar uni tutib, enangga pishirib beringlar", – deydi¹¹⁵. Bolalar baliqni pishirib beradi. Haqiqatan, baliqni yegandan co'ng buvisining ko'zlariga nur kiradi. Bolalar baliqni maydalab, jazillab turgan yog'ga solib qovurar ekan, katta o'gil bundan xursand bo'lib: ".. .ana endi qozonda jizillab kuyarsan, ota. Do'zaxda shunaqa kuyishingni orzu qilgan edim. Xudoi taolo shunga belgi qilib seni jo'natdi, jo'natgandayam olovda qovuriladigan qilib jo'natdi"¹¹⁶. Katta o'gilning bundan xursand bo'lishiga sabab, otasi ichib kelib onasini, bolalarini urardi. Bola bechoralar "ota" deb uning bag'rida erkanmagan ham edi. Bundan tashqari "ota" o'z otasini urganida ota yiqilib, ko'zini qamish tilib ketadi, shunda ota o'z o'g'lini "Qamishday qurib bit" deb qarg'aydi, duoibad qiladi. Katta o'gil shu gunohlari uchun ham uni olovda, xuddi

¹¹⁴ Журақулов У. Хос калом хосияти // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б.130.

¹¹⁵ Исажон Султон. Асарлар. Хикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 93.

¹¹⁶ Исажон Султон. Асарлар. Хикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 93.

do'zaxning olovida kuyayotganini bildirish uchun baliq qilib yuborgan deb o'ylardi. Hikoya voqealari zamiriga o'zbek mentalitetiga xos ota-onaga hurmat, mehr-muruvvat ko'rsatish g'oyasi singdirilgan. Yigitlarning otasi o'z otasi va onasiga mehrsiz bo'lib, hatto o'z farzandlariga ham mehr berolmaydi, yaxshilik sog'inmaydi. Bu hikoyada adib "Qaytar dunyo" maqolini mazmunan singdirib yuborgan. Bu hikoya haqida adabiyotshunos Uzoq Jo'ra'ulov o'zining tanqidiy fikrlarini bildirib o'tgan: "Avvalo, hikoya markazidagi o'lib ketgan ota obrazi o'quvchi ko'z o'ngida odam emas "tilla baliq" shaklida gavdalanadi. Ammo ushbu tilla baliqni na milliy poetik tafakkur zahirasi, na muallif ierarxiyasi (grek. Hieros – ilohiy va arche – hokimiyat) na hikoyadagi obrazlar ruhiy-madaniy potensiyasi nuqtai nazaridan badiiy ramz sifatida qabul qilib bo'ladi"¹¹⁷.

Hikoya voqealari tasviri kampirning ko'zi xiralashuvi motividan boshlanib, bolalarning o'tmishini yod olishi tasviri orqali voqealarning mohiyati ochib beriladi. Epigrafning mazmuni voqealar rivojida aks etadi. Inson vafot etgach, uning ruhi boshqa mavjudot sifatida qayta namoyon bo'lishi bilan bog'liq mifologik motiv hikoyada erigraf-syujet-talqin ketma-ketligi va uzviyligini ta'minlagan. Bu esa Isajon Sultonning erik voqelikni talqin qilishdagi individual uslubidir.

Yozuvchi Ulugbek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasi¹¹⁸ o'zligini yo'qotgan va uni kashf etishga intilgan kishi haqida bo'lib, asar turli timsol va tashbehlarga boy. Asar boshidan qahramonga o'zi hali tushunib yetmagan topshiriq berilganligi aytiladi. Bu xuddi ko'plab adabiyotlarda uchraydigan jarayon – qahramonning o'z qobiliyatlari va maqsadlarini tushunmasligi, ammo uning maqsadi aniq qilib belgilab qo'yilganligini eslatib yuboradi. Jaziramada yo'lga chiqqan sayyoh qahramon quyosh taftiga dosh berolmay suv izlashga tushadi. Bu jarayonda folklordagi yo'l – safar motivi kuzatiladi. Ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda safar alohida motiv sifatida tekshiriladi. Bu motiv shart-sinov motivining davomi hisoblanadi, shart-sinov motivining ichida kechadi. Shu sababdan uni podmotiv deb atash ham mumkin yoki motivlarning rarallel harakati deya baholash mumkin. Chunki, ma'lum bir shartga ko'ra safarga chiqiladi, safar orqali sinov o'taladi¹¹⁹. Hikoya qahramoni topshiriqni bajarish uchun yo'lga chiqadi. Mifologiyada "quyosh" arxetip-simvoli – kun yorug'ligi, sig'inish ramzida, yaxshilik va zarar keltiruvchi, ilohlar va qirollar bilan aloqadorlikka ega bo'lgan ramzlarda kelishi mumkin. Quyosh o'zining bajaradigan vazifasiga qarab turli vaziyatlarda turlicha ifodalanishi mumkin. Kim uchundir hayotbaxsh nurlari orqali tiriklik bag'ishlasa, boshqasiga issiq tafti orqali zarar keltirishi mumkin. Hikoyada quyosh ramzining mazmuni

¹¹⁷ Журакулов У. Хос калом хосияти // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 77.

¹¹⁸ Улуғбек Ҳамдам. Тўлин ой қиссаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.3-16.

¹¹⁹ Назарова Ш. Хаёл ва Ҳақиқат фольклор ва теология кесимида. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – Б.33.

zarar keltirishda ekan.

“Suv” ramzi hikoyaning asosiy mazmunini ifodalab keladi. “Suv” arxetip-simvoli poklanish, vaqt oʻtkazish, qayta tugʻilish va vayronkorlik, hindlarning eʼtiqodiga koʻra, suv gunohlardan poklanish vazifasini bajaradi. Suv bu hikoyada ijobiy emas, balki salbiy mazmunda keladi va kishini yoʻldan ozdiruvchi tuzoq maʼnosini anglatadi. Shu jihatidan olib qaraganda, suvning “vayronkorlik”ni ifodalovchi arxetipik mazmuni hikoya uchun oʻrinlidir. Chunki hikoya qahramoni oldida shaytoniy gʻulgʻulaga berilmasdan, nafsni tiyish va suvdan voz kechish yoki suvga talpinib, sinovdan oʻtolmaslik kabi ikki tanlov turgan edi. Qahramon manzilga yetishga ulgurmay, yoʻlda koʻringan suvga talpinadi.

Asardagi qahramon yetib borishi lozim boʻlgan manzil – insonning oʻzligini anglashdagi oxirgi bosqichni, ruhiy kamolotga yetishni va sinovlardan toblanib oʻtishni anglatadi. Hikoya qahramoni manzilga bora olmaydi, aniqrogʻi, yoʻlning yarmida yiqilgan chogʻda manzilga eltish kerak boʻlgan narsa aslida suv ekanligini anglab yetadi. Bu hukm boshqa asarlardagi kabi oʻzingdan emas, balki tashqaridan izlagan mazmuningni bir necha arxetipik bosqichlardan oʻtish orqali oʻz ichingdan topishing mumkinligiga ishora qiladi. Qahramon muvaffaqiyatsizlikka uchrashi yoki muvaffaqiyatga erishishidan qatʼiy nazar, manzildagi sirni anglab yetadi. Ammo faqat olis yoʻldagi sinovlardan oʻta olgan qahramonlarga oʻz individualligini shakllantira olishga erishadilar.

Adabiyotga oʻziga xos yangi usul, yangi ifoda, yangi metafora olib kirgan Nazar Eshonqul asarlarini sinchiklab tahlil qilsak, adabiy didning, soʻzning oʻzida estetik idrokni, umuman ijtimoiy fikr va ongosti ehtiyojlarni qondirishga boʻlgan ichki bir intilishni sezamiz. Nazar Eshonqul hikoyachilikda dadil qoʻllagan usullardan biri, tabiiyki, bu mifologizmdir. Adibning aksar hikoyalarida biz mifologizmning u yoki bu jihatini koʻramiz. “Maymun yetaklagan odam”, “Tobut”, “Ajr” hikoyalarida diniy va mistik miflarga aloqador boʻlgan syujetning mavjudligi, “Evolyutsiya” afsonaviy metamorfozning ustunligi bilan, “Bahovuddinning iti”, “Oʻlik mavsum”, “Qaytish” – mifologik arxetip asosida yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Adibning “Qora kitob” asari qargʻishga qolgan insoniyatning azob-uqubatlari haqida bitilgan. Asarda toʻgʻridan-toʻgʻri oʻquvchiga murojaat qilinadi va kitobxon bilan suhbat tarzida davom etadi. Bosh qahramon asar avvalidayoq hayotda koʻrgan azob-uqubatlari haqida aytib, bularning barchasiga tavqi laʼnat sababchi, deya izohlaydi. Odam Ato va Momo Havvoning gunohi esa olma oʻgʻirlaganligida emas, balki insoniyatni tavqi laʼnatga qoldirganligida, gunoh hissini yer yuziga olib kelganligida, deb aytiladi. Bularning barchasi arxetipik tushunchalardir. Odam Ota va Momo Havvo arxetipik obrazlar boʻlsa,

gunoh va tavqi lan'at arxetipik simvollardir.

Mifologizm yozuvchining g'oyasini ifoda etuvchi asar poetikasiga aylanishi uchun dunyoni, muhitni mifologik idrok etish, mifologik qabul qilish, soddaroq aytganda, mifologik tafakkur tarzi ham zarur bo'ladi.

Dunyoni mifologik tafakkur tarziga aylantirmasdan, olamning mifologik mohiyatini anglamasdan turib asotirni badiiyatga uyg'unlashtirib bo'lmaydi. Y.Meletinskiy "...realistik asarga ongli ravishda mifni singdirish yoki mifologik ifodani qo'llash asarni sun'iyilashtiradi, bu xil asarda mifologizm bilan realistik voqelik qovushmaydi", – deydi.¹²⁰

Mifologizm adabiy asar poetikasiga aylanishi uchun yozuvchi voqelikning mifologik xususiyatini his etishi, idrok qilishi, dunyoni mifologik ko'z bilan ko'ra bilishi ham kerak bo'ladi. Ana shunda mifologizm voqelikning mohiyatiga ko'chadi, uni harakatlantiradi, unga mifik ko'lam bag'ishlab, mif timsollar tiliga aylanadi. Ana shundagina mifologizm ifoda quroliga, yozuvchining badiiyat, poetik quroliga aylanadi. Voqelikning mifologik mohiyatini anglamasdan turib mifni adabiyotga, umuman, san'atga olib kirish – ertak yaratishga o'xshab qoladi, bu holatda mifologizm timsoliy ifoda kasb etmaydi. Voqelikni aks ettira olmaydi.

Mifologizm XX asr adabiyotining eng xarakterli hodisasi, eng ta'sirli adabiy piyomi bo'lishining asosiy sababi voqelikning mifologik mohiyatini ko'ra bilish, ya'ni, "olamni mifologik idrok etishda"dir.¹²¹ Y.Meletinskiy qayd etganidek, mifologizm tasvir quroliga aylanishi uchun, avvalo, adibdan ana shu voqelikning mifologik mohiyatini topish, ko'ra olish, asarni ana shu asotirli voqelik asosida ifodalay olish talab etiladi.¹²²

Tabiiyki, mif bugungi kunda nafaqat yozma adabiyotning, umuman, san'atning ham ajralmas bo'lagi, uning ravnaqi va taraqqiyot ufqlarini belgilovchi unsurlardan biri bo'lib qolyapti. San'at tobora ko'prok semantik qiyofa kasb etayotgan bugungi kunda miflardagi ramziylik faqat asar poetikasini chuqurlashtiribgina qolmay, balki uning shakli va mazmunini ham asta-sekin o'ziga bo'ysundirib olmoqda. Rolan Bart "Mif – bu, avvalo, so'z" deganda ma'lum ma'noda xaq edi.¹²³ Xorxe Luis Borxes miflarning adabiyotdagi o'rniga yanada katta baho beradi: "Adabiyot mifdan boshlanib, mif bilan yakun topadi".¹²⁴

Hozirgi davr adabiyotining har xil tur va janrlarida bo'lgani singari nasrda ham mifologiyaga qiziqishning turfa shakllari ko'zga tashlanadi.

¹²⁰ Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М., 1976. – С.283.

¹²¹ Shu manba. – С.295.

¹²² Shu manba. – С.298.

¹²³ Барт Р. Мифологии. М. Издательство имени Сабашниковых, 2004. – С. 233.

¹²⁴ Борхес Х.Л. Сочинения в трех томах. – М.: Полярис, 1994. – С.174.

Xususan, bugungi yozma nasrda mifologik syujet va obrazlardan samarali foydalanish, qadimiy asotirlar, arxaik marosim va ishonch-e'tiqodlarning badiiy stilizatsiyasi, jahon xalqlari miflarining milliy-poetik interpretatsiyasi, mifologik hamda badiiy tafakkurning sinkretizmi ayniqsa ko'p uchraydi. Dunyo xalqlari adabiyotida mif va yozma nasr janrlarining o'zaro kontaminatsiyasi, ya'ni o'zaro chatishib-kushilib ketishi natijasida janrlarning yangicha shakllarini yaratishga intilish hollari ham mavjud.

Hozirgi jahon nasrida olam va odam mohiyatini badiiy idrok etishning miforitual, mifoekzistensial, mifoarxetipik, mifolingvistik va mifopoetik usullari keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, voqelikni mifoekzistensial modellashtirish natijasida inson mohiyatida mujassamlashgan eng nozik xilqatlarni idrok etish imkoni yuzaga keldi. Bunda mif milliy badiiy tafakkurning asosi va ajralmas tarkibiy qismi sifatida qayta talqin qilinayotganligi e'tiborlidir. Shuning uchun ham adabiyotshunoslikda "roman-mif", "mif-hikoya" kabi janriy yangilanishlarning yuzaga kela boshlaganligi hodisasini adiblarning mifologik modellashtirish orqali badiiy tafakkurni milliy identifikatsiyalash borasidagi izlanishlari sifatida talqin qilinishi lozim.

Bugungi o'zbek nasrida buy ko'rsatayotgan ijodiy izlanishlar natijasida o'ziga xos mifopoetik hodisa sifatida vujudga kelgan mif-hikoya janri ham mifologik va badiiy tafakkurning muayyan darajadagi sinkretik hosilasi hisoblanadi. Bunda olamni idrok etishning eng qadimiy-arxaik qatlamiga xos xususiyatlar, ya'ni borliqdagi narsa-hodisalarni mifologik kodlar vositasida ifodalash an'anasi bilan voqelikning badiiy talqin etish usulining o'zaro chatishib, birlashib ketganligi kuzatiladi. Bunday sinkretizm badiiy asarning syujet ko'rilishigagina taalluqli bo'lmay, balki personajlar talqini va inson konsepsiyasining ifodasida ham namoyon bo'ladi. Adib o'z badiiy niyatini ifodalashda ko'hna mif mohiyati, fabulati yoki uning muayyan syujet unsurlariga murojaat qilar ekan, bunda ko'yilgan masalalar umuminsoniy muammolar kesimida talqin qilinadi. Juda ko'p bahs-munozaralarga¹²⁵ sabab bo'lgan "Sibizg'a volasi" hikoyasida adib o'zbek hikoyachiligi, umuman, nasrida kuzatilmagan usulda mavjud asotirga zamonaviy ruh berish orqali mustabid tuzum va uning dohiylari qilmishini fosh etish yo'lidan borgan. Yozuvchi ertak syujetini o'zgartirmasdan, faqat unga mualliflik matni kiritib, zamonaviylik olib kirish uchun bo'yoqlar, detallar, ramzlar, tasvirlardan o'rinli foydalangan.

Xususan, yozuvchi Nazar Eshonqulning "Sibizg'a volasi" mif-hikoyasining qahramoni oddiy sartarosh bo'lsa-da, uning ko'ngil kengliklariga yetmay, nay navosiga aylangan dardi bir inson ongi-

¹²⁵ Сатторова Г. Чўпчакдан мудео не? // Ёшлик. – 2012. – 9-сон. – Б.33, Жўракулов У. Хос калом хосияти // Шарк юлдузи. – 2013. – 3-сон. – Б.130.

shuurinigina emas, balki butun bir jamiyatni o'ylantirayotgan muammolar sirasiga kiradi.

O'zbek adabiyotida mifologik tasavvurlar yoki mif syujetlari, an'anaviy asotiriy motivlar asosida asar yaratish tajribasi mavjud bo'lsa-da, bevosita janriy mansubiyati "mif-hikoya" tarzida belgilangan asarning paydo bo'lishi mifologiya va badiiy tafakkur sinkretizmi o'zining yangilanish jarayonini boshdan kechirayotganligining yaqqol dalilidir.

Adabiyotdagi poetik o'zlashtirish, ya'ni asar syujeti o'xshash-u, muallif muddaosi boshqa bo'lishi mumkin. Ko'rinadiki, adabiyotda mavjud asar ta'siriga tushish yomon, ammo o'sha asardan o'tkazib, badiiy jihatdan pishiq asar yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Muallif mana shu vazifani bajarishga harakat qilgan va asarga o'ziga xos yangiliklarni olib kirgan. Jumladan, asar yakuni ham o'ziga xos. Ya'ni sartaroshning taqdiri va uning keyingi hayoti kamishlarda yashiringan sir orqali bayon qilingan. Bu asarning o'ziga xosligini ta'minlagan. Nazar Eshonqul "Sibizg'a volasi" hikoyasini syujet nuqtayi nazaridan poetik o'zlashtirgan bo'lsa-da, yangi uslub yaratib, o'quvchiga manzur bo'ladigan darajada shakllantirgan. Natijada shunday klassik hikoya yuzaga kelgan.

Nazar Eshonqul o'zining mazkur mif-hikoyasini yozar ekan, Iskandar Zulqarnayn to'g'risidagi xalq afsonalari bilan bir qatorda ajdodlarimiz mifologik tasavvurlarini o'ziga xos tarzda mujassamlashtirgan "Avesto"dagi ezgulik timsoli Axuramazda haqidagi miflarni bir butun holida uyg'unlashtirib, yangicha badiiy ifoda etishga harakat qilgan. Zardushtiylar ishonuvicha, Mitra, ya'ni Quyosh eng oliy tangri bo'lib, Axuramazda ezgulik kuchlarini o'zida birlashtirgan ilohdir. Hikoyada tasvirlanishicha, odamlar orasidagi e'tiqodga ko'ra Iskandar ana shu tangri quyoshning o'g'li bo'lgani tufayli boshidan ilohiy nur taraladi. U Axuramazdaning timsoli bo'lgani uchun ham doimo yovuzlikka qarshi murosasiz kurash olib borgan. "Iskandar Axrimanning ko'plab yovuz kuchlari bilan olishib, yuzida o'sha ulug'vor janglarning izlari qolgan". Uning yuzidagi chandiqlar o'sha jangu jadallardan qolgan yodgor bo'lgani uchun ham eshik og'asi hukmdorning soqoli qirtishlayotgan sartaroshga ana shu chandiqlarning "mo'tabarligini" aytib, ehtiyot bo'lishni tayinlaydi.

Ma'lumki, folklor asarlari va mumtoz yozma adabiyotda "Iskandar Zulqarnayn" deb yuritilgan hukmdor nomining kelib chiqishi to'g'risida xilma-xil afsona va rivoyatlar yaratilgan. Abu Rayhon Beruniy tomonidan naql qilingan rivoyatlardan birida aytilishicha, "Iskandar quyoshning ikki shoxi, kun chiqish, kun botishga borgani sabab bu laqabni olgan"¹²⁶. "Sibizg'a volasi" mif-hikoyasida ham hukmdorning

¹²⁶ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 1-том. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.74.

quyosh o'g'li deb ta'riflanishi, uning boshidagi sochlar esa quyosh nurlariga qiyos qilinishidan iborat mifologemaning manbayi ham ana shu asotiriy qarashlardadir.

Nazar Eshonqulning "Sibizg'a volasi" nomli mif-hikoyasi qahramoni o'z mohiyatiga ko'ra adabiy qahramon doirasiga sig'maydigan, ya'ni o'zining mohiyat-e'tiboriga ko'ra mif qahramonlariga xos sifatlarni mujassamlashtirganligi bilan ajralib turadi. Chunki qadimgi miflarning qahramoni demiurg', ya'ni yaratuvchi-qahramon xaosning kosmosga aylanishi, ya'ni yo'qlikdan borliqning vujudga kelishi, olamdagi mavjudlikning paydo bo'lishini ta'minlagan asotiriy personaj sifatida namoyon bo'lgan. Shu tariqa u borliq olamning mavjud holatini vujudga keltirgan va qadimgi jamiyatdagi tartibotlarni o'rnatgan, deb qaraladi. "Sibizg'a volasi" mif-hikoyasi qahramoni sartarosh ham o'z dardini o'simlikka o'tkazish orqali demiurg'ga xos xususiyatni ifoda etadi.

Qadimgi miflarda borliqdagi u yoki bu narsa-hodisalarning paydo bo'lishi, vujudga kelishining sabablari asotiriy e'tiqodlar asosida izohlab berilgani singari, "Sibizg'a volasi" mif-hikoyasida ham quduq tubidan qamishlar o'sib chiqishi va ulardan yasalgan sibizg'alarning "Iskandarning shoxi bor... Iskandarning shoxi bor" deya sado berishi qadimiy etiologik, ya'ni yaratilish mifining adib ijodiy laboratoriyasida qayta ishlangan ikkilamchi badiiy talqinidir.

Hozirgi adabiy jarayonda mifologizmlardan foydalanish usuli ustuvor badiiy an'anaga aylanishi natijasida o'zbek nasrida syujet strukturasining to'laligacha mif asosiga qurilishi yoki mifik syujetlarning semantik transformatsiyasiga asoslangan mif-hikoya janri yuzaga keldi. Yuqorida tahlilga tortilgan Nazar Eshonqulning "Sibizg'a volasi" asari ham mifologik va badiiy tafakkurning poetik sintezi natijasida yuzaga kelgan mif-hikoya hisoblanadi.

N.Eshonqul, Sh.Bo'tayev, X.Do'stmuhamedov, A.Dilmurod kabi adiblarning keyingi yillarda yaratilgan asarlarida mifopoetik talqinning turli-tuman ko'rinishlari, xususan, mifologema va mifostrukturan foydalanish, ezgulik va yovuzlik kurashi bilan bog'liq dualistik miflarga asoslangan tasvir usuli, mifologik arxetiplar va obrazlarga xos sifatlarni personajlar ruhiyati talqiniga singdirish va boshqa usullar ko'zga tashlanishi o'zbek adabiyotida ham mifologik yo'nalish yangilanish jarayonini boshdan kechirayotganligidan dalolat beradi. Mifologik syujetni ijodiy qayta ishlash asosida davr ruhiyati va muammolarini badiiy aks ettirishning eng yorqin misollaridan biri Asad Dilmurodning "Alanduva" hikoyasidir. Bu hikoyaning syujetiga singdirib yuborilgan Buzunjar sulolasining kelib chiqishi to'g'risidagi geneologik mif Rashiddinning "Jome at tavorix", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Abulg'oziyning "Shajarayi turk" kabi asarlarida naql

qilingan.

Buzunjar sulolasining kelib chiqishi to'g'risidagi geneologik mif va uning yozuvchi Asad Dilmurod tomonidan yozilgan "Alankuva" hikoyasidagi badiiy talqinidagi asosiy syujet elementi qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishi motividir. Ma'lumki, epik qahramonning g'ayrioddiy dunyoga kelishi jahon xalqlari eposi va ertaklarining an'anaviy motivlaridan biri bo'lib,¹²⁷ qadimgi miflarda uning bo'ri, bug'u, ayiq kabi jonivorlar bilan bog'liq totemistik talqinlar, narsa-hodisalar, olov, nur, tosh, suvdan homila topish bilan bog'liq animistik talqinlari mavjud bo'lgan. Bu motivning kelib chiqishiga qadimgi odamlarning homila paydo bo'lishini totem jonzot ishtiroki yoki turli narsa-hodisalar tarzida namoyon bo'lgan ajdodlar ruhining qayta tirilishi deb tushunishga asoslangan mifik qarashlari sabab bo'lgan.

Asad Dilmurodning "Alankuva" hikoyasidagi qadimiy mifik motivlardan yana biri ko'kdan nur tarzida tushgan samoviy xilqatning avvaliga Dibun Bayon ko'rinishidagi xushsurat yigitga, keyin esa lochinga aylanishidir. Metamorfoza, ya'ni qahramonning o'z shakli-ko'rinishini o'zgartirib, o'zga suratga kirishi, ya'ni evrilish arxaik mifologiyaning o'zak motivlari sirasiga kiradi. Chunki qadimgi mifologiyada osmon jismlari – oy, quyosh va yulduzlar, shuningdek, o'simlik va jonivorlarning paydo bo'lishi evrilish motivi (odamning osmon yoritkichi, o'simlik yoki jonivorga aylanishi) asosida tushuntirilgan, izohlab berilgan.

Yozuvchi odam jonining qush shaklida namoyon bo'lishi to'g'risidagi qadimgi animistik motivni qo'llash orqali Alankuva huzuriga kelgan samoviy xilqatning mo'jizaviyligini yanada kuchaytirib tasvirlash orqali, badiiy talqinga o'ziga xos jozibadorlik baxsh etgan.

Mifning badiiy madaniyat, shu jumladan, yozma adabiyot rivojidagi roli va funksional turlarini tadqiq etish asosida mifologizm,¹²⁸ mifopoetika,¹²⁹ mifosemantika,¹³⁰ neomif va neomifologizm,¹³¹

¹²⁷ Мингажетдинов М. Х. Мотив чудесного рождения героя в башкирских богатырских сказках // Эпические жанры устного народного творчества. – Уфа, 1969. – С.57-74; Филочкина А.В. Мотив чудесного рождения героини в древнеиндийском эпосе // Вестник СПбГУ. Сер.13. – СПб, 2010. – Вып.4. – С.92-98; Данилова А. Н. Чудесное рождение богатырки как архаический мотив в якутских олонхо о женщинах-богатырках // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов, 2016. – №11(65). – Ч.3. – С. 30-33.

¹²⁸ Мелетинский Е.М. О происхождении литературно-мифологических сюжетных архетипов // Мировое древо. – М., 1993. – №2. – С.9-63; o'sha muallif: Поэтика мифа. – М.: Восточная литература, 2000. – С.407; Можаяева А.Б. Миф в литературе XX века: структура и смыслы // Художественные ориентиры зарубежной литературы XX века. – М.: ИМЛИ РАН, 2002. – С.305-331.

¹²⁹ Осипова Н. Мифопоэтика как сфера поэтики и метод исследования // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 7. Литературоведение. – М., 2002. – №3. – С.51-59.

¹³⁰ Меркель Е.В. Мифосемантика пространства в поэзии акмеизма // Ярославский педагогический вестник - Ярославль, 2015. – №1. – Т.1 (Культурология). – С.39-45.

¹³¹ Скопкарёва С.Л. Неомиф в контексте современной русской литературы // Вестник удмуртского университета. Филологические науки. – Ижевск, 2007. – №5(1). – С.151-154.

mifodizayn,¹³² neosinkretik va neoan'anaviy mifologizm¹³³ tushunchalarining zamonaviy ilmiy talqinlari yuzaga keldi.

Mifning yozma adabiyot badiiy strukturasi o'rniga mutaxassislar turlicha baho beradilar. Xususan, U.B.Dalgatning fikricha, yozuvchi o'z asarini yozayotgan paytda voqealar tafsiloti tasviriga xalq og'zaki ijodining turli-tuman elementlari, shu jumladan, mif va mifologik tasavvurlarni singdirib yuborishi badiiy matnda folklor-etnografik kontekst yuzaga kelishini ta'minlaydi.¹³⁴ Darhaqiqat, og'zaki epik an'anada shakllangan mif, afsona, rivoyat va epos syujetlar yozma adabiyotga ko'chganda badiiy asarning metateksti vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunoslikda qayd etilishicha, hozirgi zamon jahon adabiyotida mifologik tafakkur usuli, mifik syujet va obrazlardan foydalanib ijod qilish an'anasi «mifologizm»,¹³⁵ «zamonaviy mifologik nasr»,¹³⁶ «mifologik antrorologiya»,¹³⁷ «mifologik modellash», «nomlar mifologiyasi», «neomifologik nasr»,¹³⁸ «mifopoetik talqin», «ikkilamchi mifologizatsiya», «remifologizatsiya», «badiiy mifologizm» kabi atamalar ostida o'rganilib kelinmoqda.

Qadimgi miflar va mifologik tasavvurlar silsilasining hozirgi adabiy jarayon ijodiy qayta idrok etilishi natijasida yaratilgan badiiy asarlar «neomifologik adabiyot», «mifotsentrik adabiyot», «mifogen adabiyot»¹³⁹ kabi terminlar bilan yuritilmoqda. Bu tur badiiy asarlar mohiyatini o'zida nisbatan mukammal ifodalaydigan «neomifologik adabiyot» atamasi taniqli folklorshunos olim Y.M.Meletinskiy tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, aslida mifning badiiy adabiyotdagi turli-tuman poetik talqinlarini umumlashtiruvchi termin sifatida qo'llanilgan.

Fan-texnika rivojlanayotgan hozirgi davrimizda ibtidoiy odamlarning hissiyotlari, sodda tasavvurlari mevasi bo'lgan miflarga qiziqish so'nish o'rniga, aksincha, juda kuchaydi.

Neomifologizm muammosiga olimlarning yondashuvi turlicha. Taniqli adabiyotshunos o'z tadqiqotlarining birida “Bir qator hozirgi

¹³² Ульяновский А.В. Мифодизайн: коммерческие и социальные мифы. – СПб.: Питер, 2005. – 544 с.; Терин В.П. Электронное мифотворчество для всех (мозаичная информация, мифологическая действительность и наше сознание) // Мир психологии. – М., 2003. – № 3. – С. 75-81.

¹³³ Никольский Е.В. Миф об иезуитах в исторической и социально-психологической прозе Всеволода Соловьева // Вестник ТГПУ. – Казань, 2011. – №2(24). – С.46-51; Титаренко С.Д. Мифологизм Вяч. Иванова и понятие “абсолютной мифологии” А.Ф.Лосева // Вестник СПбГУ. Сер. 9. – СПб., 2014. – Вып.1. – С.85-92.

¹³⁴ Далгат. У. Б. Литература и фольклор. – М.: Наука, 1981. – С.14.

¹³⁵ Мелетинский, Е.М. Поэтика мифа / Е.М. Мелетинский. – М.: Издательская фирма Восточная литература РАН, 2000. – С.290-296.

¹³⁶ Bu haqda qarang: Козолупенко Д.П. Миф на гранях культуры (системный и междисциплинарный анализ мифа в его различных аспектах: естественно-научная, психологическая, культурно-поэтическая, философская и социальная грани мифа как комплексного явления культуры). – М.: КАНОН+, 2005; shu muallif: Козолупенко Д.П. Мифопоэтическое мировосприятие). – М.: КАНОН+, 2009.

¹³⁷ Савельева В.В. Художественная антропология. – Алматы, 1999. – С.23-24.

¹³⁸ Маковский М.М. Сравнительный словарь мифологической символики в индоевропейских языках. – М., 1996. – С. 34.

¹³⁹ Хализев В.Е. Мифология XIX-XX веков и литература // Вестник МГУ. – Вып.9. – №3. – 2002. – С.7.

o'zbek yozuvchilari zamonaviy inson haqida o'z xususiy "mif"larini yaratgan holda shu yo'lga chiqdilar. Neomif yaratarkan, yozuvchilar inson hayot yo'lini badiiy idrok etishning o'zgacha, yangicha usullarini topishga harakat qilmoqdalar. Omon Muxtor, Nazar Eshonqulov, Hamid Ismoilov, Ulug'bek Hamdamov – ularning har biri inson mavjudligining badiiy manzarasini o'zicha, an'anaviy mif bilan "yangi" shaxs haqiqatini sintezlashtirgan holda ifodalamoqda"¹⁴⁰ degan fikrni bildiradi. Olimaning bu fikrlari xorijlik, jumladan K.Yung, E.Fromm kabi olimlarning fikrlariga uyg'un keladi. K.Yung har bir inson o'z mifini yaratishini, shu bilan birga har qanday san'at asarlarida mifning qayta ishlangan shakliga duch kelinishi tabiiy ekanini urg'ulaydi.¹⁴¹

Darhaqiqat, XX asr adabiyotida mifning yangicha talqinidagi qator asarlar yuzaga keldi. Xorijlik olimlardan biri, Y.V. Rogrebnaya "Neomifologizm neoromantizm va neorealizmdan farqli o'laroq, uzoq davom etgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi", deya urg'ulaydi.¹⁴²

V. Rudnev esa o'zining "XX asrda so'z madaniyati" kitobida badiiy ijoddagi neomifologizmga baho berar ekan, uni XX asr madaniy hayoti, badiiy tafakkur tarzi, simbolizmdan boshlab rostmodernizmgacha bo'lgan ijodiy jarayondagi eng yetakchi tamoyil sifatida baholaydi¹⁴³

Mifopoetik talqinning hozirgi o'zbek nasridagi o'ziga xos talqinlaridan biri «mif ijodkorligi» yoki «muallif neomifologizmi»dir. Neomifologizmning bu ko'rinishlari voqelikning olamni asotiriy anglash vositasida tavsirlash an'anasining arxaik mif syujetlari bilan bevosita aloqasi bo'lmasligi, mifopoetik talqinning nisbatan erkinligi, adibning «o'z mifologemalari»ni yaratishga intilishi tamoyilining ustuvorlik qilishi, badiiy ifodaning milliy xarakter kasb etishi, jahon adabiyotidagi mifologik nasr namunalari bilan uyg'unlik hamda yangicha shakliy izlanishlar bilan xarakterlanadi.

Qahramonning g'ayritabiiy ravishda tug'ilishi, parilarga oshiq bo'lib qolish, biron-bir narsaning sirli g'oyib bo'lishi, mashaqqatli uzoq safarga chiqish kabi motivlar motiv-vaziyatlar asar syujetini boyitishga xizmat qiladi. Isajon Sultonning "Munojot" qissasida G'aribning tug'ilishi g'ayritabiiylik motivi asar syujetiga o'ziga xoslik bergan. qissa qahramoni yosh bo'lsa-da o'zligini anglagan, o'ziga xos xarakter-xususiyatga ega kishi sifatida ifodalanadi. G'arib boshqa odamlardan farq qilardi. U kelajakka umid qilib yoki uni o'ylab yashamasdi. U xuddi katta odamlarday yashab turgan hayotdan, umridan zavkqlanadi. Ertaklarda majoziy obrazlar ishtirok etadi. Undagi qahramonlar hayvonlar bilan do'stlashib oladi, ularning hamma gaplarini anglaydi.

¹⁴⁰ Владимирова Н.В. Онтологическая художественная картина мира в современной узбекской прозе. / Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. – Тошкент: Фан, 2012. – С. 175-176; Владимирова Н. Развитие узбекской прозы XX века и вопросы художественного перевода. – Тошкент: Фан, 2011. – С. 167-168.

¹⁴¹ Юнг Карл. Человек и его символы. – М.: Издательство: Профит-Стайл, 2021. – С.446.

¹⁴² Погребная Я.В. Аспекты современной мифопоэтики // Учебное пособие. – Ставрополь: СГУ, 2010. – С.178.

¹⁴³ Руднев В.П. Словарь культуры XX века: Ключевые понятия и тексты. – М.: Аграф, 1999. – С.184.

G'arib xuddi xalq og'zaki ijodidagi doston va ertaklardagi singari hayvonlar, o'simliklar tilini tushunadi. Buni adib ona-bola suhbatlari orqali ochiq qilib beradi. "Men bilaman, ona, – dedi, bir mahallarda daraxt bo'lganman, shuning uchun ham daraxtlarni yaxshi ko'raman. Daraxtlar ham menga o'xshashadi – kecha ariq bo'yidagi tol yig'lagandi"¹⁴⁴. Tabiatni jonlantirish animizm, totemizm, fetishizm kabilar ibtidoiy dinlar sifatida e'tirof etilgan. Animizmning mohiyati ruhning abadiyligiga bo'lgan ishonch bilan belgilanadi¹⁴⁵. Isajon Sulton asaridagi bu motivni animistik mif qoldig'i, deyishimiz mumkin. Adibning bu motivning qo'llashini animistik mif qoldig'i sifatida ba'zi xalqlar orasida mavjud ruhning abadiyligiga bo'lgan inonchdan va bu jarayonda mif stilizatsiyasi badiiy asar mazmunini boyitishni nazarda tutganligi tufayli, deb tushunish mumkin. Adib qahramon xarakterini yaratish orqali qadimgi ajdodlarimizning hayot daraxti, jon va ruh haqidagi mifologik tasavvurlarini badiiy ifodalashga harakat qilgan. Animistik tasavvur, ya'ni ruhning abadiyligi, uning bir shakldan ikkinchi shakldagi tanaga ko'chib yurishi mumkinligi tush haqidagi mifologik qarashlarning asosidir. Mifologik tafakkurda qadimgi ajdodlarimiz tushda ko'rilgan voqeaning amalga oshishiga ishonishgan. Uni ruhlar, tiriklar va marhumlar dunyosini bir-biriga bog'lovchi hodisa, deb tushunishgan.

Adib xalq mifologik tasavvurlari mohiyatini asar qahramoni xarakteriga singdiradi, uning kechinmalarini poetik ifodalaydi. Bu orqali insonning tabiat, hayvon, hasharotlarga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. G'arib o'simlik va jonzorlar tilini tushunganligi sababli, hayotdagi mavjud qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni ko'rib qiynaladi. Tirik jonzorlar, chumoli-yu hashoratlar, o't-o'lanlar-u hayvonlarga azob berishlaridan norozi bo'ladi. G'arib odamlarning hayvonlarga yaxshi munosabatda bo'lishlari, tirik jonzorlarni azoblamasliklarini xohlaydi: "Odamzod masalan, nega tirik jonni so'yib yeydi? Agar bu g'araz hisoblanmasa, unda nima? Axir, u jonlikni nafs yo'lida qurbon qilyapti-ku? O'ying davomi esa battar dahshatli edi: kimningdir ruhi shu so'yilajak jonda o'ynashayotgan bo'lsa-chi?"¹⁴⁶ Adib tasvirlagan bu qarashlar qadim turkiy mifologiya aks etgan muayyan dunyoqarashning belgilari bo'lishi mumkin. Bunda sinkretik tafakkur va dunyoqarash

¹⁴⁴ Isajon Sulton. Asarlar. Hikoyalar. 2 jild. – Toshkent: Faqur Fulom NMIU, 2017. – B. 253.

¹⁴⁵ Animizm (lotincha: anima, animus – ruh, jon) – I. ruhlar mavjudligiga e'tiqod qilish. Animizmga k'ra, agar jon aniq biror kimsa yoki jonzor jismida mavjud bo'lsa, ruhlar mustaqil mavjuddirlar. Animizm ta'limotiga ko'ra, ruhlar inson hayotiga ta'sir ko'rsata oladi, degan tushuncha mavjud. Zarur paytlarda, maxsus marosim va mavsumlarda ruhlarga qurbonliklar qilingan. Ruhning mavjudligi insonning sezgisi, tuyg'usi, bilimi orqali anglanadi. Animizm termini ilk bor G.Shtal (1708) tomonidan xali insoniyat yaratilmagan davr ruhlar olamiga nisbatan qo'llangan. XIX asrda uning bu qarashini E.Teylor, J.Frezer va G.Spenser davom ettirgan. E.Teylor animizmga "kelib chiqish nazariyasi" ma'nosini yuklagan. Animizmning predanimizm yoki doanimizm tushunchalari J.Frezer tomonidan ilgari surilgan Foya bo'lib, predanimizm deyilganda animatizm tushunilgan. II. Afrika, Janubiy Amerika va Okeaniyaning tub aholisi ilk e'tiqodlariga nisbatan animizm qo'llanadi. (Qarang: Адабиётшунослик энциклопедияси / Т. Болтабоев Х. – Мумтоз сўз, 2015. – Б. 450).

¹⁴⁶ Isajon Sulton. Asarlar. Hikoyalar. 2 jild. – Toshkent: Faqur Fulom NMIU, 2017. – B. 257.

mahsuli, inonch-e'tiqodlar ham, g'ayritabiiy timsollar ham mavjud. Totemizmd g'oyalari singdirilgan qavm yoki kabilalarda odamlar bilan hayvonlar, o'simliklar orasida qarindoshlik rishtalari bor ekanligiga ishonish hisoblanadi. Totemizmd dinida ma'lum bir "tabu", "taqiqlash" tizimi shakllangan. Masalan, totemning go'shtini iste'mol qilishi taqiqlangan. Totem sifatida turli qabilalarda har xil hayvonlarning turlari, masalan, fil, arslon, ot, ilon, burgut, it va boshqa hayvonlar qabul qilingan.

Turli jonzorlar, qushlar va hasharotlar ko'shig'ini tinglash, ularning harakatlaridan ma'no anglash, jonivorlarda odam ruhi bo'lishi mumkinligini tushunish motivlari qadimgi falsafaga xos qarashlar bo'lib, olamning yaratilishi, tuzilishi haqidagi mifologik qarashlar va ilohiy ta'limotning qissa mazmuniga singdirib yuborilishini demifologizatsiya hodisasi sifatida talqin etish mumkin.

O'zbek adabiyotida X.Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasidagi neomifologik obraz jajman turkiy xalqlar hamda yunon miflari natijasida yaratilgan. U Sfinks, sikloplardek bahaybat maxluqlardan farqli, jajjigina, atigi bir qarich, ko'rinishidan beozor, uning turqi evrilishga moyil, turli xil qiyofalarga kiradi. Hikoyada zardushtiylik dini va u haqdagi diniy mifning qayta ishlangan shakli kuzatiladi.

Hikoyadagi maxluq obrazi inson qalbida yashirin yovuzlikni ifodalaydi. Bu yovuzlik ko'pincha yashirin va sezilmaydigan ko'rinishda bo'ladi va shu jihati bilan "soya" arxetipini eslatadi¹⁴⁷. "Soya" arxetipi insonning to'la anglanmagan yovuzlik qobiliyatini oshkor qilgani kabi hikoyadagi maxluq obrazi ham insonlarning haqiqiy yuzini fosh qilish uchun ishlatiladigan obraz hisoblanadi. Asar oxirida ushbu maxluq aslida insonlarning qiyofasi va xarakter-xususiyatini o'zida namoyon etishi ma'lum bo'ladi, ammo ushbu tugal xulosa hikoya xulosasida ochiq tarzda ifodalanmagan, fikrni tushunib yetish o'quvchining o'ziga qoldirilgan.

Maxluq judayam ochko'z va epchil bo'lib, uzoq muddat davomida savdogarlardan qochib, ularning oziq-ovqatlarini yamlamay yutish bilan shug'ullanadi. Bu orada Axriman va Axuramazda o'rtasida kurash jarayoni tasvirlanadi. Hikoya so'ngida jajman qo'lga tushiriladi va o'ldiriladi, ammo jajmanning o'limi noxushlikka olib keladi – shu zahoti undan-da kattaroq bo'lgan yana bir jajman dunyoga keladi.

XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan "Qiyomat" hikoyasi (uni ayrim adabiyotshunoslar, masalan, E.Karimov qissa deb ataydi) diniy mifologiya asosida yaratilgan bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy salbiy illatlar tanqid ostiga olinadi. Qiyomat kuni tasviri mifologik syujetni yaratishda ramziy metafora bo'lib xizmat etgan.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning "Ajr" hikoyasidagi mistik

¹⁴⁷ Юнг К. Г. Душа и миф. Шесть архетипов. Пер. с англ. – Киев: Порт-Рояль-Совершенство, 1997.

manzaralarda, metaforik qarash va neomifologizm mavjud¹⁴⁸. Hikoya qahramoni O'g'il – sho'ro davri odami. U mansabga erishmoq uchun o'z otasining joniga qasd qiladi. Otasini aldab, buxorolik tabibga ko'rsatish bahonasida, tikka tog' yo'ldan ketayotib, otasining otiga qamchi solib yuboradi. Ota tog'dan qulab tushib halok bo'ladi. O'g'il qilmishlari uchun Olloh tomonidan jazolanadi.

Yozuvchi marhumlar saltanatini mahorat bilan tasvirlaydi. Otasini opichlagan o'g'il achchiq tutun, biydek dala yo'ldan ketib borar ekan, qandaydir sharpalar unga yaqinlashadi. Bu sharpalar - arvohlar¹⁴⁹ edi. Norozi arvohlar. Ular go'yoki, xun talab qilib, atrofida kezishardi.¹⁵⁰

Nazar Eshonqul xalqning qadimiy mif, afsona, ertak, dostonlar motiviga erkin ijodiy yondashib, ulardagi umuminsoniy g'oyalar va obrazlardan unumli foydalanadi. Asarda ifodalangan mifologizmlar syujetni shakllantiruvchi unsur yoki voqelik tasvirining etnomadaniy kontekstini yaratish vositasi bo'lishi bilan bir qatorda ijodkor tafakkuri, uning olam manzarasi va odam ruhiyatining barcha qatlamlarini idrok etishiga ham asos beradi.

Isajon Sultonning "Manzil" hikoyasida "Yana ancha yo'l bosganimizdan keyin tog'lar bilan o'ralgan bir vodiya kirib bordik. Ko'llari shishaday tiniq, odamlari g'oyat go'zal edi. Keyin bilsak, bu yurtning oti Ko'hi Kof, bular esa, odamzot emas, parilar ekanlar",¹⁵¹ deya parilar yashaydigan afsonaviy maskan tasvirlangan. O'zbek mifologiyasi talqinicha, Eram bog'i parilar yurti bo'lib, afsonaviy bog' Ko'hi Kof, ya'ni Kof tog'i orasida joylashgan mifik joy bo'lib, parilar maskani deb talqin qilinadi.¹⁵² Shuningdek, dostonlarida ham parilar va ular bilan bog'liq sarguzashtlar bayon qilinadi. Go'ro'g'li sultonning xotini bo'lgan parilardan biri Kof tog'ida, ikkinchisi Bog'i Eramda istiqomat qilgan. "... Parilar ham "narigi dunyo" vakillari, ikki olam ilohasining vazifasini o'taydilar. Chunonchi, xalq tasavvurida parilar mamlakati Ko'hi Kof ham "narigi dunyo" deb hisoblangan"¹⁵³. Hikoya qahramonlari Tilsim vodiysini izlab yo'lga chiqadi. Hikoyada Tilsim tog'i mifologik obraz bo'lib, qadimgi qavmlarimizning o'zga olam haqidagi animistik tasavvurlari mahsuli bo'lib "tog'" arxetipik simvoli asosiy vazifalardan birini bajaradi. "Tog'" arxetipi vaziyatga qarab sig'inish uchun yuqori nuqta, falak va yerning uchrashuv nuqtasi bilan bog'liq tushunchalar ma'nolarini ifodalaydi¹⁵⁴. Xususan, "Manzil" hikoyasida

¹⁴⁸ Эшонкул Н. Ажр // Ялпиз хиди. – Тошкент: Шарк НМАК, 2008. – Б. 318-335.

¹⁴⁹ Арвох (арабча – рухлар) – diniy tasavvurga ko'ra, o'lgan kishining dunyo bilan aloqa bog'lab turadigan ruhi. Animistik tasavvurga ko'ra odam o'lgandan so'ng uning joni jasaddan ajralib, ruhga aylanadi va dunyo kishilari bilan aloqada bo'lib turadi. (Qarang: Адабиётшунослик энциклопедияси / Тузувчи: Болғабоев Х. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. – Б.473.)

¹⁵⁰ Эшонкул Н. Ажр // Ялпиз хиди. – Тошкент: Шарк НМАК, 2008. – Б. 318-335.

¹⁵¹ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 1 жилд. – Тошкент: Фафур Гулом НМИУ, 2017. – Б. 42.

¹⁵² Зарифов Х. Жажжи таджикотлар: Боғи Эрам // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №2. – Б.70.

¹⁵³ Жуманиёзов Б. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи: Фил. фан. номз. ... дис.автореф. – Тошкент, 1996. – Б.38.

¹⁵⁴ Юнг К. Г. Душа и миф. Шесть архетипов. Пер. с англ. – Киев: Порт-Рояль-Совершенство, 1997.

ikkita mifologik syujet singdirib yuborilganini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam: "Manzil" boshdan oyoq ramz asosiga qurilgan. Bunda safar go'yo inson umri. Yo'lda uchragan gulzor-u cho'llar uning shodlig-u g'amiga o'xshaydi. Manzil – orzulardan bino etilgan bino – sarob",¹⁵⁵ deya to'g'ri izohlaydi. Hikoyada inson hayoti butun g'am-tashvish-u orzu-havaslar bilan uzoq va mashaqqatli safarga otlanishi - hayot deb atalmish umr yo'li badiiy bo'yoqlar bilan chiziladi. Adib hikoyaning nomlanishiga shu ma'noni yuklagan. Xalq og'zaki ijodidagi safar motividan unumli foydalangan adib bu hikoyasida ham Tilsim tog'iga borish maqsadida safarga otlangan bir guruh kishilar sarguzashtlari ifodalanadi. Hikoya qahramonlari ancha yo'l bosganidan so'ng parilar mamlakati Ko'hi Kofga kelib qoladi. Parilar bu musofir yo'lovchilarning qay manzilga borayotganligini eshitib, ularni yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi. Safarga otlanganlarning ko'pgina sheriklari u go'zallarga oshiq bo'lib, ushbu manzilda qolib ketadi. Ijodkor nega bu hikoyasiga parilar mamlakatini qo'shadi? Bunga sabab qilib hikoyadagi karvon egalarining qat'iyyati o'z oldiga qo'yan maqsadlaridan kechmasdan sabr-bardosh bilan manzil tomon ketishlarini ochib berish bo'lsa kerak. Karvon egalarining tuyg'ulariga ishonmasdan ularning o'tkinchiligiga ishonib manzili sari olg'a intilishlari tasvirlanadi. "U yerda har birimizning ismimizga zarb etilgan xazinalar bor. Xorqalarning halqasidan tutib, ismimizni aytsak bas: tilsim ochiladi. Xazina egasining har qanday istagi o'sha ondan boshlab, aytilgan zahoti amalga oshadi. U manzilga yaqin qoldi. Yurak sezayotir – juda yaqin qoldi"¹⁵⁶. Manzilga yetish davomida turli qiyinchiliklarga uchrashi, o'lim sahrasiga, parilar mamlakatiga borib qolishlari tasvirlangan. Bu cho'lning vahmidan qo'rqib ikki-uch hamrohi ortga qaytadi. Ayrimlarigina qiyinchiliklarni yengib Tilsim tog'iga yetib oladilar. Tilsim tog'ini topishganidan so'ng ular har birining ismiga zarb etilgan xazinalarni qidirishadi. Ular xorqalarning halqasidan tutganda nima niyati bo'lsa, bu tilsim tog'i ularning barcha niyatlariga yetkazar edi. Bu tog'ning har bir xorqasida shu manzilgacha yetib kelgan odamlarninggina ismlari bitilgan edi. Tilsim tog'i – shuncha mashaqqatli yo'lni mardonavor bosib o'tib kelgan kishilar kutganichalik g'aroyib va ajabtovur xazinalar makoni emasligi ayon bo'ladi. "Manzil" hikoyasi qahramonlari shunday deya hayol qilishadi.

Asarda Abdullajon - hali yosh, hayotning baland-pastini tushunib yetmagan avlod obrazi. Birovlar uchun bu sayohat xazina ilinjida, Abdullajon uchun sayohat bir olam maroq, quvonch ulashardi. "Manzildan qaytishda ham qolganlar charchab ortda qolardi, Abdullagina oldinlab, ildamlab ketardi. Xazina ilinjida bu tilsim tog'i

¹⁵⁵ Хамдам У. Ойдинбулоқ ойдинлиги. (И. Султон насри бадияти). – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 149.

¹⁵⁶ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 1 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 43.

tomon yo'lga chiqqanlar bor, ularni sengina qaytara olasan"¹⁵⁷, - deydi. Hikoyada adib mifologik obrazlar vositasida, insondagi nafsning yomon oqibatlari, nafs ortidan kelib chiqadigan halokatlarni badiiy ifodalaydi.

Yozma adabiy asarlarda uchraydigan mifologik obraz va mifologik motivlarni mifologemalar sifatida qaraymiz. Mifning sehrli mohiyati mifologemalarning tabiatida aks etadi. Mifologizmlar mifologik obrazlar, mifologik motiv, mifologik syujetlarning yozma adabiyot mazmuniga singdirilgan ko'rinishidir.

Isajon Sultonning "Hazrati Xizr izidan" qissasida xalqimiz orasida Xizr a.s.ni uchratgan kishilarning hikoyalari jamlangan. O'zbek adabiyotida bu obraz juda ko'p tadqiq qilingan. Jumladan, adabiyotshunos N.Mallayev "Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti"¹⁵⁸, K.Imomov "O'zbek xalq nasri poetikasi"¹⁵⁹, Sh.Turdimovning "Go'ro'g'li turkumida Xizr obrazi"¹⁶⁰, S.Eshonqulova "Nodira she'riyatida Xizr obrazining badiiy talqinlari"¹⁶¹, T.Xo'jayev "Alisher Navoiy asarlarida Xizr talqini"¹⁶², D.Xoliqova "Hozirgi o'zbek she'riyatida folklor an'analari va badiiy mahorat"¹⁶³ kabi tadqiqot va maqolalarida Xizr obrazi mifologik obraz sifatida o'rganilgan. Xizr obrazi bilan bog'liq motivlarning Isajon Sulton qissalari syujet tizimiga singdirilishi borasiga to'xtalib o'tamiz.

Isajon Sulton bu qissasida Xizrni uzun yashil to'n kiygan holatda tasvirlaydi. Yozuvchi asarida xalq og'zaki ijodida mavjud Xizr obrazini qayta jonlantiradi. Xizr sahroda yuradi, u hamma jonzotlarga yordam beradi. Asar xuddi shunday sahro tasviri bilan boshlanadi. Unda bir jayron bolasi suvsizlikdan yiqilib qolganda sahro jonzodlari uni endi yeymiz deb turishganda Xizr paydo bo'ladi va jayron bolasini qutqarib qoladi. Xizr jayron bolasiga yordam beradi, o'sha yerdan paydo bo'lgan buloq esa Jayronbuloq nomi bilan ataladi, keyinchalik o'sha joy Jarabuloq nomi bilan ataladigan bo'lgan.

Qissada Xizrni nurdan iborat bo'lib, uning soyasi mavjud emasligi ifodalangan. "Biroq ko'rganlar uni odam sifatida talqin qiladilar. Aytadilarki, taxminan 60-70 yoshlar orasidagi tik qadli bir chol ekan. Chol bo'lsa bu g'alati sahroda kezib yurishga qaydan kuch-quvvat topa qoldi? Yana aytadilarki, goh ko'zga ko'rinib, goh ko'rinmasmish. Insonlar ko'ziga ko'rinib ko'rinmay yurishidan ko'zlangan maqsad ne

¹⁵⁷ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 1 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 47.

¹⁵⁸ Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2015. – Б.118.

¹⁵⁹ Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.

¹⁶⁰ Турдимов Ш. "Гуруғли" туркумида Хизр образи. // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 1 китоб. – Тошкент, 2006. – Б.54-57.

¹⁶¹ Эшонкулова С. Нодира шеъриятида Хизр образининг бадий талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – № 6. – Б.74-76.

¹⁶² Хўжаев Т. XVаср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклор: Фил. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б.8-29.

¹⁶³ Холиқова Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида фольклор аънаналари ва бадий маҳорат: Фил. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б.49-50.

ekani ham sirligicha qolaveradi. U odam kaftini qumga tutganda, saldan keyin to'satdan o'sha joydan mitti buloq qaynab chiqdi"¹⁶⁴. Adib bu qissasini xalqimizning Xizr haqidagi afsonalar syujetiga asoslanib yaratgan. Qissada sahroda g'ayritabiiy ravishda cholning paydo bo'lishi va qopqonga tushgan tulkini ozod qilib ko'zdan g'oyib bo'lishi motivi xalqimizning Xizr bilan aloqador mifologik motivlaridan bo'lib, mazkur motiv ajdodlar kulti bilan bog'liq holda maydonga kelgan. Yozuvchi bu mifologik motivni voqealarning rivojlanishi va badiiy g'oya ifodasini ta'minlashga xizmat qildirgan. "Umr ko'zi dam yakinlashib qolgan, taqdir shamoli ajal bulutlarini qismat osmoniga shu tarz haydab kelayotganini sezardi. Cholning qalbi bir amallab usha joyda loydan maqbara yasadi. Qadimgilardan qolgan usulni qo'llab, uzun bir tayoqqa ho'kiz dumini osib qo'ydi. Shoymardon choldan shu gap-so'zlari-yu o'sha maqbara qoldi. Xizr ko'ringan yerni xalq "Hazrati Xizr mozori" deb atay boshladi"¹⁶⁴. "Hazrati Xizr mozori" yurtimizning ayrim hududlarida uchraydi. Shunday nom bilan ataluvchi mozorlarga uzun yog'ochda tug' qadab qo'yishar, qo'y, tovuq so'yib qurbonliklar qilar ekan. Befarzandlar farzand so'raydi. Qissada Xizr dasht-u dalada yurib hayvonlarga yordam berib yuradi. Insoniyatni tabiat qonunlariga zid bormaslikka chaqiradi. Qissaning "Bug'doyzor voqeasi" qismida bug'doyzor qorovuli Xizrni ko'rganligini aytadi. Xalq orasida bug'doyning boshog'i garirgani hakida uydirma yuradi: "Meni yerdan kukartirib, o'zimdan kupaytirding, bitta edim, yuzta kilding. Bandalaringning rizkini ham shunaka kupaytirgin, der ekan!"¹⁶⁵. Shomoniylar bilan bog'liq e'tiqodda Xizr shomonlarning mifologik homiysi sifatida qaraladi. Shomonlar Xizr nomiga sadaqa berish va qurbonlik qilish orqali odamlarning mushkullarini osonlashtirishiga erishamiz deb ishontiradilar. "O'shanda momang aytdiki, har juma non yorib, yetti qo'shniga chiqaraverasan. To bo'yingda bo'lmagunga qadar har chikarganing savobini Xizr buvaga atayverasan. Ba'zan reshanangga yozilmagan narsalar ylyg'lar duosi bilan nasib kiladi"¹⁶⁶. Qissadagi Xizr buvaga atab non yorib har juma kuni yetti qo'shniga tarqatish an'anasi talqinida yetti qushni va juma kunlari urfning sakral mohiyatini ifodalaydi. Negaki, xalqimizda yetti raqami mifologik mohiyat kasb etadi deb qaraladi. Juma kuni islom mifologiyasida barcha ezguliklar va niyatlarning Ollohga yetib borishiga imkoniyat kuni sifatida qadrlanadi.

Isajon Sulton o'z asarlarida tushga katta urg'u beradi. Uning asarlarida keltirilgan tushlarning ba'zilarida ma'lum bir ma'no anglashiladi. Tush kishilarni hayoti davomida nimadandir ogoh etadigan bir ro'yodir. Tush motivi hikoya qahramonning taqdiridagi o'zgarishni ifodalashga xizmat qiladi. Hikoyada enaning ko'rgan tushini

¹⁶⁴ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 158.

¹⁶⁵ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 161.

¹⁶⁶ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 175.

keltirib, bu tushning taʼbiri sifatida enaning yaqinda farzandli boʻlishidan xabar beradi. “Otam barvaqt oʻtib ketgan edi, shu kecha tushimga kiribdi. Oppoq yaktaklarni kiyib, yangi belbogʻlarni boylab olgan emish. “Qizim, roʻzgʻoringda pichoq yoʻq ekan, yangisini olib keldim” deb tigʻi yaraqlab turgan pichoqni olib soʻriga qoʻyarmishda, “Bu juda oʻtkir, et-suyakni birday kesadi, ehtiyot boʻlib ishlatgin”, dermish”¹. Taʼbirlarning fikriga koʻra tushida pichoq koʻrish oʻgʻil farzanddan, munchoq, uzuk, zirak esa qiz farzanddan darak ekan. Ena vaqt oʻtib oʻgʻil farzand koʻradi. Shundan soʻng ham har juma kuni patir yorib savobi Xizrga deb qoʻshnilariga tarqataverdi. Bir kuni ena yana tush koʻradi. Tushida oʻsha koʻrgan, suv bergan chol. “Boʻldi, endi yetar, ota-onang savobga muhtoj yotibdi, ularga qil endi”, deydi. Shundan keyin qilgan yaxshi ishlarining savobini ota-onasiga bagʻishlashi lozim ekanligini tushunadi. Adib bu hikoya orqali inson har doim dunyodan oʻtgan ota-onasini xotirlab, ularning haqlariga duolar qilib turish lozimligi, oʻtganlarni xotirlab turish muqaddas tushuncha ekanligini kitobxonga uqtirmoqchi boʻladi.

“Hazrati Xizr izidan” qissasida adib xalq orasida yurib, ulardan Xizr haqidagi afsona va rivoyatlarni tinglab, badiiylashtirgan. Qissadagi mifologik motivlar – mifologemalar asar syujeti uchun muhim manba vazifasini oʻtagan. Zero, “mifologema (qadimgi yunonchadan olingan boʻlib, “mifos”, rivoyat, doston, qissa va “logos” – oʻqir fikr, tafakkur, sabab degan maʼnoni anglatadi) – dunyo xalqlari madaniyatidagi mifologik manzara, sahna va tasvirlarni xarakterli xususiyatlari, globaligi va umumiylikni tasvirlashda ishlatiladigan termindir”¹⁶⁷.

Isajon Sultonning “Hazrati Xizr izidan” qissasidagi asosiy motiv Qurʼondagi “Qahf” surasidagi ilohiy valiy zamirida rivojlantirilgan. Unda 65-oyatdan 82-oyatga qadar Myso (a.s)ning Xizr bilan ibratli sayri keltiriladi. Qurʼondagi jahongashta barhayot valiy obrazi zamonaviy qissada imon halovati, roʻyodan ziyoni ajratish maqsadida kiritiladi. Islom dini mohiyatini xato talqin etayotgan “ziyoli” fojiasi ibtidosida yuzaqilik, loqaydlik illati koʻrinadi. Haqiqat manzilini anglatish maqsadida paygʻambarlar sayohatiga nigoh qaratiladi. Asarda moziy bugun manzarasi ilohiy sinov holatini xotirlash, asosiy muddaoga tayyorlash usulida tashkillanadi. Inson olim boʻlib, tiriklik muddosini anglamagani bois kufrdan xalos boʻlolmaydi, yaʼni ilmiga oʻzi amal qilmaydi. Insondagi ojizlik, qoʻrquv uni halokatga yetaklaydi. Shu maʼnoda muallif Xizr hikmati zamirida haqiqatga ishora qiladi. Uch holatdan taajjublangan Myso raygʻambarga uning sirlari ochiqilanadi. Qishloqdagi kemani teshishdan maqsad aholini zolim podsho zoʻravonligidan saqlab, qashshoqlarning oʻzida mulkini qoldirish ekanini; yosh bolani oʻldirishdan murod uning kufri bois moʻmin ota-

¹⁶⁷ Юнг К.Г. Архетип и символ. – М.: Канон, 1991. – С 330.

onaga ziyon yetmasligi; eski devorni tiklash orqali ma'lum muddatgacha yetim haqqi bo'lgan xazinani yashirishga erishilgani ayonlashadi. Xizr obrazi vaqt-u makonlar silsilasida kishilar uchun ilohiy hikmat, sabr-qanoat timsoli bo'lib qoladi.

Qissada adib retrospektiv syujet asosida o'tmish-hozir-kelajak hodisotini bir halqada birlashtiradi. Inson asrlar davomida turli sinov imtihonga ro'baro' kelib, saodat yo halokatga erishgan. Asarda mikroolamdan makrodunyogacha sodir bo'lgan tilsimlar qamrab olinadi. Ko'kdagi qushlar, dengizdagi baliqlar, o'rmondagi tulki, ayiqlar hayotidagi tartibotda borliq olamdagi sir-asrorga ishora etiladi.

Badiiyat javhariga singdirilgan g'oyalar kitobxon tahayyyul qudratini mustahkamlagan. Poklik ramzi suv folklor motivida ko'p uchraydi. Turkiy xalqlar maqol-u matalida suvning tiniq, shoffofligi ko'ngilni poklash, huzur, halovat nasib etishi uqtiriladi. Suvni e'zozlash, uni isrof etmaslik borasida hikmatlar mavjud. Zamonaviy qissalarda ham tiriklik ne'matlari ishoraviy mazmunini kuchaytirib boradi.

Omon Muxtor asarlarida mifologizmning ko'rinishlarini uchratish mumkin. Adibning "Aflotun" romanida tasvirlangan barcha voqealar inson hayotining mohiyati haqida o'ylashga, fikr yuritishga, mushohada qilishga undaydigan badiiy-falsafiy haqiqatlar, aniqrog'i, hayot mohiyatini badiiy tahlil qilish asnosida yozuvchi tafakkurida tug'ilgan uy-kechinmalar mahsulidir. Yozuvchi xalq og'zaki ijodi an'analariidan ta'sirlanib, "Aflotun" romaniga olib kirgan "quduq" detali asarning badiiy jihatidan to'laqonli chiqishini ta'minlagan. Ma'lumki, epik qahramonning quduqqa tushish motivi xalq ertaklarida, shuningdek, musulmon Sharqida keng tarkalgan Yusuf qissasida bayon etilgan. Shu bois bu motiv asar qahramoni hayotidagi sirli voqealar yechimini izlashda o'quvchiga yordam beradi. Adib o'z qahramonini quduq tubidagi darcha orqali o'zga olamga olib o'tish uchun yer osti dunyosi to'g'risidagi an'anaviy mifologik motivlardan biri - quduqqa tushish motividan foydalangan. "Xalqimiz yer osti olamiga go'r, quduq, yoriq-teshik yoki go'r orqali o'tish mumkin deb o'ylagan", - deb yozadi M. Jo'rayev¹⁶⁸. Folklorshunos U. Sattorov qayd etishicha, "Mifologiyada quduq yer osti olamiga o'tish vositasi deb talqin qilingani bois, quduq suvi bilan yer ostidagi obi hayot o'rtasida aloqadorlik, ramziy bog'lanish borligi haqidagi qarashlar kelib chiqqan"¹⁶⁹.

Binobarin, Z.Freyd, E.Fromm, K.G.Yung kabi olimlarning miflarni ruhiy tahlil metodi asosida o'rganish usullarini o'zbek folklorshunosligiga tadqiq etgan J.Eshonqul tush va mifni qiyosiy tadqiq etib, tush bilan mifdagi voqelik, ramzlar va kechinmalar talqini bir xildir, degan xulosaga kelgan¹⁷⁰. Binobarin, yozma nasrda ham

¹⁶⁸ Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.23.

¹⁶⁹ Сатторов У. Ўзбек халқ топонимик ривоятлари. Филол. фанлари. номз...дисс. – Тошкент, 1999. – Б.82.

¹⁷⁰ Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши, 1999. — Б.102-149.

qahramon ruhiy holati va kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlash uchun tush motividan keng foydalanilgan. Omon Muxtor "Aflotun" romanida Aflotun bilan Suqrot tanishuvidan avvalgi holatini tasvirlashda tush detalini badiiy vosita sifatida qo'llagan: "Aflotunni uchratishdan oldin u tush ko'rgan: tushida go'zal bir oqqush uning ko'ksiga kelib qo'ngan, so'ng ajib nag'ma bilan yuksak fazolarga parvoz etgan. Va Aflotun ro'para kelganida Suqrot: "Mana, mening oqqushim", - deb nido qilgan edi"¹⁷¹.

Omon Muxtor romanning boshqa bir joyida an'anaviy tush motiviga murojaat etish orqali psixologizmni yanada chuqurlashtiradi: "Tushimda oq kiygan nihoyatda ko'rkam, ulug'vor bir ayol mening yonimga keldi. U menga, Sukrot, uchinchi kuni sening janozang o'qiladi, - dedi"¹⁷². Yozuvchi Suqrot tushlarini tasvirlashda xalqimizning tush bilan bog'liq an'anaviy inonchlariga, jumladan, karomatli tushlar to'g'risidagi tasavvurlarga asoslangan. Tush bilan bog'liq xuddi shunday badiiy talqinlar Asad Dilmurodning "Mahmud Torobiy" tarixiy romanida ham uchraydi. Unda qalandar qiyofasida saroyga kelgan Mahmud Torobiy Xo'jand hokimi Mahmud Yalavochga "Tush ko'rdingizmi?" - deb murojaat qiladi. Hokim bundan hayratga tushadi. Chunki chindan ham tunni notinch o'tkazgan hokim, darhaqiqat, tush ko'rgan edi. Tushida patlari tim qora kalxat uchib keladi-yu, Mahmud Yalovochni yelkasiga mindirib Sumeru tog'iga keltirib, shu yerdan yer osti mamlakatiga borishi mumkinligini uqtiradi. Shunda g'oyibdan bir nido keladi: "qimirla, hey, inson!". "Yo rabbiy, faqir qayga borurmen?" - titrab ketgan noyib qo'rqa-pisa so'radi. G'oyibdagi ovoz tahdid qildi: "Rabbano senga begona ul zotni unut!" noyib bo'g'ziga yig'iga o'xshash narsa tiqildi: "Nechuk?" g'oyibdagi ovozning keskin xulosasi yangradi: "Sen jannatdan ham, do'zaxdan ham mosuvosan, Erlik hukmronlik qiladigan yer osti mamlakatiga mahkum etilgansan"¹⁷³. Mana shundan so'ng qahramon boshidan og'ir sinovlar o'tadi.

Ma'lumki, qadimgi mifologiyada Erlik yomonlik olamininng hukmdori, Ulgen esa ezgulik tangrisi hisoblanadi. Demak, Ulgen va Erlik ikki olam, ikki xil kuch timsolidir. "Olam ezgu va yovuz kuchlarning muvozanati, kurashidan iborat. Bu kurash inson ichkarisida, ruhiyatida ham aks etadi. Agar odam ruhiyatida yomonlik paydo bo'lsa, yovuzlik tangrisi uning ichkarisiga kirib olib, insonni faqat yomon ishlar qilishga undaydi, degan tasavvur bor"¹⁷⁴. O'tib ketgan kishilar arvohi tushga kirishi va turli kirdikorlar girdobiga botgan qahramonni bunday yomon ishlar oqibatidan ogoh qilishi Shoyim Bo'tayevning "Qo'rg'onlangan oy" romanida syujet asosiy xalqalaridan

¹⁷¹ Мухтор Омон. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.10.

¹⁷² Мухтор Омон. Афлотун. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.5.

¹⁷³ Асад Дилмурод. Махмуд Торобий. – Тошкент: Шарқ НМАК, 1998. – Б.135.

¹⁷⁴ Эшонкул Ж. Миф ва роман // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1997. – 25 апрель.

biri vazifasida kelgan. Asarda jonzotlar bilan bog'liq mifologik qarashlar o'z ifodasini topgan bo'lib, burgut va oq buqanlar roman syujet chizig'ida harakatlanuvchi qahramonlar xarakterini yoritishning o'ziga xos vositalaridan biri sifatida yuzaga chiqadi. Asarning ikki qahramoni, ya'ni Murtazo bilan Ismoilning ruhan yaqinligi tush orqali ifodalanadi. Har ikki adib tasviridagi muhit va mahalliy koloritning o'ziga xosligini oydinlashtirib, qahramonlar dunyoqarashini milliy an'analar zaminidan kelib chiqib tasvirlaydi. Chunonchi, mavzuni yoritishda qahramonning tabiatga va jonzotlarga bo'lgan mehri, shuningdek, ichki dunyosini ko'rsatish maqsadida ijodkorlar folklor an'analaridan ijodiy foydalana olganlar.

Yozuvchi I.Sultonning "Genetik" romani zamonamiz qahramonlarining badiiy asar qahramoniga aylanishi mumkinligini tasdiqlovchi ijod mahsulidir. Adib prototip obraz haqida fikr yuritar ekan, yaqin tarixda yashab o'tgan yoki tarixiy asarlardagi qahramonlarga nisbatan ishlatilganligini xotirlaydi.

Yozuvchi "Genetik" romanida voqealarga tarixiy xronologik jihatidan yondashish ko'prok uchraydi. Ammo romanda o'zgarishlarga to'la davr o'zgarishlari tufayli yuz berayotgan ijtimoiy voqelik ham keng aks ettirilgan.

Kitobxonlar muayyan xarakter-xususiyatlari yoki afzalliklari bilan ajralib turadigan qahramonlarni yoqtirishadi, havas qilishadi, ularni hayotdagi ideallari deb bilishadi. Asar qahramoni ham bobolaridan eshitgan ertaklar olamida yashaydi. Adib bola tilidan qadim ajdodlarimizning tabiat voqea-hodisalarini izohlashga qaratilgan mifologizmlarni ifodalaydi. Sharq tarbiya maktablarida milliy tafakkurni millat ma'naviy faoliyatidagi va moddiy hayotidagi o'ziga xos omillar sababli bolalardagi iste'dod shakllanadi. Bunga mavjud urf-odat, rasm-rusum, marosimlar bilan bog'liq bo'lgan milliy xalqonalik asosiy vosita bo'ladi. Bola ota-bobolari qoldirgan ijodni anglab, o'z milliy ruhiyatini boyitib boradi. Romanda bobolarimizdan meros qolgan vatanrarvarlik, vatanga muhabbat tuyg'ulari aks etgan o'rinlar ham mavjud. Dashti qipchoqdan kelgan mehmonlar ota-bobolari davrida kun ko'rish qiyin bo'lib qoladi. Oilasini boqish maqsadida Dashti qipchoqqa borib va o'sha yerlarda yashab qolishgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'z tug'ilib o'sgan yurtlarini sog'inib: "Nimagayam o'sha yoqlarga ketgan ekanmiz, darvoza tiq etsa, vatanimdan birov keldimikan deb sochim oqardi, - deya yig'ladi kampir"¹.

Keksalarimiz avvallari davra qurib qadim ertaklar, dostonlar aytishgan. Bunday davralarda turli xalqlarning ertaklari tinglangan. Ular shu yo'l bilan yosh avlod shuuriga vataniga, avlodlariga bo'lgan mehr-muhabbatni ulug'lagan, ularni qadrlashni o'rgatgan.

Bolaning enasi o'sha kuni qadim ertaklardan so'zlab beradi. Olislarda bir xoqonning qiziga Er Kenja oshiq bo'libdi. Hayyo-huyt deb

yo'lga chiqsa, bir toshbaqa yo'lda to'nkarilib yotgan ekan, uni o'nglab qo'yib, yana yo'lida davom etibdi. Yo'lda ketayotib qarasa, laylak bir oq ilonni "yeyman" deb turgan ekan. Ilonni qutqaribdi. Yana yo'lida davom etibdi, ketaveribdi. Qarasa, tosh ostida ezilib qolgan chumoliga duch kelibdi, uni tutqunlikdan ozod qilibdi. Bunday mazmundagi ertaklardan bolalar tabiatni asrab avaylashni, o'zgalarga mehribon bo'lishni o'rganadi. Isajon Sultonning deyarli barcha asarlarida tabiat hodisalari-yu, xalqimiz orasidagi ular bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar aks ettirilgan.

"Genetik" romanida sut haqida so'z boradi. Qariyalarimiz sut va sut maxsulotlariga oqlik, ne'mat, rizq sifatida qarab, uvol qilmaslikni uqtirishadi: "Sutni yerga to'kish katta gunoh sanaladi, uning oqi uradi kishini", – deyishadi. Tabulashgan irimning mifologik mohiyatida sut insonning ilk ozuqasi ekanligi uchun uning muqaddaslik kasb etishi yotadi. Bu esa totemizm dinining g'oyalari singdirilgan qavm yoki qabila o'zlarining ahilligini yanada mustahkamlashga va o'zlarini boshqalardan alohida ajratib ko'rsatishga asos bo'lgan. Totemizm dinida ma'lum bir «tabu», «taqiqlash» tizimi shakllangan. Ya'ni boshda barcha hayvonlarga yilingan harakat, odat ushbu hayvonga nisbatan alohida bo'lgan.

Shuningdek, xalq orasida qulog'i og'rikan bolaning qulog'iga ko'zi yorigan xotinning sutidan tomizadilar. Xalqimiz ona sutiga Tangri ming bir davoni mujassamlashtirgan, deb daraydi. "Qo'shni xotinni "Ko'kal Xola" deb chaqirgin deyishadi. Chunki qo'ni-qo'shnining bolasi yig'lasa, emizib qo'yaverar, sutini qizg'anmas ekan. Tegradagi uch-to'rt xonadonning bolalari shu tariqa ko'kaldosh bo'lib qolishgan. Ko'kal xola buyurgan ishini ado etgan bolalarga "emizgan sutim halol bo'lsin" deydi, sho'xroqlariga esa, "bergan sutimga rozi bo'lmayman" deb qo'rqitadi"¹⁷⁵. Xalqimizda ko'kaldosh, emakdosh degan tushunchalar mavjud. Adib ko'kaldoshlik motivi orqali xalqimizning azaliy qadriyatlaridan birini ifodalagan. Bu bilan o'zbek xalqining bolajonligini ko'rsatish bilan birga insonlarning mehr-muruvvatli ekanligini tasvirlashga harakat qilgan. Ota-bobolarimiz sandal yoniga o'tirib nevaralariga har xil ertaklar aytib berishgan. Bola bobosidan eshitgan Nuh (a.s) haqidagi ertakda: Nuh (a.s)ning xotini non yopibdi. Nonlarni tandirdan uzib savatga solayotsa, qo'li kuyib, bittasi yerga tushibdi. Shunda xotin nonga qarab "xah o'lgur", debdi. Nuh payg'ambar: "Hoy, nodon, rizqni ham so'kadimi odam, tez nonni ol-da ko'zingga surt", – debdi. Nuh payg'ambarning xotini shunday qilibdi. Yerga non tushib ketsa, uni olib ko'zga surtish odati Nuh payg'ambardan qolgani aytiladi. Yozuvchi asarida ertak sifatida keltirilgan bu voqea nonni e'zozlash haqida bo'lib, didaktik ahamiyat kasb etayotgan janr sifatida

¹⁷⁵ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2017. – Б. 154.

shakllantirilgan.

Xalq orasida “nonni teskari qo‘yma, yomon bo‘ladi”, degan so‘zlar qadimdan irim sifatida kelgan. Chunki irimlar o‘z mifologik mohiyati bilan tabu – taqiq asosida shakllanadi. Adib shu kabi xalq irimlarini asar syujetiga singdiradi.

Yozuvchi asar qahramoni xolasini juda yaxshi ko‘rishini mehribon ayol sifatida tasvirlar ekan. “Sofiya” – yunonchada “ilohiy donolik”, arabchada “musaffolik” degan ma’nolarni anglatishini hali xolamga aytganim yo‘q”, deb ismning izohini keltiradi¹⁷⁶. Va shu ismdagi ayol haqida mifologik afsonani ham keltirib o‘tadi. Unda oyning yerga tushishi motivi haqida so‘z boradi. Yozuvchi Sofiya xola obrazi orqali qishloqning sodda, samimiy, oqko‘ngil ayoli siyratini yaratgan. Bizningcha adib “Sofiya” ismni bejizga keltirmagan. Bu arxetipning bir turi – anima arxetipidir, “anima” so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, nafas, ruh, aqliy kuch, ishtiyoq va jasorat kabi ma’nolarni ifodalaydi. Anima to‘rtta bosqichda (Momo Havo, Yelena, Maryam, Sofiya) namoyon bo‘lar ekan.¹⁷⁷ Kengroq tushuntiradigan bo‘lsak, Momo Havo nomi Odam Ato va Momo Havo to‘g‘risidagi qadimiy diniy afsonadan olingan. Yelena yunon mifologiyasidagi ayol qahramonga ishora qiladi. Maryam Iso Masihning onasi – bokira Maryamni anglatadi. Sofiya esa yunoncha “donishmandlik” so‘zidan olingan bo‘lib, ham ijobiy, ham salbiy xislatlarga ega bo‘lgan donishmand ayol ekanligini bildiradi. Yozuvchi bu mifologik arxetip obrazni bir ism ta’rifi va keltirilgan afsona orqali ifodalashga harakat qilgan.

Isajon Sultonning “Genetik” romanida Laylat-ul qadr kechasini xalq orasida tarqalgan turli afsonalar bilan bog‘lab ifodalaydi. Xalqimizda Laylat-ul qadr kechasi kuni odamlar Xizrni uchratadi va u odamlarning mushkullarini oson qiladi, tilaklarini bajo qiladi yoki shu kuni semurg‘ monand bir qush uchib o‘tadi, qanotlarini silkitganda odamlarning duolari ijobat buladi, xatto ushlagan narsalari tilloga aylanadi, degan g‘ayritabiiy qarashlar bor: “Bir xotin shu kuni bolasini emizib o‘tirgan vaqtda Laylat-ul qadr kelib qoladi. Shunda ona suyunganidan undan har narsalarni tilabdi, so‘ngra qarasa, qo‘lidagi bolasi ham tilloga aylanib qolgan ekan”¹⁷⁸. Adib asarda Laylat-ul qadr kechasi haqidagi ma’lumotlarni keltirish orqali roman badiiyligi fonida hayotiylik mezoni talablarini bajargan. Isajon Sulton asarda sodda, samimiy qishloq kishisining xarakterini yaratgan. Buni mirob yigitning kechasi egatlarga suv taratib yurganida, oy yorug‘ida o‘z yumushlari bilan yurgan cholni ko‘rib qolib, uni Xizr o‘ylab qilayotgan harakatlarida ko‘rishimiz mumkin:

“ – Jon buva, duo qiling, ro‘zg‘orimga baraka kirsin. Ikkita qizim

¹⁷⁶ Ўша манба. - Б. 267.

¹⁷⁷ Юнг К. Архетип и символ. – М.: Канон, 1991. – С. 330.

¹⁷⁸ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 263.

bor, bitta o'g'il ham bersin, – dermish yolvorib”¹⁷⁹. Bu epizod tasviri orqali sodda yigitning Xizrni uchratgan kishi uning bosh barmoqlarini ushlab ko'rish kerak. Agar, haqiqatan, Xizr bo'lsa, uning bosh barmog'ida suyagi bo'lmaydi, – degan mifologik tasavvur personajning xatti-harakatlari orqali namoyon bo'lgan.

Adib romanida oddiy qishloq kishilarining oiladagi bola tarbiyasi-yu ro'zgor tutimida uchraydigan ko'pgina urf-odatlarini qalamga olgan. Bolaligimizda momolarimiz tomonidan aytilgan ertaklardagi yalmog'iz kampir, ajdarholar qilmishlarini, xatti-harakatlarini eshitib dahshatga tushganmiz. Hurkkanimizdan momolarimiz pinjidan, quchog'idan panoh izlaganmiz. Hatto hozir ham yosh bolani uxlatayotganda “uxlamasang, “bujilar” olib ketadi”, – degan so'zlarni ishlatishadi. Romanda bolaning otasi ya'juj-ma'jujlarni aytib hurkitadi. Bolaning murg'ak tasavvurida “buji” qandaydir odamxo'r maxluq, ulardan qattiq qo'rqanlaridan kattalardan yordam kutadi, ularga itoat qilib, aytganlarini qilishadi. Bunda bola arxetipidagi xususiyatlar yakkalanib qolish, dovdirab, qochish, ona tomonga intilish yuz beradi. Bola arxetipi uchun qorong'ulik, tun – salbiy, qo'rqinchli. Kun, yorug'lik – ijobiy, tushunarli bo'lgan holat ramzi.

Isajon Sulton ijodining asosiy yutug'i va qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashdagi o'ziga xosligi, u ortiqcha tafsilotlarga berilmasdan real-hayotiy tasvirlaydi. Shuning uchun ham yozuvchining asarlaridan hayotiylik ufurib turadi. Isajon Sulton badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish va uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun folklorizm va mifologizmlardan, peyzaj san'atidan badiiy unsur sifatida foydalanadi.

“Ozod” romanida yosh yigitning o'zligini anglab yetishi hamda maqsadiga erisha olishdagi o'y-hayollari, intilishlari aks ettirilgan. Xuddi ertak qahramonlaridek Ozodning ham taqdiri avvaldan bashorat qilinadi. Turkiy qavmlar mifologiyasida tug'ilajak bolaning taqdiri haqida bashorat qilish motivi yetakchilik qiladi.

Isajon Sultonning “Ozod” romani murakkab kompozitsiya asosida yaratilgan. Bu asar qadim milliy an'analarimizning yangicha talqinini o'z ichiga olgan bo'lib, bunda voyaga yetib kelayotgan yosh yigitning o'zligini anglab yetishi hamda maqsadiga erisha olishdagi o'y-hayollari, intilishlari aks ettirilgan.

Asar bosh qahramoni Ozod sirli lolani izlab yo'lga chiqar ekan, bu sayohat davomida ko'plab tilsim va ramzlarga duch keladi. Asarning arxetipik obraz va timsollarga boyligi uning mazmun hamda ma'no jihatidan qiymatli asar ekanligiga ishora qiladi. Asarda eng birinchi tilga olinadigan narsa “oyna” timsoli bo'lib, bu timsol o'zlikka nigoh tashlash va o'zlikni tushunib yetish ma'nosida asar mazmunini teranroq

¹⁷⁹ O'sha manba. – B. 264.

anglashga urg'u beradi. Asardagi "ustoz" obrazi – "donishmand qariya" arxetipi tarkibiga kiruvchi yo'l ko'rsatuvchi arxetip sifatida syujetning boyishiga xizmat qilgan. Ustoz dunyoning timsollarga to'la ekanligi va insonlar hayotida nimayiki ro'y bersa, bu tashqarida emas, balki ichkaridan kelayotgan ta'sir oqibati ekanligi haqida gapiradi. Keyin ustoz yo'l haqida gapiradi. Insonlar doim borishni maqsad qilgan qandaydir yo'l mavjud. "Hayot yo'li" iborasi ham insonning o'z hayotida bosib o'tishni ko'zlagan yo'li mazmunini ifodalaydi. Arxetipik ramz hisoblangan "yo'l" inson hayoti davomida o'z tajribalari orqali shakllantirgan "shaxsiyat" yo'lini anglaydi. Kishilar o'z maqsadlariga erishish davomida qay yo'ldan yurmasin, nimalarni qo'lga kiritishga erishmasin, ularning barchasi kishi o'zligini, o'z shaxsiyatini yaratib borayotganini anglatadi, xolos.

Baxt qushini izlab yo'lga chiqqan Ozodga so'qir odam uchrab, unga qayerga borishi kerakligini, yo'lda nimalar yuz berishi mumkinligini aytadi. So'qir odam ramzi qadimiy mifologik arxetip-simvollaridan biri "donishmand qariya" arxetipi tarkibiga kiruvchi yo'l ko'rsatuvchi, homiy arxetip vazifasini bajaradi. Bunday insonlar so'qir bo'lishiga qaramay oddiy insonlardan ko'ra ko'proq narsalarni ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Butun borliq olam Ozodning mashaqqatli yo'lni mardonavor bosib o'tib o'z maqsadiga, baxt-saodat lolasini qo'lga kiritishga yordam beradi.

Bu asar milliy dunyoqarashning zamonaviy ifodasi bo'lib, olam va odam mushtarakligi xususida. Islomiy tafakkur va tasavvufiy ruhda yaratilgan "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" asarlardagi bir to'da qushlar (majoziy obrazlar) Semurg'ni izlab yo'lga chiqadilar. Bu borada adib Sharqning buyuk salafлари ana'analari va islomiy ta'limotga tayangan holda voqealar tasvirini berish bilan birga folklor ijodi namunalaridagi safarga chiqish motividan ham foydalanadi. Bu motiv shart-sinov motivining davomi hisoblanadi, shart-sinov motivining ichida kechadi. Chunki ma'lum bir shartga ko'ra yoki biror maqsadni ko'zlab safarga chiqiladi, safar orqali sinov o'taladi. Hikoya qahramoni biror maqsadni ko'zlab – lolani qo'lga kiritish uchun yo'lga chiqadi.

Ozod ham xuddi qushlar singari o'z manziliga yetib boradi, ya'ni sirli lolani topadi. Ozod lolaga erishib baxtli, saodatli bo'lmoqchi edi, ammo inson baxtga saodatga erishishi uchun o'zi harakat qilishi, hayot mashaqqatlarini yengishi lozimligini tushundi.

Ozodga sirli lolaga borish yo'lidagi to'siqlar haqida toshkesar ma'lumot beradi: "Bu yo'lda xunobadan iborat daryolar bor, xunoba emas, balki zahar-zaqqum, deyilsa, yanada to'g'riroq bo'lar. To'g'rilari ham osmonga tig' tortgan, u tig'larning barchasi shafqatsiz ravishda qon to'kaman, deb turibdi. Har tomonida o't tutashgan dashtlar yolqinlanib, osmonga bosh uradi. O'rmonlari har xil dahshatli balolar bilan to'la, undagi har bir daraxtlarning shoxlari g'amdan, bargi esa

balodan iborat. Osmonda charx urib yuruvchi bulutlar kishi boshiga yomg'ir o'rniga tosh yog'diradi. U yerda bir tun qo'nish uchun maskan yo'q. Tanga mador beruvchi suv ham, don ham topilmaydi"¹. Ozod baxt-saodatiga erishish uchun yo'lida uchragan to'siqlarni ilm-ma'rifat kuchi bilan yengib o'tish, muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglaydi.

Ozod yo'l davomida qo'shni ayollarga duch keladi. Ayollar Ozodga boshiga baxt qushi qo'nishini tilaydilar. Qahramonning boshiga baxt qushi qo'nishini tilash motivi ham aynan xalq ertaklari syujeti elementlaridan biri hisoblanadi.

Roman badiiy kontekstida ko'plab an'anaviy timsollar, "Qur'oni karim" oyatlari asosida shakllangan hikmatlar, aziz-avliyolar to'g'risidagi rivoyatlar, qahramonlik dostonlaridagi Girko'k va Boychibor singari epik tulporlar, yengilmas arslon va sadoqatli it haqidagi mifologik tasavvurlar, toshbaqa va chayon xususidagi masallar sharhi keltirilgan.

Ijodkorlarimiz badiiy adabiyotda mifologiya unsurlaridan ijodiy foydalanishda turli yondashuvlarni tajriba qila boshlashdi. Bu holat badiiy asarlarni yaratishda mif syujetlaridan foydalanishi, xalq yaratgan iboralarni qo'llashi, asar syujetiga mif va afsonalarning singdirilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu an'ananing kuchayib borishi adib ijodida muayyan voqelik mifologik asotiriy timsollar vositasida, hamda ijtimoiy hayotimizdagi mavjud muammolarni ma'lum bir ramziy shaklda ifodalashga imkon beruvchi omil ekanligi bilan ham izohlanadi.

Mifologik elementlar zamirida xalq dunyoqarashi, o'tmish an'analari mavjud bo'lib, ularning mazmunidan sezilib turadi. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani Raulo Koeloning "Alkimyogar", Kamyuning "Jarayon" kabi asarlari yozilish uslubiga o'xshab inson ruhiyati, tafakkur olami, ko'ngil kechinmalarini tavsiflaydi. "Boqiy darbadar"da kishining ko'nglida kechayotgan tuyg'ular qahramon aqliy tafakkurida g'alayon ko'tarayotganligi tasviri chiziladi. Bu tasvirlarga mifologik motivlar va folklor unsurlarining singdirilishi asarni milliy ruh, milliy xususiyatlar bilan boyitadi.

"Boqiy darbadar"da an'anaviylikka xos voqealar o'rnida sirtidan bir-biriga bog'lanmay turli makon va zamonda, goh reallik, gohi hayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida aniq bir qahramon turmagan bo'lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma'nisi-yu bashariyat taqdiri haqida o'yg'a tolgan muallif dunyoqarashi birlashtiradi va yaxlit butunlikka – romanga aylantiradi.

Shunday asarlar borki, ularda aks ettirilgan voqealar, uyushtirilgan sahnalar, yaratilgan qahramonlarning o'z fikri va harakati – bularning barcha-barchasi bizga qandaydir bir haqiqatni, muallif o'quvchiga yetkazmokchi bo'lgan qandaydir bir maqsadni anglatishga, izohlashga, yuktirishga xizmat kiladi.

Hozir kimdandir umrboqiy hayotni istaysizmi deb so'rasangiz,

albatta, “ha” deb javob berishi mumkin. Chunki odamzod azaldan dunyoni sevadi. Unda iloji boricha ko‘proq qolgisi keladi. Vaholanki, umrboqiylik nima? Bu qismatmi yoki la‘nat?!

Boqiy hayot eshitilganda jimjimador, orzu-xayollarga to‘la bo‘lib ^rinishi mumkin, ammo asl hayot mazmunini anglagan (yoki o‘sha umr davomida keyinchalik asl haqiqatni tushungan) inson uchun umrbokiylik bu lan‘atdek jaranglaydi.

Asarda ikki syujet chizig‘i bo‘lib, birinchi syujet chizig‘i Muborak Zotning qatl etilish sahnasidan boshlanadi. Yozuvchi Muborak Zotning shaxsi, voqealar qayerda sodir bo‘layotgani va Muborak Zotning qaysi gunohi uchun jazoga tortilayotgani haqida xech qanday ma‘lumot bermaydi. Butun xalq tomonidan yomonotliqqa chiqarilgan Muborak Zot mahkum sifatida olib ketilar ekan, ko‘chadagi etikdo‘z xaloyiqning ko‘z o‘ngida yaxshi taassurot qoldirish uchun uy devoriga suyanayotgan Muborak Zotga o‘shqirib, uni itarib yuboradi. Muborak Zot unga qarata “turgin va badar ketgin” degan nuqtada Muborak Zotning aslida Iso Masih ekanligini va etikdo‘zning taqdirini qanday kechishini, shuningdek ushbu obrazlarning qanday arxetipik ahamiyatga ega ekanligini anglab olishimiz mumkin.

Roman qahramoni etikdo‘zning “kattalar” e‘tiboriga tushmaslik uchun, ularning oldida “jinoyatchiga yordam berdi” degan aybni o‘z bo‘yniga yuklamasligi uchun aytgan so‘zlar uni mahkum qiladi. Kitobxon, agar istasa, etikdo‘zni oqlamoqqa keragidan ko‘proq sabab, dalillarni bemaol topadi. To‘g‘ri- da, axir, etikdo‘z o‘sha Muborak Zotni shunchaki devoridan itarib yubordi, xolos. Uni etikdo‘zning ko‘chasiga kelgunga qadar kimlar xo‘rlamadi, kimlar mazaxlamadi. Umuman, uni xo‘rlashga, mazaxlashga nishon qilib qo‘ygan hukmni bechora etikdo‘z emas, juda “ulug‘ zot”lar e‘lon qilgandi-ku. Qolaversa, hali Muborak Zotning qo‘l-oyoqlariga mix qoqishni niyat qilib turgan kimsalar ishga kirishmagan. Yana, asarning o‘zida etikdo‘zning ichidayoq turibdi o‘sha “xaloskor sabab” – “Menda ham ayb yo‘q. Hamma yoqda ayg‘oqchilar izg‘iyapti... ularning nazariga tushmaslik uchun nomiga bulsa-da koyib qo‘yishim kerak. Amaldorlar qilmishimni ko‘rishdi, erta-indin surishtiruvlar boshlanadi, josuslar barcha voqealarni oqizmay-tomizmay yetkazishadi... va hech kim menga tegmaydi...”¹⁸⁰ Afsuski, endi, unga hech kim hatto, ajal ham yaqinlashmaydi.

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida arxetipik obraz bosh qahramon sifatida tasvirlanganiga qaramay, boshqa bir necha arxetiplarga (“hazrat”, “avliyo” obrazlari) duch kelamiz. Asar boshlangan nuqtada etikdo‘zning ayanchli taqdiri haqidagi bashorat aytiladi. Ushbu bashoratdan xabar beruvchi “hazrat” obrazi “bashoratchi” arxetip-obrazini ifodalaydi. Asarda muallif o‘quvchini darbadarning hayoti bilan

¹⁸⁰ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б.9.

tanishtirib o'tgach, Tiyonshon tog'i bag'ridagi g'orda istiqomat qiluvchi avliyo haqida hikoya qiladi. Ushbu avliyo timsolida "donishmand qariya" arxetip-obraziga guvoh bo'lamiz. Odatda ushbu arxetipni ifodalovchi obraz uzoq umr kechirgan, hayot borasida bilim va tajribani egallagan oqil kishi sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifasi adashganlarga va yo'l qidirib kelganlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, hayot haqida saboq berish, donishmandlik nurini odamlarga tarqatish hisoblanadi. "Boqiy darbadar" asarida ham avliyoning shu sifatlarga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Yuqorida folklor va yozma adabiyotimizda ham birday sirli qobiliyatlarga ega bo'lgan qariya, homiy, madadkor pir Xizr obraziga ham umrboqiylik sifati nisbat beriladi. Chindan ham boqiy yashash jazomi? Unday bo'lsa, Xizr (a.s.) nega o'z hayotidan mamnun?! Umringiz qancha bo'lishidan qat'iy nazar, u mazmunli bo'lsa bas. Inson hayoti u kechirgan yillar bilan emas, balki u qilgan savob-u gunohlar bilan o'lchanadi.

"Boqiy darbadar"dagi obraz – xech qanday sehrli qobiliyatga ega bo'lmagan, oddiy yeguliksiz yashay olmaydigan kishi. Yegulik u uchun Yaratgan tomonidan anjir ko'rinishida ato etilganligi aytiladi. Avliyo o'zini o'ldirish uchun kelgan insonga taqdir, Yaratganning yer yuzida ato etgan tartibi va dunyoning mukammalligi to'g'risida aytadi. Bu yerda taqdir haqida, Etikdo'zning mudhish kelajagi oldindan bashorat qilingani, undan xutulib bo'lmasligi aytiladi. Taqdiri qarg'ishga bog'langan bunday qahramonlarni folklor va yozma adabiyotimizda ko'plab uchratamiz. Qarg'ishning o'zi ham arxetip-motiv hisoblanib, ilk bor diniy rivoyatlarda (Xudoning Odam Ato va Momo Havoni yerga jo'natishi) uchraydi. Qargish arxetipga misol sifatida kelishini O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Haqqush" afsonasi misolida keltirgandik.

"Boqiy darbadar" romanida keltirilgan rivoyatda tarixiy shaxs Iso (a.s.)ning o'ldirilishi tasviri aks etgan. Adibning bu romani bizga Yevropa romanlar uslubini eslatadi, ammo asar Sharq va G'arb adabiy an'analari sintezi asosida yaratilgan. Adabiyotshunoslikda postmodernizm yo'nalishi G'arb adabiy uslubi hisoblanadi. Isajon Sulton "Boqiy darbadar" romanini postmodernizmga xos shakl asosida yozsa-da, unda sharqona qarash, sharqona ma'naviy ruh, sharqona estetik ifoda aks ettirilgan. Asarda darbadarlik zamiriga insoniyatning hayot yo'lidagi xatoliklari, tanazzullari yashiringan. Romanda insoniyatning o'z e'tiqodidan voz kechishi, bu bilan Tangrisidan voz kechishlari, unga va uning yaratilqlariga qarshi borishlari tasvirlanadi. Asarda keltirilgan rivoyat va keyingi voqealar bir-biriga bog'liq. Iso a.s.ga kul kutargan etikduz butun hayotda o'z yo'lini yo'qotgan, nima qilayotganini anglab ololmayotgan insoniyat timsoli sifatida ko'rsatiladi.

Turkiy xalqlar parrandalarga o'ziga xos ramziy ma'no yuklaydilar.

O'zbek xalqida qaldirg'och e'zozlanadi. Rivoyatlarda Boyo'g'li sehlangan qush sifatida qaraladi. "Boqiy darbadar" romanida ham shunday xususiyatga ega bo'lgan qora chumchuqlar haqida gapiriladi. "Qora rang mifologiyada yovuzlik timsoli sanaladi"¹⁸¹. Xalq ertaklaridagi yovuz qahramonlar qora kiyimda tasvirlanadi. "Atrofdagi daraxtlarning shoxlari qora chumchuqlarga to'lib ketgan, ular olomonga va etikdo'zga ma'nosiz ko'zlarini tikkanicha, nimanidir kutgan kabi kingayib qarab turishardi"¹⁸². Asarda keltirilgan chumchuqlar etikdo'z hayotida avval ham uchragan edi. Etikdo'z bundan o'ttiz yil avval bir hazratni uchratgan bo'ladi. Hazrat shu atrofdagi daraxt shoxlarida qora chumchuqlarning turlanib olganini ko'radi. Ular boshqa qushlardan farq qilib na don-dun terar, na sayrar, na shoxdan-shoxga uchib qo'nar edi, faqat sarg'ish ko'zlarini tikkanicha nimanidir sabr-toqat bilan kutishardi. Hazrat boladan bu qushlarning qachon kelganligini so'raydi. Shunda Hazrat bolaga achinib qaraydi va shunday deydi: "Bugun juma, oyning o'n uchinchi... – nimanidir o'zicha hisob-kitob qildi, Hazrat. So'ng bolaga qarab turdi-da: – "O'g'lim, gapimga diqqat bilan quloq sol" – dedi. – Oyning un uchinchi kunida, juma kuni uchib keladigan qora chumchuqlar aslida mudhish va qattol bir qarg'ishning yukini olib keladilar"¹⁸³. Yozuvchi slavyan mifologiyasidagi o'n uch raqamining xosiyatsizligini ifodalovchi mifologik qarashlardan foydalangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'n uchni yoqtirmaslik, o'n uchdan qo'rqish birdaniga paydo bo'lmagan, hatto o'rta asrlarda inglizlar uni "nonvoy drujinasi" deb ham ataganlar. Sababi – u paytlarda xaridorlarning haqidan urib qolgan savdogarlar qattiq jazoga tortilgan, xatto qo'li chopilgan. Shundan qo'rqqaan va xaridorlarni kattaroq miqdorda savdo qilishga rag'batlantirish maqsadida, nonvoylar bir drujina mahsulot olgan mijozlariga bir dona qo'shib, o'n uchga yetkazib berishgan.

XIX asrgacha 13 soni bilan aloqador qo'rquv faqat bitta sohada bo'lgan: yevropaliklar dasturxon atrofida o'n uch kishi o'tirishidan saqlanganlar. Agar shunday bo'lib qolsa, ulardan biri keyingi bir yil davomida vafot etadi, deb hisoblashgan. Bu irimning yuzaga kelishiga esa Iso Masih o'z umrining oxirgi oqshomida o'n ikki nafar havoriysi bilan bir dasturxon atrofida ovqatlanishgani, ertasiga Isoning xochga mixlanishi sabab bo'lgan.

Bu irimlarning yoyilishiga ma'lum darajada badiiy adabiyot ham o'z hissasini qo'shgan: 1907-yilda Tomas Lousonning "Juma, o'n uchinchi sana" romani chop etilgan. U o'ta katta muvaffaqiyat qozongan va tez orada ekranlashtirilgan. Aynan Tomas Louson tufayli "juma, 13"dan qo'rqish irimi keng yoyilgan. Umuman, turli badiiy asarlar, keyinchalik badiiy filmlarda o'n uch soni, ayniqsa, jumaga to'g'ri kelgan

¹⁸¹ Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи: Фил. фан. номз. дисс. автореферат. – Тошкент, 1999. – Б. 13.

¹⁸² Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 8.

¹⁸³ Исажон Султон. Асарлар. Ҳикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 7.

o'n uchinchi sana bexosiyat qilib tasvirlangan va bu hol irimchilarning safini kengaytirgan¹⁸⁴.

Sharqda xususan, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Koreya, arab mamlakatlarida, shuningdek, Italiyada 13 sonini xayrli deb hisoblashadi. Hind mifologiyasida 13 nafar Budda bor, deb ishonishadi. Sharq xalqlarida, musulmon madaniyatida juma muqaddas kun hisoblansa, G'arbda buning aksi.

Romanda keltirilgan rivoyatlar syujetning mukammal holda shakllanishi asarning kompozitsion tuzilishini tashkil etuvchi voqea elementlarini bir-biriga uyg'unlashtirish, voqelik tasvirining keng ko'lamligi va rang-barangligini ta'minlash, adibning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini dalillash, romanning g'oyaviy-estetik mohiyatini chuqurlashtirish vazifalarini bajargan. Rivoyatlar mazmuniga singdirilgan estetik kuch roman syujetining rivoji davomida voqealar talqinidagi mutanosiblikni saqlash va tasvirlanayotgan voqelikning milliy qiyofasini ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Adibning asarda qo'llagan har bir rivoyati roman kompozitsiyasining qaysidir jihatini to'ldirish vazifalarini bajargan. Yozuvchining "Bobo Toshbaqa" maqbarasi talqini ham asar kompozitsiyasi uchun xuddi shunday vazifani o'tagan. "Toshbaqa" obrazi mifologiyada arxetip-motiv hisoblanib, u ko'plab afsona va rivoyatlarda takrorlanib keladi hamda turli madaniy qatlamlarda alohida ma'noga egadir. Misol uchun, Xitoyda toshbaqa to'rt muqaddas yaratilqlardan biri hisoblangan va to'rt unsuridan biri bo'lgan suvni ifodalab kelgan. Qadimgi hindistonliklar esa aksincha, toshbaqa qurg'oqchilik ramzi va quyosh xudosining dushmani, deb hisoblashgan. Ilk Xristian simvolizmida toshbaqani oiladagi kamtarlik ramzi sifatida ko'rishgan. Ammo toshbaqa obrazining keng tarqalgan ramziy tasavvurlaridan biri uning uzoq yashashi bilan bog'liqdir. Asarda ham boqiylik va foniqlik masalalari alohida e'tiborga olingani uchun, toshbaqa bu yerda boqiylik ramzi, deb tushunish mumkin. Boqiylik nafaqat darbadarga, balki butun boshli olomonga tekkan qarg'ish edi. Omma bu qarg'ishni toshbaqa kabi ming yillar davomida bo'yniga ilganicha, oldinga qarab sekinlik bilan harakat qilayotgan edi.

Asardagi asosiy urg'u ham hayotdagi o'z maqsadini anglashdan chekinib, behuda umrga rozi bo'lganlar ommasiga qaratilgan edi.

Romanda toshbaqa dastlab o'zining qismatini ortmoqlab yurgan kishiga qiyos qilinadi. Kishi taqdiriga bitilganidan qutula olmaydi. U qayerda yashashidan qat'iy nazar qismati uning orqasidan ergashib yuraveradi. Toshbaqa ham bir qaraganda shunday kishilarga o'xshatiladi. Ikkinchi tomondan u gunohkor odam ramzi bo'lib, u qiyomatgacha gunohlarini shunday ortmoqlab yuradi. Toshbaqa

¹⁸⁴ <http://hamidoga.blogspot.com/2014/08/13.html>

rivoyatlarga ko'ra donishmand jonzot hisoblangan. Shu sababli toshbaqani orqasiga ilmlarini ortmoqlab olgan donishmandga qiyos qilinadi.

Asarda toshbaqa timsoli - katta bilim salohiyatiga ega bo'lgan professor Ziyo ramzidir. Professor Ziyo juda kuchli olim, bilimli shaxs, ammo uning ilmidan hech kim bahra ololmaydi, hech kimga foydasi tegmaydi. Toshbaqa professor Ziyo yaratgan yangi inson ramzi ham bo'la oladi, chunki professor yaratgan, o'zining kimligini bilmaydigan odam – maqsadsiz inson. Toshbaqa ham shunday, ya'ni birovga foydasi ham, ziyoni ham tegmaydigan, manzili aniq bo'lmagan jonzot hisoblanadi.

Aslida esa toshbaqa timsoli bilan adib inson qismatidan qochib qutila olmasligi haqida fikr yuritgan. Toshbaqa taqdir mifologemasining badiiy sintezi sifatida maydonga chiqadi.

Qadimgi turk mifologiyasida, xususan shomonchiligida bo'ron, quyunni boshqarib turadigan devlar mavjud qarashlar bor ekan. Rivoyatning o'zidayoq tabiat qonunlariga zid kurashni ko'rishimiz mumkin. Somon amiri uni o'zining maskanidan olib kelib, qafasga tashladi, natijada bashar qonunlariga zid voqea inson qo'lida toshbaqaning o'limi sodir bo'ldi. Uning o'limiga inson sababchi bo'ldi. Romandagi bu rivoyat asar mazmunini yorqin ifoda etish vazifasini bajargan.

Adib bo'ronga ramziy ma'no yuklaydi. Bu borada "Isajon Sulton asarlarida shamol – yozuvchi imkoniyatidagi tunganmas poetik imkoniyat. Yaratilajak timsollar g'oyasi. Yozuvchi, nafaqat, shamol, bo'ron, to'fonni, o'rni-o'rni bilan hasharot-u hayvonotni, parranda-yu paru bulutni, kapalaklar, ninachilarni tasvirlaydi. Ularning har biri ma'no qati, ramz sifatida aks eta boshlaydi. Xullas, postmodernistik asarda hamma narsa o'z o'rnida betakror timsol vazifasini o'taydi",¹⁸⁵ – deb yozadi adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov.

Asar turli xil obrazlar va majoziy ma'noga ega detallar bilan to'la. Masalan, etikdo'z, professor Ziyo va uning o'gli, badaviylar, g'orda yashovchi Xudojo'y inson... Ularni nima birlashtiradi? Ular yashayotgan makon bir-biridan yiroq, maqsadlari bo'lak. Ularni tutashtirgan chiziq hayot yo'lidir, ko'm-ko'k osmon ostidagi zamindir. Asardagi hech bir detal bejiz keltirilmagan. Masalan, asar yakunidagi qumli bo'ronda uchoqning halokatga uchrash jarayoni tasviri, uchoq ikkala qanotidan ayrilgan edi, lekin uchishdan to'xtamagandi. Bu orqali insonlar, insonlar irodasi aks etayapti. Yoki bo'ron g'or oldidagi anjirni ko'porib ketdi. Butun hayotini g'orda o'tkazgan Xudojo'y qariya obrazi. Butun umrini ko'chmanchilikda o'tkazgan lo'lilar sardorining imon keltirib namoz o'qishi holati – barcha-barchasi inson zotini fikr yuritishga

¹⁸⁵ Абдуғафур Расулов. Акслар фалсафаси (И.Султон насри бадийяти). – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б.29-53.

undaydigan va hamma o'zicha tahlil qiladigan voqealardir.

Asar kitobxonda turfa, og'ir, murakkab savollarni uyg'otadi. Aslida, maqsad ham shu. "Yashashdan maqsad nima?", "Men kimman?" kabi savollar inson ongini charxlashga, ko'rganlaridan nimadir anglashga sabab buladi. Manzilni yo'qotgan, maqsadidan adashgan yokida manzilni bilsa-da, unga borish yo'llarini bilmagan inson go'yoki darbadardir. Maqsad nima-yu, manzil qayer? Asar orqali bu savollarga shunday javob olishimiz mumkin; Allohning vasli-yu, roziligi. Muallif xuddi tanazzulga yuz tutmaslikning chorasi - Allohga imon keltirish, deya uqtirmoqchi. Alloh irodasiga bo'ysunmay jaholat sari ketayotgan bashariyatning so'nggi manzilini eslatmoqchidek go'yo. Asarning mazmuni ham shu deb o'ylayman. Bundan tashqari, imonning kuchi, mohiyati ham ochib berilgan. "Avlod" bobida aynan shu mazmunga ahamiyat qaratilgan. Muallif yoritayotgan falsafalardan yana biri, boqiylik ham va ba'zi kuchli bilimlar ham inson uchun azob berishi haqidagi tasvirlardir.

"Parvardigorning dargohi keng, u ko'p narsalarni sirlar pardasiga yashirgan. Odamlar ularning ba'zilarini biladilar, ba'zilarini bilmaydilar. Odam bolasidan boshqa hamma jonzotlar bir tilda gaplashadi, o'g'lim... aslida, bunday sirlarni qancha ko'p angasang, shuncha sukutga tolasan. Chunki ba'zi bilimlar hatto halokatli bo'ladi"¹⁸⁶.

"- Odam bolasi borki, barhayotlikni orzu qiladi. Men esa abadiyat bilan jazolandim. Men uchun na vatan, na millat, na elat, na til qoldi. Dunyoni kezarkan, butun boshli millatlarning yo'q bo'lib ketganini, o'rniga boshqalarning kelganini ko'rdim... Aslida, siz mendan ko'ra xushbaxtroqsiz. Chunki, qismatingizga darbadarlik bitilgan bo'lsa ham, bir necha yildan keyin, Uning rahmati tomonga ravona bo'la olasiz. Menga esa u yo'llar berkilgan, qopqalar yopilgan, tavbamdan va pushaymonimdan naf yo'q".¹⁸⁷

Yozma va og'zaki adabiyot orasidagi eng dolzarb muammolardan biri - janrlararo aloqalar masalasining roman va rivoyat janrlari misolida o'rganilgan xalq nasri syujetlari hamda unsurlarining poetik yaqinlashuvida adibning badiiy niyati va poetik mahoratida yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Boqiy darbadar" rivoyat asosiga qurilgan roman. Adabiyotshunos A.Rasulov fikrlariga ko'ra asarda keltirilgan rivoyatning turli versiyalari jahon adabiyotida mavjud ekan.¹⁸⁸

Bu asar haqida professor Q.Yo'ldoshev: "... "Boqiy darbadar" asari o'zbek romanchiligida alohida voqea bo'ldi. U inson intellekti, odamiyligi va yovuzligi imkoniyatlari haqidagi falsafiy-ramziy romandir. Romanda odamzod paydo bo'lgandan buyon uning ma'naviyatni kemirib,

¹⁸⁶ Исажон Султон. Асарлар. Хикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 14.

¹⁸⁷ Исажон Султон. Асарлар. Хикоялар. 2 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2017. – Б. 16.

¹⁸⁸ Расулов А. Мангулик суви (И. Султон насри бадийяти). – Тошкент: Турон замин зиё, 2017. – Б. 59.

tirikligida azoblarga giriftor qilib, o'lgach, do'zax olovida kuyishga sabab bo'layotgan manfaatqarastlik, qanoatsizlik va nafs atalmish illatlar yetovidagi kimsalarning qismati aks ettirilgan"¹⁸⁹ligini to'g'ri ta'kidlaydi.

Isajon Sulton romanlarining uslubi o'zgacha bo'lib, voqealar alohida-alohida hikoya qilib beriladi. Asardagi bu hikoyalar bir qarashda bir-biriga bog'lanmagandek tuyuladi, ammo asar mazmunini anglab borar ekanmiz ularning bir-biriga bog'langanligini hamda asar voqeligini aks ettirishda shu to'ldiruvchi hikoyalar muhim omil bo'lganligini ko'ramiz.

Xullas, bugungi o'zbek romanchiligimizdagi yangi yunalish va oqimlarning, metod va usullarning yuz ko'rsatayotganligi Sharq va G'arb adabiyoti an'alarining sintezlashgan ifodasi bo'lib, badiiy kontekstda mifologizmlar o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Hozirgi o'zbek nasrida yaratilayotgan asarlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yozuvchining badiiy idrok etilgan voqelikni tasvirlash usulida olamni mifologik anglash asosiga kurilgan universal arxetipik modellar, obraz va motivlardan foydalanishga intilish hamda badiiy asarning mifologik rodtekst asosiga qurilishi rolifonizmni keltirib chiqaruvchi asosiy omilga aylanib borayotganligi kuzatiladi. Mifopoetik an'anadan foydalanish esa o'z navbatida, asarda tasvirlanayotgan voqelik bayonida realistik talqin bilan ramziy-metaforik, mifologik-simvolistik ifodalarning uyg'un holda berilishiga hamda xronotor yo'nalishi va tasvirlangan badiiy olam zamiriga arxaik tafakkurga xos mifik qarashlar va tasavvurlarning singdirib yuborilishiga olib kelmoqda.

XX asr boshlaridan tortib to hozirga qadar yaratilayotgan nasriy asarlar uchun mifning muhim poetik vositaga aylanganligini kuzatish mumkin. Syujetida miflarning aralashishi yoki yechimning mifik hal qilinishi, asar mag'ziga mifologik qarashlarning uyg'unlashtirilishi yoxud badiiy g'oyaning mifga yo'g'rilgan holda yetkazilishi kabi holatlar zamonaviy romanlar uchun xos xususiyatlarga aylanmoqda. Zero, «qadimgi insonning koinot, tabiat hodisalari haqidagi tushunchalari, ularning ongidagi fantaziyalar mifni tashkil etadi».¹⁹⁰ Ular ajdodlarimizning borliqni tushunish, tillashish va u bilan munosabatni tashkil etishga bo'lgan ehtiyojlari natijasidan kelib chiqqan.

Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish mifning yozma adabiyot namunalarida qo'llanilishi adabiyot taraqqiyoti uchun yot hodisa emas edi. Biroq «Ta'bir joiz bo'lsa, mif o'tmish adabiyotida zamonning «shartli

¹⁸⁹ Йўлдошев К. Роман ва бугунги ўзбек романчилиги (2010 йил романлари мисолида). // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2011. – № 4. – Б. 133.

¹⁹⁰ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 198.

libosi» edi»¹⁹¹. Ammo zamonaviy adabiyotda ham mifning qo'llanilishi, funksiyasi ijodkorlarning poetik maqsadiga, kitobxonning olamni anglash bilan bog'liq dunyoqarashiga mos ravishda tubdan o'zgardi. «Zamonaviy adabiyotda, ayniqsa, G'arb yozuvchilari qalami ostida mif insoniyat hayotida muntazam takrorlanayotgan qonuniyatlarni yorituvchi uzoq o'tmish «hosilasi» sifatida tarixiy qiyofa»ga ega bo'ldi, mustaqil tarzda idrok qilindi, alohida o'rganib chiqildi»¹⁹². Ushbu ta'rifda zamonaviy adabiyotda mifning bajaradigan funksiyasi bilan bog'liq uch xil holat e'tirof etilgan:

Birinchi, *mifning insoniyat hayotida muntazam takrorlanib turuvchi qonuniyatlar mas'uli sifatida idrok qilinganligi*. Haqiqatdan ham, jahon adabiyoti namunalarini ko'zdan kechirganimizda, badiiy asarlar tarkibida uchraydigan miflar insoniyat taqdiriga xos eng muhim, muttasil takrorlanuvchi yoki takrorlanayotgan yoxud insoniyat kelajagi haqidagi qarashlarga oydinlik kiritilishi kerak bo'lgan nuqtalarda yordamga keladi. Fikrlarimizni atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning «Kassandra tamg'asi» romani misolida izohlab borishga harakat qilamiz.

«Kassandra tamg'asi» romanida insoniyat qismatining tub burilish nuqtasida turganligi, odamzot hayotining halokat yoqasiga yaqinlashganligi, yadroviy, ekologik, ijtimoiy va shu kabi ulkan muammolar qarshisida qolganligi haqidagi qarashlar, ogohlantirishlar aynan mifga murojaat asosida reallashtiriladi. Shuningdek, insoniyat kelajagi oldida turgan genetik muammolar, ayniqsa, ziyolilarni o'ygatdiradi. Nafaqat ertasi uylanmay yaratilishga chog'lanayotgan iks zurriyotlarni, balki risoladagiday oila farzandlarini ham juda ko'plab to'siqlar kutayotgani davrning dolzarb muammosi ekanligi asar bosh g'oyasini tashkil etadi. Ayovsiz fojialarning kelajak avlod hayotiga ham tahdid solishi mumkinligi, eng dahshatlisi, yangi avlodning bunga ko'nikuvchan bo'lib tug'ilishi, o'z genida shuni tashishi ehtimoli katta ijtimoiy xavfga aylanib borayotgani, bundan qutulishning chorasi esa so'roqligicha qolayotganligi, aynan ana shunday yechim talab etuvchi muammolarni hal etish jarayonida ijodkor yozma adabiyotga mifning yordamga kelishini inobatga oladi. Yozuvchi insoniyatni bo'lg'usi halokatlardan ogohlantirar ekan, bosh qahramon Filofeyning bashoratchi Kassandra nomi bilan atagan kashfiyotini ishga soladi: «Buning uchun bitta yo'l bor, u ham bo'lsa, kassandra-embriolarning oxir zamon haqidagi ishoralariga quloq solish va, umuman, jamiyatni, jumladan, har biringizni takomillashtirish zarurligi haqida xulosalar chiqarishdir»¹⁹³, deya ta'kidlaydi Filofey.

Ikkinchi, *uzoq o'tmish hosilasi sifatida tarixiy qiyofaga ega*

¹⁹¹ Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б.365.

¹⁹² Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. – Б.365.

¹⁹³ Айтматов Ч. Кассандра тамғаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б.223.

bo'lganligi. Bunda ham aynan mifning janriy xususiyatlarini inobatga olish kerak. Chunki miflar insoniyatning qadimgi davri, ibtidoiy tasavvurlari hosilasidir. Kishilar qaltis vaziyatlarda o'tmishlarini eslashadi, mavjud tajribalariga suyanishadi, saboq chiqarishadi. Davr, shaxs, omma, borliq haqidagi eng dolzarb masalalar haqida bahs yurituvchi intellektual romanlarda mifning qo'llanilishini, balki ana shu bilan ham izohlash mumkin. «Kassandra tamg'asi» asarida ham Filofey o'z xatti- harakatlari va iqrorlariga Kassandraning faoliyati, taqdiri bilan bog'liq holda baho beradi, o'sha voqealardan saboq chiqarishga harakat qiladi: «Biroq o'z qo'lim bilan hozirlagan ajalim oldidan meni vahima bosmoqda – odamlar nima bo'ladi, Kassandra tamg'asi hodisasini ertangi kun kishilarining aql-idroki, qalbi qanday qabul qiladi? Nima bo'lganda ham, la'natlangan haqiqat haqiqat bo'la olmaydi. Bugun inkor etilgan muammo ertaga yana paydo bo'ladi, bundan qutulish hecham mumkin emas»¹⁹⁴.

Ma'lumki, Yunon mifologiyasiga ko'ra Kassandra Apollonning muhabbatini rad etgach, la'natga duchor bo'ldi, uning bashoratlari ortiq hech kimni ishontirmay qo'ydi. Filofey bashoratlari-chi? Ular nega ommaning qahriga uchradi? Filofey o'z harakatlarini «la'natlangan haqiqat» deb baholaydi. Ammo uning omma tomonidan qabul qilinmagan bashoratlari, kashfiyotlariga nisbatan berilgan ushbu bahosi beixtiyor bashoratlarga xalq ishonmay qo'ygan, duoyibad qilingan Kassandra taqdirini eslatadi. Ushbu paradoks Filofeyning ilmiy izlanishlarining natijasi haqidagi xulosasini yanada qat'iylashtiradi: kashfiyotini amalga oshirishdan voz kechadi, ayni paytda o'zini ham halokatga mahkum etadi. Asarning g'oyaviy jihatini insoniy muammolarning ildizini tarix va zamon chegaralari to'sib qololmasligini anglatadi.

Uchinchi, *mustaqil idrok qilinishi*. Intellektual romanlarda miflar odatda o'zining g'oyaviy mohiyatini, ba'zan umumiy tuzilishi, ijtimoiy-badiiy, falsafiy funksiyasini o'zgartirgan holda kirib keladi. Yozuvchi mifga o'z badiiy maqsadiga ko'ra munosabatda bo'ladi. «Kassandra tamg'asi» asarida bashoratchi Kassandra voqeasining asar zahiriga olib kirilishidan ham ijodkor tomonidan bir qancha muhim poetik maqsadlar ko'zlangan.

Ma'lumki, mif tushunchasining paydo bo'lishiga asosiy sabab o'tmish ajdodlarimizning olam hodisotlari oldidagi ojizliklar, ular qonuniyatlarini izohlash uchun real sabab topa olmaganliklaridir. Masalan, yer silkinishi, quyoshning botishi, oyning chiqishi va hokazolar muttasil harakatini asl sababi bilan asoslay olmagan odamlar tomonidan miflar yaratilgan. «Masalan, o'ta qattiq yer silkinishi sodir bo'lsa yer o'rtasida magma deb atalmish cho'g' borligini, uning

¹⁹⁴ Айтматов Ч. Кассандра тамғаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б.233.

harakatga kelishi oqibatida yer qimirlashlari bo'lishini ilmiy asoslay olmagan bechora odamlar yerimizni ho'kiz ko'tarib turgan bo'lsa kerak, oqibatda yer qimirlaydi, deb faraz qilganlar"¹⁹⁵. Zamonaviy romanlarda mifga murojaat zahirida ham aynan ana shunday omillar ta'siri bo'lishi mumkin. Ya'ni ilmiy bilish taraqqiyoti, qobiliyati, imkoniyatlari hal qila olmagan yoki qila olmayotgan jumboqlar qarshisida mif yordamga keladi. Demakki, bu ikki janr biri og'zaki ijod, biri yozma adabiyot namunasi bo'lishiga qaramasdan yuzaga kelish sababi jihatidan bog'liqlik kasb etgan. Balki, ana shu xususiyati tufaylidirki, zamonaviy romanlar ijodkorlari mifga murojaat ehtiyojini his qilgan.

Mifni aynan dinning yuzaga kelishi bilan ham bog'lovchilar uchraydi. "Mifologiyaning ijtimoiy ong shakllari bilan bog'liq tomonlari juda ham murakkab xarakterga ega. Masalan, ba'zi tadqiqotchilar mifologiya va dinni aynan bir narsa sifatida izohlasalar, ba'zilar mifologiya o'z taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida diniy xarakter kasb etgan deb hisoblaydilar"¹⁹⁶ Bu to'g'rida rus yozuvchisi Lev Tolstoyning «Iqrornoma»sida ham e'tirof mavjud. Adib aynan din to'g'risida gapirar ekan, insoniyat yoki ilm-fan yechim topa olmagan ba'zi savollarga din orqali javob berish mumkinligi haqida aytib o'tgan.

Demakki, romannavislar badiiy asarda ko'tarilgan muammolar yuzasidan aniq, real, ilmiy yechim topa olmagan paytlarida mif ularga muayyan javob bera oladi.

Ma'lumki, ilmiy asar oldinga surilayotgan fikr, qarashlar va muammolar doirasida aniq yechim talab etadi. Zamonaviy intellektual romanlar ham aynan ana shu nuqtada ilmiy yo'lni tutishga da'vo qiladi, ya'ni voqea-hodisalar va ko'tarib chiqilayotgan ilmiy kashfiyotlar uchun xulosa, yechim taqdim etadi. Biroq badiiy asarda bu yechim real asosga ega bo'lolmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, intellektual romanlarda yozuvchi aksariyat hollarda fantastik tasvir yo'liga o'tadi yoki miflarga murojaat qiladi. Aks holda badiiyat namunasining ilmiy asardan farqi qolmagan bo'lar edi. "Kassandra tamg'asi" romanida ham muallif yuzaga kelayotgan muammolar uchun chora izlaydi, ammo uning uchun real hayotdan, aniq faktlarga asoslanib emas, balki samoviy rohibning ajabtovur kashfiyoti bilan amalga oshirish mumkinligi da'vosini qiladi. Balki adib ziddiyatlarning ko'lami shu qadar kengayib ketganki, zamindan turib bunga qarshi kurashishning imkoni kamayib borayotganligiga ishora qilmoqchi bo'lgandir.

Qolaversa, ijtimoiy romanlarda miflarga murojaat qilinishining yana bir sababi sifatida badiiy asarning har doimgi funksiyasidan kelib chiqqan holda izohlash mumkin. Mif badiiy voqelikni obrazli talqin etish, qahramonlar xatti-harakati, faoliyati, ruhiy olamini badiiy

¹⁹⁵ Мадаев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2001. – Б.20.

¹⁹⁶ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.199.

asoslash maqsadiga xizmat qiladi. Filofey ham bashoratlarning puchga chiqqanligi haqida o'ylar ekan, Kassandra taqdirini eslaydi va uning bilan o'z qismatiga bog'liqlik topgandek bo'ladi:

“...la'natlangan haqiqat haqiqat bo'la olmaydi”¹⁹⁷. Filofeyning o'z xatti-harakatlari haqidagi ushbu xulosasi ham mifik dunyoqarash belgisi bo'lishi mumkin. Masalan, suvga tupurma, oq narsa ko'rsa yaxshi, qora ko'rsa yomon deb voqea-hodisalarga baho berish ham mifik tasavvur natijasidir. Shuning bilan bir qatorda asar qahramoni futurolog Robert Borkning aynan kitlar halokatidan ta'sirlanishi, ular harakatlari tufayli muayyan ruhiy kechinmalarni boshdan kechirishi, ushbu halokatni qandaydir fojiaga ishora bo'lishi mumkinligiga yo'yishida ham aynan mifologik dunyoqarashning ildizlarini ko'rish mumkin. Shuningdek, romandagi qizil maydonda paydo bo'lgan boyqush haqidagi voqealar ham kutilayotgan muvaffaq fojialardan ogohlantirish bilan bog'liq bashoratlardan yonma-yon keltirishiga ko'ra aynan o'sha – xalqning mudhish fojialarning oldindan belgi berishi haqidagi ibtidoiy qarashlariga o'xshashdir.

Ammo badiiy adabiyotda obrazli talqin va ijodning qo'lga kiritilishi uchun juda ko'plab poetik vositalar mavjudligi, biroq nega aynan intellektual romanlar uchun miflar muhim poetik vosita bo'lib xizmat qilayotganligi haqidagi savol javob talab etdi.

Aynan mifning kelib chiqishini adabiyotshunoslar insoniyatning ilmiy bilishga bo'lgan ishtiyoqi, ehtiyoji, yuksak darajadagi intilishining paydo bo'lishiga turtki bo'luvchi fantaziyalari hosilasi sifatida izohlashadi. Ya'ni mifni yuqori darajadagi intellektual hodisa deb talqin qiluvchilar bo'lgan. Chunki odamzot bilimga intilishining ilk bosqichidan boshlab miflar kishilarni fikrlashga, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ajratish, solishtirish, umumlashtirish, qiyoslash, xulosalash, mantiqiy chamalash kabi fikriy faoliyatga undagan, natijada esa insoniyatning intellektual salohiyati oshib borgan. Miflar va intellektual romanlar, demakki, aynan ana shunday intellekt hosilasi ekanligi jihatidan yaqinlik kasb etadi.

Miflarning zamonaviy romanlar obyekti bo'lishga yana bir sabab sifatida shuni ham ta'kidlash mumkinki, “Har qanday mif asosida ham konkret narsalar yotadi, qanday bu narsalarning bajaradigan funksiyasi reallik kasb etmaydi. Masalan, uchar ot. Bu mifologik obrazda ikki real predmet mavjud. Bular ot va qanot. Har ikki narsa ham qadimgi inson uchun konkret narsa. Qanday bu ikki real narsaning birikib, biror funksiya bajarishi mifni yuzaga keltiradi”¹⁹⁸. Demak, aniq predmet yoki hodisalar haqida bahsga kirishishi jihatidan ham miflar hayot haqiqatiga boshqa folklor janrlaridan ko'ra yaqinroq, deyish mumkin. Aynan ana shu narsa badiiy adabiyotning, obrazli tafakkurning ham

¹⁹⁷ Айтматов Ч. Кассандра тамғаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б.233.

¹⁹⁸ Мелетинский Е.М. Миф и историческая поэтика фольклора. Поэтическая система. – М., 1977. – С.21.

qamrov doirasiga kiradi. Ma'lumki, ilm-fan aniqlikka tayanadi. Qanday ilm-fan yutuqlarining badiiy jihatdan hal qilinishi masalasi oldinga tushgan paytlarda zamonaviy intellektual romanlar maydonga keladi. Ikki alohida tushuncha o'rtasidagi bog'lanishning kashf etilishi, ilm-fanda dalillarga asoslanib izohlansa, zamonaviy intellektual romanlarda mif badiiy yechim vazifasini o'taydi. Hatto olamning yaratilish, bog'lanish qonuniyatlari kabi azaliy va javobsiz savollar ham zamonaviy intellektual romanlarda o'z badiiy yechimini topishi mumkin. "Ikki asrdan buyon romannavis daholar bizga taqdim etayotgan va bizni maftun qilayotgan son-sanoqsiz miflarni jiddiy sharhlamasdan, shunchaki, voqelikdan qochish deb baholashning o'zi bilan mohiyatni ochib bo'lmaydi. Romannavis ijodkorlar voqelikdan qochganligi yoki uni chetlab o'tganligi aniq va bor gap. Qanday bu chetlashishni shunchaki qochish deb bo'lmaydi"¹⁹⁹, deb yozadi Alber Kamyu roman janri haqida gapirar ekan. Shuningdek, mif ham yozuvchi xayolotining, fantaziyasining hosilasi sifatida realistik tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki "...xayolot ishtirokisiz quruq realizm ham tubanlikka aylanib qoladi. Hatto eng yaxshi fotosurat ham quruq voqelikdan qochadi; hatto u ham realizm va xayolot qorishib ketgan manzarani izlaydi va o'shani tushiradi. Voqeaparast san'atkor bilan shaklparast san'atkor voqelik bilan xayolotni qo'sha olgan manzarada mujassam bo'ladi. Voqelik va xayolot - bir butunlikning ajralmas qismlaridir"²⁰⁰.

Ayrim hayratlanarli hodisalar – miflarning haqiqatga yaqin kelish holatlarining mavjudligi ham sir emas. "Bu hollarning qanchalik haqiqatga hayot haqiqatiga mos kelishini hozirgi zamon ilmi ham izohlay olmaydi"²⁰¹. Chunki miflarda ilmiy bilishga intilish qanchalar taxmin, faraz, fantaziyaga asoslanilgan bo'lmasin, ularda insoniyatning ibtidoiy bo'lsa-da, ilmiy hal qilish, qaror qabul qilishga bo'lgan intilishlari yotadi, ularga insoniyatning haqiqat yo'liga chiqib olishda ilk bosqich sifatida qarash mumkin. Shu boisdan ham miflarni ilmiy qarashlarning ilk kurtaklari, ibtidosi, poydevori deb baholansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Aynan zamonaviy intellektual romanlarda ham badiiy adabiyot va ilm-fan qonuniyatlarini birlashtiruvchi janr sifatida miflarga tayanilishida ana shunday aniq asosli yaqinliklar mavjuddir.

Zamonaviy o'zbek romanlarining eng muhim kashfiyotlaridan biri bu – inson ruhiy-ma'naviy olamini yaratish bo'ldi. Romannavislar qahramonlarning maqsad-intilishi, ruhiyati, xarakteri, umuman, ma'naviy olamini aks ettirish borasida milliy adabiy-tarixiy va jahon adabiyoti tajribalaridan foydalandilar. Adiblar qahramon tasvirida

¹⁹⁹ Камю А. Исён ва санъат. // Жаҳон адабиёти. – 1997. – 1-сон. – Б.187.

²⁰⁰ Камю А. Исён ва санъат. // Жаҳон адабиёти. – 1997. – 1-сон. – Б.192.

²⁰¹ Мадаев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2001. – Б.23.

qo'llanilgan poetik usullar, tajribalar sirlarini o'rganish asosida mukammal obraz yaratish yo'lida izlandilar. X.Do'stmuhammadning "Bozor", U.Hamdanning "Muvozanat", "Sabo va Samandar", "Isyon va itoat", "Na'matak", A.Dilmurodning "Fano dashtidagi qush", N.Eshonqulning Tog' o'g'li yoxud hayot suvi", I.Sultonning "Boqiy darbadar", "Ozod" kabi asarlari qahramonlarining muvaffaqiyatida adabiy an'analarga izdoshlikning o'rni beqiyosdir. Istiqlol davri romanchiligida obrazning G'arb adabiy qahramonlariga yaqinlik, o'xshashlik kasb etishi yozuvchining estetik ideali bilan ham bog'liq. Globallashuv davri ijtimoiy o'zgarishlari, taraqqiyoti ko'pchilik o'zbek yozuvchilarining estetik idealiga o'zgarish, yangilanish olib kirdi.

Asar syujetini mifologik tafakkur asosiga qurish o'zbek romanchiligida keng tarqalib va takomillashib borayotgan usullardandir. Mifologiya unsurlarining folklordagi talqinlari va milliy, madaniy, maishiy, tarixiy, siyosiy voqealar asosidagi ijtimoiy realizmni identifikatsiyalash asosida organik sintez holati yuzaga keldi. Milliy romanchilikda namoyon bo'lgan ushbu tarzda yondashuvda G'arb modernizmi bosib o'tgan ifoda yo'sinlaridan borilayotganligini sezish qiyin emas. G'arb romanchiligida mifopoetik tafakkur izlari muammosini atroflicha tadqiq etgan olim Y.M.Meletinskiy qarashlari fikrimizni asoslay oladi: "Ushbu o'ziga xos madaniy-tarixiy holat takrorlanib turuvchi arxetiplarning modernistik izlanishlari va milliy o'ziga xoslikning romantik mohiyati bilan o'zgarib turadigan organik sintez, tarixiylik va mifologizm elementlari, ijtimoiy realizm va haqiqiy folklorning o'zaro bog'liqligi va interpretatsiyasini ta'minlaydi. Ushbu o'ziga xos hodisani ifodalash uchun G'arb tanqidchiligi "magik realizm" atamasini keng qo'llaydi (muayyan davrda ushbu atama G'arbiy Yevropa modernistlariga, masalan, Kafka uchun to'g'ri qo'llangan)"²⁰². Mifologik qatlam va yozma adabiyot munosabatlari masalasi milliy adabiyotshunosligimizda ham bir qancha tadqiqotlar doirasida o'rganildi²⁰³.

Zamonaviy o'zbek romanchiligida mifopoetik tafakkur bilan aloqador tasvirlar quyidagi manbalar asosida shakllandi: a) marosim, odatlar hamda mifologik tafakkur va yondashuv; b) folklordagi mifologik motivlar; v) folklordan oziqlangan milliy yozma adabiyotda aks etgan mifologizmlar; g) diniy dunyoqarash; y) yunon mifologiyasi.

Istiqlol davri o'zbek romanlarida namoyon bo'lgan mifopoetik xususiyatlarni diniy dunyoqarashga asoslangan mifologizmlardan foydalanilishi (U.Hamdanning "Isyon va itoat", X.Do'stmuhammadning

²⁰² Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976. – С. 365.

²⁰³ Гайдаров Т. "Гўрўғли" ва мифология синкретизми: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1993; Эшонкулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996; Ишмурадов М. "Авесто"да мифологик қатлам: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002; Эшонкул Ж. Воқелик ва ҳаёлот уйқунлиги // Ўзбекистан адабиёти ва санъати, 2002. – № 29; Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Ўзбекистан Миллий кутубхонаси, 2006. – Б. 184.

“Bozor” romanlari); animistik va fetishistik dunyoqarashga asoslangan mifopoetik tafakkur izlarining namoyon bo‘lishi (I.Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlari); asar syujetining yunon mifologiyasida aks etgan mifopoetik tafakkurga asoslanganligi (X.Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” romani); neomifologik tafakkur izlarining namoyon bo‘lishi (Sh.Bo‘tayevning “Shox” romani); totemistik dunyoqarashga asoslangan mifopoetik tafakkur izlarining namoyon bo‘lishi o‘rganildi.

Mustaqillik davri romanchiligida yuzaga kelgan X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, M.Alining “Ulug‘ saltanat”, A.Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”, I.Sultonning “Boqiy darbadar” romanlarida xalq e‘tiqodiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Milliy mentalitetga xos xususiyatlar, xalqning ishonch-e‘tiqodi bilan bog‘liq mifologik qarashlar realistik uslubda yaratilgan asarlarda qahramonlar xarakteri, ruhiyatini badiiy dalillash, voqealar rivojini ta‘minlash, g‘oyaviy asosni mustahkamlash maqsadiga xizmat qilgan bo‘lsa, modernistik xarakterdagi romanlarda noan‘anaviy shakliy-uslubiy izlanishlarga yo‘l ochdi. Ma‘lumki, turkiy xalqlar mafkurasida bo‘ri totemi alohida o‘rin tutadi. O‘zbek xalq afsona va ertaklarida ushbu obraz muqarrar halokatlardan ogohlantiruvchi, ezgulik va g‘alaba keltiruvchi xaloskor kuch sifatida gavdalanadi. Zamonaviy o‘zbek romanlarida ham turkiy xalqlarning bo‘ri totemiga oid mifologik qarashlari uyg‘unlashtirilgan holatlar uchraydi. P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” hamda M.Alining “Ulug‘ saltanat” romanlariga bo‘ri bilan bog‘liq afsona va rivoyat qistirma epizod tariqasida kiritilgan.

“Fano dashtidagi qush”da Ena Ko‘kbo‘ri asar syujetida muhim o‘rin tutib, kitobxon ko‘z o‘ngida bosh qahramon hayollari orqali gavdalanadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida bo‘ri totemi avlodlar davomiyligining saqlab qolinishida sababchi; mehribon, oqko‘ngil, saxovatli; ezgulik tarafdori; buyuk ishlarga da‘vatkor va homiy kuch sifatida tasvirlanadi. Ushbu romanlarda ham xalq mifologiyasining ana shu jihatlari ustuvorlik qiladi.

Aslini olganda, ertak va dostonlarda ham qora, qizil, oq ranglar ramziy mohiyat tashib, qahramonlarning hayot yo‘lidagi muayyan o‘zgarishlarga ishora qiluvchi vositaga aylantiriladi. “Ffu” romanida yozuvchi kun va tunning ramziy belgisidan tashqari raqamlar zimmasiga ham muayyan poetik mazmun yuklaydi: “Mulla Toshpo‘lat yetti eshikka bordi”²⁰⁴. Bu kabi tasvirlar raqamlar magiyasiga ishonchning zamonaviy adabiyotda badiiy ifoda etilishiga misoldir. Xalq ertaklarida ham uch, yetti, to‘qqiz kabi raqamlarning sirli-sehrli kuchiga ishonch qahramonlar taqdiriga muayyan ta‘sir ko‘rsatishi badiiy asoslangan.

²⁰⁴ Мухтор О. Ффу. / Аёллар мамлакати ва салтанати. – Тошкент: Шарқ НМАК, 1997. – Б. 19-39.

Roman syujetiga asos bo'lgan voqealarda xalq ishonch-e'tiqodi, asar badiiy to'qimasida folklor unsurlari, motivlaridan foydalanish, qahramonlar tabiatiga xos xarakterli xususiyatlarni yozma adabiyotga ko'chirish orqali badiiy epik ifoda imkoniyatlarining yanada kengayganini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy o'zbek romanchiligi badiiy tafakkur taraqqiyotida adabiy ta'sirning o'rni beqiyosdir. Jahon adabiyoti, san'ati va estetikasi yutuqlaridan ijodiy o'rganish natijasida o'zbek adabiyotida xilma-xil uslub va shakldagi yangicha izlanishlar yuzaga keldi. O.Muxtor, X.Do'stmuhammad, A.Dilmurod, U.Hamdam, N.Eshonqul kabi o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalari ijodiy kamolotga erishishda F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys kabi jahonga mashhur ko'plab adiblar yutuqlaridan ijodiy bahramand bo'ldilar.

Istiqlol davri o'zbek romanchiligida namoyon bo'layotgan muvaffaqiyatlar, poetik yangilanishlarda adabiy ta'sirning o'rni beqiyos ekanligini adiblar ijodida jahon nasriga xos bir qancha xususiyatlarning zohir bo'layotganligida ham kuzatish mumkin.

Jumladan, U.Hamdamning "Isyon va itoat" romani o'zligini tanib, idrok etib borayotgan shaxs qismati, uning iqrorlari haqida. Yozuvchi Odam Ato va Momo Havo haqidagi diniy mifologiya bilan bugungi kun kishisining taqdirini parallel tarzda keltirish usuli orqali shaxs qismatini ifodalagan. Oliy maqsadlar, yuksak ideallar qarshisida turgan inson kechmishi, u anglab yetgan va ishonch hosil qilgan yechim, xulosalar to'g'risida bayon etadi. "Isyon va itoat" romani Akbar ismli qahramonning o'z ichki "Isyon" yo'lini bosib o'tishdagi boshdan kechirgan voqealari va o'zini qiynab kelgan savol "hayotning ma'nisi nima ekanligini izlash"i xususida boradi.

Asarda Yaratgan tomonidan odamning yaratilishi va odamzodni esa shayton yo'ldan ozdirgan holda muqaddas mevani yeydi va Adan bog'idan quviladi. Shunda Yaratgan insonning yana bir "Yaratganga qilgan isyon"ni ko'rsatib beradi va bunga javoban "Ko'nglingdagi ishtibohdan, tomiringda qo'shilib oqayotgan isyondan tamomila xalos bo'lib, yana huzurimga tavba qilib qaytib kelmaguningcha, chinakam saodat nima ekanligini bilmagaysan!.." ²⁰⁵ deya aytgan holda odamzodni yer kurrasiga badarg'a qiladi. Ana shu kundan boshlab inson umr yo'li davomida shu isyondan to itoatga qadar yo'lni bosib o'tadi. Asar qahramoni Akbar obrazi ham qalbidagi isyonni bostirib Itoat yo'liga kirgan obrazdir. Xo'sh, unga bu yo'lga kirishida nima yordam berdi?

Birinchi navbatda yozuvchi tomonidan ushbu asar qahramonlari qalbida isyon bor va bu isyonni Itoat yo'liga yetishish uchun odamzodga UMR yo'li berilganini ko'rsatib berilgan. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy, nega Akbar o'zga mamlakatlarga pul izlab ketib qoldi, nega o'z

²⁰⁵ Улуғбек Ҳамдам. Исён ва итоат. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2003. – Б.102.

oilasi bag'rida yashamadi, shaharga yo'l oldi, keyin esa yana qishloqqa qaytib keldi? Aynan sizga aytmoqchi bo'lganimiz ikkinchi xususiyat esa bu SAFARdir. Hayotimiz esa biz tug'ilganimizdan boshlab to so'ngiga qadar biz ana shu safarni bosib o'tamiz. Asar so'ngida esa Akbar qalbidagi Isyonni chuqur anglab yetadi va Itoat yo'liga kiradi. Uning ustozi bo'lgan tabib kam ushbu yo'lni bosib o'tgan va shogirdi Akbarga maslahatlar berib o'tadi. "Tug'ilmoqlikning, dunyoda yashamoqning ma'nisi shu go'zallikni his qilish va unga e'tibor ko'rsatishda kam emasmikan...".²⁰⁶

Ba'zan esa inson bu yo'l davomida hayotning ma'nisi javobini, hayotning go'zalligi yoki ishqni his qilish, deb o'ylaydi. Albatta, Yaratgan tomonidan odamzodga ishq bejiz berilmagan. Aynan shu orqali inson itoat yo'liga kirishida ishq va muhabbat pillapoya vazifasini o'taydi. Demak, inson yashashi kerak ekan, sevishtirish va ishonish ham kerak.

O'zbek romanchiligida namoyon bo'layotgan poetik yangilanishlar adabiy ta'sirning o'ziga xos va hayotbaxsh qirralari yozuvchi N.Eshonqul ijodida kuzatiladi. Uning "Go'ro'gli yoxud hayot suvi" romanida syujet qurilishi, xronotopi, kompozitsiyasi, obrazlar olami bilan bir qatorda yozuvchining g'oyaviy-badiiy ifoda tarzida Frans Kafka ijodiy kashfiyotlariga yaqinlik seziladi. Ushbu yaqinlikning ayrim qirralari to'g'risida adabiyotshunoslikda muayyan qarashlar mavjud²⁰⁷. Frans Kafka va Nazar Eshonqulni makon, zamon, dunyoqarashdagi farqlar chegaralab turadi, albatta. Ammo ijtimoiy tahdidlar oqibatidagi inson fojeasiga munosabatning mushtarakligi adiblar ijodini qiyosiy tipologik nazardan o'tkazishga imkon beradi. Bu ikki asar qahramonlarini chorasizlik, adolatni qaror toptirishning ilojsizligi va ana shu jarayondagi kechmishlari yaqinlashtiradi.

N.Eshonqulning "Go'ro'gli yoxud hayot suvi" romanida qahramon hayotida uchragan qoralik muqarrar halokat va taqdirida kutilayotgan fojeani ramziy ifodalashga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Roman syujetini tashkil etuvchi voqealar boshlanmasdan oldin: "Aytsam yetgaymikin, enajon, zorim, Yurakda g'amim ko'r, ichda zanglarim!..." – degan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi Go'ro'gli monologidan hamda "...hayot suvin izlab o'tdi Gilgamish" degan epigraflar keltiriladi. Bu satrlar mazmunida yozuvchining g'oyaviy-emotsional munosabati aks etgan.

Asarda Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan xalq og'zaki ijodi yodgorligi, qahramonlik eposi "Go'ro'gli" dostoni haqida gap bo'lmasa ham, dostondagi mohiyat ma'lum ma'noda aks etgan. Go'ro'gli go'rda tug'iladi, ijtimoiy-ma'naviy tanazzulni ilk bor yosh Go'ro'gli ruhan his qiladi. U bir-birini qullab-quvvatlamagan odamlardan

²⁰⁶ Улуғбек Ҳамдам. Исён ва итоат. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б.82.

²⁰⁷ Солижонов Й. Йил хирмони, ҳосил сифати // Шарқ юлдузи. – 2013. – 3-сон. – Б.124; Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.71.

arazlab, Bolli ko'liga chiqib ketarkan, el odillarining podsho Rayhon(arab)ga qarshi birlashishini juda xohlaydi, ammo bunday bo'lmaydi. Mamlakatni ichki va tashqi dushmandan xalos etish uchun kurash yolg'iz Go'ro'g'lining zimmasiga tushadi. Go'ro'g'li turli o'lkalarga safar qilib, ulug' qahramonliklar ko'rsatadi.

“Go'ro'g'li yoxud hayot suvi” romani syujetida mavjud an'anaga ergashish kuzatiladi. Asar bosh qahramoni N. imoni butligi, haqiqat va adolatga intilishi, omonsiz kurashga otlanishida xalq poetik dahosidan oziqlangan. N. o'zining tirikligini, mavjudligini, o'zining “men”i borligini isbot qilib berolmagan lahadga o'xshash jamiyatda yashaydi. Inson ma'naviy kamolotiga izn bermagan jamiyat tanqid qilinadi. N. g'ayriinsoniy voqelik oldida ojiz qoladi. Boshqacharoq aytganda, etnos an'anaviy dostonlardagi kabi o'z xaloskorini ulg'aytirmaydi. Og'ir va mash'um sharoit uni o'z girdobiga tortib ketadi.

Romanda o'lik dunyodan tirik olamning yaralishi, ya'ni arxaik mifologiya talqinicha kaos (yo'qlik) bag'ridan kosmos(borliq)ning vujudga kelishi haqidagi mifologik asos jamiyat hodisalari voqeligiga ko'chirilar ekan, o'z mohiyatini tubdan o'zgartiradi. Ya'ni demifologizatsiya vositasida qadimiy mif mohiyatida kuzatilgan birlamchi kosmosning paydo bo'lishini izohlashdan iborat semantik funksiya o'rnini tabiat va jamiyat qonunlariga xos uyg'unlikning yo'qolishi oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan holatdan insoniyatni ogoh qilish maqsadi egallaydi.

Go'ro'g'li yoxud hayot suvi” asarida arxetipik simvollar va tizimning illatlari, uning ijtimoiy hayotga ko'rsatadigan nojo'ya ta'sirlari o'zaro aloqador tarzda ishlatiladi. Siyosiy tuzumning ijtimoiy hayotga nisbatan o'tkazgan har qanday ta'siri insonning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va inson o'zining haqiqiy qiyofasidan yiroqlashadi.

“Go'ro'g'li yoxud hayot suvi” asari N. ismli ishchining lavozimi ko'tarilgani va boshliq uni ko'rish uchun chaqirtirgani to'g'risidagi voqea bilan boshlanadi. Barcha ishchilar unga havas bilan boqib, boshliq bilan uchrashuvda nimalar deyish lozimligi va nimalar haqida so'zlamaslikni hasad aralash havas bilan uqtirishadi. Ammo boshliq N. emas, balki K. ismli ishchini chaqirtirgan bo'lib chiqadi va barcha ishchilar bir maromda “K. bo'ladimi yoki N. mi yoki U. bo'lsa ham hech qanday farqi yo'q, biz ishchilarmiz, barchamiz ish haqida fikrlaymiz”, deyishadi. Asarning ana shu nuqtasida o'zining haqiqiy mohiyatidan uzoqlashgan insonlarni ko'rish mumkin. Voqealar rivoji davomida esa insonlarning individualligini yo'qotib, muayyan g'oya – ideologiya qurboni bo'lgan butun boshli ommaga birlashgani ma'lum bo'ladi. N.ning hujjatlari poyezd tagida qolib, vafot etgan shaxs yonidan topiladi va barcha uni o'lganga chiqaradi. N.ning o'zi kelib, anglashilmovchilik bo'lganini tushuntirishiga qaramay, hech kim unga quloq solishni istamaydi. Ularning barchasi N.aslida tirik ekanligini ko'rib-bilib turgan bo'lsa-da, yuqoridan jasadni dafn etish uchun chiqarilgan buyruqqa

hech qanaqasiga qarshi borish mumkin emas, deb hisoblashadi. Endi N.ni hech kim tirik inson sifatida qabul qilmay qo'ygandi, chunki hujjatiga ko'ra, u allaqachon vafot etgan. Shuningdek, N. "vafot etgan" kunning ertasigayoq uning o'rniga ishchi olinganligi ma'lum bo'ladi. Asarni arxetipik tahlil qiladigan bo'lsak, asarda "persona (shaxs)" arxetipiga urg'u berilganiga guvoh bo'lamiz. "Persona (shaxs)" – insonning jamiyat qonunlariga bo'ysunish, jamiyatlardagi talablarga mos ko'rinishda bo'lish uchun kiyib olgan "niqob"i, ikkinchi shaxsidir. Inson hayotida soxta shaxsiyatning o'rne qancha yiriklashib boraversa, kishi o'zligidan uzoqlashib boraveradi. Butun boshli jamiyat hayotida "persona" arxetipining ustunlik qilishi bevosita siyosiy ta'sir tufayli sodir bo'ladi va bunday holatda xuddi shu asardagi kabi "robotlashgan", o'zligini yo'qotgan olomon shakllanadi. Asar qahramoni N. esa o'zining insoniyligini yo'qotmay, tuzum vayron etgan ayrim insonlar oqimiga qarshi kurashmoqchi bo'lib, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Chunki N.ning atrofidagi kishilar o'zlarini inson sifatida emas, balki faqatgina ma'lum bir kasb egasi sifatida ko'rishar, N. bilan individuallik masalalarida hamfikir bo'la olishmas edi.

Asardagi voqelikning mifik ifodasi, roman uslubi, qo'llanilgan timsollar, falsafiy mohiyati, g'oyaviy mazmuni yozuvchi mushohada tarzida eposlarga xos ruhiy yaqinlik borligini tasdiqlaydi. Yozuvchi odam va jamiyatni anglashga intilar ekan, inson sharaflanmagan, uning sha'ni e'tibor topmagan ijtimoiy muhitni inkor etadi. Haqiqat va adolat izlab sarson bo'lgan N. sarguzashtlari, hayot sinovlarini yengishga urinish yo'lida chekkan iztiroblari misolida vorislik tamoyili unutilgan, takomillashuvdan begona jamiyat qonunlari ustidan istehzoli kuladi. Jamiyat erkidan, ixtiyoridan butkul mahrum qilgan kishilarda muayyan qiyofa bo'lmagach, shartli ismlar o'sha qiyofasizlikni bo'rttirib ko'rsatish imkonini beradi. N. o'zi tushib qolgan mujmal holatdan qutulish ilojini topolmaydi. Mahkamada har qanday hodimga K., N., T. yoki U. qabilida murojaat qilinishi qandaydir chalkashlik emas, balki inson shaxsi va uning taqdiriga befarqlik, e'tiborsizlik natijasidir. Rahbarlarning bunday munosabati tufayli yuzaga kelgan tasodifiy chalkashish va adashish N. hayotini butunlay o'zgartirib yuboradi. U isyon qiladi: "– Balkim sizga buning farqi yo'qdir. Lekin menga farqi bor. Ism – bu odamga o'zini ifoda etish uchun berilgan. Mening ismim – bu mening o'zim, ya'ni bu men. Shunday ekan, men hech qachon K. U. yoki siz aytganday, T. deb chaqirishlarini istamayman. Men N.man. N. bo'lib qolishni istayman. Menga ham N. deb murojaat qilishlarini, men ayni shu N. ismi orqali meni tanishlarini talab qilaman. Rahbar meni aynan K. deb emas, aynan N. deb chaqirishlarini istayman"²⁰⁸.

N. butun roman davomida o'zining bor-yo'g'i tirik ekanligini

²⁰⁸ Назар Эшонкул. Гўрўғли ёхуд ҳаёт суви. – Тошкент: Фафур Гулом НМИУ, 2018. – Б.12.

isbotlab berolmaydi, jamiyat qonun va tartiblari bunga yo'l bermaydi. Oxir-oqibat unga marhumlar kabi yashashdan boshqa imkoniyat qolmaydi. U lahadga qaytishga majbur bo'ladi.

Asarda N.ni kalta bo'yli, dumli odamchalarning kuzatishi tasviri mavjud. Kuzatuvchining "kalta bo'yli" tarzda tasvirlanishida ham o'ziga xoslik mavjud. Hayotda birovlarining ishiga tumshug'ini tiqib yuradigan, kimningdir hayotiga oid narsalar haqida boshqalarga ma'lumot yetkazib yuradigan yoki qandaydir manfaatlar vajidan gar tashuvchi qiligi past odamlarni muallif ayni shakl bilan uyg'un tasvirlagandek. Asarda jamiyatdagi ayrim chirkin illatlar ham badiiy-ramziy yoki g'ayritabiiy shaklda o'z ifodasini topgan. Turli idora yoki korxonalaridagi ertalabdan kechgacha besamar qog'ozlarga ko'milib ishda o'tiruvchi, natijada, oilasi, farzandiga deyarli vaqt ajratolmaydigan ayrim xodimlar-u mutaxassislar hamda rahbarlar faoliyati tanqid qilinadi.

Asarda hayot ummonidagi chigalliklar oldida boshi qotgan qahramon ruhiyati chuqur tahlil qilingan. U davr va jamiyatning chirkin illatlari oldida ojiz. Bu jamiyat bo'shliqdan boshqa narsa emas: "U o'zining doira ichidagi dahlizga - zulmat qoplagan bo'shliqqa chiqib qolganini tushundi – shunda hayot naqadar ayanchli, degan fikr keldi hayoliga"²⁰⁹.

Muallif bu dunyoda turfa taqdirlar yaratilishi, har xil odamlar bilan duch kelish mumkinligi, shu bilan barobar, hayotda yuzingga kulib qarab, ammo zohiran boshqa kiyofadagi odamlar mavjudligini ko'rsata olgan. Bunday odamlar tabiatida yolg'on va hasad, mujmallik va qabihlik asosiy xarakterga aylangan. Muallif ta'kidlanganidek, "yolg'on bu dunyoga ko'ngil quvonchi, shavqi, zavqi qilib jo'natilgan. Yolg'on odamdan, odamzotdan ko'ra kuchliroq saltanat, odamzotni kirib tashlash, yo'q qilish mumkin, lekin yolg'onni yo'q qilolmaydi, chunki u qalb uyini, qalb harami, qalb qarorgohi."²¹⁰

Nazar Eshonqul roman badiiy voqeligi markaziga N.ning beshafqat dunyo ziddiyatlaridan o'rtangan qalbini olib chiqadi. Roman badiiy realligida yaqin o'tmish hayoti va qadr topmagan inson umrini absurd sifatida talqin qilishga intilgan. Muallif o'z asarida siyosiy jarayonning ijtimoiy jarayonga nisbatan ta'sirini insonlarning ruhiy yo'qotishlarisiz kechmasligini ifoda etib, alohida shaxsdan "persona"ga aylanib qolgan olomonni tanqid qiladi va o'zlikdan kechish halokatli yo'l ekanligiga ishora qiladi.

"An'anaga yangicha munosabatning mohiyati nimada ekanini tuzukroq tushuntirib bermoq uchun uning originalligini ochib bermoq lozim. O'tgan asrdagi Ovrupa yozuvchilari muntazam ravishda yunon mifologiyasidan foydalanishgan. Ular odatda yunon mifologiyasi qahramonlarini olishgan-da, ularni yozuvchiga yaxshi tanish bo'lgan

²⁰⁹ Назар Эшонкул. Гўрўғли ёхуд ҳаёт суви. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2018. – Б. 87.

²¹⁰ Назар Эшонкул. Гўрўғли ёхуд ҳаёт суви. – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2018. – Б.16.

sharoitga solib qo'yib, shu sharoitda o'zlarini o'z uylaridagidek bemalol his qilishga majbur qilishgan. Lekin bunday hollarda miflardan faqat nomlarga qolgan, xolos. Xalq poeziyasini o'zimizga yaqinlashtirmog'imiz kerak, lekin buni xalq poeziyasidagi manzaralarni o'zlashtirib olmoq uchun emas, balki uning teranliklaridan bahramand bo'lmoq uchun qilmog'imiz joiz"²¹¹. Bu jarayon yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad asarlarida muayyan darajada o'zi ifodasini topganligining guvohi bo'lamiz.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" romani ham olim va tadqiqotchilarimiz tomonidan o'rganilib, tadqiqotlar olib borildi²¹².

Alber Kamyuning "Sizif haqidagi asotir" asari yozilgan, qadimgi yunon mifologiyasi qahramoni Sizifga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi va uni o'rganishga bo'lgan harakatlar tobora kengaydi. "Absurdizm" falsafa oqimi asoschilaridan bo'lmish Kamyu insoniyatning umrini, yashash tarzini va harakatlari oqibatini ko'rsatish maqsadida Sizif obrazidan ramz sifatida foydalandi. Kamyuga ko'ra, xudolar tomonidan jazoga tortilgan Sizif va inson hayoti bir-biri bilan o'xshashlik kasb etadi. Uning fikricha, xudolarga bo'ysunmagani uchun cheksiz vaqt mobaynida xarsangtoshni tepalikka qayta va qayta olib chiqish buyurilgan Sizif hayoti insonlarning bir umr davomida turli maqsadlarga erishishga intilish jarayoni bilan bir xil. Sizif xarsangtoshni tepalikka olib chiqqach, xarsangtosh yana qulaydi va Sizif o'z ishini qayta va qayta bajarishga majbur bo'ladi. Insonlar ham xuddi shunday, o'z maqsadlariga erishish yo'lida bir umr harakat qilishadi va ammo nihoyada ularning maqsadi puchga chiqadi, chunki har qanday harakat oxir-oqibat yo'qlikka evriladi.

Tabiiyki, Sizif nima sababdan jazolangani haqidagi savolga qadim yunon afsonalari javob beradi. Bu haqda N.A.Kunning "Qadimgi Yunon afsona va rivoyatlari" kitobida keltiriladi.²¹³ Qadimiy yunon mifologik qahramoni Sizif obrazini antik yunon yozuvchilari Homerning "Iliada" hamda Ovidiyning "Qahramon ayollar" dostonlari asosida bayon etilgan²¹⁴ Sizif haqidagi afsonalar ko'p variantlidir. Ammo bu afsonalarning badiiy haqiqati yagona. Xullas, Sizif toshni dumalatib, cho'qqiga olib chiqish jazosiga duchor bo'lgan mahkum obrazidir.

Sizif haqidagi yunon afsonalarida uning hiylakorlik, yolg'onchilik, makkorlik, kazzoblik, qaysarlik, isyonkorlik kabi o'nlab salbiy sifatlari,

²¹¹ Сулстад Д. Норвег насри – Оврупа модернизми / Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б.378.

²¹² Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018; М.Қўчқорова Ўзбек адабиётида бадий шартлилик: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2020; Тўраев Д. Сизиф ривояти ўзбек адиби талқинида // Жаҳон адабиёти. – 2018. – №6. – Б. 92-95; Афоқова Н. Мен Сизиф тошига эгаман бошим // Тафаккур. – 2019. – № 3. – Б. 60-61; Эшниязова О. Сизиф ҳақида янги асар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2018. – №3. – Б. 93-98.

²¹³ Кун Н.А. Қадимги Юнонистон афсона ва ривоятлари. – Тошкент. – 2014. – №11. – Б.120-121.

²¹⁴ Кун Н.А. Қадимги Юнонистон афсона ва ривоятлари. – Тошкент. – 2014. – №11. – Б.121-122.

qiyofalari ko'rsatiladi. Ammo Xurshid Do'stmuhammad qahramon Sizifni hayoti besamar sovrilayotgan qahramon sifatida emas, balki donishmand sifatida tasvirlashni ma'qul ko'radi. Chunki uning xarakterida Korinf shahrini bunyod etish, mamlakat xazinasini boyitish, odamlarni vabodan qutqarish, ularga shodlik ulashish, isrofgarchiliklarga barham berish, har qanday mushkulotni aql-tafakkur kuchi hamda yaqin mahramlari maslahati bilan oqilona hal etish, mehnat-u mashaqqatdan cho'chimaslik kabi qat'iyat va kuchli iroda mujassam. Bu xislatlarning barchasi Sizifni donishmand deyishga asos beradi. Romanning nomlanishi ham obrazning yuqori tarzda poetik idrok etilishi bilan izohlanadi. "Donishmand Sizif" asarida ham Sizifning taqdiri mifda tasvirlangan taqdir bilan aynan bir xil, ammo ushbu holatga bo'lgan qarash ikki xil. Asarda Sizif beburd, ma'nisiz deb hisoblangan ishidan mazmun va ma'no topa oladi. Sizif qilayotgan ishini ma'noga ega, deb hisoblashi oxir-oqibatda yo'qlikka sovrilish haqidagi o'y-hayollarni yengishga yordam beradi. Natijada ma'no ma'nosizlikni yengadi. Shunday ekan, ushbu arxetipik simvol nafaqat hayotdagi besamarlikni yengadi, balki undagi ma'no-mazmunni, uning qadr-qimmatini anglatishga ham xizmat qiladi. Ushbu simvol kishini bir muddat uyga toldirib, butun boshli hayoti va undagi kerakli va keraksiz jihatlar, qiymatli va qiymatsiz xatti-harakatlar haqida fikr yuritishga turtki beradi. Uz hayotini o'zi istagan tarzda ko'rmoqchi bo'lgan, o'zining asl maqsadlari va ichki mohiyatidan boxabar bo'lishni istagan kishilar ushbu arxetipik simvolning mazmunini anglab yetishlariga to'g'ri keladi.

Belgilangan jazo qarshisida Xurshid Do'stmuhammadning Sizifi yuksaklikni zabt etish va zafar quchish hayolida chopadi, lo'killab yuguradi. Ilhomi jo'shib, qadamlari jadallashadi, hirgoyi qiladi, "Laka-laka lak, lakalum!... Lakalum lak-lakalum! Laka-laka lak, laka-laka lak, lak- laklakalu-u-u-m-m!"²¹⁵ Ammo keyinchalik chalqancha yotgan holda qo'shig'ini g'oyat horg'in ohangda hirgoyi qiladi, chunki pastga dumalayotgan tosh uning chap oyog'ini, kaftini ezib tashlagan edi. Sizif chidab bo'lmas og'riqni yengish, bema'ni hayollarni haydash uchun hirgoyi qiladi. Qo'shiq shivirlab aytilsa ham, uning ohangi ilohiy ko'makka muhtoj bandaga ma'naviy madad beradi. Unda mag'lub bo'lishni istamagan, taqdirga rizo kishining iltijolari, umidlari mujassam edi. Tuyg'ularini ovoz chiqarib aytayotgan qahramon o'zining nochor va zabun ahvolini xarsangtoshga bayon etadi. U haq so'z toshni yorishiga, latif so'z xarsang diydasi yumshatishiga ishonadi. Toshdan rahm-shafqat izlash motivi milliy poetik tafakkurimiz uchun yangi hodisa emas.

Xurshid Do'stmuhammad yuqorida bayon etilgan afsona motivini

²¹⁵ Дўстмуҳаммад Хуршид. Донишманд Сизиф. – Тошкент: Ўзбекистан НМИУ, 2016. – Б.271.

o'zbek xalq ertagi "Yoriltosh" motivi bilan sintez qilishga urinadi. Adabiyotshunos olim I.Yoqubov "Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi" nomli tadqiqotida ta'kidlashicha, "roman leytmotivi "Yoriltosh" o'zbek ertagi konseptual mazmuni bilan qiyoslagan"²¹⁶.

Ushbu romanda kuzatilgan "Yoriltosh" ertagi qahramonlari yetim va himoyasiz opa-singil Gulnora hamda Oymoma o'gay ona qiyofasidagi bemehrlik, adolatsizlik va zulm qarshisida chorasiz qoladi. G'amxonadan qochgan Gulnoraning atrofga jovdirab qarayotgan nigohi, toshlarga bag'rini berib, yalinib-yolvorgan, bag'ri ezilib iltijo qilgan tang holatiga tog'-tosh ham befarq qaray olmaydi:

Yorilgin tosh,
Yoril tosh-a,
Men senga yo'ldosh,
Yo'ldosh-a...

Ertakda: "Qorong'ilik quyuqlashib, havo guldirabdi, birdan chaqmoq chaqib, tog'dan o't ko'tarilibdi. Xarsangtosh sharaqlab yorilibdi", – deyiladi. Kizning nolakor fig'oni, himoya ilinjidagi ko'ngil talpinishlari Olloh dargohida ijobat bo'ladi, xarsangtosh o'z bag'rini ochadi. Niyat-u amallari nosamimiy zotlar tosh ichiga kirishga yo'l topishmaydi. Negaki, bu tosh oddiy tosh emas, balki bag'riga ezgulikni yashirgan, nokaslarga nafrati beqiyos jonli va mehribon yaratiq edi. Shunday ekan, u odamiylikdan, mehrdan yiroq zotlarga bag'ridan joy bermaydi. Singilchasi Oymomonning toshga qarab:

Yorilgin tosh, yorilgin-a,
Men oramni ko'rayin-a,
Diydoriga to'yayin-a,
Murodinga yetayin-a²¹⁷

deb sog'inch bilan kuylaganida yana o'sha mo'jiza yuz beradi...

Adabiy arxetipdan har bir yozuvchi muayyan maqsad va ijodiy niyatda foydalanadi. Adabiy arxetiplardan foydalanish shakli ham turlichadir. Masalan, ba'zi bir asarlarda arxetip mohiyatini tushunish, anglash uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va ko'nikma talab etilsa, ba'zi asarlarda bevosita "ilk obraz"ga ishora beradilar. Bu o'rinda tosh bilan dillashish, ahvolini xarsangtoshga bayon etishi ma'lum ma'noda ertak bilan bog'liq ekanligiga ishora qiladi.

Shuningdek, asarda "tog" arxetipik simvoli asosiy vazifalardan birini bajaradi. "Tog" arxetipi vaziyatga qarab sig'inish uchun yuqori nuqta, falak va yerning uchrashuv nuqtasi, erkaklik ramzi, umrboqiylik, ruhiy kamolot bosqichiga ko'tarilish, kuch bilan bog'liq tushunchalar ma'nolarini ifodalaydi²¹⁸. Bu esa asar mohiyatini

²¹⁶ Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

²¹⁷ Ёрилтош. Ўзбек халқ эртаги. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – Б.27.

²¹⁸ Юнг К. Г. Душа и миф. Шесть архетипов. Пер. с англ. – Киев: Порт-Рояль- Совершенство, 1997.

yaxshiroq anglashga yordam beradi. Tog'ning "sig'inish uchun joy" mazmuni Sizifning xudolarga buysunmagani uchun aynan shu tarzda jazolanganligini ifodalasa, umrboqiylik va erkaklik ramzi Sizifga berilgan jazo muddat va Sizif irodasining sinalish jarayonini anglatadi. O'ziga berilgan tahqirli jazoga matonat bilan chidagan Sizifning butun boshli harakatlari zoye ketmadi, aksincha u arxetipik mazmundagi "ruhiy kamolot bosqichiga" chikishga erishdi va shu sababli ham donishmand nomiga munosib bo'ldi.

Demak, Sizif timsolida biz aqlli va donishmand odam qiyofasini ko'ramiz. Bugungi fikrlar kurashiga aylanayotgan global dunyoda Inson faqat aql-farosat va tadbirkorlik bilan yashab qolishi, o'z maqsadiga erisha olishi mumkin, degan badiiy-falsafiy g'oya bu asarning mohiyatni tashkil qiladi.

Asarda Sizifga qismatdosh bo'lgan mifologik qahramon Asor obrazi ham mavjud bo'lib, u Sizifning ko'ziga goh qora qayiqda, goh qora tobut shaklidagi qayiqda ko'rinadi. Qora tobut – o'lim ramzidir. Sizif – irodali, mehnatkash, makkum, gunohkor banda timsoli. Xarsangtosh – jazo, qismat, g'am-tashvish timsoli. Xurshid Do'stmuhammad Sizifi xarsangtoshning qalbiga yo'l topadi. Xarsangtosh bilan gaplashadi, Sizif qarib, qo'l-oyoqlari toshdek, tarashadek bo'lib ketadi. Tosh esa yemirilib-yemirilib ado bo'ladi. Bunday ramziy ifoda orqali muallif Inson hayotning mashaqqatlariga chidadi, ammo tosh chidamadi, degan hayotiy falsafani ta'kidlab ko'rsatadi.

Adabiyotshunos N.Karimov: "Inson tafakkuridagi o'zgarish davr va jamiyatdagi o'zgarish ta'sirida bo'lishi tabiiy hol, o'z navbatida jamiyatning to'g'ri yo'nalishini belgilash bilan birga, o'zining hayotdagi o'rni va mavqeyini ham namoyon qiladi hamda insoniyat diqqatini jalb qiladi. Bu narsa o'zbek romanlarida o'z ifodasini topayapti. Demak, ularda voqea-hodisalar emas, insonning o'zi, uning uy-fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiyati, psixologik olami yetakchilik qilyapti, tasvirlanayapti, ochib berilayapti"²¹⁹, – deb baholaganda, tabiiyki, «o'tish davri» silsilalarida yo'lini yo'qotgan va izlanayotgan inson obrazini nazarda tutgan.

Umuman olganda, istiqlool davri adabiyoti namunalari, ayniqsa, romanlarda sinkretiklik xususiyati yaqqol ko'zga tashlangan belgilardan biri bo'ldi. Sinkretiklik xususiyati xilma-xil shakliy-badiiy uslublarda namoyon bo'lib, romanlarda yangicha poetik kashfiyotlarning yuzaga kelishiga bois bo'ldi. "Boqiy darbadar" romanida o'tmish va bugun, yangilik va eskilik, ezgulik va yovuzlik, ogohlik va loqaydlik kabi abadiyatga dahldor tushunchalar to'qnash kelgan nuqtalarda izchillik va olamning muvozanati asosi ta'minlanishi haqidagi qarashlar yoritilar ekan, unda diniy rivoyatlar, zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti, ilmiy

²¹⁹ Каримов Х. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Миллий кутубхона, 2008. – Б. 83.

muammolar, shuningdek, tasavvufiy ruh, didaktika va shu kabilar qorishiq shaklda ifoda etildi. Asarda xalq ogʻzaki ijodi namunalariga xos sarguzashtlilik va qiziqarlilikni ham, ruhiy tahlilga asosiy ahamiyat qaratuvchi “ong oqimi” yoʻnalishi xususiyatlarini ham, modern asarlarga xos yangicha izlanishlarni ham, Sharq adabiyotiga xos ramziylik va maʼrifiylikni ham, postmodern namunalariga xos quroq-qorishqlik jamlanishni ham, intellektual romanlarga xos ilmiylikni ham kuzatish mumkinki, bu belgilar romandagi sinkretiklik xususiyatini yorqin namoyon etadi.

Xulosa dilib aytganda, mif zamonaviy romanlarda yozuvchining juda koʻplab gʻoyaviy-badiiy maqsadlarini yuzaga chiqarishga yordam beruvchi poetik vosita vazifasini bajaradi.

Tayanch tushunchalar: mif, mifologiya, badiiy mifologizm, neomifologizm, mifologema, arxetip, intellektual roman, mifologik syujetlar stilizatsiyasi, demifologizatsiya, remifologizatsiya, komrozitsion struktura, arxetiplar transformatsiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mifologiya atamasiga taʼrif bering.
2. Zamonaviy oʻzbek romanchiligida mifopoetik tafakkur bilan aloqador tasvirlar qaysi manbalar asosida shakllandi?
3. Mifologik syujet, motiv va obrazlarning oʻzbek adabiyotiga taʼsiri masalasi qaysi oʻzbek adabiyotshunoslari tadqiqotlarida uchraydi?
4. Y.M.Meletinskiy “Ot mifa k literature” nomli kitobida XX asr jahon romanchiligida mifologizatsiyaning qaysi turlari mavjudligiga toʻxtalib oʻtgan?
5. Istiqlool davri adabiyoti namunalari, ayniqsa, romanlarda qaysi xususiyat yaqqol koʻzga tashlangan belgilardan biri boʻldi va bu belgi koʻproq nimalarda namoyon boʻldi?
6. Hozirgi oʻzbek nasrida postmodernistik oqimga xos asarlar yaratilgan deb hisoblaysizmi, agar yaratilgan boʻlsa, misollar keltiring.
7. Alber Kamyuning “Sizif haqidagi asotir” asari hamda Xurshid Doʻstmuhammadning “Donishmand Sizif” romani oʻrtasidagi mushtarak va farqli jihatlar nimalarda aks etadi?
8. Nazar Eshonqulning Goʻroʻgʻli yoxud hayot suvi” asarida hayot ummonidagi chigalliklar oldida boshi qotgan qahramon ruhiyati chuqur tahlil qilingan oʻrinlarni topib izohlang.

ZAMONAVIY OʻZBEK SHEʼRIYATIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR STILIZATSIYASI VA METAFORIZATSIYASI

Reja:

1. Mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga ko`chish asoslari.
2. O`zbek adabiyotida mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metaforizatsiyasining taraqqiyot xususiyatlari.
3. Zamonaviy o`zbek she'riyatida antropomorfik (inson qiyofasidagi) mifologik obrazlar tasviri va talqiniga xos lingvopoetik xususiyatlar.
4. Zoomorfik (hayvon qiyofasidagi) va qush ko`rinishidagi (ornitomorfik) mifologik obrazlar.
5. Demonomorfik mifologik obrazlarning zmonaviy o`zbek she'riyatidagi talqinlari.
6. Zamonaviy she'riyatda mifologik obrazlarni qo`llashning ijtimoiy-psixologik asoslari va ko`rinishlari.

Mifonimlardan tuzilgan metaforalar predmet nomlari bo'lsa-da, ular predmetni emas, unga xos belgini anglatadi. Chunki metaforizatsiya uchun o'sha mifologik obrazning xarakterli belgi-xususiyati asos qilib olingan bo'ladi. Masalan, *ajdar* metaforizatsiyaga ob'ekt qilib olinsa, uning afsonaviy hayvon ekanligi nazarda tutilmaydi, balki og'zidan o't purkashi, boshqa bir o'rinda ochko'zligi, yamlamay yutishi nazarda tutiladi, yana boshqa bir o'rinda esa yovuzlik ramzi sifatida tasavvur qilinadi. Shu ma'noda bunday metaforalar otlashgan sifatning teskarisi (sifatlashgan ot)ni eslatadi: *pari qiz*, *dev odam*, *ajdar tuzum*, *shayton odam*, *yalmog'iz urush* kabi.

Mifologik obrazlar metaforizatsiyasida so'zlovchining narsa, belgi, voqelikka nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati orqali his-tuyg'usi aks etgan bo'ladi. Masalan, ochko'z, zolim, qonxo'r bosqinchiga nisbatan *ajdar* obrazini metaforizatsiya qilish orqali nafrat ifodalansa, beozor, pokiza qalb egalariga nisbatan *farishta* obrazi metaforizatsiya qilinib, hurmat va mehr hissi ifoda etiladi. Ba'zan mifologik obraz bir o'rinda salbiy, boshqa o'rinda ijobiy munosabatni aks ettirishi ham mumkin. Masalan, ochko'z, qonxo'r ma'nosida salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan *ajdar* obrazi boshqa bir kontekstda o'tli nigoh ma'nosida go'zal qizning ko'zlariga, qop-qora, baquvvat, jilokor ma'nosida zulfiga nisbatan metaforizatsiya qilinganda, go'zallik ramziga aylanadi. Yoxud *dev* obrazi badiiy ijodda ham yovuzlik, vahm, ham jasurlik, pahlavonlik ramzi sifatida metaforizatsiya qilinishi mumkin. Bunga sabab ushbu obrazlarning afsonalarda epik qahramonga avval raqib bo'lib, uni

bo'ysundirgandan yoki sehrlangan tilsimni ochgandan keyin yordamchi, madadkor, homiy bo'lishi bilan bog'liq qarashlarning mavjudligi bilan bog'liqdir.

Mifologik obrazlar stilizatsiyasi zamonaviy she'riyatda ko'proq doston, she'r, she'riy ertak janrlarida kuzatiladi. Ijodkorlar *shayton, jin, malak, farishta; ajdar, dev, yalmog'iz, ajina, alvasti, pari, Xizr, humo, semurg', anqo, samandar* kabi miflarga xos bir qator obrazlarni qo'llash orqali o'z g'oya va maqsadini ifodalaydi. Asosan, urush, mustabid tuzum, qatag'on davri, paxta ishiga aloqador voqealar o'tmishdagi ayanchli kunlar sifatida she'r va dostonlarda berilganda, u yoki bu mifologik obrazlardan ularning fojeaviy ruhini ta'sirli ochib berish maqsadida foydalanilgani kuzatiladi. Bunday asarlar ko'proq o'tgan asrning 70-80 yillari adabiyotiga xos bo'lib, ularda mustabid tuzumning chirkinliklarini ko'rsatish orqali xalq ozodligi va erki uchun kurashga chaqiriladi.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda stilizatsiya hodisasi og'zaki adabiyotga xos bo'lgan xususiyatlarning yozma adabiyotga olib kirilishi usullaridan biridir. Uning bir ko'rinishi esa ijodkor tomonidan asarda mifologik obrazlarni qayta ijodiy qo'llash orqali ma'lum davr ruhi, xalq qarashlari, o'z emotsiyasi va tuyg'ulari, munosabatini aks ettirishdan iborat.

Insonning tabiat hodisalari oldida ojizligi, borliqni tushunishga intilishi, dunyoning qanday qonunlar asosida yaratilganiga javob izlashi natijasida mifologik tasavvurlar paydo bo'la boshlagan. Mifga ishonch inson va tabiat bog'liqligi asnosida kelib chiqqan bo'lib, miflar insoniyatning ibtidoiy bilimlari, eng qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari sanaladi. Ularda turli qiyofadagi g'ayrioddiy, sirli xususiyatlarga ega mifologik obrazlar ishtirok etishadi.

Folklor turli qiyofadagi mifologik obrazlarning boy manbasi hisoblanadi. Keyinchalik mifologik obrazlar folklor ta'sirida san'atning turli sohalariga, yozma adabiyotga ham ko'chdiki, bundan ularning muayyan tarixiy jarayonlarni, xalq dunyoqarashining qaysidir bir jihati va bosqichini o'zida ifoda etishini anglash mumkin. Garchi mifologik obrazlar tafakkurning eng quyi bosqichiga xos bo'lsa-da, ilk poetik fikrlash mahsuli ekani bilan diqqatni tortadi.

Mifologik tushunchaning periferik sohalari bilan bog'liq manbalar ijtimoiy ahamiyatining ustunligi bilan xarakterlanadi. Xususan, demifologizatsiya jarayoni folklor asarlari tilida aniq va ravshan tushuntirish xususiyatiga ega. Demifologizatsiya talqin qilish metodi bo'lib, ushbu atamaning fanda qo'llanilishi nemis teologi R.Bultman²²⁰ nomi bilan bog'liq. Demifologizatsiya o'zida imon, soflik va poklikni namoyon qiluvchi diniy ishonchlarni mifning tarixiy shakllaridan ozod

²²⁰ <https://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document/HASHfa8b46a5682879891d14fa>

qilishga qaratilgan tom ma'nodagi mifologik kurashdir. Demak, o'zbek folkloridagi pari, jin, dev, shayton, iblis kabi obrazlar ham demifologizatsiyalangan obrazlar bo'lib, islomgacha bo'lgan davrlarda mifologik tasavvurlar shaklida yashagan bu mavhum obrazlarni diniy-afsonaviy obrazlar deb talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ba'zan mifologik personajlarning shartli nomlanishlari, masalan, shayton va jin nomlanishlariga almashtirish holatlari kuzatiladi. Umuman, shayton (iblis) diniy-afsonaviy obrazining jin, dev, pari deb ham talqin qilinishining sabablarini shaytonning olovdan, jinning tutunsiz olov(samum – olovdan ham issiq shamol) alangasi)dan, parining olov va tutundan yaratilgani, dinda jinlarning, miflarda dev va parilarning yaxshi toifadagilari bilan birga, yovuzlari, ziyon yetkazuvchilari ham mavjudligi, ko'zga ko'rinmasligi va turli qiyofada namoyon bo'lishi kabi mushtarakliklar bilan izohlash mumkin. Qur'oni karimda ham bu haqida oyatlar mavjud: 1. “U (Iblis): “Men undan yaxshiman, meni o'tdan yaratding va uni loydan yaratding”, dedi” (“A'rof” surasi, 12-oyat). 2. “Va jinlarni bundan oldin samum olovidan yaratdik” (“Hijr” surasi, 27-oyat). 3. “Bas, Biz unga shamolni bo'ysundirdik, u iroda qilgan tomonga mayin esaveradi. Yana barcha binokor va g'avvos shaytonlarni ham” (“Sod” surasi, 36-37-oyat). (Mana shu binokor shaytonlar xalq mifologiyasida dev, g'avvos shaytonlar esa pari deb atalgan).

Rus olimi A.A. Potebnya o'zining ilmiy tadqiqotlari jamlangan “Xalq madaniyatida mif va ramz” (“Simvol i mif v narodnoy kulture”) to'plamida slavyan xalqlari misolida mifologik tasavvurlar va obrazlar (jumladan, yalmog'iz – Baba Yaga) haqida ilmiy ma'lumotlar bergan²²¹. Ye.Meletinskiyning “Poetika mifa” monografiyasida esa XX asr adabiyotida mifologizmlar, miflar va ularning turlari, yangicha miflar nazariyasi o'rganilib, fransuz adabiyoti misolida (F.Kafka ijodidagi) mifologizmlar tahlil qilingan²²².

O'zbek adabiyotshunosligida N.Rahimjonov, D.O'rayeva, Ulug'bek Hamdam, D.Quvvatova, L.Sharipova, M.Rajabova, M.Xolovalar tadqiqotlarida ham mifologik obrazlarning badiiy talqiniga doir ayrim tahlillar uchraydi²²³.

²²¹ Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. Собрание трудов. – Москва: Лабиринт, 2000. – 480 с.

²²² Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. – Москва: Наука, 1976. – 408 с.

²²³ Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. – Тошкент: Фан, 1986.; Ўраева Д. Шарқ ва Ғарб адабиётида “шайтон” мифоними талқинидаги ўзига хосликлар. – Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. – Бухоро. – 2015. – № 4. – Б.76-82; Ўраева Д.С. Замоновий шеърятда бадий кўчимларнинг янгилиниши. – Бухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. – Бухоро. – 2014. – № 4 (56). – Б.50-53.; Қувватова Д. Ўзбек илмий-бадий фантастикасида фольклор мотивлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 1997. – 24 б.; Шарипова Л. XX асрнинг 70-80 йиллари шеърятда фольклоризм. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2008. – 155 б.; Ражабова М. Алишер Навоий ғазалларида демонологик тимсоллар. – Филология ва маданият масалалари (илмий-услубий мақолалар тўплами). – Карабук, 2019. – Б. 184 – 187; Холова М.А. Ўзбек модерн шеърятда поэтикаси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2018. – 135 б.

Ma'lumki, o'zbek folklori namunalarida uchraydigan dev, ajdar, semurg', pari, jin, alvasti, ajina kabi obrazlar, odatda, afsonaviy obrazlar sifatida e'tirof qilinadi. Qizig'i shundaki, bu mifologik personajlar afsonalarda xuddi insonlar kabi harakatda ko'rsatiladi. Sababi, qadimda odamlar ruhlar olamini insonlar olami bilan bir xilda tasavvur qilishgan va ular insonlarni, tabiat hodisalarini boshqarib turishiga ishonganlar.

Ba'zan jin, dev, pari, ajdar epik qahramonga homiy vazifasida ham talqin etilishi kuzatiladi. Bu mifologik personajlar asosiy qahramonga raqib sifatida harakat qilganda, ko'pincha qahramon bilan bo'lgan kurashda yoki tortishuvda, sinovda yengilib, unga tobe, mute, qul sifatida xizmat ko'rsatishga mahkum etiladi. Bunda ular raqib personaj vazifasida emas, balki asosiy qahramonga yordamchi, madadkor sifatida faoliyat yuritadilar. Bu bilan insonning aql-zakovati, kuch-qudrati har qanday tilsimli kuchlardan yuksakligi ulug'lanadi.

Mifologik obrazlar insonning idrok faoliyati jarayonida uning qiziqishi va bilish ehtiyoji natijasida o'zi uchun mavhum bo'lgan hodisalarning (masalan, kasallikning) idrokiy-tushunchaviy umumlashtirilishi sifatida yuzaga kelgan.

Mifonimlar (masalan, yalmog'iz, ajdar, ajina va hokazo) so'z – konsept – obraz paradigmasini hosil qiladi. Jumladan, ajina arab tilidan o'zlashgan jin so'zining ko'plik shakli sifatida so'z-mifonimni ifodalasa, konsept sifatida tasqara, zararkunanda tushunchalarini bildirib keladi. Ayni paytda u afsonaviy obraz bo'lib, mifologik obrazlar tizimida o'z alohida turiga egadir.

Ko'rinadiki, mifonimlar til va ongda aks etuvchi tushunchalardir. Ular hissiyot va tafakkur faoliyatining mahsuli ekani anglashiladi.

Mifonimlar barcha xalqlarning tilida mavjud bo'lib, har bir xalqning milliy, madaniy tushunchalari asosida kodlashtirilgan. Masalan, jin Sharq xalqlari tilida uchraydigan so'z bo'lib, o'zbek tiliga o'zlashtirilgan. Dev ma'nosida qo'llaniladigan g'ul obrazi genetik jihatdan qadimgi arab asotirlariga aloqador mifologik personajlardan biridir²²⁴. Keyinchalik o'zbek tiliga o'zlashib badiiy o'zgarish, ya'ni poetik transformatsiyaga uchragan. Anqo, Xizr mifonimlari ham arab xalqlaridan o'zbek folkloriga ko'chgan. Ajdar "Avesto"dagi "Aji-Dahak"dir, keyinchalik bu nom "Shohnoma"da Zahhok (Eronning yovuz hukmdori) shaklida berilgan²²⁵.

O'zini o'rab turgan tashqi olamni va unda yuz beruvchi hodisalar sababini bilishga qiziqqan ibtidoiy odam uni xayol orqali obrazli tasavvur qilgan. Natijada hissiy obrazlar sifatida mifologik obrazlar paydo bo'lgan.

²²⁴ Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – Б. 130.

²²⁵ Фирдавсий А. Шохнома. (Сайланма). – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 188 б.

Agar mifonimlar “geshtalt (nemischa “bir butun”) tamoyillari”²²⁶ (yaqinlik, o‘xshashlik, to‘liqlik, uzluksizlik, figura-fon) bilan ko‘rib chiqilsa, bir-biriga yaqinligi kuzatiladi. Birinchidan, ularning barchasi o‘zga olam tushunchasi bilan bog‘liq holda idrok etilishi (ularning yaqinlik tamoyili)ga asoslanishini namoyon etadi.

Ikkinchidan, bir-biriga monand belgilari orqali idrok qilinishi (o‘xshashlik tamoyili)ga asoslanishi bilan bog‘liq. Masalan, alvasti, ajina va yalmog‘iz, odatda, qari kampir ko‘rinishida tasavvur va talqin qilinadi.

Demak, mifologik obrazlarning barchasida umumiy belgilar bor. Bular:

- baxt belgisi (semurg‘, humo, Xizr);
- qarilik belgisi (alvasti, ajina, yalmog‘iz, ayamajuz);
- yonish belgisi (samandar, qaqnus, do‘zax);
- ziyon belgisi (dev, jin, g‘ul, ajina, alvasti);
- olovdan yaralgani (shayton, iblis, jin);
- quvlik belgisi (yalmog‘iz, shayton);
- yamlamay yutish (ajdar, yalmog‘iz);
- go‘zallik belgisi (malak, farishta, pari, jannat).

Keyin ularning har biriga xos alohida belgilar ajratiladi. Masalan, jinning belgilari: g‘ayritabiiy xususiyatli demonologik personaj, ziyon yetkazuvchi, hayvon yoki odam qiyofasida namoyon bo‘lishi. Semurg‘ning belgilari: ulkan qush qiyofasida ko‘rinishi, adolat va baxt timsoli ekani va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, mifonimlar o‘rtasida yaxlitlik va bo‘lak munosabatlari mujassam. Bunda bo‘laklarning yaxlitlikka tobe bo‘lishi “mifonimlar to‘ri”ni hosil qiladi. Har bir mifonim bu “to‘r” tarkibida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, turlicha idrok qilinadi. Har bir obrazlashgan mifonimning o‘z umumiy strukturasi borligi yuqoridagi tasnifdan ko‘rinib turibdi.

Lisoniy, mantiqiy, perseptual (idrokiy) struktura bo‘lgan mifonimlar atab kelgan salbiy obrazlar ifodalaydigan ma‘nosiga qarab yana qismlarga bo‘linadi. Lekin bu qismlarni yagona bir g‘oya – ularning insonga nisbatan yovuzligi semasi bog‘lab turadi. Shuning uchun ular orqali insonning qo‘rquv emotsiyasi ekspressiv tarzda o‘z ifodasini topadi. Masalan, “jin urgur”, “jinga yo‘liqqur”, “alvasti chalgur”, “alvastiga yo‘liqqur” kabi iboralar borki, ular bevosita qarg‘ishlar matnida mustahkam o‘rin tutgan.

Mifonimlarni tilshunoslikda lingvokulturologiya ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Negaki, har bir xalqning o‘z tilida o‘z mifonimlari mavjud.

²²⁶ <https://lpgenerator.ru/blog/2017/07/10/5-principov-geshtalt-psihologii-dlya-sozdaniya-zapominayushih-sya-izobrazhenij/>

Insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga kelgan mifonim (miflar ta'sirida shakllangan leksik birlik)larning o'z strukturasi va mazmuni mavjud. Qizig'i shundaki, xuddi shu struktura va mazmun u obraz darajasiga ko'tarilganda ham saqlanadi. Ular turli tillarda turlicha nomlansa-da, vazifasi jihatidan yaqinlik kasb etadi. Masalan, o'zbek xalq ertaklarida yalmog'iz bolalarni o'g'irlovchi personaj hisoblanadi. Ruslarda esa Baba Yaga xuddi shunday badiiy vazifada talqin etiladi.

Ma'lumki, madaniyat ijtimoiy vosita sifatida doimiy rivojlanib, taraqqiy topib boradi. Bir madaniyat belgilari ikkinchi bir madaniyat bilan aloqada bo'lsa, ularning belgilari asta-sekin qorishib borishi mumkin. Xususan, ijtimoiy hayotdagi muloqot ko'rinishlari bunga keng yo'l ochadi. Shuning ta'sirida bir xalqqa mansub mifonim ikkinchi xalqqa o'tishi mumkin. Masalan, arab mifologiyasida ayol jinsiga mansub yovuz jin deb tasavvur qilingan g'ul obrazi o'zbek mumtoz adabiyotiga o'tib, "dev", "dahshatli sahro maxluqi" ma'nolarida qo'llangan. Biroq g'ul obrazining ayrim qirralari (masalan, o'rmon, kimsasiz joylar bilan bog'liqligi, ayol jinsiga mansubligi, odamlarga dushmanligi) o'zbek xalq ertaklaridagi yalmog'iz personajida ham ifoda topgan.²²⁷

Bir so'z bilan aytganda, dunyoni ko'rishga intilishda metaforalarning alohida o'rni bor. Masalan, semurg' leksemi Sharq xalqlari orasida baxt tasavvurini ifodalashda intensiv ramz hisoblanadi. Alvasti mifonimi o'ta xunuklik, tasqaralik ramzi sifatida ongimizda muhrlangan. Yalmog'iz ochko'zlik, anqo noyoblik, semurg' hamda humo baxt va davlat, samandar fidoyilik, ajdar yovuzlik semalarini intensiv ifodalash ramziga aylangan.

Mifonimlar asosida ko'pincha insonning yovuzliklarga nafrati yashiringan bo'ladi. Shuning uchun mifonimlarning nomi ko'pincha tilga olinmaydi, ularga nisbatan evfemizmlar qo'llaniladi.

Umuman olganda, mifonimlar qadimgi insonlarning tasavvur, e'tiqod va ishonchi mahsuli bo'lib, ayniqsa, sharq xalqlarida zamonaviy yozma adabiyotda ko'chma ma'noda ko'pincha insonning hissiyotini ifodalash uchun qo'llaniladi.

So'z san'atining dastlabki namunalari qadim zamonlarda dunyoga kelib, unda insoniyatning porloq kelajak haqidagi orzu-niyatlari turli mifologik obrazlar orqali aks ettirilgan. Dastlabki mif va afsonalar ibtidoiy odamning o'ziga sirli ko'ringan tabiatni bilishga intilishi natijasida yaratilgan bo'lib, ularda mifologik obrazlarning ilk namunalari o'z aksini topgan. Miflarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan. Shuning uchun ko'pgina mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

²²⁷ Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – Б.132-133.

O'zbek adabiyotida mifologik obrazlar folklordan yozma adabiyotga o'zlashtirilar ekan, o'ziga xos taraqqiyot xususiyatlarini namoyon qiladi. Ba'zi mifologik obrazlar stilizatsiyasi, metaforizatsiyasida davr, uslub, janr talabi ta'sirida o'ziga xos belgi-xususiyatning ifodalanishida farqli va mushtarak jihatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, mumtoz she'riyatda ajdar ko'pincha ishq, go'zallik ramzi sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy she'riyatda, asosan, yovuzlik ramziga aylangan.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz she'riyatida, xususan, hazrat Alisher Navoiy g'azallarida rang-barang mifologik obrazlardan foydalanilgan. Ular orasida hayvon qiyofasidagi mifologik obraz – ajdaho obrazi vositasida yaratilgan poetik ifodalar alohida diqqatni tortadi.

Mumtoz she'riyatimizda g'oyatda kuchli tuyg'u – ishqni ifodalovchi asosiy obrazlardan biri ajdaho obrazi sanaladi. Bundan tashqari, mashaqqatli, sinovli hayotni, turmushni, shuningdek, nafsni ifodalashda ham ajdaho obrazidan foydalaniladi.

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati”da ajdahoga shunday izoh beriladi: “Ajdaho – 1. Ajdar; og'zidan o't ufuruvchi va kishiga hamla etuvchi, domiga tortuvchi afsonaviy vahshiy maxluq. 2. Qasd qiluvchi, halok etuvchi; balo, ofat, dushman. 3. Qo'riqchi, kuchli posbon”.²²⁸

“O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati”da esa ajdaho obrazi o'ndan ortiq ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi qayd etilgan.²²⁹ Jumladan, ajdaho so'zi inson a'zolari (soch o'rimi, ko'z), g'oyat kuchli tuyg'u (masalan, ishq, nafs, ayovsizlik va rahm-shafqatsizlik), salbiy illatlar (manmanlik, ochko'zlik, bosqinchilik), zararli tuzum (masalan, sobiq totalitar tuzum, qatag'on davri), dard (kasallik, g'am-anduh, tashvish), sinovli va mashaqqatli turmush, jang-jadal (urush), texnik qurol (masalan, to'p, zambarak), bosqinchilar, zo'ravonlar, jinoiy to'dalar, nafs buzuvchi kimsalar, shuningdek, favqulodda qobiliyatli shaxslar (masalan, sportchilar)ga nisbatan poetik ko'chimni ifodalashi aytib o'tilgan.

Hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub quyidagi misralarda ajdaho obrazining vayron qilish, o't yoqish semalari ko'chma ma'noda g'am ma'nosi bilan bog'lanib, poetik ramziy ifoda hosil qilingani kuzatiladi:

Borg'ali ul husn ganji g'am buzug' ko'nglumdadur,

Ajdaho uyi bizing vayrona bo'ldi oqibat.²³⁰

Ajdaho uyi birikmasi ajdaho makonini, inini anglatadi.²³¹ Afsonalarga ko'ra, xazina berkitilgan joyda ajdaho bo'lar emish.

²²⁸ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. I жилд. (Э.И. Фозилов таҳрири остида). – Т.: Фан, 1983. – Б. 51.

²²⁹ Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б. 23-24.

²³⁰ Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. (Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Учинчи том). – Т.: Фан, 1988. – Б. 78.

²³¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. I жилд. (Э.И. Фозилов таҳрири остида). – Т.: Фан, 1983. – Б. 51.

Ajdaho g'am, ajdaho uyi ko'ngil ekanligi anglashiladi: oshiqning buzilgan ko'nglida yorning husn ganji (chiroyli orazi, go'zal chehrasi, vasli)ga yetishish istagi bor, bu tashvish ajdaho kabi alal-oqibat uning ko'ngli (vayrona)ni makon tutdi, egalladi. Ajdaho xazinaga intilgani kabi ishq to'la ko'ngil ham ma'shuqaning vasliga oshiqadi.

Quyidagi baytda esa ajdaho obrazi mislsiz o't-olov tasvirini ifodalash uchun xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin:

Mehnat o'tidin yoruqtur har taraf koshonamiz,

Bo'ldi go'yo **ajdaho** komi bizing vayronamiz²³².

Mehnat va mashaqqat tufayli inson toblanadi, shu bois uning qalb uyi, ruhi ravshanlashadi. Keltirilgan baytda vasl umididagi oshiqning ko'ngli g'amdan ajdaho komidek alangalangani aytilmoqda. Bunda vayrona ko'ngildagi dard o'ti mislsiz va hadsiz ekanligi ajdaho komi vositasida mubolag'ali talqin qilingan.

Alisher Navoiy qalamiga mansub "Ey qading sarvi ravon..." deb boshlanuvchi g'azalning quyidagi misralarida esa ko'ngil maxzan (xazina)ga, g'am esa ajdahoga o'xshatilgan:

Ishq naqdi dog'i g'am kirmish Navoiy, ko'ngliga,

Vahki, bir dam **ajdahod**in xoliy ermas maxzanim²³³.

Shoir ko'nglini vasl g'ami, dardi egallaganini aytadi. G'azalning avvalgi misralaridan birida uni "ko'ngulsiz" deb ataganlaridan shodligini ta'kidlaydi, zero, uning ko'ngli birovdagi. Ajdaho maxzanni hech tark etmagani kabi shoirning ko'ngli ham g'amdan bir lahza xoli bo'lmaganidan ajablanadi.

Umuman olganda ko'ngilga tushgan g'amning sababchisi ishqdir. Agar ajdahoning ikki va undan ortiq boshli ekanligi haqidagi mifologik qarashlarga tayanilsa, Alisher Navoiy baytda birvarakayiga ikki obraz (ishq, g'am)ni ajdahoga tenglashtirganida xalqning afsonaviy ikki boshli maxluq (ajdaho) haqidagi tasavvurlaridan yiroqlashmaganiga yana bir bor guvoh bo'lish mumkin. Darhaqiqat, har qanday maxzanga ham ishq yetaklaydi, ham g'am. Zero, unga erishish mashaqqat va sinovlarsiz bo'lmaydi.

Turkiy adabiyot tarixida o'ziga xos ijod uslubiga ega bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallarida esa ajdaho obrazi ba'zan Navoiy g'azallaridagidan farqli ma'nolarni berishga xizmat qilgan. Bobur qalamiga mansub quyidagi misralarda ajdaho obrazining g'or, jarlik kabi qorong'u va chuqur joylarni makon tutishi, asosiysi, ajdaho og'zining o'radek katta ekanligiga ishora qilinib, poetik ramziy ifoda hosil qilingani kuzatiladi:

Zulfidakim maskan etting, ko'r zanaxdon chohini,

²³² Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. (Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Учинчи том). – Т.: Фан, 1988. – Б. 178.

²³³ Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. (Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Учинчи том). – Т.: Фан, 1988. – Б. 326.

Voqif o'lg'ilkim, erursen **ajdahoning** komida²³⁴.

Bunda zanaxdon – iyak, zanaxdon chohi – iyak chuqurchasi, kulgich demakdir. Mumtoz she'riyatda u go'zallik timsoli sanaladi. Shoir mubolag'a qilib, u shunchaki kichkina kulgich emas, ajdaho komiday chuqurligini ta'kidlaydi. Tasavvufda u zulmat chohi hisoblanib, mahbubaning qahri solikni chohga soladi. Baytda zulf so'zining kelganligi ham ajdaho obrazining soch ma'nosini ifodalashi bilan bog'liq. Quyidagi misralarda esa yorning zulfi to'g'ridan-to'g'ri ajdar bilan tenglashtirilib, metaforizatsiya qilingan:

Ganji husnida ko'rung zulfi bila gulgunasin,

Go'yo o't soldi har yon ganj uzra **ajdare**²³⁵.

Xazina berkitilgan joyda ajdaho bo'lgani kabi ushbu baytda yorning yuzi xazinaga, sochi uni qo'riqlaydigan ajdarga, yonoqlaridagi gulday qizil rang esa ajdaho sochgan o't(olov)ga o'xshatilgan va bu metaforizatsiya jarayonida xalqning ajdaho haqidagi mifologik tasavvurtushunchalaridan yiroqlashilmagan. Demak, yorning pechu tob sochlari ajdar ganjni qo'riqlagani kabi uning jamoli tegrasini egallaydi va ajdar xazina uzra o't purkagani kabi yor yuzlari gulgundur.

Ko'rinadiki, mumtoz she'riyatda mifologik obrazlar orqali o'ziga xos mantiqiy bog'lanish asosida umumlashma xulosalar hosil qilish, folklor motivlari va obrazlarini o'z maqsadi yo'lida xizmat qildirish o'ziga xos poetik an'ana darajasiga ko'tarilgan. Alisher Navoiy ajdahoni ishq timsoli sifatida ko'rsatsa, Zahiriddin Bobur g'azallarida uning soch ma'nosini obrazli ifodalashi ko'zga tashlanadi.

Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot an'alaridan yaxshi xabardor bo'lgan Ogahiy ham she'rlarida mifologik obrazlardan foydalanib, ularning stilizatsiyasi va metaforizatsiyasi orqali o'z g'oyasi va maqsadini bayon etadi. Xususan, Ogahiyning "Gavharmu ekan oyo" g'azalida ajdar obrazining quyidagicha ifodasi kuzatiladi:

Gisularimu ul yuz ustida makon etkan,

Ganj uzra va yo ikki **ajdarmu** ekan oyo. ²³⁶

Ushbu misralarda ajdaho mifonimi yorning ikki o'rim sochi ma'nosida qo'llanilgan. Yorning sochlari ajdar xazinani qo'riqlagani kabi uning jamoli tegrasini egallab, oshiqqa bu xazinadan bahra olish imkonini bermaydi.

Ogahiyning "Ruxsori dilbar ustida" g'azalidan olingan quyidagi misralarda ham ajdar obrazi soch ma'nosida kelgan. Shuningdek, baytda ajdahoning o't sochish semasi bilan bog'liq poetik ramziy ifoda hosil qilingani kuzatiladi:

Ikki mushkin kokili ostida gulgun chehrasi,

²³⁴ Бобур 3.М. Махрами асрор топмадим. Париж девони нухаси: Шеърлар. – Т.: Ёзувчи, 1993. – Б. 28.

²³⁵ Бобур 3.М. Махрами асрор топмадим. Париж девони нухаси: Шеърлар. – Т.: Ёзувчи, 1993. – Б. 43.

²³⁶ Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. I жилд (девон). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 61.

Husn ganjidurki, yotmish ikki **ajdar** ustida ²³⁷.

Mahbubaning ikki zulfi uning gulgun chehrasi ustiga tushib turadi. Go'yo ajdar xazina uzra o't purkagani kabi yor yuzlari gulgun(qizil)dir. Yonoqlardagi rang ajdaho sochgan o't(olov)ga o'xshatilishi orqali shoir yaratgan badiiy tasvir Bobur uslubini ham yodga soladi.

Umuman olganda, mumtoz she'riyatda mifologik obrazlar metaforizatsiya qilinar ekan, ularga xos bo'rtib turgan belgi-xususiyatlardan ko'chma ma'noda foydalanilib, poetik joziba yaratilishiga erishiladi.

XX asr she'riyati, xususan, jadid adabiyoti, ma'rifatparvarlik adabiyotida jamiyatdagi illatlarni ko'rsatish, ularga nisbatan nafratni ifodalash maqsadida mifologik obrazlardan keng foydalanilgan. Masalan, Abdurauf Fitrat shayton obrazini firibgar, ikkiyuzlamachi, buzg'unchi kishilarga nisbatan qo'llagan:

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, **shaytonlar**²³⁸.

Abdulhamid Cho'lpon "Yong'in" she'rida buzilgan o'lkaning manzarasini chizar ekanlar, alvasti, pari obrazlari orqali fotihlarga ishora qiladi:

Podalarning yaylovida bo'rilar,
Qonga to'ygach, uvlaylarmi ko'plashib?
Yiqiqlardan o'liklarni to'plashib,
O'tmi qo'yar **alvastilar, parilar?**²³⁹

Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga bag'ishlab yozilgan she'rida esa ularni yovuz "qora dev"ga mengzaydi:

Men-da ojiz u muhitning oldida,
Qabring topib ko'z yoshimni to'kmakka.
Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda,
Oq kallalik qora **devni** so'kmakka.²⁴⁰

Abdulla Avloniy ijodi ham mifologik va diniy-afsonaviy obrazlarga boyligi bilan alohida e'tibor tortadi. Biroq u ko'pincha jannat, behisht, ujmoh obrazlari orqali maktab, maorif, ilm-ma'rifatga ishora qilsa, dev, pari, jin, olabo'ji obrazlariga murojaat qilish vositasida xalqni ilmsizlik, johillikdan qaytarishga urinadi:

Jin-u dev-u pari deb bolalarni dillarini buzmang,
Kelur "Olabo'ji" deb, hech xurofotdan gapirmang.²⁴¹

²³⁷ Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. I жилд (девон). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 76.

²³⁸ Фитрат А. Танланган асарлар. I жилд (шеърлар, насрий асарлар, драмалар). – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.36.

²³⁹ Чўлпон А. Асарлар. 3 жилдлик. I жилд (шеърлар, драмалар, таржима). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б.36.

²⁴⁰ Чўлпон А. Асарлар. 3 жилдлик. I жилд (шеърлар, драмалар, таржима). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б.50.

²⁴¹ Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. I жилд (шеърлар, ибратлар). – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б.149.

Urush mavzusidagi she'rlarda ham mifologik obrazlarni ko'plab uchratish mumkin. Ikkinchi jahon urushida begunoh insonlarning yostig'ini quritgan o'tsochar dahshatli qurol – zambarak, to'p, atom bombasi esa ajdar mifonimi vositasida ifodalangan:

Bu yerda muzlagan
Ajdar halqumli
Vahshat to'plarining
Qahqahasi yo'q.
Bu yerda — odamzod
shaklida yurgan
manfur, yukumli, maraz namoyishi
topolmas huquq.²⁴²

Yuqoridagi misralarda manfur, yuqumli, maraz namoyishli sifatlar odamzod shaklida namoyon bo'luvchi shayton obraziga ishoradir.

Oybekning “Davrim jarohati” dostonida yalmog'iz metaforasidan foydalanilgan. Unda yalmog'izga xos ucha olish, to'satdan paydo bo'lish, yovuzlik (shumlik) qilish va sehr-jodu vositasida o't sochish belgilari qiruvchi jang samolyotlariga ko'chirib tasvirlangan:

Bilmadim, falakning qay qabatidan
Keldi Amerikaning bu samolyoti.
Davrim balosining shum qanotidan
*Qarsillab quyildi yalmog'iz o'ti!*²⁴³

Buyuk kashfiyot hisoblangan atomning yaratilishi ilm-fan va texnikada keng imkoniyatlar eshigini ochdi, bugun atom elektr stansiyasi (AES) energiya ishlab chiqarishning eng samarali qurilmasi sanaladi. Biroq g'araz niyatli kishilar qo'lida har qanday foydali qurol ham yomonlikka xizmat qilgani kabi atom ham bomba ko'rinishida xavf keltirdi. Quyidagi satrlarda atom bombasining Xirosima bo'ylab ajal bo'lib kezman dahshatli alangasi ajdahoning olov purkashiga o'xshatilib, ushbu xavfli texnik qurolga nisbatan “olov ajdari” metaforasi qo'llanilgan:

Ko'ksida go'dagi, qochdi onalar,
Yurtini yutadi olov **ajdari**.
Toqqami, cho'lgami? – izma-iz quvar,
Chang solar ma'nosiz o'lim panjasi!²⁴⁴

Zamonaviy shoirlar ko'pincha ajdarning folklordagi yutish, kuydirish ma'nolaridan foydalanib, kuchli g'am-anduh, dardni ifodalashga urinadilar. Masalan, O.Hojievaning “Ziyorat” dostonida daryo obrazi ajdarho obrazi vositasida sifatlangan. To'lqinsimon harakatlanish, yutish, haybat ushbu ikki obrazdagi mushtarak belgilardir. Daryo to'lqinlari hayot sinovlari, mashaqqatlarini ramziy

²⁴² Фулом Ф. МАТ. 12 томлик. 2-том (шеърлар). – Т.: Фан, 1984. – Б.21.

²⁴³ Ойбек. МАТ (19 томлик). IV том. Достонлар. – Т.: Фан, 1976. – Б. 58.

²⁴⁴ Ойбек. МАТ (19 томлик). IV том. Достонлар. – Т.: Фан, 1976. – Б. 59.

ifodalasa, ajdarho uning naqadar katta va ayovsiz ekanligini ifodalashga, o'z navbatida, ijodkorning emotsiyasini ko'rsatishga xizmat qilgan. She'rdan Motamsaro ona haykali poyida turib so'zlayotgan lirik qahramon "ajdarho daryolar to'liqlari" deganda, katta urush – Ikkinchi jahon urushiga ishora qilgan:

*Ey miltiq tepkisin bosolmaganim,
Og'am, sham'i so'zon, qaylarda yonding?*

Ajdarho daryolar to'liqlarida –

*Bir quruq xashakdek oqding, to'lg'onding!*²⁴⁵

Biroq ayrim zamonaviy she'rlarda mumtoz she'riyatdagi poetik an'ana – sochni ajdahoga o'xshatish aynan davom etib kelayotgani e'tiborlidir. Jumladan, shoir Sirojiddin Sayyidning quyidagi she'rida ajdahonin obrazi mor (ilon) obrazi bilan yonma-yon keltirilib, yorning ikki zulfiga o'xshatilgan. She'rdan ilon obrazining ajdar obrazi bilan yonma-yon keltirilishi bejiz emas. Xalq qarashlariga ko'ra, ilon to'qqiz yoshgacha "ilon", to'qqiz yoshdan to'qson yoshgacha "afhi", to'qson yoshdan to'qqiz yuz yoshgacha "ajdarho", to'qqiz yuzdan to'qqiz ming yoshgacha "yuho" deb ataladi²⁴⁶:

*Bir gul ko'rdim naqshi nigor shaklinda,
Kamzullari bog'u bahor shaklinda,
Qaro ko'zi laylu nahor shaklinda,
Ikki zulfi mor, **ajdahor** shaklinda,
Bul ikkisi tun-kun bedor shaklinda*²⁴⁷.

Shu tariqa ushbu misralarda ham yorning ikki o'rim sochi tunu kun uning bahosiz chehrasini "qo'riqlaydi". E'tiborli tomoni shundaki, shoir bu metaforizatsiya jarayonida xalqning ajdahonin haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalaridan yiroqlashmagan. Yorning o'tli nigohi oshiqning yuragini yondiradi. Pechu tob sochlari esa ajdar ganj(xazina)ni qo'riqlagani kabi uning jamoli tegrasini egallaydi.

Modernizm yo'nalishida ijod qiluvchi shoir va yozuvchilar avvalboshdanoq o'z asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalari, mif, qadimgi afsonalarga qiziqib kelishgan. Xuddi shunday, o'zbek modern she'riyatida ham folklor namunalari murojaat kuchli. Xususan, Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor ijodida mifik obrazlar, afsona va diniy rivoyatlardagi obrazlardan foydalanish, ularga qayta shakl va ma'no berishga urinish kuzatiladi:

*Senga baxtlar tilayman, **malak**,
malika bo'larsan baxt enib.
Dev bo'larman men bir yumalab
va o'g'irlab ketarman seni*²⁴⁸.

²⁴⁵ Ҳожиёва О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, достонлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 429.

²⁴⁶ Жўраев М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б. 45-49.

²⁴⁷ Саййид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. – Т.: Шарқ, 2005. – Б.114.

Faxriyorning ushbu she'rida dev, malak kabi bir nechta mifik obrazlarga murojaat qilish orqali ma'shuqa go'zallik, poklik timsoli malakka, oshiq esa devga qiyoslangan.

Shuningdek, Rauf Parfining "Ay iymon asiri, vijdon tutquni" deb boshlanuvchi sonetida hur, malak, yovuz dev, Axraman obrazlari keltirilgan:

*Kechalar bosriqding tushda, ro'yoda,
Kunduzlar boshingda sindi kaltaklar.
Haq bilur, sen haqsan, haqsiz dunyoda,
Sendan xabar olsun **hurlar, malaklar**.
Sening yuragingni koinot bilsin,
Senga kulib boqsin osmonning ko'zi.
Qattol **Axramanning** bag'rini tilsin²⁴⁹.*

Xalq og'zaki ijodi namunalari, uzoq ajdodlarimiz marosim qo'shiqlarining ildizlari psixoanaliz maktabi vakili Karl Gustav Yung ilgari surgan "jamoaviy ongsizlik" tushunchasiga borib taqaladi. Bunda mif – jamoaviy ongsizlik mahsuli sifatida keladi. Yomg'ir chaqirish, qo'sh haydash, somon yanchish, beshikkerti marosimlari, to'y va azalardagi yor-yorlarda narsalarni o'z nomi bilan atamaslik hollari bunga xarakterli misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, mifologik obrazlar talqini alohida diqqatga ega bo'lib, ko'pincha mif mavjud narsani qayta idrok qilish asosiga quriladi. Mumtoz va zamonaviy she'riyatda shoirlar mifologik obrazlarni qo'llash orqali davr kishisi, shaxs obrazini, tarixiy real shaxslar timsolini qayta tiklaydilar. Mif-negiz va muallif subyektiv irodasiga ko'ra qayta tiklangan mifopoetik obrazlarni sintez qiladilar.

Xayoliy uydirmaga asoslangan mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlikni ifodalashi, qiyofasi, homiy va dushman xususiyatiga ko'ra turlicha tasniflanadi. Ular tashqi ko'rinishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- inson qiyofasidagi (antoropomorf) mifologik obrazlar;
- hayvon tuzilishidagi (zoomorf) mifologik obrazlar;
- qush shaklidagi mifologik obrazlar;
- maxluq ko'rinishidagi (demonomorf) mifologik obrazlar

Antropomorfik (inson qiyofasidagi) mifologik obrazlar. Pari, farishta, malak, hur, g'ilmon, Xizr, yalmog'iz kampir, alvasti kabilar inson qiyofasidagi mifologik obrazlar qatoriga kiradi.

1. Pari. Antropomorf qiyofadagi mifologik obrazlar orasida eng keng tarqalgani pari obrazi bo'lib, O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida alohida o'rin tutadi va mifologik afsonalar, sehrli-fantastik ertaklar hamda romanik dostonlarda ko'p uchraydigan an'anaviy obrazlardan

²⁴⁸ Фахриёр. Аёлғу. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 184.

²⁴⁹ Рауф Парфи. Туркистон рухи. Сайланма. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Вафо Файзуллох. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б. 269.

biri sanaladi. Qadimda elimiz orasida alvasti, mortuv deb ham atalgan.²⁵⁰ O'zbek folklorida pari obrazi genezisi va poetikasi O.Qayumov tomonidan alohida maxsus tadqiq qilingan.²⁵¹

Pari haqidagi mifik tasavvurlar genezisi O'rta Osiyoda yashagan qadimgi dehqonlarning hosildorlik g'oyasi bilan bog'liq agrar kultlar va go'zallik tushunchasiga aloqador estetik qarashlari zamirida shakllangan bo'lib, aniqlanishicha, dev, ajdar, pari obrazlari "Avesto" ta'sirida o'zbek folkloridan o'rin olgan. Ular, asosan, uch xil ko'rinishda tasvirlanadi: 1) odam; 2) jonivor yoki maxluq; 3) narsa-hodisalar qiyofasida.²⁵²

Afsonalarda pari go'zal qiz yo yigit ko'rinishida namoyon bo'lib, inson unga oshiq bo'lib qoladi yoki parining o'zi insonni sevib qoladi. Odamlar o'rtasida pari inson zotiga oshiq bo'lib, uni shomonlikka undashi, o'sha insonga homiylik ko'rsatishi haqida e'tiqodiy qarashlar bor. Agar o'sha inson parilar bilan bog'liq amal qilinadigan taqiqlarni buzguday bo'lsa, ular haqidagi gaplarni boshqalarga gapirmoqchi bo'lishsa, parilar uni qattiq jazolashi, ziyon yetkazishi aytiladi. Shuning uchun mumtoz she'riyatda parining ma'shuqa ko'rinishidagi qiyofasi va oshiqqa yetkazuvchi zararlari talqini ko'p keltiriladi. Zamonaviy she'riyatda ham shu poetik an'ananing davom ettirilishi barobarida yanada kengaytirilib, go'zallik, o'ziga rom qilish, jodulash, himoya qilish kabi xususiyatlarini saqlagan ko'chma ma'noda qo'llanishi, ya'ni metaforizatsiya qilinishi orqali poetik nutq ekspressivligi ta'minlanishi kuzatiladi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida pari obrazining go'zal qiz timsolidagi badiiy ifodasi ko'p uchraydi. Masalan:

O'zi ko'zi, oy yuzi tanda jonga tutash qiz,

Junun savdosin solma bu boshga **parivash** qiz²⁵³.

To'ra Sulaymonning "Seningsiz" sarlavhali she'ridan olingan bu parchada junun, ya'ni telba bilan parivash qiz obrazlarining yonma-yon keltirilayotgani e'tiborni tortadi. Bunda fikr to'ppadan-to'g'ri pariga emas, balki pariga o'xshagan go'zal qizga qaratilayotgani anglashilib turibdi.

Xalqning tasavvuricha, agar pari chalsa, odam jinni bo'ladi. Bu poetik motiv afsonalardan yozma she'riyatga ko'chganligi, avval mumtoz, keyin zamonaviy she'rlarda saqlanib kelayotgani folklor va yozma adabiyot munosabati qayd qilingan ayrim ilmiy tadqiqotlarda ham alohida qayd qilingan.²⁵⁴

²⁵⁰ Musurmanov E.R., Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar): o'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2014. – B. 47.

²⁵¹ Каюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси). Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун туқдим этилган дисс. автореферати. – Т., 1999. – 26 б.

²⁵² Musurmanov E.R., Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar): o'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2014. – B. 47.

²⁵³ Сулаймон Т. Истар кўнгил (Шеърлар, дostonлар). – Т.: F.Фулом, 1984. – Б.45.

²⁵⁴ Амонов У.С. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиш тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): Фалсафа фанлари бўйича филол. фан. доктори (PhD) ... дисс. автореф – Т.,

Folklorshunos olim O.Qayumovning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, suv parilari o'zbek shomonlari bilan doimiy ritual muloqotda bo'lib turadigan homiy ruhlar toifasiga mansub mifologik obrazlar sirasiga kiradi²⁵⁵. Masalaga shu tomondan qaraganda, suv parisiga o'xshagan suyuqli qizni oshiq yigitning najotkori, ko'nglidagi ishq dardining davolovchisi, hayotining yo'ldoshi, sinovlarda quvvatlovchisi, deb tushunish mumkin. Masalan, shoir o'zidagi ilhom, jo'shqinlik va ishtiyoqning sababini suv parisiga yo'liqish bilan bog'laydi:

*Yangi qahramon-la uchrashtirdimi,
Yo **suv parisiga** qildi ro'baro'?
Yo quyosh bilan qo'l ushlashtirdimi,
Yo tog'lardan tushdi oldiga ohi?*²⁵⁶

Iqbol Mirzoning "Tubida tosh dumalatib..." deb boshlanuvchi quyidagi she'rida parilarga xos uchish, avrab olish, jodulash, aqlni o'g'irlash sifatlaridan ramziy ma'noda foydalanilgan:

*Ro'molini qanot qilgan **pari** o'tdi,
Ko'z uchida menga qaray-qaray o'tdi,
Nigohlari jonimdan ham nari o'tdi,
Sizdan tekkan iztiroblar o'tmadi, yor,
Ko'zlarimdan ko'zlaringiz ketmadi, yor*²⁵⁷.

She'rning to'rtinchi misrasida shoir pari qizdan tekkan iztiroblar o'tib ketmaganini bildirmoqda. Demak, bu o'rinda mifologik tasavvurlarga xos parilarning ziyon etkazish xususiyatiga ishora qilinmoqda. Faqat bu ziyon kishining sog'ligiga emas, oshiqning ko'ngliga etgan, ishq dardiga muhtalo qilgan.

Shoira Halima Ahmedovanning "Boshqa dunyo yo'qdir..." she'ri sehr-jodudan-da qudratli kuch – ishq haqida bo'lib, unda pari va yalmog'iz obrazlarini qarama-qarshi qo'yish orqali muhabbatning naqadar sirli tuyg'u ekani ifoda etilgan:

Umrin koinotning umridan uzun,

2018. – 54 б.; Шарипова Л. XX асрнинг 70-80 йиллари шеърлятида фольклоризм. Филол. фан. номз... дисс. – Т.: 2008. – 155 б.

²⁵⁵ Қайумов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Т., 1999. – Б. 8.

²⁵⁶ Зулфия. Яратиш дарди / Тонг билан шом аро. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2012. – Б.190.

²⁵⁷ Мирзо И. Сени бугун кўрмасам бўлмас (Шеърлар). – Т.: Истиқлол, 2015. – Б. 30.

O`lim, qo`rqoqdirsan, sen-da bir ojiz.

Dahshat o`rmonlari ichra nogahon

Pariga aylandi qadim yalmog`iz:

Men seni naqadar sevaman ²⁵⁸.

Oshiq ishq tufayli shunchalar masrurligidan hayotni, umrni boqiy deb tasavvur qiladi va unda faqat yorqin ranglarni ko`radi: o`limdan ham qo`rqmaydi, o`zini undan kuchli deb biladi, hamma narsa faqat chiroyli va yaxshi bo`lib tuyuladi, hatto dahshat o`rmonlarining egasi sanalmish qari va xunuk yalmog`iz chamanzorlar bekasi paridek yosh va go`zal bo`lib ko`rinadi. Umuman olganda, shoira ijobiy (pari) hamda salbiy (yalmog`iz) mifologik obrazlarni yonma-yon keltirib, qarshilantiradi va she`r bag`riga “muhabbat hatto yalmog`iz (yovuzlik)ni ham pari (ezgulik)ga aylantiruvchi kuch” degan g`oyani singdiradi.

2. Malak (farishta). Arabchadagi “malak”, fors-tojikchadagi “farishta” so`zlari o`zaro sinonim bo`lib, nihoyatda pok, gunohsiz, qanotlari bor, uchib yuruvchi go`zal ayol, nozanin qiyofasidagi mifologik timsol tushunchasini anglatadi.²⁵⁹

Malaklar (farishtalar) son-sanoqsiz bo`lib, har biri ma`lum vazifani bajaradi. Ular islomda va boshqa ba`zi dinlarda xudoning amrini bajaruvchi g`ayritabiiy mavjudot sifatida talqin qilinadi. Lekin badiiy adabiyotda malak (farishta) obrazlantirilar ekan, bir necha ko`chma ma`nolarda qo`llanadi. Masalan, ko`pincha yaxshi xulq-atvorga ega bo`lgan, go`zal, fayzli, jozibali, ziynatli, sarishta ayollarga yoki pokiza, musaffo qalbli insonlarga, begunoh kishilarga yoxud saranjom, fayzli joylarga nisbatan farishta, farishtasi bor jummalari ishlatiladi.²⁶⁰ Aksincha, o`ziga jalb qiladigan fazilati, ko`rki yo`q, xosiyatsiz bo`lsa farishtasiz, farishtasi yo`q deb ko`rsatiladi.

Malak holatinda ko`rgandim seni,

Qushlar qanotinda ko`rgandim seni,

Kuychi bayotinda ko`rgandim seni.

²⁵⁸ Аҳмедова Н. Эрк дариҷаси: шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 100.

²⁵⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.533.

²⁶⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.329.

T. Sulaymonning “Qayta ketmas bo'lib keldingmi, bahor?” deb nomlangan she'rida “malak” bahor faslining betakror go'zalligini, unga xos tozarish va poklikni, beg'uborlikni sifatlash maqsadida qo'llangan. Bu o'rinda malak obrazi to'ppadan-to'g'ri stilizatsiya qilingan emas. Bahorni jonlantirish va sifatlash uchun malak obrazi metaforizatsiya qilingan. Ya'ni bahor malakka o'xshatilib, shu o'xshashlik asosida malak belgilari bahorga tashbehlantirilgan.

E'tiborli tomoni shundaki, shoir bu metaforizatsiya jarayonida xalqning malak haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalaridan yiroqlashmagan. Shundan kelib chiqib, shoir xuddi malak holatidagi beg'ubor bahorning qushlar kabi qanoti borligiga, uning asosi kuychilar yaratgan bayotlarda ekaniga ishora qilmoqda. Kuychi xalq orasida baxshi, shoir ma'nolarini anglatishi ma'lum²⁶².

Asqad Muxtorning “Bilmadim, yo'lingga kimlar bo'ldi g'ov” deb boshlanuvchi she'rida farishta obrazidan foydalanilgan:

Bilmadim, yo'lingga kimlar bo'ldi g'ov,

*Bezidi kulbamdan fayzu **farishta**.*

Ko'ngil mulkim mening alg'ov-dalg'ov,

*Qayt, dunyomni qilgil sarishta*²⁶³.

She'riy parchada farishta obrazi juft so'z – “fayzu farishta” shaklida keltirilganidan ham ma'lum bo'ladiki, u orqali ko'rk, ziynat, fayz, baraka ma'nolari ifodalanmoqda. Lirik qahramon yorining tashrifisiz kulbasi fayzsiz, ko'ngli vayron, dili xufton ekanligidan yozg'iradi. She'r so'ngida lirik qahramon yoriga tag'in murojaat qilib, farishtaning qaytishiga va ko'ngil uyini sarishta qilishiga umid qiladi.

3. Hur, g'ilmon. Hur turmushga chiqmay vafot etgan jannatdagi qizlarning, g'ilmon esa uylanmay vafot etgan jannatdagi yigitlarning nomi bo'lib, ular pokligi jihatidan tenglashtiriladi. “Yo'qlov” she'rida shoir hur obrazini qo'llash orqali shu voqeaga ishora qilgani kuzatiladi:

²⁶¹ gul_bir_yon_tura_sulaymon_ziyouz_com.zip

²⁶² Имомов К., Мирзаев Т., Сарисоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

²⁶³ Мухтор А. Сизга айтар сўзим (Шеърлар). – Т.: Ф.Ғулом, 1978. – Б. 28.

***Hur** kelib, **hur**ligicha ketgan ne bir sanamlar.*

Yuragi, bag'ri dog'li, ko'ksi to'la alamlar,

El-yurtda e'tiborli, Barchinday muhtaramlar

*Munis singlim, duogo'y momom yotibdi bunda*²⁶⁴.

Demak, yozma she'riyatda hur, g'ilmon obrazlari dunyodan bevaqt, mujarrad holda ko'z yumgan yoshlar ruhiga ishora qilish uchun qo'llaniladi.

4. Xizr. Inson qiyofasidagi afsonaviy obrazlardan yana biri Xizrdir. Arabcha “yashillanmoq, yashil tusga kirmoq” degan ma'noni anglatuvchi Xizr nomi she'riyatda ijobiy semada ko'p qo'llaniladi. Bunda uning o'zbek xalq afsonalaridagi kabi qahramonga yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi, sehrli narsalarni hadya etuvchi, og'ir ahvolda qolganlarni qutqaruvchi, buloqlarning suvini ravon qiluvchi, g'ayritabiiy xususiyatga ega homiy personaj sifatidagi tasviri va talqinining ko'p hollarda saqlab qolingani kuzatiladi. Yana uning o'zbek xalq afsonalaridagi singari odatda buloq, quduq yoki hovuz bo'yida uchrashi tasvirlanadi. Bu bejiz emas. Buniig sababini folklorshunos M.Jo'rayev shunday tushuntiradi: “Chunki mifologik tasavvurlarga ko'ra, Xizr suv kulti bilan bevosita aloqador ezgulik homiysi sanaladi”²⁶⁵. Yana olim Xizr bilan bog'liq o'zbek xalq afsonalarida bu mifologik personaj boshiga mushkul savdo tushgan kishilarga homiylik qiluvchi afsonaviy xaloskor, dono va zukko maslahatchi, boqiy hayot suvini topib ichganligi uchun abadiy barhayotlikka erishgan afsonaviy qahramon, shifobaxsh chashmalar ko'zini ochgan g'ayrioddiy shaxs, cho'l va sahrolarda g'oyibdan paydo bo'lib, qiyin ahvolda qolgan yo'lovchilarga ko'mak beruvchi ezgulik timsoli, dehqon dalasiga mo'l hosil va baraka ato etuvchi hosildorlik ramzi, odamlarni hamisha qo'llab-quvvatlab yuradigan ezgu pir yoki aziz avliyolardan biri sifatida namoyon bo'lishini qayd qilar ekan, afsonalardagi Xizr obrazi ertak va dostonlarga nisbatan qadimiy mifologik qarashlarni o'zida mukammalroq aks ettirishini alohida ta'kidlaydi.²⁶⁶ Folklorshunos K.Imomov esa Xizr obrazining o'zbek xalq afsonalarida ideal qahramon sifatida badiiy

²⁶⁴ Сулаймон Т. Гулшан (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Ғ.Ғулом, 1988. – Б.18.

²⁶⁵ Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184 б.

²⁶⁶ Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – Б. 104-118.

talqin qilinishini, shuning uchun u o'lim bilmas, zarb o'tmas, o'tda yonmas xususiyatda tasvirlanishini, uning bu xususiyati diniy mo'jiza emas, balki magik xususiyat ekanligini, shu sababli u bordan yo'q bo'lib, yo'qdan bor bo'lishini, goh odam, goh jonivor, goh biror buyum shaklida paydo bo'lib, qahramonning ezgulik yo'lida g'alaba qozonishiga ko'mak berishini qayd etadi.²⁶⁷

Xizr obrazi real shaxslar obrazi bilan bir qatorda ko'pincha xayoliy-mifologik personaj sifatida talqin etiladi. Lekin uning islomiy-diniy afsonalarda, ishonchli manbalarda payg'ambar sifatida e'tirof etilishi Xizrni mifologik obraz sifatida qarashga yo'l bermaydi. Jumladan, Qur'oni karimning oyatlarida Xizr nomi bevosita tilga olingan²⁶⁸.

M.Rizayeva o'zbek xalq mifologik afsonalarida tasvirlangan antropomorf (ya'ni inson ko'rinishidagi) obrazlarning bir necha tiplarini tasniflar ekan, 4-tipga ota-bobolar ruhining madadiga ishonish an'anasi hamda ajdodlar kulti bilan aloqador mifologik tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan manistik obrazlar sifatida Xizr, eranlar, chiltan, G'oyib ota obrazlarini kiritadi²⁶⁹.

G.P.Snesarovning qayd etishicha, O'rta Osiyoning ko'plab hududlarida uyga "oq ilon" kirib kelsa, unga daxl qilmaslik, undan boshqa ilonni o'ldirish lozim, chunki u ajdodlar ruhidir, degan inonch tarqalgan²⁷⁰. Muallif bu udumni zardushtiylik dini bilan bog'laydi. Aslida ajdodlar ruhining zoomorf qiyofada namoyon bo'lishi totemistik tasavvurlarga borib taqaladi. "Oq ilon" obrazi O'rta Osiyo afsonalaridagi Xizr obrazi bilan ham bog'lanadi. Biroq islom manbalarida "oq ilon" musulmonlikni qabul qilgan jin ekanligi, unga Nuh va Sulaymonga bergan ahdini eslatib, ketishini ogohlantirish lozimligi aytiladi²⁷¹. Demak, xalq afsonalaridagi oq ilonning baxt va baraka ato etishi haqidagi inonch, islomdan oldin mavjud bo'lgan ajdodlar ruhining hayvon qiyofasida namoyon bo'lib, yordamga kelishi, jinlarning g'ayb ilmidan ogoh ekanligi va kishini murodiga yetkazishi haqidagi tasavvurlar keyinchalik islomlashtirilgan va Xizr obrazi bilan bog'langan.

Yozma ijodda ko'pincha xalq afsonalaridagi Xizr obraziga murojaat qilinadi va hayot suvini izlagan Iskandar, hayot ato etuvchi nafaslik Iso obrazlari bilan yonma-yon qo'llanadi. Bundan anglashiladiki, ijodkor

²⁶⁷ Имомов К. Афсона // Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1989. – Б. 9.

²⁶⁸ Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – 544 б.

²⁶⁹ Ризоева М. А. Ўзбек халқ мифологик афсоналари (ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва образлар тизими): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2019. – Б.107.

²⁷⁰ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Қуванчбек-Машхура, 2018. – Б.110.

²⁷¹ <https://islom.uz/maqola/116>

diniy va afsonaviy motivlarni uyg'unlashtirib, mifologik obrazlarni o'z g'oya va maqsadi yo'lida qayta ishlaydi.

O.Hojieva qalamiga mansub "Najot" dostonining "Bolalik bog'idan fasona" deb nomlangan birinchi qismida shoira tug'ilib o'sgan Ro'zibiyon qishlog'ida yuz bergan bir sirli va g'amgin voqea naqshinkor darvoza bilan bog'lab hikoya qilingan. Unda qishloqdagi bolalarning "oq libosli, soqoli ko'ksiga tushgan" afsonaviy Xizr boboni doimiy kutib yashashlari, kunlarning birida qishloqdagi fayzu barakali, naqshinkor darvozasi bor hovli oldida uning paydo bo'lishi, biroq nogahon "bir bechora juldur chopon, oyoq yalang, yoqasi chok" holda namoyon bo'lganligi, shundan so'ng o'sha xonadon boshiga og'ir kulfat tushganligi tasvirlanadi²⁷². Demak, asarda juldur kiyimli notanish cholning kelishi xonadon boshiga tushajak falokatdan ogohlantirishdir. Ayni paytda uning bu badiiy vazifasi afsonaviy Xizr obrazi vazifasiga parallel olinganligini sezish qiyin emas. Xususan, bu ularning kutilmaganda paydo bo'lib, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqelik haqida oldindan ogoh etishi vazifasida namoyon bo'ladi. Afsonaviy obrazning dostonga kiritilishidan esa obraz stilizatsiyasi vujudga kelgan. Buning yordamida dostonida farovonlikka intilish, ezgulik, totuvlik, ahillik uchun kurashish, keladigan xavfni birlashib yengish lozimligi haqidagi fikrlarning badiiy talqin etilishiga erishilgan.

Sadriddin Salim Buxoriy "Rivoyat" sarlavhali she'rida Xizr va shayton obrazlaridan foydalanib, bir so'qirning e'tiqod tufayli ko'zi ko'rgani haqida hikoya qiladi. "Rivoyat"da aytilishicha, So'qir Xizrni kutib yashaydi, shayton uni kalaka qilib, o'zini Xizrman deb tanitganida so'qirning ko'zi ko'radi. Shaytonligini aytganda esa so'qir faryod qilmay, iymon, ishonchi sabab ko'rayotganini aytadi:

Derlarki, shunday hol qadimda

Bo'lganmish, ne ajab, berdim tan.

*Hozir ham **shayton** bor zaminda*

*O'zini **Xizr** deb atagan.*²⁷³

²⁷²Кувватова Д. XX аср иккинчи ярмида ўзбек поэмаси. – Т.: Турон замини зиё, 2014. – 176 б.

²⁷³ Бухорий С.С. Бухорога Бухоро келди. Шеърлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 17.

Darhaqiqat, hayotda o'zini oliyjanob qilib ko'rsatadigan g'araz niyatli kishilarga aldanmaslik, O'zidan o'zgaga muhtoj bo'lmaslik g'oyasi she'rda diniy-afsonaviy obrazlar vositasida ko'rsatilgan.

5. Alvasti. O'zbek folkloridagi yovuzlik semasiga ega mifologik obrazlardan hisoblangan ajina va alvasti obrazlari ham, asosan, antropomorf qiyofada tasvirlanadi. Chunki qadimgi odamlar ruhlar olamini insonlar olamiga o'xshatishgan.

Alvasti – ko'plab turkiy xalqlarda suv stixiyasi (tabiiy ofat) bilan bog'liq yovuz jin (demon), shayton²⁷⁴ bo'lib, odatda och rangli uzun sochlarini yoyib olgan badbashara ayol ko'rinishida tasavvur qilingan. G.P.Snesarevning ta'kidlashicha, eroniy va turkiy xalqlar orasida bu obrazdan faol tarqalgan boshqa bir demonologik obrazni topish amrimahol²⁷⁵. Tasavvurlarga ko'ra, alvasti hayoti uchun eng zarur vosita suv sanaladi. Shuning uchun katta ariqlar bo'yida, daryo yoqasida, hovuz yoki quduqlar oldida unga duch kelish mumkinligi aytiladi. U odamlar ko'ziga sochini taroq bilan tarab turgan kekxa ayol yoki yosh qiz qiyofasida ko'rinar. Uni bo'ysundirish uchun soch tolasiga yoki unga tegishli biror buyumga egalik qilish kerakligi aytiladi.

Badiiy ijodda alvasti, asosan, kekxa va makkor ayol, birovning yorini o'ziga og'diruvchi, jangovar guruh a'zosi, tashqi qiyofasi va nigohidan mavhumligi va tasqaraligi, harakatlaridan esa yovuzligi, jodugarligi, gunohdan hazar qilmasligi seziladigan kishi, sevimli xotin, qiligi beo'xshov ayol, shuningdek, to'zg'igan soch timsoliga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

Rauf Parfi "Yorab! Ko'zingni och! Hiddat surindi" deb boshlanuvchi she'rida ins (inson) ko'rinishida namoyon bo'luvchi alvasti obrazidan foydalanish orqali xalqning zahmatlarini, ma'naviy merosini, ijodkorlarini toptagan odamlardan nafratlanishini, irganishini ifodalagan:

Tilsiz mozorotda g'imirlar oqshom.

Yalang'och yobonda bir ins ko'rindi.

²⁷⁴ Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б. 32.

²⁷⁵ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Қуванчбек-Машхура, 2018. – Б. 28.

Sariq alvastilar bo'ldi namoyon,

*Sen-da chibin kabi chirpanding.*²⁷⁶

Fitratning “Sharq” she’rida g’arbga xos madaniyatga nisbatan olbosti (alvasti) obrazi qo’llanilgan:

Madaniyat degan g’arbli **olbosti**,

Boqing, buning ko’kragidan o’q bosti²⁷⁷.

Darhaqiqat, ushbu fikrlar hozirgi davr uchun ahamiyatlidir. Bugun sharq madaniyati va ma’naviyati tobora g’arbga yaqinlashib bormoqda. Globallashuv insoniyatga teng huquqlilik, millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik, fikr va so’z erkinligi kabi imkoniyatlarni berayotgani bilan bir qatorda, milliy mentalitetga daxl qilib, sharqona odob-axloq, andisha, hayo kabi azaliy qadriyatlarning darz ketishiga, sharq xalqlarining haqiqiy qiyofasi yo’qolishiga sabab bo’layotgani go’yo alvastining kishini avrashiga o’xshaydi. Fitrat ijodidagi folklorizmlar U.Amonovning tadqiqotida maxsus o’rganilgan.²⁷⁸

6. Ajina. Ajina o’zbek folkloridagi yovuz momo ruhlardan biri sifatida talqin qilinadi. Xalqdagi Alloh bergan omonat jonga xiyonat qilib, o’z joniga qasd qilgan insonlarning ruhini ruhiy olam qabul qilmaydi, natijada qarovsiz qolgan ruh ajinaga aylanadi, degan ishonchlar sabab ko’pincha “ajinalar” deb, ko’plikda ishlatiladi. Genezisi arab folkloriga boib taqaladi.

Ajina “jin” so’zining ko’pligi sifatida ham ko’rsatiladi, ammo ajina, asosan, kichkina jussali tasqara kampir, jandapo’sh jalojin kekxa ayol qiyofasida gavdalandirilishi bilan jin va alvastidan ko’rinishi va turish-turmushi, yashash manzili bilan farqlanadi. Chunki jin erkak jinsida, ajina esa ayol jinsida tasavvur qilinadi.

Eshqobil Shukurning quyidagi satrlarida esa o’ksik yurak, ayriliqdan dard chekayotgan ko’ngil og’riqlari, hijron azobi **kecha, ajina**

²⁷⁶ Парфи Р. Сўнгги видо. Шеърлар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.135.

²⁷⁷ https://n.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/Abdurauf%20Fitrat.%20Yurt%20qayg'usi.pdf

²⁷⁸ Амонов У.С. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиш тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): Фалсафа фанлари бўйича филол. фан. доктори (PhD) ... дисс. автореф – Т., 2018. – 54 б.

obrazi, uqubatlarning davomiyligi, vaqtning go'yo sekin o'tayotgani **ilon** obrazi vositasida ko'rsatilgan:

Kecha... Xona karaxt. Deraza tirik.

Havoni chayqaltar unut bir ovoz.

Ajinaning sochin taraydi o'trik,

*Ilonday sudralar bunda inqiroz*²⁷⁹.

Xalqning ajina va alvasti bilan bog'liq tasavvur-tushunchalari ertaklarda yalmog'iz hamda jodugar kampir obraziga singdirilganligi seziladi. Chunki yalmog'iz kampirning portreti ertaklarda xuddi ajina va alvastining xalq asotir va afsonalaridagi talqiniga mos kelishi kuzatiladi.

7. Yalmog'iz. Inson ko'rinishidagi mifologik obrazlardan navbatdagisi yalmog'iz obrazidir. Bu obraz folklordagi yovuzlik timsollaridan biridir. Folklorshunos K.Imomov "yalmog'izni sinkretik obraz, xalq eposida konflikt kelib chiqishi yoki konflikt yechimiga sabab bo'luvchi personaj"²⁸⁰ deb hisoblaydi. U ko'pincha yozma she'riyatda nafrat tuyg'usini ifodalash uchun qo'llanadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida bu obrazning uchish, sehrlash, yamlamay yutish, ochko'zlik kabi xususiyatlaridan foydalanib, urush, g'am, talofat, nafs, o'lim, dahshatli texnika, ba'zan mo'jiza kabi tushunchalar ramziy ochib beriladi. Masalan, O.Hojievaning "*Tillo sochingni tobutga o'rdi, Urush – yalmog'iz!*", "*Qo'ling bog'lab, yalmog'izday kuldi g'am*" satrlari shu jihatdan e'tiborlidir. Odatda, yalmog'iz tutib olgan jonzotini bog'lab qo'yib, xoxolab kulishi ertaklarda tasvirlanadi. Shoir shu epik tasvir usulidan foydalanib, g'amni yalmog'izga barobar qilmoqda.

Sobiq sho'ro davri haqidagi quyidagi satrlarda esa bu mash'um tuzum xalq rizqini yegan ochofat yalmog'izga tenglashtirilgan:

Elning ko'kragiga tushaverdi dog',

Rais esa taqdi ko'ksiga yulduz.

Yalpizlarni "yutib" so'ng beton qirg'oqlar,

*Oqizoq nonlarni edi yalmog'iz*²⁸¹.

Yalmog'iz obrazi deyarli barcha jahon xalqlari folklorida mavjud bo'lib, ko'pgina xalqlarning ertak va dostonlarida uning ikki qirradi: epik

²⁷⁹ Шукур Э. Хамал айвони (Шеърлар ва дoston). – Т.: Шарк, 2002. – Б. 76.

²⁸⁰ Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. – Т.: Фан, 2008. – 252 б.

²⁸¹ Хожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарк, 2010. – Б. 358.

qahramonga ko'makchi va homiyligi yoki unga muxolif, ziyon yetkazuvchilik xarakteri ko'zga tashlanadi²⁸². Qirg'iz mifologiyasiga ko'ra, yalmog'iz – yetti boshli demonomorf mavjudot. Qadimgi turklarning og'zaki ijodida faol personaj sanalgan yalmog'izni tashqi ko'rinishiga ko'ra ajdarho bilan ham qiyoslaydilar. Ba'zan yalmog'izning kelib chiqishi homiy Ona kultiga ham bog'lanadi²⁸³. V.Ya.Propp, A.A.Potebnya kabi olimlar bunga ushbu obrazdagi shomon-sehrgar, qavm-ro'zg'or olovining bekasi, "o'lim mamlakati"ning qo'riqchisi kabi funksiyalar sabab bo'lganini ta'kidlaydilar²⁸⁴.

Urush mavzusi qalamga olingan ko'plab she'rlarda bosqinchilar ajdar, yalmog'iz metaforalari orqali ifodalanganini ko'rish mumkin. Masalan, To'ra Sulaymon "Onaizor" she'rida II jahon urushining boshlanishiga sabab bo'lgan Gitlerni ajdaho va yalmog'izga o'xshatgan. Bunda ijodkor bir o'rinda vositali ko'chim – o'xshatish (ajdaho misol)dan foydalangan bo'lsa, keyingisida to'g'ri ko'chim – istiora (yalmog'iz) qo'llaganini kuzatish mumkin:

Ajdaho misol elga

Baralla ochib og'iz,

Urush boshlaganida

*Gitler nomli **yalmog'iz**,*

Oldinma-keyin ketdi

*Uch o'g'lim sallotlikka.*²⁸⁵

Ta'kidlanganidek, yalmog'iz obrazi zamonaviy o'zbek she'riyatida yamlamay yutish, yeb-to'ymaslik, ochko'zlik va ochofatlik kabi xususiyatlari asosida urush, g'am, talofat, nafs kabi tushunchalarni ramziy ifodalashda qo'llanishi kuzatiladi. Ushbu obraz ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri stilizatsiya qilinmay, ko'chma ma'noda qo'llaniladi, ya'ni metaforizatsiya qilinadi va bu nutqiy ekspressivlikni ta'minlaydi.

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodida yalmog'iz o'ta xunuk qari kampir sifatida tasvirlanadigan, duch kelgan hamma narsani yeb-yutib

²⁸² Жуманиёзов Б.М. Ўзбек халқ эпосида ялмоғиз образи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 1996. – Б.3.

²⁸³ Эгамов Х. Совет шарқи туркий халқлари эртакчилиги анъаналари алоқалари тарихдан очерклар. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 289 б.

²⁸⁴ Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1946. – 366 с.; Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. Собрание трудов. – Москва: Лабиринт, 2000. – 480 с.

²⁸⁵ Сулаймон Т. Истар кўнгил (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, – 1984. – Б. 56.

yuboradigan afsonaviy maxluq, jodugar obrazi – yalmog‘iz Jamol Kamol qalamiga mansub quyidagi satrlarda yovuzlik va ochko‘zlikning timsoli sifatida keltirilgan:

Kelishdi barchasi noningni yeb,

Qoningni ichmakka,

Nahanglar, ajdaholar,

Yalmog‘izlar ozmi tarixda?²⁸⁶

Ushbu she‘riy parchada o‘tmishda vatanimiz yerlariga bostirib kirgan bosqinchilarga nisbatan nahang, ajdaho va yalmog‘iz tashbehlari qo‘llanilmoqda. Bosqinchilikning qon to‘kish, vayron etish, yondirish, kul qilish, yakson etish kabi talafotlari nahang, ajdaho va yalmog‘iz yetkazadigan zararlarga o‘xshatilmoqda. Qolaversa, bosqinchilarga xos bo‘lgan yovuzlik va ochko‘zlik kabi illatlar shu obrazlar vositasida ifodalanmoqda.

Umuman olganda, bu uch obrazni birlashtiruvchi umumiy belgilar yamlamay yutish va ochko‘zlikdir.

Mirtemirning “Vabo” she‘rida ham miflarga xos motiv va obrazlar alohida o‘rin egallagan:

Yoki yellar charx urisharmi,

Yorginamdan keltirib bo‘sa?

*Yo **parilar** yugurisharmi,*

Alvastining sharpasi, yo‘qsa?..

*Yo‘q! Bu na **pari, jin** va na **alvasti**,*

*Na bo‘ri, na qashqir va na **jodugar**.*

Elni talamoqdir, eldadir qasdi,

*Bu kelgan **yalmog‘iz** yovdir dardisar.*²⁸⁷

²⁸⁶ Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Фан, 2007. – Б.233.

²⁸⁷ Миртемир. Асарлар. Уч томлик. Иккинчи том. – Т: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 207.

Urush mavzusida yozilgan, metaforalar bilan bezalgan bu she'rda salbiy asotiriy va afsonaviy pari, jin, alvasti kabi, ertaklardagi yalmog'iz obrazlariga ishora qilinmoqda. Xususan, yalmog'iz ertaklardagi singari salbiy mazmun tashib, yovuzlik timsoli sifatida yovga qiyoslanayotgani e'tiborni tortadi.

“Salom xat” she’ri ham urush haqida yozilgan:

Shu Vatan berdi non, Vatan berdi tuz,

*Uni yamlamakda sariq **yalmog'uz**...*

*Ularda shafqat yo'q – **dev, ahramanlar,***

Ular odamzodni eb o'rganganlar.

Yuqoridagi parchada shoir fashist-bosqinchilarini yalmog'uz, dev, ahraman singarilarga qiyoslab, shu asosda metafora hosil qilgan. Bu o'rinda shoir “yalmog'iz” so'zini misra oxirida qo'llayotgani uchun undan oldingi misrada kelgan “tuz” so'ziga ohang jihatdan moslashtirish maqsadida uni yalmog'uz ko'rinishida bergan ko'rinadi. Ahraman (Axriman) aslida “Avesto”dagi yovuz dev timsolidir, lekin shoir bu o'rinda dev, ahramanni uyushiq holda sanagani mantiqqa ziddir.

O'zbek zamonaviy she'riyatining ayrim namunalarida yalmog'iz obrazining ijobiy semasidan foydalanib yaratilgan poetik ifodalarga ham duch kelish mumkin. Jumladan, N.Jo'raevning “Zarra” she'rida yalmog'iz obrazidan xuddi shunday ma'noda foydalangani, she'rda ilmning qudrati yalmog'izning sehrly olish kuchiga o'xshatilgani ko'zga tashlanadi:

Yalmog'iz sehriga o'xshaydi ilm –

“Suf” desa odammiz, “kuf” desa robot.

Bizni shu jodular etgandir taslim,

*Xohlasi hayotmiz, xohlasi nobud.*²⁸⁸

Darhaqiqat, ilm-fan bugun shunday yutuqlarga erishmoqdaki, uning vositasida inson turli mo'jizalar yaratmoqda. Qadimda insonlar miflar orqali tasavvur qilgan hodisalar bugun ilm-fan taraqqiyoti tufayli

²⁸⁸ Жўраев Н. Энг кудратли зарра. – Т.: Адиб, 2012. – Б. 59.

haqiqatga aylanayotgani hech kimga sir emas. Lekin inson aql-zakovatining qudrati bilan yaratilayotgan ilm-fan, texnika yutuqlari (atom, raketa, samolyot kabilar) esa har doim ham inson manfaatlari uchun emas, ba’zida unga zarar yetkazish uchun ham ishlatilayotgani ma’lumki, she’rning mazmunidan shunga ishorani ilg’ash mumkin.

8. Yosuman – forscha “xushbo’y gul, jasmin shoxchasi” ma’nosini anglatib, Yasmin, Jasmin, Jasmina, Yasmina kabi variantlari bilan musulmon ayollariga qo’yiladigan ism ham sanaladi. Biroq turkiy xalqlar, shuningdek, fors-tojik xalqlar mifologiyasiga ko’ra, alvasti, yalmog’izning bir ko’rinishi bo’lib, folklorda, odatda, yovuz va makkor, hiylakor ayol timsolida namoyon bo’ladi va demonomorf obrazlar bilan birgalikda talqin qilinadi. O’zbek mumtoz adabiyotida bosh qahramonni yo’ldan uruvchi asosiy salbiy personaj hisoblanadi²⁸⁹.

Tashna bu ruhimga she’r bo’lib kirdi

Moviy daralarda asrlik tuman.

She’r meni chamanlar sayriga burdi.

*Sargashta etgan ham o’sha “**yosuman**”.*²⁹⁰

O’zbekiston xalq shoiri A.Oripov qalamiga mansub ushbu satrlarda she’rga nisbatan yosuman metaforasi ishlatilmoqda va u o’ziga asir etishi, shoirni sehrlashi ta’kidlanmoqda. Bu esa ijobiy ma’noda yosumanning jodulashi bilan tenglashtirilmoqda.

O’zbek mumtoz adabiyotida Furqat ijodida ham yosuman obrazidan foydalanilgan. Shoirning “Fasli navbahor o’ldi” g’azalida ushbu obraz bahor chog’i ochilgan, xush bo’y taratgan nastarin, nargis gullari qatorida keltirilgan:

*Nastaran yuvib yuzni, **yosuman** tuzib o’zni,*

*Nargis ochibon ko’zni, intizori yoronlar*²⁹¹.

Badiiy ijodda bahor, ko’pincha, yangilanish, yasharish, go’zallik, muhabbat fasli sifatida tarannum etiladi. Shunga ko’ra “Yoronlarga

²⁸⁹ Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б.61.

²⁹⁰ Орипов А. Онажон (шеърлар). – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969. – Б.80.

²⁹¹ Фурқат. Танланган асарлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 161.

intizor” ushbu xushboʻy gullar obrazi ramziy maʼnoda oshiqclarini oʻziga rom qiluvchi, jodulovchi suluv qizlarni ham anglatadi.

Shoira H.Ahmedova “Ariqdagi suvlarda...” deb boshlanuvchi bir sheʼrida shunday yozadi:

Uzoqlarga bosh olib ketgan

Yoʻl izini yuvadi tuman.

Maysalarga ogʻu tutadi

*Sovuq shamol – kekxa **yosuman...***²⁹²

Fasllar almashar ekan, tabiatdagi oʻzgarishlardan ijodkor ahli taʼsirlanmay qolmaydi. Yuqoridagi sheʼrda ham shoira bahor oʻtib, kuz kelganda maysalarning sovuqdan soʻlishini, yashil oʻsimliklarning sargʻayib xazon boʻlishini kekxa jodugarning shumligi oqibatiga yoʻyadi: sovuq shamolni qari yalmogʻiz – yosumanga oʻxshatadi. Aslida shoira bu oʻrinda Ayamajuz timsolini qoʻllasa boʻlardi. Chunki Ayamajuz (arabcha “ayyom” – kunlar, “ajuz” – kampir)²⁹³ – qishda toʻqson oʻgʻlining kunlarni sovutishidan qoniqmay, qahrlangani uchun bahorning ilk kunlarida, ayni daraxtlar gulga kirayotganda izgʻirin keltiradigan mifologik obraz. Xalq orasida “Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa, qattiq kun”, “Ayamajuz kirganda toʻqson – bir kunimcha yoʻqsan” kabi naqlar ham mavjud. Lekin shoira yosuman obrazining yovuzlik qilish, zahar tayyorlab, raqibini yoki oʻljasini zaharlash kabi shum ishlar qilish belgisiga tayanadi va sovuq shamolning koʻk maysalarni nobud qilib, ularni quritib yuborishi yoxud yashil oʻsimliklarning sovuq olishi qari yosuman kampirning raqibini halok etishiga oʻxshatiladi. Sheʼr tahlilida kekxa shamol yosh maysani halok qilganini inobatga olsak, shoir xalqning kekxa ayol qiyofasidagi yalmogʻiz bolalar va yosh yigit-qizlarni taʼqib qilishi haqidagi mifologik qarashlaridan yiroqlashmaganiga shohid boʻlamiz. Demak, zamonaviy shoirlar ijodida koʻrinishi, vazifasi jihatidan yaqin boʻlgan mifologik obrazlarning belgilari oʻzaro qoʻshib, sintezlashtirib stilizastiya qilingan holatlar ham uchraydi.

²⁹² Аҳмедова Ҳ. Умид сояси (Шеърлар). – Т.: Ниҳол, 2008. – Б.35.

²⁹³ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/ayamajuz-uz>

To'ra Sulaymonning o'tmishdan hikoya qiluvchi "Iltijo qilgan bilan..." she'rida dushmanning oshiga uxlatadigan dori qo'shib bergan kekxa momo o'ziga nisbatan yosuman tashbehini ishlatadi:

*Zig'ir yog'ga aralash dori solgandim oshga,
Tushganini ko'ramiz, deya bu g'arib boshga.
O'ylab topa bilmadim, bundan o'zga chorani,
El **Yosuman** desa-da menday yuzi qorani²⁹⁴.*

Momo tilidan aytilgan ushbu satrlarda momoning suluv qizlarini qutqarish uchun qilgan hiylasi yosumanning makr ishlatishiga o'xshatilmoqda.

Bobur Bobomurodning "*Bor ekan-u yo'q ekan, Sevishganlar baxtini, Ko'rolmagan yosuman – Buzibdi ishq taxtini*²⁹⁵" satrlarida ham ushbu obraz makkor, hasadgo'y sifatida gavalantirilganini yaqqol ko'rish mumkin. Qolaversa, Yosuman kampir obrazi Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ham ikki sevishganni ayirishga uringan makkora sifatida tasvirlangan. Bundan anglashiladiki, yosuman obrazi zamonaviy shoirlar ijodida poetik an'anaviylik kasb etgan.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida ba'zan yil fasliga nisbatan ham yosuman obrazi metaforizatsiya qilinadi. Biroq uning ayriliq, hajrga sababchi ekanligiga ishora sezilib turadi. Masalan, B.Otajonova xazon fasli kuzni sariq yosumanga tenglashtirgan:

*Quyoshni uyiga kuzatar tuman,
Teraklar poyiga cho'kib borar nur.
Kuz – bizni ayirgan sariq **yosuman**,
Bog' chetida kuzni qarg'aydi g'urur²⁹⁶.*

O'zbek mifologiyasida sariq qiz, sarimomo singari yovuz kuchlar timsoli ham mavjud. Bu o'rinda shoirning shunga ishorasi kuzatiladi. Kuz fasli badiiy ijodda ko'pincha ayriliq, hijron ramzi bo'lib keladi. Lirik qahramon ayriliqqa sababchi bo'lgan oltinrang faslni makkor jodugar –

²⁹⁴Сулаймон Т. Сирдарё қўшиқлари (шеърлар). – Т.: Ёш гвардия, 1974. – Б. 17.

²⁹⁵Бобомурод Б. Бир кун келиб. – Бухоро: Бухоро, 2005. – Б. 53.

²⁹⁶<https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/bashorat-otajonova-1986/>

yosumanga o'xshatib jonlantirgan va kuzga nisbatan o'zining negativ tuyg'ularini namoyon qilgan.

Faxriyor sonetlaridan birida ham Yosuman obrazi kuzni ifodalab, u bahorga qarama-qarshi qo'yilgan va vaqt o'tib uning gul bo'lib qaytishini ta'kidlash orqali har qanday dard, g'am ortida shodlik borligiga umid bildirilgan:

Bahorga qaytadi ko'ngil ham, dard ham,

buloqlar ko'zida tinadi osmon.

Umid og'riqlarga bosadi malham,

*Bog'larga gul bo'lib qaytar **Yosuman**²⁹⁷.*

Demak, o'zbek she'riyatida yosumanning kuz obrazini ifodalab kelishi uning hijron, ayriliq, g'am, dard, mahzunlik kabi ramziy ma'nolari bilan uyg'un ekan.

9. Ayamajuz (arabcha "ayyom" – kunlar, "ajuz" – kampir)²⁹⁸ – qishda to'qson o'g'lining kunlarni sovutishidan qoniqmay, qahrlangani uchun bahorning ilk kunlarida, ayni daraxtlar gulga kirayotganda izg'irin keltiradigan mifologik obraz. Ayamajuz ham zamonaviy o'zbek she'riyatida bahor bilan yonma-yon tasvirlanib, qishdan chiqish, ko'klamga intilish, sog'inch adog'i, visol yaqinligini ifodalashga xizmat qilishi kuzatiladi. Chunonchi, Z.Rahimovanning "Bahor nafasi" she'rida ayamajuz obrazi vositasida ketib borayotgan (qish) va kelayotgan (bahor) hayot tasvirlanadi:

Zamharir sukunat chil-chil buzilgan,

bulutlar suv izlab qo'nadi ko'lga,

***ayamajuz**, qishdan umid uzilgan,*

qarg'alar hozirlik ko'radi yo'lga.²⁹⁹

Qari kampir qiyofasida tasavvur qilinadigan mifologik obraz orqali O.Hojiyevaning "Zar ko'ylakli daraxtlar" deb boshlanuvchi she'rida taraddudga hali shoshmaslik, zar ko'ylakning tovlanishiga, avrashiga

²⁹⁷ Фахриёр. Геометрик баҳор (Ўнгарилган тушлар): Шеърлар. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 111.

²⁹⁸ <https://gomus.info/encyclopedia/cat-a/ayamajuz-uz>

²⁹⁹ <https://sizuchun.blogspot.com/2015/03/?view=classic>

uchmaslik, aldanib qolmaslikdan ogohlantirish orqali vaqt tuygʻusini qadrlash gʻoyasini singdirish koʻzda tutilgan:

Yechintirib ketdi kuz,

Tanasin qaqshatdi muz.

Koʻklamga yetgunicha

*Yoʻlda bor **ayamajuz**³⁰⁰.*

O.Hojiyevaning “Olqish” nomli yana bir sheʼrida esa ayamajuz ketib, dalalarda mehnat qizigani, tabiat yashillangan palla haqiqiy koʻklam deya baholanishi mumkinligi aytiladi:

Ayamajuz, sariq qorlar oʻtganida,

Unganida sumalakning bugʻdoylari,

Zamin shirin uyquni tark etganida,

Qizgʻaldoqlar ochilganda may oylari,

Korjomasin kiyib bahor kezar elda,

Tabiatda yangi mehnat, yangi bolqish³⁰¹.

Modern sheʼriyatda Abduvali Qutbiddin Ayamajuzni mohiyat eʼtibori bilan koʻngilga allaqanday mahzunlik, miskinlik baxsh etadigan fasl – kuzning “xotini” maʼnosida maishiylashtirganini kuzatish mumkin:

Balchiqdan-balchiqqa agʻanayotgan –

Sap-sariq soyaga sigʻinayotgan –

Sentabr-oktabr-noyabr –

Aya-maʼjuz

Oʻynashisan, kuz.³⁰²

³⁰⁰ http://www.nurzamon.uz/article_view.php?id=194

³⁰¹ Хожиева О. Мушфиқ онажон. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 107.

³⁰² Қутбиддин А. Бор. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 201.

Mifologik obrazlar tilshunoslik nuqtai nazaridan qanday sifatlovchi aniqlovchini olib kelishi jihatidan ham alohida e'tiborni tortadi. Masalan, ular zamonaviy o'zbek she'riyatida ko'pincha sariq yalmog'iz, kekxa yalmog'iz, sariq yosuman, go'zal pari, hur qiz, qora dev, sariq dev, uyg'oq dev, uxlayotgan dev, oshiq pari, olovli ajdar kabi sifatlangani, urush-yalmog'iz kabi izohlovchi-izohlanmish birliklar hosil qilgani kuzatiladiki, bu ularning paydo bo'lishi so'z ustalarining davr ijtimoiy-psixologik voqeliklarini xalqning mifologik qarashlari asosida aks ettirishini ko'rsatadi.

Zoomorfik (hayvon qiyofasidagi) va qush ko'rinishidagi mifologik obrazlar:

1. Ajdar. Ajdaho (ajdar, ajdarho) O'rta Osiyo folklorida va udumlarida afsonalarga chulg'angan, insonga dushman, bahaybat, g'ayritabiiy, ba'zan bir necha boshli jonzot obrazi³⁰³ bo'lib, uzunligi bir necha kilometr, og'zidan o't purkaydi, o'z yo'lida ko'rgan jonzotni yamlab yutadi, ko'zlari olovday yonib yo'lini yoritadi, deya tasvirlanadi. Uning genezisi O'rta Osiyoda yovuzlik xudosi Angra-Manyuning o'zgargan shakli "Avesto"dagi Aji-Dahokka borib taqaladi. No'g'ay mifologiyasida ajdahoning boshi bug'uni eslatuvchi ulkan olovli ilon ko'rinishidagi Sazag'an degan turi bo'lib, u chaqmoq, yomg'ir, hosildorlikka javobgar osmon maxluqi sifatida talqin qilingan.³⁰⁴ Uning makoni tog', tog' g'orlari, cho'l, jarliklar, xaroba shahar va qal'alar bo'lib, bu obrazning tarqalish doirasi dunyoning katta qismini egallaydi. Xususan, qadimgi diniy manbalar va yetakchi dinlar mifologiyasida ham ajdarho(ilon)ga o'xshash maxluq haqida eslatmalar keltiriladi.³⁰⁵ Ular ko'pincha salbiy ma'noda talqin etiladi. G.P.Snesarev ingliz etnografi Jeyms Frezerning ayrim ma'lumotlarini taqdim etar ekan, ajdarho bilan aloqador syujetlarning Annom, Senegambiya, Shotlandiya, Skandinaviyada ma'lumligini ko'rsatib o'tadi. Ma'lum bo'lishicha, afsonalarning syujeti qaysidir mamlakatda nogahon ko'p boshli ilon, ajdarho yoki biror fantastik jonzot paydo bo'lib, uning butun xalqni yeb-yo'qotishidan ogohlantirishi, shu bois xalq har kuni bir kishini qurbonlikka berishi (ayniqsa, qizlarni), navbat shoh qiziga

³⁰³ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Куванчбек-Машхура, 2018. – Б. 26.

³⁰⁴ Мусурманов Э.Р. Буюк ипак йўли ўзбек-хитой адабий алоқалари. – Самарқанд Конфуций институти, 2021. – Б.49-50.

³⁰⁵ Мусурманов Э.Р. Буюк ипак йўли ўзбек-хитой адабий алоқалари. – Самарқанд Конфуций институти, 2021. – Б.50.

etganda, uni sevgan mard yigitning ajdaho bilan kurashib, g'olib bo'lishi va malikaga uylanishidan iborat³⁰⁶.

Ajda(r)ho yovuzlik timsoli sifatida zamonaviy o'zbek she'riyatida urush, zararli tuzum, texnika (zambarak, to'p, atom bombasi), nafs, manmanlik, g'am, bedavo kasallik, yong'in, talofat, o'limga sabab bo'luvchi obyektlar (masalan, daryo) kabi salbiy semalar bilan birga, ma'shuqaning sochi, zulfi, ko'zi, ishq, yil fasli kabi ijobiy semalarni ham ifodalab kelishi kuzatiladi.

Ajdaho – og'zidan ulkan hajmda o't purkaydigan obraz. Shu bois Jamol Kamolning "Tosh tug'yon" dostonida urushda zambaraklardan otilgan olovli to'plardan hosil bo'lgan, cheksiz maydonni egallagan yong'in ajdaho komiga o'xshatilishi ta'sirchan chiqqan:

G'aznaviylar bosqini!.. o't ichra shahar,
Birov shu arosatda kechib jonidan,
Cho'g'langan sandiqlarni qutqarmoq bo'lar
Yong'inning **ajdahodek** olov komidan...³⁰⁷

M.Yusufning "Daryo" she'rida esa **suv havzasiga** nisbatan ajdar metaforasi ishlatilgan. Bunda insonning suvda cho'kib nobud bo'lishi ajdarning tiriklayin yamlamay yutishiga o'xshatilgan:

*Daryo qo'ygan edim bolam ismini,
U daryoga cho'kib ketdi bir kuni...*
Ajdar bo'lib suvlar yutdi jismini,
*Endi menga o'g'il bo'ling, baliqlar.*³⁰⁸

Ajdaho obrazining folklorda o'z komiga tortish, yutish, kuydirish kabi semalari mavjudligidan foydalanib, zamonaviy shoirlar uning obrazini ko'chma timsoliy ma'noda mashaqqat, og'ir dard, sinov, kuchli g'am-qayg'u, anduh kabi insoniy tuyg'ularni ifodalash uchun qo'llaydilar. Masalan, H.Ahmedova "Ming azobda yonsin..." she'rida ajdaho obrazidan aynan shu maqsadda foydalangan:

³⁰⁶ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Куванчбек-Машхура, 2018. – Б. 27.

³⁰⁷ Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Фан, 2007. – Б. 271-272.

³⁰⁸ Мухаммад Юсуф. Шоир севгиси. – Т.: Noshir, 2014. – 175-б.

*Onasi o'lganda yig'lamas erkak,
Ruhini qaro yer yutarkan go'yo.
Erigan bolalik ko'zidan sizib
Ulkan **ajdahoga** aylanar dunyo.*³⁰⁹

Inson og'ir azobni boshdan kechirayotganda dunyo ko'ziga tor bo'lib ketadi, go'yo olam uni yutib yuborayotgandek tuyuladi; ayriliq, judolik kishini kuydiradi, vujudini yondirib kul qiladi. Iztirob ko'ngil vositasida his etilgani bois ushbu ko'chimlar ko'ngilga nisbatan tushuniladi. Dunyoning ajdahoga qiyoslanishida, birinchidan, qayg'udagi kishini g'am yutib yuborayotganday tuyulishi, ikkinchidan, ulkan dardni ifodalashi, uchinchidan, g'am olovi bilan uning bag'rini kuydirayotgani **semantik** jihatdan asos bo'ladi.

O.Hojiyeva "Najot" dostonida ajdar obrazidan bir necha o'rinda turli maqsadlarda foydalanganini ko'rish mumkin. Jumladan, diniy kitoblarni yoqib yuborgan va avliyo joylarga o't qo'ygan To'lov raisning qo'rquv va tashvishlari, bezovta xayollari ajdar obrazi vositasida quyidagicha ifodalangan:

*Qamalganday **ajdar** sandiqda,
Xayollari buzg'un ko'rinar.*³¹⁰
...Qayga ko'chib borsa, battolni
***Insu jinslar** quvdi qasdma-qasd...*³¹¹

Sandiqqa qamalgan ajdar undan chiqishga urinib, bezovta bo'lgani kabi gunohkor insonning ham xayollari buzg'un, g'ash bo'lishi o'xshatish asosida san'atkorona ko'rsatilgan.

Xazina bor yerda ajdar (ilon) bo'ladi, deyishadi.³¹² Shoir boshqa o'rinda yerga ko'milgan kitoblarni xazinaga mengzab, ularni ajdaho qo'riqlayotganiga ishora qiladi:

Kecha Tilab tergovchi shakkok,

³⁰⁹ Аҳмедова Н. Эрк даричаси: шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.58.

³¹⁰ Ҳожиёва О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 351.

³¹¹ Ҳожиёва О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 351.

³¹² Файзиёва Д. Ўзбек фольклорида илон образи (генезиси ва бадиияти): Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Т., 2004. – 22 б.

Kitob bor deb, go'rni ochibdi.

*Vishillagan **ajdah**o ko'rib,*

*Nobakorlar urra qochibdi.*³¹³

Ma'naviyat xazinasini bo'lmish kitoblar bebaho ekanligini ta'kidlash uchun uni qo'riqlayotgan ilon emas, hatto undan-da kuchli va qudratli ajdah ekani mubolag'ali ta'kidlanmoqda.

Mirtemirning "Ajdar" nomli poemasi ham mavjud bo'lib, unda chashma va uning oldidagi chinor atrofida bir cho'ponning har kuni qo'ylarini o'tlatib yurishi, ammo nogahon bu erda bir ajdar paydo bo'lib, chashma suvini zaharlashi, buloqni egallab, xalqning boshiga katta ofatu falokat yog'dirishi, bu ham yetmaganday, har kuni bitta bolani yeyishga odatlanishi va unga cho'ponning mardonavor kurashishi o'ziga xos izchillikda, mazmundor qilib hikoya qilingan. Shoir tinch va osuda hayotga og'u solgan ajdar haqida shunday yozadi:

Ammo... ofat tushmish chashma bo'yiga:

Qaynagan qumlarda dunyoga kelmish.

Pushti og'ulardan-zaqqumdan bo'lmish –

Bir balo, bir ofat, badsurat – xunuk,

Og'zidan ochilgan qora bir tuynuk –

Ko'zlari olovli, tishlari xanjar

*Bahaybat, jez badan, ulkan bir **ajdar**.*³¹⁴

Mirtemir xalq ertaklariga xos epik talqin ifoda yo'sinidan ijodiy foydalanib, ofatni boshlab kelgan ajdarni pushti og'u-zaqqumdan yaralgan bir balo, badsurat, xunuk, bahaybat, ulkan sifatlashlari orqali ifodalab ko'rsatmoqda. Xalq ertaklarida ham ajdarho ko'zlari olov sochuvchi, tishlari xanjariday o'tkir tarzida beriladi. Qolaversa, bu ajdar "har kecha bir go'dak qoniga tashna, har kecha bir odam joniga gushna".³¹⁵ Demak, Mirtemir ertaklarga xos epik an'anani yozma

³¹³ Хожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 346.

³¹⁴ Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдик. Учинчи жилд (Шеърый туркумлар, дostonлар). – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 152.

³¹⁵ Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдик. Учинчи жилд (Шеърый туркумлар, дostonлар). – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 153.

adabiyotda davom ettirgan. Albatta, bunda “Shohnoma” singari yozma she’riyat durdonalari syujetining ta’siri ham seziladi. Bu o’rinda “Shohnoma”dagi yelkasidan ikki ilon o’sib chiqqan Zahhok obrazi, bu ilonlarning har kuni bir mujarrad yigit miyasi bilan oziqlanishi, nihoyat, ohangar Kova boshliq xalq uni yo’q qilishi haqidagi afsona syujeti yodga keladi.³¹⁶ Qarshi shahri yaqinida ajdarhoning vatani deb bilinadigan, hanuzgacha jiddiy o’rganilmagan “Qal’ayi Zahhoki moron”, Xorazm vohasida muqaddas Ajdar-Bobo mozorining mavjudligi³¹⁷ ham obrazning xalqimiz mifologiyasidan naqadar muhim o’rin egallaganini ko’rsatadi.

“Ajdar” dostoni ijtimoiy-maishiy mavzuda yozilgan bo’lib, unda ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurash aks ettirilgan. Bunda ajdar – yovuzlik timsoli, cho’pon esa ezgulik ramzi, odamlarni ulkan ofatdan qutqargan xaloskor sifatida gavdalantirilgan. Qabohat va razolat timsoli ajdar bilan olishuvdan, uni yengib zafar quchishdan Cho’pon yigit va uning umri qil ustida turgan o’g’ligina emas, hayot jilg’asi – ko’k buloqni egallab olgan ajdar zulmidan ozor chekayotgan butun boshli xalq manfaatdor. Adabiyotshunos N.Rahimjonov dostondagi cho’pon yigit obrazini mardlik, jasorat mujdasi deb ataydi.³¹⁸

Poemaning o’ziga xosligini ta’minlab turgan muhim xususiyatlardan yana biri – “mehnatkash odamlar dunyoni tutib turgan, olam go’zalligini ta’minlayotgan asosiy va qudratli kuch manbai” degan g’oyaviy-badiiy konsepsiyadir. Ajdar tusiga kirgan jodugarni o’ldirib, chashma bo’yida hayotning gulgunligini saqlab qolish evaziga o’z umrini qurbon qilgan cho’pon yigit xarakter-tabiatida ezgulikni asrab-avaylash, uni quyosh qadar yuksaklikka ko’tarish xususiyati bo’rtib ko’rinadi. Ayni paytda chashma – mangu hayot manbai sifatida gavdalanadi (go’yo Xizr suvi kabi). U qanchalik tiniq va sof bo’lsa, odamlarning hayoti shuncha tinch va farovon bo’ladi.

Ajdaho obrazi faqat yovuzlik timsolida emas, ba’zan ma’shuqa yorning o’tdek chaqnagan “jon oluvchi” ko’zlari, ajdahodek to’lg’anuvchi o’rim sochlari jozibasini poetik ifodalab, “go’zallik” ijobiy semasida

³¹⁶ Фирдавсий А. Шоҳнома. (Сайланма). – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 188 б.

³¹⁷ Мусурманов Э.Р. Буюк ипак йўли ўзбек-хитой адабий алоқалари. – Самарқанд Конфуций институти, 2021. – Б.50.

³¹⁸ Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 149.

kelishi ham kuzatiladi. Bunga Voqifning quyidagi misralari misol bo'la oladi:

Visoling misoli toza qor kabi,

*Ko'zlaring, kokiling **ajdaho** kabi.*³¹⁹

Shoir N.Jo'rayevning "Gulxan" she'rida ajdaho obrazidan tabiat manzarasini chizishda foydalanilgan. Kuzda daraxtlarning sarg'ayishi ajdaho olov purkab hosil qilgan gulxanga mengzalgan va bunda ham hadsiz maydonning ko'rinishi tasvirlangani shoir ajdaho haqidagi mifologik tasavvurlardan uzoqlashmaganini ko'rsatadi:

***Ajdaho** olov purkab o'tgandayin olamga*

Lovullagan gulxanga aylanib qoldi bog'lar.

Xuddi men ertak aytib o'tirganday bolamga

*Bir kechada oltinga do'ndi hamma yaproqlar.*³²⁰

2. Samandar. Yana bir zoomorf qiyofadagi mifologik obrazlardan biri samandar bo'lib, zardushtiylik dinida ulug'langan afsonaviy va muqaddas jonivordir. Uni qush yoki kaltakesaksimon mavjudot sifatida talqin qiladilar.³²¹ Afsonaga ko'ra, u o't ichida tug'iladi va o't ichida yashaydi. Olovdan chiqsa, halok bo'ladi. Shoir Jamol Kamol "Bo'lmagay" she'rida aynan shu ma'noda samandar obrazidan foydalangani e'tiborni tortadi:

*Bo'lmagay ko'nglim **samandar**dek havoyi ishq aro,*

*To uning ostida otash ustida kul bo'lmag'ay.*³²²

Mumtoz she'riyatda ko'pincha samandar obrazi ishq tufayli yongan ko'ngilga o'xshatiladi. Ishq o'tisiz oshiq ko'ngli samandardek nobud bo'lishi tasvirlanadi. Jamol Kamolning yuqoridagi misralarida ham ko'ngil samandarga, ishq o't-olovga mengzalgan. Samandar olovdan havoga ko'tarilsa, nobud bo'lgani kabi ko'ngil ishqni tark etsa, vayron bo'ladi. Shu bois shoir ishq olovi bor ekan, uni ko'nglim tark etmaydi, ishq ichra yonib yashaydi, ko'nglim ishq bilan tirik demoqchi bo'ladi.

³¹⁹ <https://rizanova.com/people-lyricist/mullapanoh-vokif>

³²⁰ Жўраев Н. Энг кудратли зарра. – Т.: Адиб, 2012. – Б.44.

³²¹ Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б.81.

³²² Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Фан, 2007. – Б. 217.

3. Humo. Eng keng qo'llaniladigan qush ko'rinishidagi mifologik obrazlardan biri Humodir. Humo ezgulik ramzi bo'lgan afsonaviy qush nomi bo'lib, xalqning ishonch-e'tiqodiga ko'ra, agar u kimning boshiga qo'nsa yoki soyasi tushsa, o'sha kishi eng baxtli bo'ladi, davlat va saltanatga erishadi, deb qaraladi. Shundan kelib chiqib, e'tiqod qilingan bu afsonaviy qushni "baxt qushi", "davlat qushi" ham deydilar.³²³

O'zbek folklorida Humo qushi haqida folklorshunos K.Imomovning qayd etishicha, bu qush nomining mifologik ma'nosi "quyoshga qo'ngan qush" demakdir. Har bir harakati esa ilohiy va magik qudrati bilan bog'liq belgilarda tavsiflangan.³²⁴

Zamonaviy shoirlar ijodida Humo qushi timsolidan ko'pincha o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, haqiqiy baxtga erishgan o'zbek eli va yeri timsolini ifodalash, tavsiflash va tasvirlash, madh etish uchun keng qo'llanilganiga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, To'ra Sulaymon yozganidek:

Baxt qushi topmish qo'nalg'a shonli Turkiston aylanib –

O'z holig'a kelmish Turon zamondin zamon aylanib.

Hazrati **Xizr** yuribdi hur O'zbekiston aylanib,

Tug'rosiga qo'nmish **Humo** mustahkam Qo'rg'on aylanib,

Chor atrofga zog' yo'latmas **Semurg'** dovon aylanib.

Amir Temur ruhi shodmon izzatli Sulton aylanib,

Bu ne baxtkim, yursa Hudhud To'ra Sulaymon aylanib!³²⁵

Shoirning "Aylanib" she'ridan keltirilayotgan ushbu misralarda Baxt qushi nomini olgan Humo, Semurg' obrazlariga murojaat qilinmoqda. She'rda Humo qushi obrazi orqali shonli Turkistonga yana qayta baxt in'om etgan Istiqloldan shodlanish, ruhlanish, g'ururlanish g'oyasi ilgari surilmoqda. Bugungi kunda hur O'zbekiston zaminida yashayotgan har bir inson xuddi boshiga Humo qushi qo'nganday yoxud Hazrati Xizrga yo'liqqanday o'z orzu-istagiga tez yetishayotgani yoritilmoqda.

³²³Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 561.

³²⁴ Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо куши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 2011. – №5. – Б. 24.

³²⁵Сулаймон Т. Сайхон (шеърлар, дostonлар). – Т.: Шарк, 2003. – Б.4.

To`ra Sulaymonning “Shaydolik” she`rida esa Humo obrazi Humoy shaklida ifodalangan. Bunda Humo mifonimiga qisqa “y” tovushining qo`shilishi uning ma`nosiga zarar ko`rsatmagan:

Yulduzlar yig`ilib Oy bo`lsa koshki,

*Har qanday qush **Humoy** bo`lolsa koshki.*

Har kim ham Hotamtoy bo`lolsa koshki,

Diyonat ne qilsin munofiq zotda.³²⁶

Dunyoda yulduzlar cheksiz, biroq hammasi yig`ilib ham Oy kabi kechani yoritolmaydi. (Aslida shoir Oy o`rnida Quyosh so`zini qo`llasa, keyingi misralarga mantiqan ko`proq to`g`ri kelardi. Chunki Quyosh ham yulduz, koinotda millionlab yulduzlar ichida Quyoshgina Erga eng yaqini va shuning uchun ham nurafshoni, yorituvchisidir). Olamda qushlar ko`p, ammo ular Humo kabi baxt va omad ato etish qudratiga ega emas. Er yuzida saxiy kishilar ancha, lekin ular Hotamtoydek saxovat timsoli emas. Shu tariqa shoir eng yuksak fazilatlardan umidvor bo`lgani holda, munofiq kishidan diyonatni kutish mantiqqa zidligini tadrij san`ati vositasida ta`kidlamoqda.

O.Hojiyevaning “Yashil may” she`rida ham Humo nomi xuddi shunday shaklda g`alaba, zafar, do`stlik ma`nolarini umumlashtirib kelgan:

Bitar edim sayllari zabarjad oy deb,

Birodarlik qo`shiqlarin kashf etgan sana,

*G`alabadan darak bergan qutlug` **xumoy** deb,*

Xosiyatli qadamiga – oftob ko`rmana!³²⁷

Shoiraning “Xonadon” she`ridan olingan quyidagi misralarda esa Humo obrazi to`g`ridan-to`g`ri beshikka o`xshatilgan va ushbu obraz vositasida ramziy ma`noda insonning go`daklik chog`lari eng baxtli va beg`am onlar ekanligini ta`kidlash ko`zda tutilgan:

Sho`x yulduzlar haqidagi qo`shig`ing

³²⁶ Сулаймон Т. Гулшан (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 21.

³²⁷ Ҳожиева О. Мушфиқ онажон (Шеърлар ва шеърӣ қисса). – Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 249.

*O`qtin-o`qtin tushib qolsa esingga,
Ko`zmunchoqlar bezab turgan beshiging
Humo qushday ko`rinadi ko`zingga.*³²⁸

Jamol Sirojiddinning “Da’vat” she’rida ham Humo qushi davlat va baxt, omad, farovonlik ma’nosida qo’llanilgan:

*Zolim zamon o`tib, mazlumg`a do`nar,
Bo`lur ozod Vatan mahram rabotim!
Tobakay to`nkaga **Humo qush** qo`nar?!*
*Ozod bo`l, obod bo`l, ey xarobotim.*³²⁹

Shoir boshi uzra zulm, tobelik hukm surayotgan Vatanni, zamonni ustiga Humo qushi qo`ngan to`nkaga mengzash orqali betakror metaforizastiya qila olgan. Shu asosda ijodkor boshga soya solingan vaqt talqinini obrazli ifodalashni ko`zda tutgan. Xarob yurtni ozod va obod qilishga chaqirishni niyat qilgan. Shoirning quyidagi satrlarida esa Humo obrazi baxt, omad, farovonlik, go`zallik, xushvaqtlik ma’nolarini umumlashtirib ifodalashga xizmat qilgan:

*Ajab qushxonani ko`rg`il, ajab kushxonani ko`rg`il!
Na parvozu, na roz, bozu-**humolarni** sog`ingan dil.*³³⁰

Ko`rinib turibdiki, yuqoridagi misralarda mustamlaka yurt qushxonaga (qafasga), unda zulm hukm surayotgani kushxonadagi holatga o`xshatilgan. Mutelikda ko`ngil qushi na erkin parvoz qila oladi, na o`ynab kula oladi. Shu bois yurak baxtli, xurram kunlarni sog`inganini shoir Humo mifologik obrazi orqali ifodalaydi.

H.Ahmedovaning “Hammasi o`tkinchi...” she’rida “baxtli kunlar” ma’nosi, boshqalardan farqli o`laroq, humolar metaforasini ko`plikda qo`llash orqali ifoda etilgani bilan alohida e’tiborni tortadi. Tashvishli kunlar o`tkinchi ekanligi, oyning o`n beshi qorong`u, o`n beshi yorug` bo`lishi unga tazodlantirilgan:

³²⁸ Хожиева О. Мушфиқ онажон (Шеърлар ва шеърӣй қисса). – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 78.

³²⁹ Сирожиддин Ж. Заҳҳок салтанатинда (Шеърлар). – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – Б. 4.

³³⁰ Сирожиддин Ж. Заҳҳок салтанатинда (Шеърлар). – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – Б. 111.

*Hammasi o`tkinchi, hammasi,
Barini kechirar samolar.
Zamin intihosiz aylanaverar –
Ming bora tug`ilar **humolar**.³³¹*

4. Semurgʻ. Humo obrazi Semurgʻ shaklida ham qoʻllaniladi. Semurgʻ sharq xalqlari ogʻzaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi boʻlib, ijobiy qahramonning doʻsti, homiysi, himoyachisi, hamrohi sifatida keng tasvirlanadi. U qadimgi insonlarning osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu-umidlarining ramziy ifodasi hisoblanadi. Dastlab Eron mifologiyasida paydo boʻlgan Semurgʻ qushi obrazi “Avesto”da “senemurg” shaklida ishlatilgan. Turkiy xalqlarda Semurgʻ Humo, Anqo, Davlat qushi, Baxt qushi, Marqumomo, Kuntubulgʻon, Bulbuligoʻyo kabi variantlarda uchraydi.

Sheʼriyatda semurgʻ obraziga murojaat qilish orqali, asosan, baxt, najot, roʻshnolik tilanadi. Xalq qarashlariga koʻra, Semurgʻ, Anqo qushlarining makoni Qof togʻi boʻlib, uni topish mushkul va hattoki, imkonsizdir.³³² Chunki bu manzil mifologik makon nomini ifodalovchi mifotoponimdir. Sheʼriyatda esa ushbu mifologik obrazlarning aksariyat hollarda yonma-yon keltirilishi kuzatiladi:

***Koʻhi Qofning** boshiga,
Semurgʻ solganda soya,
Yomgʻirni yigʻlatganda,
Onam aytgan hikoya
Bor edimmi, yoʻq edim...³³³*

5. Anqo. Anqo obrazidan koʻpincha noyoblik ramzi sifatida foydalaniladi. Xalqda ham topilishi imkonsiz, qiyin boʻlgan narsalarga nisbatan “anqoning urugʻi” iborasi ishlatiladi. Anqo – Qof togʻida

³³¹ Аҳмедова Н. Эрк даричаси: Шеърлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 30.

³³² Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б.82.

³³³ Аҳмедова Ҳ. Умид сояси (Шеърлар). – Т.: Ниҳол, 2008. – Б. 51.

yashaydigan afsonaviy qushning nomi.³³⁴ She'riyatda "topilmas, nodir, yagona" ma'nolari anqo obrazi vositasida ochib beriladi. Masalan:

*Izlasak – **anqo** ne, **anqo** topilar,*

Har kimga bir joni fido topilar,

"Odam topilmaydi, dunyo topilar",

*Turnalar qaytguncha omon bo'laylik.*³³⁵

Anqo obrazi nafaqat o'zbek folklori, balki mumtoz ijodkorlar asarlarida ham an'anaviy obrazlardan biri sifatida keng qo'llanilgani ma'lum. Masalan, Alisher Navoiyning Allohga hamd mazmunidagi g'azalining quyidagi baytida kitobat san'atidan foydalanib, "qoni" (qanoat qiluvchi) so'zidan "anqo" so'zi yasalgan:

Qanoatning dalilin inzivo qilding yana bir ham

*Dalil ushbuki qoni' harfidin xalq aylading **anqo**.*³³⁶

Boshqa bir baytda esa anqo qushining juda olis manzilda makon topganligiga ishora qilingan:

*Tilar ko'nglum qushi **anqo**din o'tsam nari yuz vodi,*

*Munungdek sayr etarga **qof**din ortuq sabotim bor.*³³⁷

Qof – afsonaviy eng uzoq va baland tog' bo'lsa, lirik qahramon undan-da olisroqqa borishga sabr-bardoshi va kuchi yetishini aytadi.

7. Qaqnus. Ushbu mifologik obraz feniks deb ham ataladi. Xitoy mifologiyasidagi qushlar ichida muqaddas sanalgan Fenxuan timsoli ham ushbu qushga muvofiq keladi. Qadimgi xitoyliklar o'tmishda shamol ma'budi bo'lib ilohlar elchisi sifatida talqin qilingan ushbu qushni bo'yi uch metr, rang-barang patli, xo'roz tumshuq,

³³⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. I том (Фозилов Э.И. таҳрири остида). – Т.: Фан, 1983. – 656 б.; IV том (Фозилов Э.И. таҳрири остида). – Т.: Фан, 1985. – Б. 104.

³³⁵ <http://www.ziyouz.com>

³³⁶ Навоий А. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. (Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Учинчи том). – Т.: Фан, 1988. – Б. 24.

³³⁷ Навоий А. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. (Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Учинчи том). – Т.: Фан, 1988. – Б. 123.

qaldirg'och bo'qoq, ilon bo'yin, baliq dum, toshbaqa bel, oldindan oq laylakka o'xshash qush sifatida tasvirlashgan.³³⁸

Afsonalarga ko'ra, u qariyb ming yil umr ko'radi, ammo o'limi vaqti yaqinlashayotganini oldindan sezadi. O'limi yaqinlashgach, ko'ngliga g'ulg'ula tushib, o'tli nolalar chekadi. Nola chekayotganda o'lim alamidan lahza-lahza titrab turadi. Umrining so'ngida ajab hol yuz beradi: uning nolasi zo'ridan tumshug'idan qon oqa boshlaydi, bir nafas tin olib, so'ngra qanotlarini bir-biriga ura boshlaydi. Shunda uning qanotidan o't chaqnab chiqadi, keyin butun vujudini o't qoplab yona boshlaydi. Keyin cho'g'lar sovib kul bo'ladilar. Kul ichida bitta kichkina cho'g' qoladi va u kichkina qaqnus bo'lib dunyoga keladi³³⁹.

Badiiy ijodda dard, mung, nola, fidoyilik, chidamni ifodalash maqsadida ushbu obrazdan keng foydalaniladi. H.Ahmedovaning "Ancha bo'ldi..." deb boshlanuvchi she'rida qaqnus obrazi quyidagicha keladi:

Hech kim chorlamagan bir qaro tunda

Kimnidir izladim, beism tuyg'u.

Qaqnus *kullaridan o'sgan gul kabi*

*Ruhimda chalindi unutilgan burg'u.*³⁴⁰

Qush ko'rinishidagi mifologik obrazlar tasviri va talqinida "baxt" belgisi orqali umumiylik bo'lib, ajdodlarimizning azaliy orzu-istaklarining ifodachisi o'laroq yuzaga kelgan bo'lib, umuman, hayvon qiyofasidagi mifologik obrazlar zamonaviy o'zbek she'riyatida xilma-xil poetik va ramziy ifodalar yaratishda o'ziga xos o'rin egallaydi. Ular orqali insonlarning Alloh mo'jizalariga ishonchini oshirish, iymonini tarbiyalash, axloqiy qarashlarini kuchaytirish ko'zda tutiladi.

Demonomorf mifologik obrazlar:

1. Dev. Dev o'zbek folklorining an'anaviy mifologik personajlaridan biridir. Dev obrazi O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida alohida o'rin tutadi. Bu obraz afsona, ertak, dostonlarda ko'p uchraydi. O'zbek

³³⁸ Musurmanov E.R., Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar): o'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2014. – B.34.

³³⁹ <https://ziyouz.uz/hikmatlar/ibratli-hikoyatlar/a-nus-umrining-uzunligi-va-uning-a-v/>

³⁴⁰ Аҳмедова Ҳ. Эрк даричаси: шеърлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б.52.

folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini J.Eshonqulov tomonidan ertak va dostonlar syujeti misolida alohida maxsus o'rganilgan,³⁴¹ ammo uning yozma adabiyotda metaforizatsiya va stilizatsiya qilinishi hali maxsus tadqiq qilinmagan. Holbuki, dev obrazining mifologik, badiiy-timsoliy asosini, yozma ijodga ham ko'chirilish sabablarini yoritish mifologik tafakkurning poetik tafakkurga ko'chish zaruriyatini anglashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Qur'oni karimda jinlar va devlar farqi bayon qilingan, ya'ni devlar odamlar kabi biologik xususiyatlarga ega bo'lsa, jinlar kimyoviy unsur – olovdan yaratilgan.³⁴² Turkiy xalqlar mifologiyasidagi yaxshilik qiluvchi va yovuz devlar kabi islom ta'limotida Haqqa imon keltirganlar hamda Allohga qarshi boradigan jinlar ikki toifaga bo'linadi. O'zbek folkloridagi dev obrazi, bir tomondan, qadim asotirlarning ta'sirini saqlab qolgan bo'lsa, islomdan keyin ba'zi obrazlar qatorida islomlasha borgan.

Ayrim zamonaviy she'riyat namunalarida bir necha motiv aralashtirilib, o'ziga xos mantiqiy bog'lanish asosida umumlashma xulosa hosil qilinadi. Aniqrog'i, shoir folklor motivlarini o'z maqsadi yo'lida xizmat qildiradi. Aytaylik, Shavkat Rahmonning "Oddiy vazifa"³⁴³ zamonaviy she'riy ertagida dev uxlab yotgan holat, botirlar kuydirilgan uchli xodada uning ko'zlarini o'ymoqchi bo'lishi, "borsa kelmas" yo'li Kenja botirga qolishi motivlari keltirilgan. Shoir bu motivlarni keltirish orqali "qattol, berahm, galvarslar"ning devga qarshi kurashish o'rniga jaholat uyqusiga berilganini, ot o'rnida it, it o'rnida ot qolganini she'rxonga uqtirish maqsadini ko'zda tutgan. She'rda xuddi ertaklardagi kabi devni yengish Kenja botirning chekiga tushadi va u borsa-kelmasga o'tlanadi:

Kuydirilgan

uchli xodada

yovuz devning ko'zlarin o'ymoq.

³⁴¹ Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Т., 1996. – Б.8-23.

³⁴² Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б. 180.

³⁴³ <http://e-adabiyot.uz/kitoblar/nazm/195-shavkat-rahmon>

Bu misralar Gomerning mashhur “Odisseya” dostonidagi bir ko`zli devning ko`zini bosh qahramonning olovli uchli xoda bilan kuydirib, o`zini va hamrohlarini qutqarishi motivini yodga soladi.³⁴⁴

*Itga – so`ngak,
it oldidagi
xashakni ot oldiga qo`ymoq.
Bor-yo`g`i shu,
chindanam jo`n-a,
ammo o`lmak kabi mushkuldir.*

Bu misralarda o`zbek xalq ertaklarida epik qahramonning uxlab yotgan dev yoki yalmog`izning iti oldiga so`ngak, oti oldiga xashak tashlangan teskari holatni ming mashaqqat bo`lsa-da o`nglashga erishib, shundan so`ng ko`zlangan va topshirilgan vazifani hal etishi motivi stilizastiyasini kuzatish mumkin. Shundan so`ng shoir o`z hiskechinmalarini birma-bir ocha boshlaydi. Avvalo, qullikka ko`ngan sheriklariga achinadi. Tosh asriga bosh olib ketishni xohlaydi:

*Qolganmikin biror **kentavr**
yoki biron sho`rlik gorilla.
Ot sho`rlikka bo`ldi-ku jabr,
it bechora tinsiz arillar.
Uyg`onar **dev**,
ne go`zal qushlar
dimog`ida ingrab qaynaydi.
Sheriklarim birma-bir ushlab,
ochqagan **dev** rosa chaynaydi.
Bir amallab qochaman o`zim,
yashrinaman allaqaydadir.*

³⁴⁴ Гомер. Одиссея. – Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2016. – Б.90-104.

Kentavr – yarmi ot, yarmi odam ko`rinishidagi afsonaviy maxluq bo`lib, uning yana bir turi o`zbek mifologiyasida Gavomard (yarim buqa, yarim odam) nomi bilan uchraydi.³⁴⁵

Dev uyqusi, uning ochqagan holda uchrashi ertakona motivlardan biri bo`lib, bu orqali uning odamxo`rligi fosh etiladi. Shundan so`ng qahramon ancha vaqt darbadar kezgancha dunyoni aylanib qaytib kelganidan, dev esa yana Qoratog`day uxlab yotganidan, ot va it yana avvalgi ahvolida, sheriklar aks-sadosiz bosh solib turishlaridan so`zlaydi. “*Uxlayotgan **dev**ning yonida boshqa guruh semirib*” yashayotganini ko`rib hayratlanadi. Biroq ular ham yigitga qarshi borib, shunday deyishadi:

*...toshingni ter,
bu **dev** uxlagan,
bizga o`zi shundog`am yaxshi.*

Xullas, yolg`izlangan yigit “*jon olar chog` g`olib tushkunlik*” bilan quyidagi so`zlarini qoni bilan toshtaxtaga yozib qoldiradi:

*«Ishonaman,
bir kun **dev** o`lar,
jarga qular so`qir holida,
ot xashagi oxurda bo`lar,
so`ngak bo`lar itning oldida.
Og`ir bo`lur endigi razm,
bu jaholat,
bu **dev**ni qo`ygin.
Eng avvalo, qattol, berahm
galvarslarning ko`zini o`ygin.*³⁴⁶

Anglashilmoqdaki, ushbu she`r emirilib, nurab turgan totalitar tuzum haqida bo`lib, uning ko`r va uyqudagi rahnamosi dev, tuzum rahbarining ra`yiga moslashuvchi laganbardorlari, maddohlari it, nomi ulug`, suprasi quruq, inon-ixtiyori o`zida bo`lmagan noiblari, qo`lidan

³⁴⁵Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг муслмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Куванчбек-Машһура, 2018. – Б.285; Жураев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184 б.

³⁴⁶ <http://e-adabiyot.uz/kitoblar/nazm/195-shavkat-rahmon.html?start=9>

ko`p ish kelsa-da, imkoniyatlaridan mahrum etilgan, yetishib kelayotgan xalqparvarlari ot timsolida ko`rsatilgan.

O.Hojiyevaning “millatchi” deya ayblangan zukko muallim va navoiyshunos olim Hamid Sulaymon haqidagi “Hamid Sulaymon hasrati” she’rida esa berahm rus tergovchilari zulmat devlari deb atalgan:

*Bunda zulmat **devlari***

Qurum purkab yotadi.

Bilmas: qachon tun kirib,

*Qay mahal tong otadi?*³⁴⁷

Dev obrazi badiiy ijodda kishilarga nisbatan gavdali, haybatli, predmetlarga nisbatan bahaybat, ulkan ma’nosida, kishilardagi favqulodda qobiliyat (kuchli, baquvvat ma’nosida), gitlerchi fashistlar, terrorchilar, qatag`on davri vakillari, bosqinchi yovuzlarga nisbatan nafratni ifodalashda metaforizatsiya qilinadi. Xususan, mustamlakachi ruslar “sariq dev” obrazi bilan ifodalangan she’rlar ham mavjud:

*Sariq **devlar** qildi daf,*

Kal pahlavon o`lmadi.

Go`r ichida bo`lay alp,

*Go`ro`g`lijon o`lmadi.*³⁴⁸

Yuqoridagi satrlarda O.Hojiyeva devning sariq rangi orqali folklorshunos J.Eshonqulov qayd etganidek³⁴⁹ turk diyoriga daxldor, quyosh bilan bog`liq obrazga emas, yurtimizni tobe qilgan millat rangiga ishora qilmoqda.

Shoiraning “O`zbekistonga faxriya” she’rida ham dev obrazidan foydalanilgan bo`lib, u orqali zulmatda o`tgan yetmish yillik tuzumga, mustamlakachi ruslarga ishora qilingan:

*Zulmat **devlarini** yenggan temirtan*

³⁴⁷ Хожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, достонлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 362.

³⁴⁸ Хожиева О. Паноҳим (Шеърлар ва ҳикоялар). – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 49.

³⁴⁹ Эшонкул Ж. Фольклор, образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – Б.23.

Fidoyi mardingni qutlaysan, Vatan!

Ozodlik va hurlik yulduzin asli

*Sen uning ismida topgansan, zotan!*³⁵⁰

H.Ahmedova devlarni yovuzlik ramzi sifatida qo'llab, "Yovuz devlarimni uxlatdim zo`rg`a³⁵¹" deya, inson ruhiyati bilan bog`liq yomon illatlarga ishora qiladi.

Quyidagi she`rda esa dev mustamlakachilarning xizmatkori sifatida tasvirlanadi:

*Buvi, jodugarning qo`lidagi baxt,
Hur, pari mixlangan ming yillik daraxt,
Devlar sig`inguvchi buqalamun taxt
Nega qulamadi?*

Mustamlaka davrida vatanimiz go`yo jodulangan, xalq erksiz, baxtsiz bo`lsa-da, buni anglamas, anglasa-da, ovoz chiqarishdan cho`chir, devlardan qo`rqar edi. Shoirlar xalq qalbidagi bu qo`rquvni ham dev obrazi stilizatsiyasiga xos xususiyat sifatida talqin qildilar:

*Bir buyuk qo`rquv bor uning ichinda,
Ko`zaning ichiga qamalgandek **dev**.*³⁵²

Ushbu baytda ko`za ko`ngil, yurak timsoli bo`lsa, uning ichiga qamalgan dev (jin) qo`rquv ramzidir. Lekin ko`zaga qamalish dev emas, jinlarga xosdir. Bu o`rinda uzuk jini, ko`za jini, chiroq jini haqidagi ertak motivlarini eslash mumkin.

Jamol Sirojiddin "She`riyat dodlar" she`rida dev obrazidan qo`rquv, vahm timsoli sifatida foydalanadi:

Toki yorilmasin ko`ksimda yurak,

Toki yiqilmayin etib poyingga.

Boshqa bir yerlarda o`lmog`im kerak,

*Vahm **devi** kirmasin haqli joyingga.*³⁵³

Devlar miflarda ulkan, xunuk va yovuz personaj sifatida tasvirlanadi. Shu ma`noda vahm ham ulkan va xunuk bo`lib, kishi yuragiga kirsa, uni qullikka boshlaydi, yovuzlar manfaati yo`lida xizmat qildiradi.

³⁵⁰ Хожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 201.

³⁵¹ Аҳмедова Н. Тунги марваридгуллар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – Б. 21.

³⁵² Азим У. Оғир қарвон (Шеърлар). – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 36.

³⁵³ Сирожиддин Ж. Заҳҳок салтанатинда (Шеърлар). – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – Б.42.

Jamol Kamol qalamiga mansub quyidagi satrlarda ham dev obrazidan foydalanib, yomg`ir quyuvchi bahaybat qora bulutlar ulkan devlarga mengzalishi asosida betakror o`xshatish yaratilgan:

*Yomg`irni sevardi u, yomg`ir ko`targan –
O`sha **dev**day bahaybat bulutlarni-da.
Na go`zal! Chaqinlardan o`kirib osmon,
Tinmasdan jala quysa tim-qaro tunda!*³⁵⁴

Darhaqiqat, ertak va dostonlarda uxlab yotgan devlar nafas olganda chiqadigan dam ko`kda ulkan tutunday bo`lib ko`rinishi tasvirlanadi. Masalan, “Malika Ayyor” dostonida mast bo`lib yotgan devlarning dami tutun bo`lib chiqib turgani tasviri keltiriladi.<sup>355</sup> Tabiatda yomg`ir oldidan osmonni qora bulut qoplashi devlarning damiga, momoqaldiraq guldurashi devlarning hamma yoqni larzaga keltirib xurрак otishiga o`xshatib epik talqin etilgan. Mana shu poetik an`anaga ergashgan zamonaviy shoir ham bulutlarni devga qiyoslar ekan, xalqning mifologik tasavvurlaridan yiroqlashmagani ayonlashadi.

Shoir Mahmud Rajab devning bahaybatligi, qora va vahmliligi kabi sifatlaridan foydalanib, unga tunni quyidagicha o`xshatadi:

*Kesib o`tmaydi u yo`limni to`sar,
Dev kabi bahaybat qora mushuk – tun.
Sichqonday bolalab, lahzada o`sar,
Ko`krak qafasimda tashvishlar tutqun.*³⁵⁶

E`tibor qilinsa, shoir kun botib atrofni tun egallashini bahaybat devning lirik qahramon yo`lini to`sishi holatiga qiyoslayotir. Ushbu misralarda ham yuqorida tahlil qilganimiz (ko`zaga qamalgan dev kabi ko`ngildan chiqib ketolmaydigan qo`rquvni) singari ko`krak qafasida joylashgan yurak (dil)dagi tashvishlarning tutqunligi, ular har soniyada ko`payishi tasviri mantiqan ko`za // qalb va uning ichidagi dev // vahm tushunchalari paralleligida ifoda etilgan.

³⁵⁴ Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, дostonлар). – Т.: Фан, 2007. – Б. 279.

³⁵⁵ Малика Айёр: Ўзбек халқ дostonи. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 336 б.

³⁵⁶ Mahmud Rajab. She`rlar / kh_davron.uz

Xalq qarashlariga ko`ra, kishining yo`lini qora mushuk kesib o`tsa, go`yo bu omadsizlikdan belgidir. Ushbu she`rda shoirning yo`lini qora mushuk – tun kesib o`tmaydi, balki dev kabi to`sadi. Bu – tun va uning asosida ifoda etiluvchi g`am bilan kurashish kerak degani. Lirik qahramonning yuragida tashvishlar serob ekan, tunni engib, tongga etish mushkul, albatta. Biroq u tongdan ham mamnun emas. Shundan kelib chiqib, shoir she`r davomida tun-kunni ola, ya`ni yarmi oq, yarmi qora tusli mushukka qiyoslaydi:

Bizning g`amimizni eb tugatolmas,

Tun-kun – ola mushuk oramizdagi.

Yuzingda xol emas,

Ichimda yotgan

*Qirq **devning** rizqidir bir mayizdagi.*³⁵⁷

Shoirning nazarida tun qora va kun oq rang bilan bog`liq. Ular ikkisi bir bo`lib, ola mushuk sifatida namoyon bo`ladi va oshiq bilan uning yori o`rtasini kesib chiqib, yo`liga g`ov soladi. Orasidan ola mushuk o`tgan oshiq-ma`shuqlar esa ayriliq g`amiga botadi. Bunda yor yuzidagi xolning qirq dev bo`lishib yeydigan mayizga o`xshatilishi motivi xalq qarashlari asosida talqin qilingan bo`lib, faqatgina unda “Bir mayizni qirq bo`lib eyish” haqidagi maqol mazmuniga shoir ijodiy mahorat bilan yondashgan. Xalq lirikasida xol nafaqat go`zallik, hosildorlik, serfarzandlik ramzi hamdir.³⁵⁸

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, devlarning insonga homiylik qiluvchi toifasi ham bo`ladi va undan zamonaviy she`riyatda jasurlik, botirlik, qo`rqmaslik kabi sifatlarni ifodalash uchun foydalanilgani kuzatiladi. Masalan:

Ey yoronlar, bu shaharni

Suqsurga sovg`a, devdim.

Men she`rni tanimayman,

³⁵⁷ Mahmud Rajab. She`rlar / kh_davron.uz

³⁵⁸ Мусоқулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т., 2010. – Б.194.

Ko`rinadiki, oshiq o`z yoriga shaharni tortiq qilmoqda. Demak, u quruvchi usta. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonining yaratilishiga “Farhod dev” haqidagi afsona syujeti ham ta’sir ko`rsatgani aytiladi. G.P.Snesarevning tadqiqotlarida dev-quruvchi obrazi izohlangan. Unga ko`ra, devlar obrazi ayrim qal’alar, qadimiy shaharlarning paydo bo`lishiga aloqador tarixiy rivoyatlarda tez-tez uchraydi. Masalan, quruvchi dev obrazi yordamida afsonaviy Xorazm hukmdorlari o`zlarinig qal’a va shaharlarini barpo qilganlar. Rivoyatlarda Ufrid (“Qur’oni Karim”ning 27-surasiida Ifrid nomli jin nomi tilga olingan), Hojimulk (Amudaryonig o`ng qirg`og`idagi Chilpiq minorasini, Samamboi mavzesidagi To`q tog`ini qurgan), Kovus va Samandun (Hazorasp qal’asini qurgan), Hamza, Oqsuluv, Qoraxon devlarning nomlari saqlanib qolgan. Devlar Hazoraspni Sulaymon payg`ambarning buyrug`iga binoan qurgan ekanlar³⁶⁰. Katdagi (Shovot tumani) Dev solgan qal’asini ham devlar bir kechadayoq qurganligi haqida rivoyatlar mavjud.

Boshqa bir she’rda raqibni yengishga qodir kuch sifatida to`g`ridan-to`g`ri dev obrazi tilga olinadi:

Qirg`in soldi bizlarga

Xashpash degan bir botir.

Uni mag`lub etishga

*Bilmam, qaysi **dev** qodir...*³⁶¹

She’rda inson qudrati devdan ham ziyoda ekanligi ta’kidlanmoqda. Chunki inson – Alloh mo`jizasi. U barcha yaratilarning mukammali, sevimlisidir. Shuning uchun inson ba’zan mushkul vaziyatlarda chorasizlikdan ezilib, o`zini ojiz sezmasligi lozim. U o`zini ko`kdagi oyni olib biladigan darajada qudratli his qilmog`i shart. Quyidagi she’riy parchada chumoli kuchsizlik, dev esa kuch-qudrat ramzini ifodalamoqda. Biroq shoir insonlarni chorasiz qolganda ham umidsizlikka tushmaslikka va aksincha, ulkan ishlarga qodir bo`lgan

³⁵⁹ Садриддинов Б. Ҳайрат гулхани (Шеърлар). – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – Б.51.

³⁶⁰ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Қуванчбек-Машһура, 2018. – Б. 25-26.

³⁶¹ Обиджон А. Масхарабоз бола (Шеърлар ва эртак). // anvarobidjon.narod.ru

paytda o`zidan kuchsizlarga nisbatan mehr-muruvvatli bo`lishga chaqiradi:

Insonsan: ichingda – chashma va gulxan,

*Insonsan: ichingda – chumoli va **dev**.*

Qumursqaga do`nsang – **dev**day bo`l ulkan,

***Dev**ga aylangan chog` chumolini sev!³⁶²*

Boshqa insu jinslar olovdangina yaratilgan bo`lsa, inson jismi suv, olov, tuproq va havo singari eng muhim hayotiy unsurlardan shakllantirilgan. Shuning uchun shoir har bir inson buni anglab, o`zligini bilishiga da`vat etadi. Inson ichiga mitti chumolidan tortib ulkan devgacha joy bo`lishi mumkin. “Qumursqaga do`nsang – **dev**day bo`l ulkan” misrasi inson vafotidan so`ng jismi tuproqqa topshirilgach, qurt-qumursqalarga yem bo`lib, ularning ichida yana qayta jonlanishi bilan bog`liq xalq tasavvurlarini ifodalashga xizmat qilgan.

2. Jin. Xalq ishonchlari bo`yicha u mitti jonzot bo`lib, mo`r-malax kabi bir joyga in qo`yishi, odamzot ichiga kirib olib, uni bemor qilishi aytiladi. Shuning uchun jin chalgan yoki ichiga jin kirgan bemorga maxsus parixon (porxon va po`rxon ham deydilar) “o`yini” o`tkaziladi. O`yin jarayonida bemor og`zidan jin qurbaqa yoki qirqoyoq ko`rinishida chiqib ketishiga ishonch bilan qaraladi.³⁶³ Shu o`rinda “Avesto”da ham chivin, qumursqa kabi mayda jonzotlarning bevosita yovuzlik timsoli Axrimanning mahsulotlari sifatida ko`rsatilishi e`tiborni tortadi. Qirg`izlar jinni chivin ko`rinishida tasavvur qilishadi.³⁶⁴

Jinlarning o`ziga xos makoni borligi, ular hamisha Shimol tomondan kelishi tasavvur qilinadi. “Shimol tomon” “Avesto”da barcha yovuz ruhlar makoni, “qish mavsumi” esa ularning hukmronlik davri tushunchasi bilan bog`liq. Yovuzlik hukmdori Axriman nomi Shimol tomon va qish mavsumi bilan aloqador qilib ko`rsatiladi. Jinlar ham bevosita Axrimanga bo`ysunishi aytiladi. Qish mollarni o`ldirishi,

³⁶² Нодир Жонузоқ. Инсон / @nodir_jonuzoq

³⁶³ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Қуванчбек-Машхура, 2018. – Б. 54.

³⁶⁴ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Қуванчбек-Машхура, 2018. – Б. 55.

yirtqich hayvon kabi bildirmay kelishi, uning dahshatli xavf va o'ta makkor ekanligi, aynan shimol tomondan kelishi ta'kidlanadi.³⁶⁵

Islom ta'limotiga ko'ra, jinlar haqiqatda bor mavjudotlar bo'lib, asli o'tdan yaratilgan. Jin so'zining lug'aviy ma'nosi esa "to'silgan" (odamlar ko'zidan to'silgan) demakdir. Shu sababli ham u insonlarga ko'rinmaydi.

Yozma adabiyotda jin obrazining stilizatsiya qilinishi orqali shubha-gumon, adashish, vahima ma'nolari anglatiladi. Xususan, shoira H.Ahmedovaning "Derazani chertadi kimdir..." deb boshlanuvchi she'rida shunday ma'noni anglaymiz:

Aldanaman minginchi bor ham,

Hech kim yo'g'u chertilar oyna.

*Go'yo ko'zga ko'rinmas bir **jin***

*Meni tinmay qiladi mayna.*³⁶⁶

Islom dinining muqaddas manbasi bo'lmish Qur'oni Karimning "Zoriyot", "Jin", "Nas", "Saba", "Rahmon", "A'rof", "Hijr", "Kahf", "An'om", "Hud", "Naml" suralarida jinlar haqida oyatlar mavjud.

Badiiy ijodda, ko'pincha, jin va ajina obrazlarining bazm qilish motivi stilizatsiya qilinadi. Masalan, O.Hojiyevaning "Najot" dostonidan olingan quyidagi satrlarda xalqning, avliyolarning omonati bo'lgan diniy kitoblarga xiyonat qilib, ularni yoqqan, keyinchalik vafot etganida uch kungacha qabr ham qabul qilmagan To'lov rais obrazining gunohga botgani uning hovlisida ajinalar bazm qilishi, ortidan insu jinslar quvib yurishi kabi motivlar orqali ko'rsatilgan:

Ittifoqo, tarqaldi mish-mish:

To'lov rais hovlisida tun

***Ajinalar** bazm qurarmish,*

*Qilar emish tonggacha o'yin.*³⁶⁷

³⁶⁵ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Куванчбек-Машхура, 2018. – Б. 55.

³⁶⁶ Аҳмедова Ҳ. Эрк даричаси: шеърлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 116.

³⁶⁷ Ҳожиёва О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 351.

Xalq orasida jinlar bazmi haqidagi afsonalar keng tarqalgan. Bunda jinlarning inson qiyofasiga kirib olib, o`tkinchilarni avrab mehmon qilishi va atrofida raqsga tushib, keyin uni kasal qilishi, yarim o`lik holda qoldirib ketishi aytiladi. Biroq, ta`kidlanganidek, jinlar ichida ham iymonlilari borligiga ham ishoniladi.

Eshqobil Shukurning “Ov” nomli she`rida jin obrazi orqali davrning nopok kishilariga ishora qilingan:

*Gul sotib o`tirar qari megajin,
Ilon til o`ynatib chiqar shikorga.
Hushtak chalib bog`ni aylanadi jin,
Osmonga qag`illar bir so`qir qarg`a.
Gul sotib o`tirar qari megajin,
Abadiy xizmatkor **shaytonga**.
Bog`ni hushtak kabi chalib ketdi **jin**,
Oyog`i osmonda... Oyog`i osmonda...
Nega?.. Nega?.. Nega?..* ³⁶⁸

3. Shayton (Iblis) odamlarni yo`ldan ozdiruvchi, yomon yo`lga boshlovchi maxluq bo`lib, ko`chma ma`noda nafrat va haqoratni ifodalaydi<sup>369</sup>; “shayton” arabcha so`z bo`lib, odamlarni din yo`ldan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig`i, iblis deb ko`rsatilgan. Ko`chma ma`noda ayyor, quv, yolg`onchi, firibgar odamga nisbatan ishlatiladi.<sup>370</sup> Lekin shayton tom ma`nodagi mifologik obraz emas. Chunki u haqda Qur`oni karimda ham fikrlar mavjud. Shu ma`noda shayton diniy-afsonaviy obrazlar tizimida turadi. N.Narzullayev quyidagi satrlarida do`stlik niqobini kiyib, yaxshi niyatli, sof ko`ngilli kishini yo`ldan urgan kishi shaytonga o`xshatilgan:

Yaxshi do`stga bo`hton aylading,

³⁶⁸ Шукур Э. Ҳамал айвони (Шеърлар ва достон). –Т.: Шарқ, 2002. – Б. 112.

³⁶⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 169.

³⁷⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 534.

Sof ko'nglini xufton aylading.

Niqobingni yirtmay betingdan,

*Sen o'zingni **shayton** aylading!*³⁷¹

Jamol Kamolning “Umid” she’rida esa bevosita Rahmon (iymonlilik, umidvorlik) va Shayton (iymonsizlik, umidsizlik) zidligi ifodalangan. Qolaversa, noumid – shaytonning ikkinchi nomi. Shundan kelib chiqib, xalq orasida noumid insonlar to’g’ridan-to’g’ri shaytonga tenglashtiriladi:

Sen umidga banda bo’lma,

Sen umidlar shohi bo’l,

Keksalar der: gohi rahmon,

*Gohi **shayton**dir umid.*³⁷²

Shoirning “Futbol” she’rida ham ajoyib poetik ifodani kuzatish mumkin. Unda dunyo futbol maydoniga, hayot futbol o’yiniga, Inson va Shayton o’zaro raqib taraflarga o’xshatilgan:

Maydondir shu o’zi Kurrayi Jahon,

Qaltis bir “o’yin”ga maydondir mutlaq.

*To’xtamay to’p tepar **Iblis** va Inson,*

*To’xtamay to’p tepar Haqsizlik va Haq.*³⁷³

Ushbu she’rda, o’z navbatida, Iblis haqsizlikni ifodalaydi. Shaytonning yo’lidan yurganlarga nisbatan Iblis, Haq tomonda bo’lgan Odam Atoning izidan yurganlarga nisbatan Inson so’zi ishlatilgan. She’rda parallelizm asosida chuqur axloqiy mazmun ilgari surilgan.

Umuman, mifologik obrazlarning qo’nim topish makonlari ham muhim bo’dib, ular bir-biridan farqlanadi. Masalan, hur va g’ilmonlar jannatda, dev do’zaxda, Ko’hi Qofda, cho’llarda, tog’ va tog’ g’orlari, ungurlarda, parilar Eram bog’ida, suv havzalarida, Ko’hi Qofda, yalmog’iz o’rmonda, ajdar ko’l bo’ylarida, g’orlarda, jarliklarda, xaroba

³⁷¹ Нарзуллаев Н. Қалбим қатралари (Тўртликлар). – Т.: Фан, 1994. – Б. 14.

³⁷² Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, достонлар). – Т.: Фан, 2007. – Б. 192.

³⁷³ Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, достонлар). – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 63.

shahar va qal'alarda, ajinalar daraxtlar ustida, xarobazorlarda, mozorlarda, tashlandiq va kimsasiz joylarda, jinlar tashlandiq uylar, vayron bo'lgan masjid, qabristonlar, qurib qolgan suv yo'llari, bo'sh hovuzlar, ayniqsa, ot va eshaklarning tezaklari uyulgan joylarda, alvastilar katta ariqlar bo'yida, daryo yoqasida, hovuz yoki quduqlar oldida, Xizr buloq, quduq yoki hovuz bo'yida, xirmonda duch kelishi aytiladi. Shuningdek, islomiy-diniy qarashlarga ko'ra, axlatxona, chiqindi bor joylar, hojatxonalarda ham dev va jinlar makon qurgan bo'ladi, deya qaraladi. Chunki bunday joylarda muqaddas oyatlar va duolar o'qilmaydi.

Zamonaviy she'riyatda mifologik obrazlarni qo'llashning ijtimoiy-psixologik asoslari va ko'rinishlari. Davr voqeliklari, kishilari va predmetlarini folklordagi obraz, motivlar vositasida ifoda etishga e'tibor jadid adabiyotida,³⁷⁴ ayniqsa, o'tgan asrning 70-80-yillaridagi ijodkorlar asarlarida³⁷⁵ kuchaydi. Ularda zamon yo'rig'idan nolish, Vatan va xalqning ochiq-oshkora aytish qiyin bo'lgan ijtimoiy dardlariga, g'am-tashvishlariga chora izlash, istibdodchilar zulmidan norozilikni ifodalash, erk va ozodlik uchun kurashga chorlash uchun xalq afsona, rivoyat, ertak, doston, latifa, qo'shiq, maqollarining mazmuni, g'oyasi, obraz va motivlaridan ijodiy foydalanishga intilish kuchli bo'lib, bunda shoir-yozuvchilarning o'z maqsadi yo'lida folklor asarlari badiiy shakli, uslubi, obraz yoki motivini qayta ishlagani namoyon bo'ladi. Ular qattol **davr voqeliklarini** xalq tili bilan implitsit (yashirin) fosh etish uchun folklor an'analariga ergashgani kuzatiladi.

Har qanday urush hamisha insonlar boshiga cheksiz kulfatlar keltirgan. Shuning uchun u har doim qoralangan. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham urush mavzusi talqin qilinar ekan, uning yovuz mifologik obrazlar vositasida ifoda etilgani alohida diqqatni tortadi. Bu mavzuda yaratilgan ko'plab she'rlarda urush, bosqinchilar, zambaraklar, yong'in tasviri, asosan, ajdar metaforasi vositasida berilsa, fashistlar boshlig'i mal'un Gitler, qiruvchi samolyotlar yalmog'iz qiyofasida, atom bombasi, jang maydoni kabilar esa do'zax, jahannam metaforalari orqali ifodalanganini ko'rish mumkin. Masalan, O.Hojiyeva

³⁷⁴ Амонов У.С. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиш тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): Фалсафа фанлари бўйича филол. фан. доктори (PhD) ... дисс. автореф – Т., 2018. – 54 б.

³⁷⁵ Шарипова Л. XX асрнинг 70-80 йиллари шеъриятида фольклоризм: Филол. фан. номз... дисс. – Т.: 2008. – 155 б.

“Balog‘at yillari” she‘rida urush hamma yoqni vayron etib, kul qiluvchi, odamlarni halok etuvchi dahshat ekanini ko‘rsatish uchun ajdaho obraziga murojaat qilgan:

Qishloqlarning ne-ne o‘g‘lonin

*Yutdi urush degan **ajdaho**.*

Bo‘y qizlarning gulday armoni

*Istar edi sevgidan ziyo.*³⁷⁶

Boshqa bir she‘rida esa uni yalmog‘izga tenglashtiradi: “*Tillo sochingni tobutga o‘rdi, Urush – **yalmog‘iz!***”³⁷⁷ Ertaklarda yalmog‘iz – bolalar kushandasi sifatida tasvirlanishi e‘tiborga olinsa, bu misralar bolalari bag‘ridan yulib olingan onaning ohu nolasi ekanini anglash qiyin emas.

Shoir Jamol Sirojiddin “Tarix varaqlari – kech kuz xazoni” she‘rida ajdahoning juda katta maydonga qutqu solish, yamlash, osmondan uchib o‘tib, zahri qotilini sochish (olov purkash) semasidan foydalanib, **nafsni** unga mengzaydi:

Nafsimiz quritdi dengiz, ko‘llarni,

*Tog‘larni yamladi nafs otlig‘ **ajdar**,*

Suyaklar bezadi bizning yo‘llarni

*Sepdik xudo xalqi ustidan zahar.*³⁷⁸

Haqiqatan, tarix insonning nafs tufayli tabiat va jamiyatga juda katta talofat yetkazganiga guvoh. Eng katta urushlar ham nafs sababli, boylik orttirish, shuhrat qozonish ilinjida boshlangan. Tabiatga shafqatsizlarcha munosabat va urushlar tufayli dengizlar chekindi, cho‘llar kengaydi, insonlar va jonivorlar nobud bo‘ldi, iqlim o‘zgardi, suv va havo zaharlandi, gumbazlar o‘rnini kultepalar egalladi.

Omon Matjonning qatag‘on siyosati fojialari aks ettirilgan “Nega men?!” dostonining “Turg‘unlik yillari” bobida millatning haqiqiy farzandlarini yo‘q qilgan qonli tuzum bevosita yuho obrazida berilgan:

³⁷⁶ Ҳожиева О. Мушфиқ онажон. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.274.

³⁷⁷ Ҳожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – 448 б.

³⁷⁸ Сирожиддин Ж. Заҳҳок салтанатинда (шеърлар). – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – Б.56.

*Hech kim o‘z moliga qo‘yolmas bahr,
Boru yo‘g‘imizni bilmaydi dunyo,
Hech kimdan so‘ramay-netmay ne **yuho**
Bu yurtidan qurbonlik yamlashga tushdi.*³⁷⁹

Shoir hatto “aybin bilmay ketgan” ota-bobolarimiz, “xalq dushmani” tamg‘asi urilgan, aslida millatparvar bo‘lgan ajdodlarimizni so‘ramay-netmay qurbon qilgan qatag‘on siyosatining naqadar qonxo‘r va vahshiylikni ko‘rsatish uchun yuho metaforasidan foydalandi.

2020-2021-yillarda dunyo xalqlarining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotiga xavf solgan voqeliklardan eng kattasi, shubhasiz, koronavirus pandemiyasi bo‘ldi. Shu munosabat bilan zamonaviy o‘zbek she‘riyati vakillarining ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilgan va qilayotgan ushbu mavzuga oid aksariyat she‘rlarida tojdor virusga nisbatan nafratni ifodalash maqsadida yovuzlik semasini tashuvchi mifologik obrazlardan foydalanilgan. Jumladan, Qo‘chqor Norqobilning “Karantinda” she‘ridan olingan quyidagi misralarda kasallik iblisga tenglashtiriladi:

*Salom-alik havoda qotdi,
Bosolmayman Seni ko‘ksima...
Tojdor **iblis** chegara tortdi
O‘tar bu kun... Do‘stim, o‘ksima.*³⁸⁰

Nodir Jonuzoqning “Koronavirus” sarlavhali she‘rida esa nafs otlig‘ bedavo dardni ramziy ifodalash uchun ajdar mifologik obrazi metaforizatsiyasi amalga oshirilgan:

*Yuz boshli **ajdarga** o‘xshaydi qattol,
Turfa qiyofada qilgay u xuruj.
Ne-ne ko‘ngillarda tizilib qator,
Ne-ne yuraklarda urchiydi g‘uj-g‘uj.*³⁸¹

³⁷⁹ Матжон О. Одамнинг сояси куёшга тушди (Шеърлар). – Т.: Ёзувчи, 1991. – Б. 19.

³⁸⁰ Қўчқор Норқобил. Карантинда Халқимга. https://t.me/yozyuvchilar_uz

Yuqoridagi satrlarda shoir nafsni ajdarga qiyoslar ekan, uni har qanday virusdan ham xavfli kasallik deb hisoblaydi.

Demak, davr voqeliklari: tuzum, siyosat, muhit, holat, voqea-hodisa, ular sodir bo'lgan maydon, o'rin kabilar mifologik obrazlar orqali ifodalanar ekan, ular orasidagi ma'lum bir belgi, bog'liqlik nazarda tutiladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida davr illatlari, insoniyatning turli davrlardagi xatolari, urush voqealari, sobiq tuzum fojialari, zararli oqimlarning mustaqilligimizga tahdidi kabi muhim hodisalar aks ettirilar ekan, **davr kishilari:** bosqinchilar, fashistlar, zolim mansabdorlar, terrorchi va jinoyatchilar, qalloblar va hokazolar salbiy mifologik, diniy-afsonaviy obrazlar bilan ifodalansa, jabrdiyda millat farzandlari, qahramonlar, ko'ngil kishilari kabilar ijobiy semadagi mifologik, diniy-afsonaviy obrazlar orqali ko'rsatilgan. Bu esa, albatta, ijodkor tuyg'ulari (nafrati yoki hurmati)ning nutqiy ekspressivligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xususan, zamonaviy o'zbek adabiyotida Ikkinchi jahon urushi, qatag'on, mustabid tuzum davri ruhini aks ettirish maqsadida davr kishilarining obrazi turli mifologik obrazlar vositasida ifodalangani kuzatiladi. Jumladan, Sulton Akbariyning "Qatag'on" dostonidagi ushbu xalqona, sodda misralarda davr fojiasining quyidagi poetik ifodasini o'qiymiz:

Shu qadar farang bo`p ketganmi jazo!

Shu qadar qiyinmi sho`roda qazo!

Chalajon cho`zilsa, suvga pisharlar,

Qo`y yutgan **ajdaho** yanglig` shisharlar.

Axir, u chibin-ku, emas karkidon,

Otib yuborsaydi tezroq arkidan.

Xalq og`zaki ijodiga xos uslub va xalq jonli tilidan unumli foydalangan shoir yuqoridagi misralarda 1937-yilgi qatag'on voqealarini tasvirlashda ajdaho, chibin, karkidon, ark kabi obrazlarni ramziy ma'noda qo'llagan. Ular orasida qatag'on davri tergovchilariga nisbatan qo'llanilgan ajdaho metaforasi tuzum vakillarining mahbusni

³⁸¹ Нодир Жонузоқ. Коронавирус. @nodir_jonuzoq

ayovsiz azoblashi, azoblagan sari bundan rohatlanishi kabi yovuz fe'l-atvoriga nisbatan nafratni ifodalashga xizmat qilgan.

Habib Sa'dullaning "Adib qismati" dostoni ham mazkur davrni yorituvchi asarlar sirasidan bo'lib, shoir qatag'on siyosati boshida turganlarni fashistdan battar yovuzga, Azroilga o'xshatadi:

Fashistdan battarroq sovuq bashara

Azroil turqini esga soladi.

O'likxona kabi badbo'y kamera,

*Beton jon-joningni so'rib oladi.*³⁸²

Yuqoridagi she'riy parchada "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olingan ijodkor Said Ahmadning bo'yniga nohaq ayblovlarni ilgan tergovchining berahmliги va turqi o'lim kabi sovuqligi Azroil obrazi vositasida ta'sirli aks ettirilgan.

Ma'naviyat – millatning ruhidir. Millatni yo'q qilish, avvalo, uning ma'naviyati, qadriyatlari, kitoblarini yo'qotishdan boshlanadi. Shuning uchun o'tmishda bosqinchi "dev"lar yurt kelajagini ko'ra bilgan, uni ma'rifatga, erk va ozodlikka boshlashga uringan millat gullarini ayamay payhon qilganlar. Achinarlisi, ularni nodon elning o'zi tutib bergan, o'z qo'li bilan "ajdar"ning og'ziga otgan. Shundan kelib chiqib, quyidagi satrlarda qatag'onchi hukumat rahbarlari bevosita devga, ajdarga o'xshatilgan:

Elni yov bosganida,

*Ruhin **dev** bosganida,*

Manman degan botiri

O'q eb yiqilganida,

Shirin ko'rinib joni,

Unutib bor dunyoni,

Ajdarga beravergan

*Nodon ulus o'g'lonin...*³⁸³

³⁸² Саъдулла Н. Танланган асарлар. I жилд. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 413.

Demak, ajdaho obrazini metaforizatsiyalash orqali badiiy ijodda bosqinchi hukmdorlar timsoliga ham ishora qilinadi. Ajdahoning ertaklarda o'z hukmi ostidagi mamlakatdan har kuni tanavvul qilish uchun tirik jon so'rashi motivi bosqinchi hukmdorlarning o'zi bosib olgan hududlardan har yili katta o'lpon undirishi yoki ko'plab yosh yigit-qizlarni qullikka olib ketishi g'oyasini ifodalashga xizmat qilgan. Haqiqatda, har bir obraz xalqning katta ijtimoiy dardini badiiy ko'rinishda aks ettiradi.

Jamol Sirojiddinning "Xufton adog'ida" she'rida esa odamlari o'z manfaati va nafi yo'lida iymon, vijdonni unutgan, qassoblari ham pul, ham tarozidan urgan, savdogari halollikni, qozisi adolatni tark etgan, aldov va xiyonat avj olgan Turkiston "mulki shayton" deya ta'riflanadi. Shu orqali davrning odamlarni aldab pul topadigan ayrim kasb egalari shaytonga mengzaladi:

Qassobi ham pulu ham toshu tarozidin urar,

Tojiri maymoq-mayib, kalta-darozidin urar,

Qozisi – da'vogar, rozi, norozidin urar,

*Mulki **shayton** bo'ldi Tur, el bir-birini aldashur,*

*Zobiti uch tuz yasar kartamg'a chiqqanda kuzur.*³⁸⁴

G.P.Snesarevning qayd etishicha, Xorazmda kasbiga va shaxsiy sifatiga qarab past toifadagi kimsalar deb qaralgan "bom"lar toifasi tushunchasi bo'lgan. Ushbu toifaning bir qismi muayyan bir kasb-hunar bilan uzviy bog'langan. "Bom"ning quyidagi ko'rinishlari bo'lgan:

1. O'lik yuvg'uvchilar.
2. Qassoblar.
3. Qayiqchilar.
4. Qorako'l teri uchun qo'zichoq so'yadiganlar.
5. Tarozibonlar.
6. Sartaroshlar.
7. Zargarlar.

³⁸³ Хожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, достонлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 364.

³⁸⁴ Сирожиддин Ж. Заҳҳок салтанатинда (шеърлар). – Самарқанд: Суғдиёна, 1994. – Б. 62.

8. Hammomchi va uqalovchilar.

9. Juvozchilar.

10. Baliqchilar.

11. Bo`yoqchilar.

12. Bog`bonlar.

13. Ko`nchilar.³⁸⁵

Bular orasida ma'naviy-axloqiy motivlari aniq ko`rinib turadiganlari so`nggi, islom diniga aloqador bo`lib, gunoh va ezgulik bilan bog`lanadi. Darhaqiqat, qassob, tarozibon haqida so`zlaganda, ularning tarozidan urishi, odamlar haqini o`zlashtirishlariga shama qilingan.

Habib Sa'dullaning 1999-yil 16-fevral voqealariga bag`ishlangan "Jarohat" dostonida vatan xoinlari shayton, lain, dajjol nomlari vositasida ifodalangan:

Boqib ko`rku jamolingga

Yashirmas zavqini olam,

*Qay ul **shaytonki** vos-vosda*

*Go`zal bag`ringga o`q otgay?*³⁸⁶

Ushbu misralarda mustaqillik yillarida o`z vataniga xiyonat qilib, uning go`zal imoratlarini vayron qilgan, o`z xalqiga o`q uzgan, xalqning yuragi bo`lgan Prezidentining joniga qasd etgan, dinni niqob qilib olgan aqidaparast, ekstremist, terrorchi guruhlariga qo`shilgan xoinlar buzg`unchi shayton obrazi orqali metaforizastiya qilingan. She'r davomida ularning yolg`onchiligi, odamlarni yo`ldan urishi dajjol, lainga tenglashtiriladi va hatto bu borada undan ham "o`tib ketgan"ligi aytiladi:

*Senga qasd aylagan **dajjol***

Mening xalqimga qasd etmish,

³⁸⁵ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Куванчбек-Машһура, 2018. – Б. 160.

³⁸⁶ Саъдулла Н. Танланган асарлар. I жилд. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 374.

Butun xalqqa g`anim kori
***Lain**dan ham o`tib ketgay,*
***Lain**lardan o`zing asra,*
Xudoyim yurtu xalqimni,
O`zing baxsh aylagan hurlik
Unga mangu nasib etgay.³⁸⁷

Islom diniga ko`ra, dajjol qiyomat yaqinlashganda paydo bo`lib, odamlarni dindan, to`g`ri yo`ldan ozdiruvchi, odamsimon bir ko`zli maxluq³⁸⁸, u arabcha “yo`ldan uruvchi, firibgar, yolg`onchi” degani. Ko`chma ma`noda o`taketgan beshafqat va firibgar ma`nosini anglatadi, ba`zan mal`un, iblis, shayton so`zlari qatorida so`kinch so`z sifatida ishlatiladi.

Ko`pincha xudoning dargohidan quvilgan shaytonga nisbatan lain – la`natlangan, qarg`ish olgan, la`nati³⁸⁹ sifatlashi ishlatiladi va ko`chma ma`noda o`taketgan firibgar, hiylagar, qallob ma`nosini intensiv ifodalab keladi. Umuman olganda, shayton, iblis, lain va dajjol obrazlari firibgar, ayyor, xoin kishilarga nisbatan nafratni ifodalashi bilan umumiylik kasb etadi. Shuning uchun har so`zida Allohni, Islomni tilga olib, aslida musulmonlarni yo`ldan urishga, odamlarni dahshatga solishga, ko`r-ko`rona xalifalik davlatini tuzishga uringan badkor diniy ekstremistik va diniy aqidaparastlik, terroristik guruh vakillari quvlik va yovuzlik timsoli bo`lgan diniy-afsonaviy obrazlar orqali ifodalanadi. Quyidagi misralarda esa shunday kimsalarni sifatlashda Rahmon va shayton obrazlari qarama-qarshiligidan foydalanilgan:

*Suxanida Rahmon, qonida **shayton**?*

Bad nusxaga kiyib dindor niqobin.

Musulmonlik farzin etishib payhon

³⁸⁷ Саъдулла Н. Танланган асарлар. I жилд. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 375.

³⁸⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 544.

³⁸⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 484.

Zamonaviy o'zbek she'riyatining taniqli vakillaridan Ulug'bek Hamdamning "Yangi inson" she'rida "Allohning irodasiga ko'z tikib" gibridd mahsulotlar, sun'iy taom, ozuqa, hattoki sun'iy ota-ona, odam yaratayotgan nanotexnologiya tarafdorlari, o'zining til, musiqa, kiyinish uslubini ommaviy madaniyat ko'rinishida bachkanalashtirayotgan zamonaviy "super odam"lar, uchinchi ming yillikda hamma narsani eb-yutib yuborayotgan ochko'z "iste'molchi"lar dajjol, shayton, iblis, jin, olabo'ji, yuho obrazlari vositasida tasvirlangan. Masalan: "*Bas, endi u Iste'molchidir! Bo'lgandayam **yuhodek** Iste'molchi!*", "*Yangi Insonning qulog'iga xush yoqadigan musiqalarni peshtoqi zarhalli gipermarketlarda chaldirib qo'ymoqda **dajjollar***", "*kecha inson o'zligini ichkaridan qidirgan, Bugun esa inson o'zligini tashqaridan izladi, avval Oliy Odamga, so'ng esa **Olabo'ji** – Super odamga, "Butun kelajak bizniki!" deya, ayuhannos solayotan xunasaga duch keldi*"singari misralarda diniy-afsonaviy va mifologik obrazlarga murojaat qilish orqali hozirgi zamonning illatlari ko'rsatilgan.³⁹¹

Dunyo mamlakatlari hayotida o'tgan asrning 40-yillari tarixida muhim sahifalar yaratgan Ikkinchi jahon urushi davri voqea-hodisalari talqini va tasviri badiiy ijodda o'ziga xos aks ettirildi. Jumladan, zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bu davr ruhini real aks ettirish maqsadida nafaqat davr voqeliklari va kishilari, balki unga xos ayrim **predmetlarning** turli mifologik obrazlar vositasida badiiy ifodalangani kuzatiladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida urush mavzusi qalamga olingan ko'plab she'rlarda zambaraklar tasviri ajdar, qiruvchi samolyotlar yalmog'iz, atom bombasi esa jahannam, yalmog'iz va ajdar metaforalari orqali ifodalanganini ko'rish mumkin.

"O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da ajdaho obrazi ko'chma ma'noda³⁹² texnik qurol (masalan, zambarak)ka nisbatan poetik ko'chimni ifodalashi aytib o'tilgan.

Yalmog'iz obrazi esa zamonaviy o'zbek she'riyatida yamlamay yutish, eb-to'ymaslik, yondirish, vayron qilish, ziyon etkazish kabi xususiyatlari asosida xavfli qurol, bomba tushunchalarini ramziy ifodalab kelgan.

³⁹⁰ Саъдулла Н. Танланган асарлар. I жилд. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 391.

³⁹¹ Ҳамдам Улуғбек. Эски дунё ва янги мен. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б.365-384.

³⁹² Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б. 24.

O.Hojieyvaning “Xatar vodiysidan fasona”sida o`tochar qiruvchi samolyotlar ajdarga qiyos etilgan:

Og`zidan o`t purkab, sochib tutunlar

Qirq boshli ajdarday o`tdi quzg`unlar.

Tuyalar, biyalar, toylar, qulunlar –

*Loshiga chosh bo`ldi to`rt yog`im mening.*³⁹³

Ko`rinib turganidek, har tomondan uchib kelib, olov purkab, hamma yoqning kulini ko`kka sovurgan samolyotlarning qirq boshli ajdarga o`xshatilishida badiiy haqiqat mavjud.

Quyidagi satrlarda esa dahshatli zambaraklar va jangovar tanklar dev obrazi vositasida tasvirlangan:

Devlarning minora qovurg`asiday

Tanklar, zambaraklar tog` “to`rva”sida,

“Tomog`i” tiqilib soy, jilg`asi-da,

*Halqumi qurigan tuprog`im mening.*³⁹⁴

Metaforalarni hosil qilishda afsonaviy-diniy tushunchalarni bildiruvchi so`zlar asos bo`luvchi so`zlardan biri sanaladi. Quyidagi misralarda ham “atom” “jahannam elchisi” metaforasi orqali ifodalangani alohida e`tiborni tortadi:

Jahannam elchisi – atomni ko`rdik,

*Mahshar gulxanini ko`rdik qalovda.*³⁹⁵

Jamol Kamol o`zining “Asr bilan vidolashuv” she`rida bosqinchilar, johillar tomonidan masjidlar vayron qilinib, muqaddas kitoblar yoqilganiga ishora qiladi va Islom dinining muqaddas manbasini “najot farishtasi” metaforasi vositasida obrazlantiradi:

Olovga sig`indik, olovda yurdik,

*Najot **farishtasin** ko`rdik olovda.*³⁹⁶

³⁹³ Хожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, достонлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 368.

³⁹⁴ Хожиева О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, достонлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 368.

³⁹⁵ Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, достонлар). – Т.: Фан, 2007. – Б. 325.

Muqaddas dinimizning bosh manbasi bo'lmish "Kalomulloh" insonlarga homiylik qiluvchi, ularga to'g'ri yo'lni, yorug'likni ko'rsatib turuvchi farishta kabidir. Shu ma'noda Qur'oni karim musulmonlarni Alloh bilan yaqinlashtiruvchi, Uning so'zlarini bandalariga yetkazuvchi va Unga iltijolarni qanday qilib yetkazishlarini ko'rsatuvchi najot farishtasidir.

Diniy qarashlarga ko'ra, farishtalardan biri la'natlangan bo'lib, u insonlar orasida turli kufr ishlar uyushtirish uchun har xil tuzoq hozirlaydi va turfa niqoblarda namoyon bo'ladi. Shunday diniy-mifologik qarashlardan uzoqlashmagan holda Jamol Kamol "Xurofot" she'rida sharobni iblisga qiyoslagan:

Mayli, so'zlarimni olaver malol,

Mayli, masxaralab, mayna qil, biroq:

G'ofilni izlasang – ko'zguga ko'z sol,

Iblisni istasang – qadahingga boq!³⁹⁷

"Qissasi Rabg'uziy" rivoyatlaridan ma'lumki, Shaytoni mal'un uzum urug'ini o'g'irlab, uni topib berish evaziga ekib, uch marta sug'orish vakolatini Nuh alayhissalomdan oladi. Urug'ni avval tulki, keyin sher, undan so'ng to'ng'iz qoni bilan sug'oradi. "Aning bergan suvidan chog'ir bo'ldi, har kim chog'ir ichsa, avval tulki bo'lub, ko'rmagan kishi birla do'stluq og'oz qilur. Andin mast bo'lg'onda yo'lbarsdek bo'lur, himmati jo'sh bo'lub, har kimga bir nimarsa berur. Andin mastroq bo'lsa, to'ng'izdek yuraklik bo'lub, hech ishdin qo'rqmas, har qism yomon ishlar sodir bo'lur, shayton bergan suvlar fe'lidur", – deyiladi asardagi "Uzum hikoyati"da.³⁹⁸

Sirojiddin Sayyidning quyidagi satrlarida ham shayton va sharob (may) obrazi bog'langan:

Shoirlik shuhratu shonidan kechdim,

Nechun endi menga bu baytu g'azal?

*Men **shayton** qo'lidan sharoblar ichdim,*

³⁹⁶ Камол Ж. Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, достонлар). – Т.: Фан, 2007. – Б. 325.

³⁹⁷ Камол Ж. (2007). Аср билан видолашув. Сайланма. I жилд (Шеърлар, достонлар). – Т.: Фан. – Б. 120.

³⁹⁸ Рабғузий Н. Қисаси Рабғузий. 1-қисм. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 240 б.

*Men hurlar tilidan sipqordim asal.*³⁹⁹

Shoira Z.Mo`minova bugungi kunda ba'zan insonlarni yo'ldan adashtirishda shayton va iblisdan qolishmaydigan internetni ajdarga qiyoslaydi:

*Internet degan **ajdar**,*

Simidan oqar zahar.

Dod demay ro`zi mahshar,

*Bolaga kitob bering.*⁴⁰⁰

Haqiqatda internetdagi ayrim salbiy, zararli dasturlar bola ruhiy va aqliy olamini yutib yuboradi va uning beg`ubor dunyosini nobud qiladi. Tanasini ajdar olovidek nurlantirib, kuydiradi. Shu jihatdan internet inson ongini zaharlovchi ajdarga o`xshatilgan.

O.Hojiyevaning “Najot” dostonida esa toza havoni, shu havodan nafas oluvchi inson organizmini zaharlovchi o`g`it ishlab chiqaruvchi zavodlar “ajdarxona” metaforasi bilan ifoda etilgan:

Karmanada qurib “ajdarxona”lar,

Havoga purkadi zahrolud tutun.

Gazini xorijga pullab, onalar

*Qozon qaynatgani topolmas o`tin.*⁴⁰¹

Xullas, zamonaviy o'zbek she'riyatida turli davrlarda yaratilgan predmetlar: samolyot, atom bombasi, zambarak, kitob, internet, sharob kabilar talqinida xilma-xil poetik va ramziy ifodalar yaratishda mifologik obrazlar o'ziga xos o'rin egallaydi.

Xulosa shuki, har bir davr og'zaki va yozma adabiyotida ibtidoiy insonlarning qadimiy mifologik tasavvur-tushunchalari asosida shakllangan asotiriy obrazlar tizimi alohida o'ringa ega bo'lib, mif va ijodiy jarayon, folklor va yozma adabiyot munosabatini, mifologik tafakkurdan badiiy-estetik tafakkurga o'tish tamoyillarini, badiiy ijoddagi shakliy-uslubiy, poetik yangilanishlarni aniqlashga xizmat qilishi jihatidan hamisha

³⁹⁹ Саййид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. – Т.: Шарқ, 2005. – Б.114.

⁴⁰⁰ Зулфия Мўминова// <https://uzas.uz/articles/869>

⁴⁰¹ Ҳожиёва О. Шом шуълалари. Сайланма (Шеърлар, дostonлар, қасидалар). – Т.: Шарқ, 2010. – Б. 359.

adabiyotshunoslikning dolzarb va muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. Ular folklor, mumtoz, jadid, hozirgi adabiyot namunalarida an'anaviy tarzda qo'llanib kelayotgani bilan e'tiborni tortadi.

Jahon adabiyotining antik bosqichidan hozirgi bosqichigacha barcha ijod turlari (nazm, nasr, drama)da mifologik syujet, motiv, obrazlarning badiiy vazifalaridan har bir ijodkor umumiy poetik qonuniyatlar asosida o'z individual uslubiy mahoratidan kelib chiqib, davr voqealari, kishilari, turmush predmetlari tasviri va talqinida ulardan mif – marosim – folklor – yozma adabiyot tadrijida foydalanib kelayotgani kuzatiladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida badiiy ko'chim turlaridan biri bo'lgan metaforaga antropotsentrik yondashuv xalqning milliy-madaniy merosini o'zida aks ettiradigan hamda olam manzarasini poetik ifodalaydigan faol badiiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. U asosda badiiy ko'chimga erishish metaforizatsiya hodisasini keltirib chiqaradi hamda assotsiativ xarakter kasb etishi bilan murakkablik paydo qiladi.

Metaforizatsiya va stilizatsiyadan foydalanish nutqni bezash uchungina bo'lmay, sof pragmatik ahamiyatga ham ega. Xalq og'zaki ijodiga xos an'anaviy mifologik obrazlar yangicha uslubda, davr ruhiga mos qayta ishlanishi ularni stilizatsiya qilish hisoblanadi. Bu har ikkala hodisaning nominatsiyasi jarayoni milliy urf-odatlariga, milliy til imkoniyatlariga bog'liq holda kechadi. Metaforizmlar, stilizatsion folklorizmlar mnemonik (eslab qolish), tushuntirish, kodlash (yashirish, pardaga o'rash), axloqiy (hissiy ta'sir ko'rsatish), avtosuggestiv (so'zlovchi, ya'ni ijodkorning o'zi ta'sirlanishi) kabi vazifalarni bajarib keladi. Metaforizatsiya nutq adresatiga ta'sir qilishning ajoyib vositasi bo'lsa, stilizatsiya an'anaga yangicha yondashuv imkoniyatidir.

She'riyatda, umuman, badiiy ijodda mifologik obrazlar metaforizatsiyasi hamda stilizatsiyasidan ijobiy yoki salbiy ma'nolarni ifodalashda, so'z o'yini, kinoya va shama qilishda ancha faol foydalanilishi kuzatiladi. Har ikkalasi ham yorqin obraz yaratish, nutq qaratilgan predmetga emotsional-hissiy munosabatni, bahoni ifodalashning qulay usulidir.

Mifologik obrazlar stilizatsiyasi badiiy uslubning o'ziga xos poetik ko'rinishi sifatida biror adabiy usulning asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi va ijodkorga muayyan ijtimoiy guruh yoki millat vakillarining nutqiy xususiyatlarini aks ettirish imkonini beradi. Yozma ijodda mifologik obrazlar stilizatsiya (tor ma'noda) va variatsiyalashgan holatda namoyon bo'ladi.

Poetik talqinda esa yaxlitlik va bo'lak munosabatlarida yuzaga chiqadi. Bunda mifologik obrazlarning yaxlitlik kasb etishi «mifonimlar to'ri»ni hosil qilishi bilan bog'liq.

Tayanch tushunchalar: mifologik obraz, mifonim, mifonimlar to'ri, "Geshtalt tamoyillari", mifologik tafakkur, folklorizm, stilizatsiya, metafora, metaforizatsiya, antropomorfik mifologik obraz, zoomorfik mifologik obraz, ornitomorfik mifologik obraz, demonomorfik mifologik obraz.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mifologik obrazlar stilizatsiyasi zamonaviy she'riyatda, aosan, qaaysi janrlarda ko'p uchraydi?
2. Ijodkorlarning zamonaviy she'riy asarlarda miflarga xos obrazlarni qo'llashidan ko'zlangan maqsad nima?
3. Mifologizatsiya va demifologizatsiya qanday jarayon ekanligini misollar asosida tushuntirib bering.
4. Dev, pari, jin va shayton obrazlariga xos xususiyatlarning o'xshash va farqli tomonlarini sharhlab bering. Muqaddas diniy manbalarda ular haqida nima deyilgan?
5. Miflar va mifologik obrazlarni tadqiq qilgan olimlardan kimlarni bilasiz?
6. Qaysi mifologik obrazlar epik asarlarda qahramonga ba'zan homiy, ba'zan raqib sifatida tasvirlanadi?
7. Ajadaho obrazining an'anaviy va zamonaviy she'riyatdagi talqinlariga xos umumiy va farqli jihatlarni izohlang.
8. Antropomorfik, zoomorfik, ornitomorfik va demonomorfik mifologik obrazlarni sanab bering.
9. Mifologik obrazlarning qo'nim topish makonlari haqida nimalarni bilasiz?
10. Ijodkorlar davrga xos qanday voqealar, qaysi toifadagi kishilar va yangi turmushdagi qanaqa predmetlarni mifologik obrazlar orqali ifodalashgan? Fikringizni misollar asosida tushuntiring.

Glossariy

Apokaliptika [yunon, “vahdat” – “vahiy” odamlarga hozirgi va kelajakka oid ilohiy rejani ochib berish] Global falokatning boshlanishi haqida hikoya qiluvchi ilmiy-fantastik janr.

Apologetika (yunon, “mudofaa qilib gapirish”) diniy ta’limotlarni nutq orqali himoya qilishning diniy intizomidir (nasroniylikkacha bo’lgan davr arxaik miflarga apologetik yondashuv).

Arxaik qatlam – [yunon, archaikus qadimgi, qadimiy] bir hodisaning tarixiy rivojlanishini dastlabki bosqichi. Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to’g’risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo’lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qad. e’tiqodiy qarashlarni o’zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiy o’zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o’lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O’rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O’zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo’lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o’z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Animizm [lot. anima, animus – “jon” va “ruh”, o’z navbatida] Ruhlar va ruhlarning mavjudligiga, barcha tabiatning animatsiyasiga ishonish. Animistik tasavvurlar derli barcha dinlarda mavjud. “Animizm” atamasi uyushgan din va eski e’tiqodlar o’rtasidagi farqlarni ta’kidlaydi.

Arxetip – [yunon, Arche-ibtido va typos – namuna (pervoobraz) ilk obraz] inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo’lgan turg’un “sxema”lar, konstruksiyalar, qoliplar.

Arxetipik obraz (syujet, motiv) – [arxetipik tasvir, obraz - tafakkur va idrokning mahsulining bir qismi bo’lib, unda arxetip o’zini namoyon qiladi] arxetipik motiv va obrazlarning yozuvchi asarlarida transformatsiyasi asarning obrazlar tizimiga an’anaviy mifik personajlarni (Baliq – ona, Ota baliq, Qo’rqut ota kabi) olib kirish, mifologik obrazlar mohiyatini o’zida aks ettirgan personajlar (Qaharman – madaniy qahramon) tipini yaratish, shuningdek, rang va makon arxetiplaridan foydalanish orali amalga oshirilgan.

Demifologizatsiya [yunon. mythos - afsona, afsona, so’z] – biror narsani tasvirlash va tushuntirishdan, ta’limot yoki tushunchadan mif yelementlarini bartaraf etish, ularni ratsionallashtirish. Qadimgi miflar mohiyatini inkor qilish orqali o’zlikni anglashga intilish, badiiy

mifologizmning bir usuli. Demifologizatsiya nemis ilohiyotshunosi R.Bultman nomi bilan bogʻliq, dinni mifologik tasavvurlardan ozod qilishni ilgari suruvchi taʼlimot; biror narsa, voqea haqidagi aqlbovar qilmas uydirmalarni yoʻqqa chiqarish, tarixiy real voqealardan afsonaviylikni olib tashlash.

Zooantropomorf – [lot. qurama, yaʼni yarim inson, yarim jonivor tarzidagi gibril koʻrinishda tasavvur qilinadigan obrazlar] a) antropomorf, yaʼni insoniy qiyofada tasavvur qilingan obrazlar; b) zoomorf, yaʼni hayvoniy qiyofada tasavvur qilingan obrazlar.

Identifikatsiya [lot. identifiko-“aniqlash”] nomaʼlum obʼektning xususiyatlarini tasodifiylik asosida maʼlum bir shaxsga identifikatsiyalash; tanib olish. Identifikatsiya – aynan oʻxshatish, tenglashtirish, birday qilish. Adabiyot va folklor doimiy bir-biri bilan aloqada boʻlgan, ularni har vaqt inson omili bogʻlab turgan.

Implitsit (lotincha “implicitus” – “aralashtirmoq”, “chalkashtirmoq”) – yashirin, nazarda tutilgan, bilvosita mavjud.

Interpretatsiya [lotincha interpretatio-izohlash, tushuntirish] – biror matnni uning maʼnosini tushunish uchun talqin qilish.] Nazariy va kognitiv kategoriya; talqin qilinayotgan obʼektning ichki mazmunini uning tashqi koʻrinishlarini oʻrganish orqali tushunishga qaratilgan ilmiy bilish usuli.

Illyuziya [lot. illusio -aldash) yuzaki vakillik, sof xayol; amaliy hayotda oʻz-oʻzini aldashni osonlashtirish] Sezgilarning aldovi, zohiriy narsa, yaʼni noaniq talqinni tan oluvchi haqiqiy obʼekt yoki hodisaning buzilgan inʼikosi; illyuzionistning dastur raqami; majoziy maʼnoda amalga oshmaydigan narsa, tush.

Metamorfoza – [yunoncha: metamorphosis – oʻzgarib qolish] – hayvonlarda metamorfoz, yaʼni metaboliya – organizm tuzilishining tubdan oʻzgarishi. Metamorfoz umurtqasizlar, ayrim umurtqalilar – suvda va quruklikda yashovchilar uchun xos. Metamorfoza bir koʻrinishdan boshqa shaklga evrilish motivi.

Mif [(yunon. μῦθος soʻz; afsona) – odamlarning dunyo, undagi insonning oʻrni, kelib chiqishi haqidagi gʻoyalarini ifodalovchi hikoya] ibtidoiy odamlarning olam haqidagi eng qadimgi tasavvurlari yigʻindisi. Mif (grekcha “mythos” – “soʻz, rivoyat” soʻzidan olingan) – qadimgi odamning olam haqidagi ilk tasavvurlari.

Mifologiya – 1) muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, sharq mifologiyasi, arab mifologiyasi. 2) Mifologiya miflarni tadqiq etuvchi, oʻrganuvchi fan, mifshunoslik. Mifologiya (grekcha “mythos” – “soʻz, rivoyat”, “logos” – “oʻrganaman” soʻzidan olingan) – miflarni oʻrganuvchi maxsus fan.

Mifologizm – XX asr adabiyotining eng xarakterli hodisasi, eng taʼsirli adabiy priyomi boʻlishining asosiy sababi voqelikning mifologik

mohiyatini ko'ra bilish, ya'ni, olamni mifologik idrok etish. Mifologizm – adabiy asarda miflarga xos obrazlar, usullar, xususiyatlarning mavjudligi.

Mifologema – [qadimgi yunoncha “mifos”, rivoyat, doston, qissa va “logos” – o'y, fikr, tafakkur, sabab] dunyo xalqlari madaniyatidagi mifologik syujetlar, sahna va tasvirlar, obrazlarning xarakterli xususiyatlari, globalligi va umumiyligini tasvirlashda ishlatiladigan atama.

Mifopoetika – bu an'anaviy mifologik sxemalar, modellar, syujetli tasvir tizimlari va afsona va marosim poetikasiga, shu jumladan, “neomifologik” matnlarni yaratish asosida adibning ijodiy, shaxsiy va hayot yaratuvchi tizimidir. Mifopoetika faqat bir butun tushunchalar majmui (“mifologema”, “arxetip”) yoki miflar tizimi emas, balki tafakkurning maxsus turi (mif-tafakkur) va marosim ma'nosini anglatadi. Mifopoetika mif, mifologik obrazlar va motivlarning badiiy rivojlanish va o'zgarish yo'llarini o'rganadi, matnga arxaik-mifologik elementlarni kiritishning turli tamoyillarini, ularning turli davr adabiyotshunoslari asarlarida faoliyat ko'rsatishini ko'rib chiqadi. Mifologik tasavvurlar bilan bog'liq mifopoetika elementlari muayyan belgilar, timsoliy ifodalar va obrazlar orqali ifodalangan bo'ladi.

Mifologizatsiya – keng ma'noda real tarixiy voqealar asosida ushbu hodisalarning qanday bo'lganini tushuntirib beruvchi badiiy asar yoki obraz yaratish jarayoni; tor ma'noda ilmiy-tarixiy va diniy-tarixiy voqealarni uyg'unlashtirgan holda tarixni mifologiklashtirish jarayoni.

Mifologik obrazlar arsenal – mifologik struktura (obrazlar, syujetlar, motivlar)lar bo'lib, bunda badiiy asarga singdirib yuborilgan fantastik elementlar semantikasi.

Mifologik obrazlar – xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar. Mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma-fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, qadimgi odam tasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimgi mifologiyaning tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, “Alpomish”, “Kuntug'mish”, “Rustamxon” hamda “Go'ro'g'li” turkumiga mansub dostonlar, o'zbek xalq, afsonalari va ertaklaridagi mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi mifologik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish

vazifasini bajaradi. O'zbek folklorida "Avesto" asotirlariga aloqador Qayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar; suv kulti bilan bog'liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol "piri" sifatida tasavvur qilingan Haydar, Yalli momo, Yalang'och ota, Choymomo; xalq taqvimiga aloqador Ayamajuz, Aziz momo, Ahmandahman; momaqaldiraq va chaqmoq "egasi" Guldur momo; afsonaviy pahlavonlar sifatida tasvirlanuvchi Odami Od, Olang'asar, Doroko'z; yovuz kuchlar haqidagi qarashlarni o'zida ifoda etgan alvasti, yalmog'iz kabi ko'pgina mifologik obrazlar mavjud.

Mifologik obraz – miflarda tasvirlangan qahramonlar.

Mifologik obraz metaforizatsiyasi – mifologik obrazlarning yozma badiiy asar matnida ko'chma ma'noda qo'llanishi.

Mifologik obraz stilizatsiyasi – miflarda tasvirlangan obrazlarni yozam adabiyot namunasida yangicha uslubda, davr ruhiga mos qayta ishlab qo'llash.

Mifologik tasavvur – o'tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi dunyoqarashini ifodalagan qadimgi tasavvurlar.

Mifologik tasavvur – o'tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi dunyoqarashini ifodalagan qadimgi tasavvurlar.

Mifonim (grekcha "mythos" – "so'z, rivoyat, afsona, asotir", "nim" – "ism" so'zlaridan olingan) – mif va asotirlarda uchraydigan nomlar.

Mifonimlar to'ri – mifologik obrazlar orasidagi umumiylik va alohidalik munosabatlari.

Mifopoetonim (grekcha "mythos" – "afsona, rivoyat, so'z", "poetonim" – "poetik ism" so'zlaridan olingan) – antropoetonimlarning bir turi bo'lib, asar matnida qo'llanilgan afsona va asotirlar personajlari (xudolar, mifologik qahramonlar va jangchilar) ismlari.

Miforestavratsiya – matnning asl mohiyatini, uning mifologik asosini ko'rish va shu bilan mifologik modellarni tiklashning bir usuli.

Metaforizm – badiiy matnda biror narsani ifodalash maqsadida metafora(o'xshatish asosidagi ko'chma ma'noli so'z)lardan foydalanish.

Neomifologizm – Neomif ["neo" – "yangi"] muayyan ijodkor tomonidan yaratilgan sub'ektiv mif yoki mifologik tafakkur asosida shakllangan badiiy asar qurilmasi, mifologik obraz, mifologemalar, syujet va motivlar neomifni tashkil etadi.

Neomifologik adabiyot («mifotsentrik adabiyot», «mifogen adabiyot») qadimgi miflar va mifologik tasavvurlar silsilasining hozirgi adabiy jarayon ijodiy qayta idrok etilishi natijasida yaratilgan badiiy asarlar majmuasi. Bu tip badiiy asarlar mohiyatini o'zida nisbatan mukammal ifodalaydigan «neomifologik adabiyot» atamasi taniqli folklorshunos olim Ye.M.Meletinskiy tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, aslida mifning badiiy adabiyotdagi turli-tuman poetik talqinlarini umumlashtiruvchi termin sifatida qo'llanilgan.

Poetonim (grekcha “poetik san’at” va “ism” ma’nolarini bildiruvchi so’zlardan olingan bo’lib, badiiy asardagi barcha ismlarni anglatadi) – stilistik va idealogik vazifani xarakterlovchi xususiyatga ega badiiy adabiyotdagi ism.

Reinkarnatsiyalash – [yunoncha: μετ-εμψύχωσις “jonlarni transmigratsiyalash” tirik mavjudotning o’lmas mohiyatiga ko’ra diniy va falsafiy g’oyalar, e’tiqodlar guruhidir] qayta jonlantirilib, bugungi davrning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini aks ettirish vositasiga aylangan ko’rinishlari.

Remifologizatsiya [“mif hukumronligini kuchini susaytirilishi, yo’qolishi”, afsonaviy tutqunlikdan ozod bo’lish] – G’arb madaniyatining jahon talqiniga xos hukmron an’anasidir. Allaqachon unutilib ketgan mifologik tasavvurlar, syujet va obrazlarni qayta “tiriltirish”, badiiy mifologizmning usuli sifatida talqin qilinadi.

Roman-mif – XX asrda shakllangan sinkretik janrdir. U syujet qurilishining o’ziga xos xususiyatlari va mifologik rivoyatning majoziy tizimi bilan mif bilan bog’liq. Mifning asosiy vazifalari (dunyoni tushuntirish va voqelikni uyg’unlashtirish) bunday romanlarni g’oyaviy mazmunini belgilaydi. Roman-mifning asosi mif voqealari g’oyasiga muvofiq rivojlanib boradi. Mifologik tafakkur asosida shakllangan qahramonlari – bu janrning mavjudligi va ishlashi uchun zarur shartdir.

Stilizastion folklorizm – yozma adabiyotda folklor asarining syujetini aynan saqlab, uning shaklini o’zgartirgan holda o’zlashtirish yoxud xalq og’zaki ijodiga xos an’anaviy mifologik epik motiv hamda obrazlarni yangicha uslubda, davr ruhiga mos qayta ishlab qo’llash.

Folklorizm – yozma adabiyotda folklor motivi yoki obrazlaridan foydalanish.

Ekplitsit (lotincha “eksplicitus” – “ochilgan”) – aniq, ochiq ifodalangan.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983.
2. Агеева Р.А. Синие камни в традиционной культуре восточных славян / Балто-славянские исследования – XX. Сб. науч. трудов. – М., 2019. – С.207-240.
3. Агрба В.Б. Абхазская поэзия и устное народное творчество. – Тбилиси: Мецниереба 1971. – 158 с.
4. Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – Москва-Ленинград: Гослитиздат, 1960. – 547 с.
5. Акрамов Ғ. Миф ва ёзма адабиёт муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №2. – Б.60-66.
6. Акрамов Ғ. Тотемистик мифлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – № 3. – Б.41.
7. Барт Р. Мифология. – М.: Издательство им. Сабашниковых, 1996. – С.312.
8. Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – Москва: Мысль, 1970. – 144 с.
9. Болтабоев Ҳ. Адабиётшунослик энциклопедияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. – 664 б.
10. Боров Ю. Б. Теоретическая история искусства. Эстетика / Учебник. – М.: Высш.шк., 2002. – С.511.
11. Боров Ю. Энциклопедический словарь эстетики и теории литературы. М., 2008. – С.509.
12. Брагинский И.С. Ахриман / Мифы народов мира. Т.1. – М.: Советская энциклопедия, 1980. – С.140-142.
13. Брагинский И.С. Поэзия и проза Древнего Востока. – Москва: Художественная литература, 1973. – 736 с.
14. Выходцев П.С. Русская советская поэзия и народное творчество. – Ленинград: Наука, 1963. – 549 с.
15. Голосовкер Я.Э. Логика мифа. – М., 1987. – С.218.
16. Далгат У. Б. Литература и фольклор. – М.: Наука, 1981. – С. 303.
17. Данилова А. Н. Чудесное рождение богатырки как архаический мотив в якутских олонхо о женщинах-богатырках // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов, 2016. – №11(65). – Ч.3. – С. 30-33.
18. Дорошевич А. Миф в литературе XX века. // Вопросы литературы- 1970.- №2, - С.122-141.
19. Дьяконов И.М. Архаические мифы Востока и Запада. – М., 1990. – С.191.
20. Евсюков В.В. Мифы о вселенной. – Новосибирск: Наука, 1988. – 176 с.

21. Журавлева А.И. Новое мифотворчество и литературоцентристская эпоха русской культуры // Вестник МГУ. – М., 2003. – №6. – С.32-38.
22. Жўраев М. Мифларнинг ёзма адабиётга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – №6. – Б.41-45.
23. Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.143.
24. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.198.
25. Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184 б.
26. Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Тошкент: Фан, 2001. – 136 б.
27. Жўракулов У. Миф ва ижодий жараён. / Худудсиз жилва (илмий-адабий мақолалар). – Тошкент: Фан, 2006. – 204 б.
28. Зеленин Д. Тотемы-деревья в сказаниях и обрядах европейских народов. – Москва-Ленинград, 1937. – 77 с.
29. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 252 б.
30. Каримов Н. Ҳамид Олимжон поэзиясида фольклор традициялари / Ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1959. – 340 б.
31. Козолупенко Д.П. Мифопоэтическое мировосприятие. – М.: Канон, 2009. – С.430.
32. Корнилова Е.Н. Мифологическое сознание и мифопоэтика западноевропейского романтизма. – М.: Наследие, 2001. – С.447.
33. Лотман Ю., Минц З., Мелетинский Е. Литература и миф / Мифы народов мира. Энциклопедия в 2 т. – М.: Олимп, 1997. – Т.2. – С.62-67.
34. Mirzayev T. va b. O`zbek folklori (Darslik). – Тошкент, 2020. – 238 б.
35. Мелетинский Е.М. Мифология / Философский энциклопедический словарь. – М., 1983. – С.354.
36. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. 3-е издание, репринтное. – Москва: Наука, 2000. – 407 с.
37. Мифологический словарь – Советская энциклопедия, 1990. – 672 с.
38. Мусокулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент, 2010. – 316 б.
39. Musurmanov E.R., Ma Sui Ling. Xitoy folklori (Afsona va ertaklar): o`quv-uslubiy qo`llanma. – Samarqand, 2014. – 166 б.
40. Неклюдов С.Ю. Структура и функция мифа / Мифы и мифология в современной России. – М.: АИРО-XX, 2000. – С.17-38.
41. Померанцева Э.В. Мифологические персонажи в русском фольклоре. – Москва: Наука, 1975. – 192 с.

42. Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. Собрание трудов. – Москва: Лабиринт, 2000. – 480 с.
43. Потебня А.А. Слово и миф. – М.: Правда, 1989. – С.624.
44. Рахимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.
45. Ризванов Р.М. О древности сюжета легенды “Сак и Сок” // Идель. – Казань, 2008. – №4. – С.35.
46. Руднев В.П. Словарь культуры XX века: Ключевые понятия и тексты. – М.: Аграф, 1999. – С.184.
47. Рўзиева М. Ўзбек фольклорида ранг символикаси. – Тошкент: Фан, 2016. – Б.112.
48. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг жанрлар состави // Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. – Тошкент, 1988. – Б. 66-73.
49. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 4-сон. – Б.37-45.
50. Саримсоқов Б.И. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.93-147.
51. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.
52. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: Куванчбек-Машхура, 2018. – 332 б.
53. Тайлор Э. Первобытная культура. – Москва: Политиздат, 1989. – 573 с.
54. Токарев С.А. О культе гор и его месте в истории религии // Токарев С.А. Ранние формы религии. – Москва, Политиздат, 1990. – 623 с.
55. Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ: исследования в области мифопоэтического. – М.: Прогресс-Культура, 1995. – С.624.
56. Топоров В.Н. Неомифологизм в русской литературе XX в. – Trento: Vevzlin, 1990. – С.326.
57. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. Исследование магии и религии. 2-е изд. – Москва: Политиздат, 1983. – 703 с.
58. Шарипова Л. XX асрнинг 70-90-йиллари ўзбек шеърлятида фольклоризм. – Тошкент: Фан, 2011. – 152 б.
59. Эгамов Х. Совет шарқи туркий халқлари эртакчилиги анъаналари алоқалари тарихидан очерклар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 289 б.
60. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин.– Қарши: Насаф, 1999. – 170 б.
61. Эшонқул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006.
62. Эшонқул Н. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – Б.312.

63. Юнг К. Человек и его символы. – М.: Изд-во: Профит-Стайл, 2021. – С.446.
64. Юнг К.Г. Архетип и символ. – М.: Канон, 1991. – С 330.
65. Юнг К.Г. Душа и миф. Шесть архетипов. Пер. с англ. – Киев: Порт-Рояль-Совершенство, 1997. – С. 383.
66. Қувватова Д. XX аср иккинчи ярмида ўзбек поэмаси. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – 176 б.

Mualliflar haqida ma'lumotlar



O'rayeva Darmon Saidaxmedovna. 1967-yil 7-mayda Chorjo'y shahrida tug'ilgan. 1984-yilda Olot shahridagi 1-maktabni "Oltin medal", 1988-yilda Buxoro davlat pedagogika institutini "Imtiyozli diplom" bilan tugatgan. Hozirda Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, filologiya fanlari doktori.

"Do'stlik" ordeni (2021) sohibasi.

O'zbek marosim folklori va xalq qo'shiqlari nazariyasi bo'yicha taniqli mutaxassislaridan biri. Folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etnografiya va etnopedagogika muammolari bo'yicha salmoqli izlanishlari mavjud. 10 ta monografiya, vazirlik grifi bilan 3 ta darslik va 5 o'quv qo'llanma, 5 o'quv-uslubiy qo'llanma, 2 ilmiy risola, 300 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar (respublikamiz va Amerika, Rossiya federatsiyasi, Turkiya, Tojikiston, Qirg'iziston kabi mamlakatlar ilmiy nashrlarida) e'lon qilgan.

"O'zbek xalq lirik qo'shiqlarida parallelizmlarning xarakteri va badiiy-kompozitsion vazifalari" mavzusida fan nomzodi (1993), "O'zbek motam marosimi folklorining janriy tarkibi, genezisi va badiiyati" mavzusida fan doktori (2005) ilmiy darajasini olish uchun O.Safarov rahbarligida dissertatsiyalar himoya qilgan. 2006-yil dotsent, 2018-yil professor unvoniga erishgan.

Vazirlik grifi bilan chop etilgan "O'zbekiston xalqlari etnografiyasi va folklori", "O'zbek xalq og'zaki ijodi", "O'zbek mifologiyasi", "Adabiyotshunoslik metodologiyasi" darsliklari, "O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi xrestomatiyasi", "Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug'ati", "Folklor amaliyoti" o'quv qo'llanmalari o'quv jarayoniga tatbiq qilingan.

"O'zbek motam marosimi folklori" (2004), "Bo'zlardan uchgan g'azal-ay" (2004), "Buxor elda gul sayli" (2010), "Oxunjon Safarov" (2010), "Avazxon" dostonini kollejlarda o'rganish" (2011), "Rustamxon" dostoni badiiyati" (2011), "O'zbek xalq qo'shiqlarida radif" (2015), "Maqollarni sinkveyin usulida o'rgatish" (2015), "Buxoro davlat universiteti: Yuz yillikka qadam" (2016), "Semurg' qo'nar davlatmandning boshiga" (2017), "Imliga dunyo yorug'" (2017), "El xizmatida bo'lish saodati" (2017), "Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda folklordan foydalanish" (2018), "O'zbek xalq qo'shiqlarida parallelizm" (2019), "Uzbek Funerari traditions. Classification and character of folklore of Uzbek lament traditions" (2020), "Talabalar ensiklopediyasi" (2022), "O'zbek motam marosimi folklori janrlari genezisi va badiiyati" (2023) singari kitoblaridan soha mutaxassislari foydalanib kelishmoqda.

“Istiqlool davri adabiyotida G‘arb va Sharq adabiy an‘analari sintezi” nomli fundamental davlat granti loyihasiga rahbarlik qilgan (2012-2016).

“Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti”, “Pedagogik mahorat” jurnallari tahririyati a‘zosi. BuxDU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/04.06.2021. Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengash raisi hamda 03/04.06.2021. Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengash a‘zosi.

Ilmiy maslahatchiligi va rahbarligida 4 fan doktori (DSc) va 32 falsafa doktori (PhD) himoya qilgan.



Otajanova Manzura Omanboevna 1973-yilda tug‘ilgan. 1992-1997 yillarda Urganch davlat universiteti talabasi. 1997-2000 yillarda Xorazm viloyati Shavot tumanidagi 42-maktabda ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. 2001-2004 yillarda O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti aspiranti, 2005-2007 yillarda O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti XX asr o‘zbek adabiyoti bo‘limi kichik ilmiy xodimi lavozimida faoliyat yuritgan. 2007-yilda 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha “Izzat Sultonning so‘nggi yillar dramaturgiyasida zamon va qahramon konsepsiyasi” mavzusidagi nomzodlik, 2021-yilda akademik Naim Fatixovich Karimov ilmiy maslahatchiligidagi “Hozirgi o‘zbek nasrida mifologizm” mavzusidagi doktorlik (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilm-fan bo‘yicha direktor o‘rinbosari sifatida ishlayapti.

Manzura Otajanova Yevropa va MDH davlatlari ilmiy jurnallarida tadqiqotlari va ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan. Uning “Izzat Sulton dramaturgiyasida zamon va qahramon” (2008), “Mif va uning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni”. (2017), “Hozirgi o‘zbek nasrida mifologizm” (2020), “Mifologizm va badiiy mahorat” (2022) monografiyalari nashr qilingan. Hamid Olimjon (Saylanma. 2020), Asqad Muxtor (Saylanma. 2021) ilmiy va badiiy asarlarini nashrga to‘plab tayyorlagan, chop etilgan.

“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali tahririyati a‘zosi. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengash hamda Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.55/02 raqamli Ilmiy kengash a‘zosi.



Nurullayeva Sarvinoz Majidovna. 1990-yil 28-martda Buxoro shahrida tugʻilgan. 2006-yilda Buxoro shahridagi 18-maktabni, 2009-yilda Buxoro davlat universiteti huzuridagi 1-akademik litseyni, 2013-yilda Buxoro davlat universitetining filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. Hozirda Ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalari agentligi tasarrufidagi Jondor tuman ixtisoslashtirilgan maktabi oʻqituvchisi.

2022-yilda Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashda “Zamonaviy sheʼriyatda mifologik obrazlar stilizatsiyasi va metaforizatsiyasi” mavzusidagi filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini filologiya fanlari doktori, professor D.S.Oʻrayeva ilmiy rahbarligida himoya qilgan. 30 dan ortiq ilmiy maqolalari mahalliy va xorijiy nashrlarda eʼlon qilingan.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI**

O‘rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S.

Mif va badiiy ijod

o‘quv qo‘llanma

“ MUHAMMAD POLIGRAF ” nashriyoti

Litsenziya AI № 095, 19 iyun 2024.

2024 yil 19 iyunga bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90, TIMES TAD garniturası,

13,2-shartli bosma taboq, soni 100 nusxa.

Muhammad To‘ra xususiy korxonasida chop etildi.

Manzil: Buxoro shahar Mustaqillik ko‘chasi 28 uy

E-mail: ya.duna2012@yandex.ru duna_poligraf@bk.ru

KBK: 87.8(50‘zb)

UO‘S: 712.635.724.24

ISBN978-9910-746-35-2N